

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI**

BOJXONA INSTITUTI



**A.Achilov, A.Axlimirzayev, S.Shomirzayev, H.Ismoilov,
Sh.Mamatov, U.Dadaboyev**

**BOJXONA ORGANLARINING HUQUQNI
MUHOFAZA QILISH FAOLIYATI**

**DARSLIK
(II-qism)**

Toshkent-2023

UO‘K: 539.3(075)

KBK: 22.12

Achilov A., Axlimirzayev A., Shomirzayev S., Ismoilov H., Mamatov Sh., Dadaboyev U. Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati. II-qism.
// Darslik. – T.: Bojxona instituti, 2023. - 292 b.

Mas’ul muharrir:

A.T.Achilov – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

D.M.Mirazov – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i, polkovnik, yu.f.d., professor

I.Astanov – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi professori, yu.f.d.

B.B.Hidoyatov – Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat-protsessual huquqi” kafedrası professori v.b., yu.f.n.

Mazkur darslik Bojxona qo‘mitasining huquqni muhofaza qilish faoliyati tuzilmasi va Bojxona instituti ixtisoslik kafedralari mutaxassis va professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan bo‘lib, unda bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatining tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv yo‘nalishlari, xususan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish, aniqlash va qarshi kurashish faoliyati, shuningdek sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablari yoritilgan. Darslik oliy ta’limning davlat standartlari talablariga mos keladi.

Bojxona qo‘mitasining Bojxona institutida “Bojxona ishi” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan kursant va tinglovchilari, bojxona organlarining amaliyotchi xodimlari uchun mo‘ljallangan.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug‘i bilan oliy o‘quv yurtlarining “Bojxona ishi” ta’lim yo‘nalishi talabalariga darslik sifatida tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-7617-3-5

© Bojxona instituti, 2023-y.

MUNDARIJA

	SO‘Z BOSHI.....	5
III BO‘LIM.	BOJXONA ORGANLARINING TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV VA SURISHTIRUV FAOLIYATI.....	8
1-BOB.	JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQI VA UNING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATIDAGI O‘RNI.....	8
§ 1.1.	Jinoyat protsessi tushunchasi va uning tizimi.....	8
§ 1.2.	Jinoyat protsessining prinsiplari.....	17
§ 1.3.	Jinoyat protsessining ishtirokchilari.....	33
§ 1.4.	Jinoyat protsessida dalillar.....	54
2-BOB.	TERGOV HARAKATLARI – ISBOTLASH VOSITALARI. PROTSESSUAL MAJBURLOV.....	61
§ 2.1.	Isbotlash jarayoni.....	61
§ 2.2.	Tergov harakatlari tushunchasi va turlari.....	71
§ 2.3.	Protsessual majburlov tushunchasi, mohiyati va klassifikatsiyasi.....	79
§ 2.4.	Ehtiyot choralari.....	90
3-BOB.	JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH.....	106
§ 3.1.	Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichi va ahamiyati.....	106
§ 3.2.	Jinoyat ishi qo‘zg‘atish sabablari, asosi va tartibi.....	113
§ 3.3.	Jinoyatga oid ma’lumotlarni ko‘rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar.....	120
§ 3.4.	Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati.....	124
4-BOB.	BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR BO‘YICHA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV.....	128
§ 4.1.	Tergovga qadar tekshiruv tushunchasi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida bojxona organlari, ularning vakolatlari va majburiyatlari.....	128
§ 4.2.	Bojxona organlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.....	142
§ 4.3.	Kontrabanda ashyolarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tishda qo‘llanilayotgan usullar va ularni fosh etish hamda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	147
§ 4.4.	Tergovga qadar tekshiruv natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish tartibi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish ustidan	

	nazorat.....	180
5-BOB.	BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR BO‘YICHA SURISHTIRUV.....	188
§ 5.1.	Surishtiruv tushunchasi, surishtiruv organi sifatida bojxona organlari, ularning vakolatlari va majburiyatlari.....	188
§ 5.2.	Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	201
§ 5.3.	Surishtiruvni tamomlash va surishtiruv ustidan nazorat.....	213
6-BOB.	BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH.....	220
§ 6.1.	Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishining sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlar.....	220
§ 6.2.	Bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olish choralari.....	228
	JINOYAT PROTSESSI SXEMALARDA.....	239
	TESTLAR.....	255
	KAZUSLAR.....	270
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	281

SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ) va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Bojxona institutida o'qitilayotgan tegishli fanlar va predmetlar bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashning kompleks dasturi asosida 2020-yilda bojxona organlarining ma'muriy yurisdiksiyasi va bojxona sohasidagi jinoyatlarga bag'ishlangan "Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati" nomli darslikning 1-qismi yaratilib, hozirgi kunda o'quv jarayonida foydalanilmoqda.

Davlat bojxona xizmatining 30 yilligi arafasida DBQning Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi va Bojxona institutining ixtisoslik kafedralari mutaxassis va professor-o'qituvchilari tomonidan "Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati" nomli darslikning 2-qismi tayyorlanib, unda bojxona organlari huquqni muhofaza qilish faoliyatining tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv yo'nalishlari, xususan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish, aniqlash va qarshi kurashish faoliyati, shuningdek sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablari yoritilgan.

Respublikamizda jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonini xalqaro standartlarga javob beradigan tizim shakliga keltirish, bunda ilg'or xorijiy tajribalarga suyanish, shuning uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish choralari ko'rilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi "Surishtiruv institutini takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuni¹ bilan milliy qonunchiligimizda sudga qadar ish yuritishning surishtiruv shakli joriy etilib, unga ko'ra, bojxona organlari surishtiruv o'tkazishga vakolatli organlardan biri sifatida belgilab qo'yildi. Shu bilan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq Davlat bojxona xizmati organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida ham tergovga qadar tekshiruvni, ham surishtiruvni, shu bilan birga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ sanaladi.

Ushbu sohadagi islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish to'g'risida"

¹ O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi "Surishtiruv institutini takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/3328284>.

PF-6041-son Farmonini² ham alohida ta’kidlab o’tish joiz. Xususan, unga ko’ra tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko’rsatuvlar olishni mazkur jinoyat ishi yurituvda bo’lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirishi belgilab qo’yildi, ya’ni bojxona organi surishtiruvchisi ish yurituvdagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchilardan uning yozma ruxsatisiz vakolatli organlarning tezkor xodimlari biron-bir ko’rinishdagi ariza, tushuntirish yoki ko’rsatuv olishga haqli bo’lmaydi.

Bundan tashqari, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddatini u haqiqatda ushlangan vaqtdan boshlab hisoblash joriy etildi. Bu esa ushlab turish bayonnomasiga shaxsni ushlab turish vaqti sifatida bayonnomani tuzilgan vaqtni yoki bayonnomani tuzgan mansabdor shaxs istagan vaqtni emas, gumon qilinuvchining haqiqatda ushlangan vaqtni ko’rsatilishi lozimligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)ning 224-moddasiga asosan, ushlab turish bilan bog‘liq protsessual harakatlar videoyozuvlar orqali qayd etilishi belgilangan. Bunda e’tiborli jihati shundaki, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning ushlanishi aks etgan videoyozuvdagi qayd etilgan vaqt ushlab turish bayonnomasiga muvofiq kelishi, videotasvirga olish vositasining vaqtni to‘g‘ri ko‘rsatib turishini ta’minlash lozim bo‘ladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo‘nalishida endilikda shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat ustida ushlab turish bilan bog‘liq tezkor tadbir amalda yakunlangan yoxud gumon qilinuvchi deb e’tirof etilganligi haqidagi qaror unga ma’lum qilingan paytdan boshlab u bilan bog‘liq protsessual harakatlarni o‘tkazishdan oldin uning advokat bilan xoli uchrashishi ta’minlanishi shartligi belgilandi.

Shu bilan birga, jinoyat protsessida ko’rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo’yish (*deponentlash*) tartibini joriy qilish belgilab qo’yildi. Bu degani jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchini og‘ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zarurati tufayli kechroq so‘roq qilish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ularning ko‘rsatuvlarini gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, prokuror yoki advokatning iltimosnomasiga ko‘ra sud tomonidan taraflarning ishtirokida oldindan mustahkamlab qo‘yiladi. Bu tartib bojxona organlari amaliyoti uchun ayni muddao bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi PF-6041-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4939467>.

Sud-huquq sohasidagi mazkur islohotlarni amaliyotda to‘g‘ri va to‘liq joriy etilishi tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv hamda tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organ sifatida bojxona organlari faoliyatida muhim ahamiyatga. Bojxona organlari tomonidan jinoyatlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv ishlarini o‘tkazishda, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etishda sud-tergov faoliyatini yanada takomillashtirish uchun belgilab berilgan asosiy yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Jinoyatlarga qarshi kurashish va ularning oldini olishdagi barcha harakatlardan ko‘zlangan maqsad shaxsning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash, jinoyat uchun jazo muqarrarligini hamda davlat va jamiyatga yetkazilgan zarar to‘liq qoplanishini ta‘minlash, shaxsga nisbatan g‘ayriinsoniy muomala qilinishining oldini olish, faoliyat jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bo‘lishi kerakligini yodda tutish zarur.

Shunday ekan, bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv faoliyatini farqlash, ularning ushbu yo‘nalishlardagi vakolat va vazifalarini, bu borada jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan talablar va DBQning tegishli ichki idoraviy hujjatlarini o‘rganish lozim bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asosan, mazkur “Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati” fanidan tayyorlangan darslikning 2-qismi fan dasturida nazarda tutilgan mavzularni kursantlar tomonidan o‘rganish davomida egallashlari lozim bo‘lgan zarur bilim, ko‘nikma va malakalari kasbiy faoliyatlari bilan uzviy bog‘liqlikni hosil qilgan va “Bojxona ishi” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan kursant va tinglovchilari, bojxona organlarining amaliyotchi xodimlari uchun mo‘ljallangan.

Mualliflar jamoasi

Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son Farmoniga asosan Bojxona qo‘mitasi shaklida qayta tashkil etilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuriga o‘tkazilgan.

III BO‘LIM. BOJXONA ORGANLARINING TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV VA SURISHTIRUV FAOLIYATI

1-BOB. JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQI VA UNING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATIDAGI O‘RNI

§ 1.1. Jinoyat protsessi tushunchasi va uning tizimi

Jinoyat protsessi mazmunan bir necha xil ma’nomalarni anglatadi. Jinoyat protsessi avvalo faoliyatning bir turi, shu bilan birga huquq tarmog‘i hamda o‘quv fani hisoblanadi. Jinoyat protsessi faoliyat sifatida jinoiy-huquqiy sudlov, huquq tarmog‘i va o‘quv fani sifatida jinoyat-protsessual huquq ham deb yuritiladi.



Ma’lumot uchun: Faoliyat sifatida *jinoiy protsessi deganda*, odil sudlovni amalga oshirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga asosan jinoyatlarni aniqlash, ochish jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish, ularga jinoiy jazo choralarini yoki boshqa ta’sir choralarni qo‘llash, jinoyatlarning sabablari, uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini ta’minlashga qaratilgan faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va shaxslar o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi tushuniladi³.

Ushbu faoliyat va munosabatlar rasmiy tavsifga ega bo‘lib, ixtiyoriy ravishda kechmaydi, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalariga muvofiq va ularda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jinoyat-protsessual faoliyat insonning asosiy huquq va erkinliklariga eng ko‘p darajada daxl qiluvchi jinoiy jazoni, shuningdek davlat majburlov choralarini (ushlab turish, hibsga olish (qamoq), tintuv o‘tkazish va h.k.) qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lib, bu orqali jinoyatlarni tez va to‘la ochish hamda jinoyat sodir etganlarning javobgarlikka tortilishini ta’minlash uchun zarur sharoit yaratiladi. Shu sababli ushbu faoliyat odil sudlov kafolatlarini hamda shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini yaratuvchi huquqiy normalar (JPK, 11-27-moddalar) bilan qat’iy va batafsil tartibga solinadi. Ushbu normalar muhimligi sababli, ularni faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat belgilaydi.

JPK bilan tartibga solingan jinoyat-protsessual faoliyat sud hamda boshqa davlat organlari, shuningdek ushbu organlar bilan fuqarolar va yuridik shaxslar o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar shaklida kechadi. Ushbu faoliyat huquqiy mazmunga ega. Jinoyat-protsessual faoliyat murakkab jarayon bo‘lib,

³ Jinoyat protsessual huquqi. - Mualliflar jamoasi. Darslik. IIV Akademiyasi.- 2019. 13-bet.

ushbu faoliyat subyektlarining ongidagi muayyan hodisa haqidagi tasavvurlari, tasmol va taxminlar, to'plangan dalillarni baholash va tegishli xulosalarga kelishdan iborat psixik jarayonlarni, dalillarni to'plash va tekshirish, odil sudlovni ta'minlash uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan protsessual va tergov harakatlarini bajarish jarayonini hamda psixik jarayonlar va amalga oshirilgan harakatlarni rasmiylashtirish, protsessual hujjatlarda qayd etish kabi jarayonlarini o'zida qamrab oladi⁴.



E'tibor qiling! Huquq tarmog'i sifatida *jinoyat protsessi deganda*, jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar olinganda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, tekshiruv natijalariga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish, qo'zg'atilgan jinoyat ishini tergov qilish, ishni sudda ko'rish, ishni qonuniy, asosli va adolatli hal qilish, protsessual majburlovni qo'llash, qo'llanilgan jazo va boshqa majburlov choralarini ijro ettirish hamda jinoyat ishini yuritish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish tartibini belgilovchi normalar yig'indisi tushuniladi.

Huquq tarmog'i sifatida jinoyat protsessi jinoyat qonunini amalda tatbiq etish tartibini belgilaydi. Jinoyat huquqi va jinoyat protsessini bir biridan ajratish juda muhim. Jinoyat huquqi qaysi qilmish jinoyat deb topilishi va ushbu qilmishni sodir etgan subyektga qanday jazo qo'llanilishi mumkinligi aniqlab beradi. Jinoyat-protsessual huquq esa jinoyat sodir etilganmi yoki yo'qligini, sodir etilgan bo'lsa, u qaysi jinoyatligini aniqlash, jinoyatni kim sodir etganligi va uning aybi bor yoki yo'qligini, jinoyat sodir etilishida aybi bor bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortish hamda jazolash kerakmi yoki yo'qligini aniqlash tartibini belgilab beradi. Qisqacha aytganda ish yuritish jarayonini tartibga soladi.

Jinoyat-protsessual huquq tizimi, tuzilishi, bosqichlari, vazifalari va funksiyalari jinoyat protsessi fanining tizimi, tuzilishi, predmeti, maqsad va vazifalari sifatida o'rganiladi.



E'tibor qiling! Fan sifatida *jinoyat protsessi deganda*, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, sudda ko'rib chiqish va jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli hal qilish faoliyatini, ushbu faoliyatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining mazmunini, sud-tergov amaliyotini, jinoyat-protsessual qonunchilikning rivojlanishini o'rganuvchi huquqiy fan, bilimlar yig'indisi tushuniladi.



Ma'lumot uchun: "Jinoyat protsessi" atamasi "og'ir gunoh" ma'nosini bildiruvchi arabcha "jinoyat" so'zidan va "chiqish, namoyon bo'lish, olg'a intilish" kabi ma'nolarni bildiruvchi lotincha

⁴ Verner Boylke "Germaniya Federativ Respublikasining jinoyat protsessual huquqi". Darslik. 12-nashr.- Toshkent, TDYUU, 2017. 603 bet.

fe'ldan yasalgan. Lug'aviy jihatdan muayyan turdagi faoliyatning rivojlanishi, harakatini bildiradi va jarayonni anglatadi. Jinoyat protsessiga o'xshash jarayonni qamrab oluvchi ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish, fuqarolik protsessi, iqtisodiy sudlarda ish yuritishni ham o'zaro farqlash zarur⁵.

Jinoyat protsessi jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar aniqlanganda ushbu ma'lumotni qabul qilish, ro'yxatga olish, tekshirish, jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish, ish qo'zg'atilganda surishtiruv yoki dastlabki tergovni o'tkazish, protsessual majburlov choralari qo'llash, ishni tugatish yoki sudga yuborish, ishni sudga ko'rib chiqish, hukm yoki ajrim chiqarish, hukm yoki ajrimni tekshirish va hukm yoki ajrimni ijro ettirish jarayonlaridan iborat tarkibda namoyon bo'ladi. Ichki tomonidan esa, jinoyat protsessi jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarda aks etgan hodisa haqiqatdan sodir etilgan yoki sodir etilmaganligi, hodisa sodir bo'lgan bo'lsa, u jinoyat yoki jinoyat emasligi, jinoyat bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish kerakligi yoki ish qo'zg'atishni rad etish kerakligi, jinoyat sodir etilgan va/yoki jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, jinoyatni kim sodir etganligi, gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs shu jinoyatni sodir etgan yoki sodir etmaganligi, shaxs jinoyatni sodir etgan bo'lsa, uning aybi bor yoki aybi yo'qligi, jinoyat sodir etilishida aybi bor bo'lgan (isbotlangan) shaxsni javobgarlikka tortish kerakmi yoki javobgarlikdan ozod qilish kerakligi, aybdor deb topilgan shaxsga jazo tayinlash kerak yoki yo'qligi, qanday va qancha miqdordagi jazo tayinlash kerakligi, jazoni ijro etish kerak yoki jazodan ozod qilish kerakligi, shuningdek jazo ijrosi qanday o'talishi kerakligi kabi masalalarni dalillarni to'plash, tekshirish va baholash orqali aniqlash va hal etish jarayonlarida o'z ifodasini topadi.

Jinoyat protsessining vazifalari uning maqsadi bo'lgan – **odil sudlovni ta'minlash**dan kelib chiqib belgilanadi. Vazifalar mazmunini anglashda maqsad muhim ahamiyat kasb etadi. Odil sudlov deganda, jinoyat-protsessual faoliyatning muayyan xususiyatga egaligi va uning natijasini tushunish kerak. *Odil sudlovning* ma'nosi haqiqiy holatni aniqlab, tomonlar o'rtasidagi kelishmovchilik yoki nizoning sud tomonidan bir tomonga yon bosmay, qonun va adolat yuzasidan, xolisona hal qilib berilishini bildiradi. Odil sudlovni ta'minlash jinoyat ishlarining haqqoniy hal qilinishiga xizmat qiladigan ish yuritish mexanizmlari, adolatli hal qiluv qarorlari qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoit yaratadigan tartib-qoidalar belgilanishi va ularga rioya etish orqali amalga oshadi. Ya'ni jinoyat-protsessual qonun asosida amalga oshiriladigan jinoyat-protsessual faoliyat pirovardida odil sudlovni ta'minlashi kerak.

⁵ Cliff Roberson, Frank G.DiMarino. American criminal courts. USA.Wasburn University. 2012 y.

Jinoyat protsessining umumijtimoiy **vazifalari** qonuniylikni mustahkamlash; jinoyatlarning oldini olish; shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishdan iborat. Umumijtimoiy vazifalar bilvosita, ya'ni aniq vazifalar ijro etilishi orqali bajariladi. Shunga ko'ra jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi umumijtimoiy vazifalar – qonuniylikni mustahkamlash; jinoyatlarning oldini olish; shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga ko'maklashishi shart.



E'tibor qiling! Jinoyat protsessining aniq vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- jinoyatlarni tez va to'la ochish;
- jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lganlarni fosh etish;
- qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash (JPK, 2-modda)⁶.

Jinoyatni ochish deganda, jinoyat sodir etgan shaxsning va jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan shaxsning kimligini (uning qayerdaligini) aniqlash tushuniladi. *Jinoyatni tez ochish* deganda, Jinoyat sodir etilganligi ma'lum bo'lganidan boshlab qisqa vaq oralig'ida, ya'ni darhol yoki o'n sutka ichida jinoyat sodir etgan shaxsning kimligi va uning qayerdaligini aniqlash tushuniladi. Darhol deganda, o'sha zahoti jinoyat sodir etgan shaxsni jinoyat ustida yoki uni sodir etishi bilan qo'lga olishni tushunish kerak. *Jinoyatni to'la ochish* deganda, jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanishi bilan birga uning boshqa jinoiy sheriklari va boshqa jinoiy qilmishlarini ham aniqlash tushuniladi. Umumiy qilib aytganda jinoyat sodir etgan shaxsning va jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan barcha shaxslarning kimligini, ularning qayerdaligini, ularning boshqa barcha jinoiy qilmishlarini qisqa fursat ichida aniqlash tushuniladi.

Jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lganlarni fosh etish deganda, jinoyat sodir etilishida aybi bo'lgan shaxslarni aybini aloqador, maqbul, ishonchli va yetarlicha bo'lgan dalillar bilan isbotlash, ya'ni shaxs jinoyatni qanday sodir etganligi yoki jinoyat sodir etilishidagi ishtiroki qandayligi, jinoyatni ehtiyotsizlik yoki qasddan sodir etganligi, jinoyat natijasida kelib chiqqan oqibat, qancha va qanday zarar yetkazilganligi, shaxsning qilmishi va kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligi holatlari to'plangan va tekshirilgan dalillar bilan to'liq isbotlanganligi tushuniladi.

Qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash deganda, jinoyat qonunini to'g'ri qo'llash, ya'ni shaxsning jinoiy qilmishiga to'g'ri huquqiy baho berish, malakalash, shaxsni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarini to'g'ri qo'llash, jinoyat uchun adolatli jazo chorasi tanlash va miqdorini, shuningdek boshqa ta'sir choralari belgilash tushuniladi.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/111460>.



E'tibor qiling! Jinoyat protsessi fanining vazifalari jinoyat-protsessual qonunning tizimi va rivojlanishini, prinsiplari, ishtirokchilari, jinoyat protsessining bosqichlari, jinoyat ishlarini yuritish tartibi va xususiyatlari, protsessual qarorlar, jinoyat-protsessual huquqiy institutlar mazmuni, takomillashuvi, sud-tergov amaliyotida qo'llanilishi, nazariy va amaliy muammolarini o'rganishdan iborat.

Jinoyat protsessining tizimi Jinoyat-protsessual kodeksi kabi umumiy va maxsus qismdan, bosqichlardan tashkil topgan. Jinoyat protsessi sodir etilgan jinoyat yoki jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi yoki sodir etilayotganligi aniqlanishi sababli boshlanadi hamda qonun bilan belgilangan bir nechta bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar jinoyat protsessining vazifalarini samarali bajarish uchun zarur shart-sharoit yaratuvchi mantiqiy izchil tizimni tashkil qiladi. Har bir bosqich keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zamin yaratadi. Binobarin, jinoyat protsessining tizimi JPKda (320¹–338; 344–388; 395–404; 428–477; 497¹–497¹⁸; 498–509; 510–521; 528–546-moddalar) nazarda tutilgan bosqichlardan, jinoyat protsessi ilm va o'quv fani sifatida bo'limlar va boblardan, shu jumladan, fanning predmeti, metodologiyasi, tarixi kabilardan iborat.

Jinoyat protsessi nafaqat davlat organlari va shaxslarning qat'iy belgilangan tartibdagi faoliyatini, balki jinoyat ishini yuritish bosqichlariga ajratilgan *protsessual harakatlar tizimini* ham qamrab oladi. Bunday harakatlar tizimi muayyan bosqichlarda faoliyat olib borishni ta'minlaydi. Jinoyat protsessining bosqichi umumiy vazifalar bilan birlashtirilgan hamda vakolatli organlar ish bo'yicha chiqaradigan xulosalar bilan yakunlanuvchi protsessual harakatlar va qarorlar majmuidir.



E'tibor qiling! *Jinoyat protsessining bosqichlari deganda,* protsessning o'zaro bog'liq, nisbatan mustaqil, bevosita vazifalar, ishtirok etadigan organlar va shaxslar doirasi, faoliyat tartibi va jinoyat-protsessual munosabatlar xususiyati bilan ajralib turadigan, vakolatli shaxsning ish bo'yicha qabul qiladigan to'xtam va qarorlari bilan yakunlanuvchi, alohida qismlari tushuniladi. Jinoyat protsessi tergovga qadar tekshiruv (jinoyat ishini qo'zg'atish), jinoyat ishini tergov qilish (surishtiruv va dastlabki tergov), jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash, sud muhokamasi (sud majlisi), apellyatsiya tartibida ish yuritish, kassatsiya tartibida ish yuritish hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish kabi bosqichlardan iborat.

Tergovga qadar tekshiruv (jinoyat ishini qo'zg'atish) birinchi va zaruriy bosqich bo'lib, unda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror jinoyat ishi qo'zg'atish uchun sabab va asos

mavjudligiga doir masalani hal qiladi, jinoyat alomatlari aniqlanganda jinoyat ishi qo'zg'atadi, yoki mavjud asoslarga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etadi.



Ma'lumot uchun: *Tergovga qadar tekshiruv* deganda, jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotni ro'yxatga olish hamda jinoyat ishini qo'zg'atish sababi qonuniyligini va asoslar mavjudligini aniqlash maqsadida ayrim tergov va protsessual harakatlarini o'tkazish, olingan yoki aniqlangan ma'lumotlardan kelib chiqib, jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi.

Jinoyat ishini tergov qilish bosqichi barcha jinoyat ishlari bo'yicha o'tkazilishi majburiy. U surishtiruv va dastlabki tergov shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bu bosqichda surishtiruvchi va tergovchi jinoyatlarni ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish vazifasini bajaradi, ishning qonuniy, asosli va adolatli hal qilinishi uchun zarur bo'lgan boshqa barcha holatlarni aniqlaydilar, sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash choralarini ko'radi.

Jinoyat ishini tergov qilish bosqichi deganda, jinoyatni tez va to'la ochish, uni sodir etgan shaxslarni fosh etish va ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, jinoyatni va uning oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish, jinoyatning sabablari va uning sodir bo'lishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, shuningdek jinoyat tufayli yetkazilgan zararining qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish maqsadlarida surishtiruv va dastlabki tergov organlarining ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga asos bo'ladigan dalillarni to'plash, tekshirish, shuningdek ishni tugatish yoki ishni sudga yuborish haqida tegishli qaror qabul qilish borasidagi (baholash) faoliyati tushuniladi.

Ishni sudga qadar yuritish prokuror nazorati ostida amalga oshiriladi.

Jinoyat ishini sudga ko'rish uchun tayinlash bosqichi deganda, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasini ko'rib chiqish uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan sudga kelgan ishni sudga muhokama qilish uchun barcha asoslar mavjudligi, sud majlisi joyi va vaqtini tayinlash, bu haqda chaqirilishi zarur bo'lgan protsess ishtirokchilariga xabar berish, protsess ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlash, shuningdek sud muhokamasi har tomonlama, to'liq va xolisona o'tkazilishi hamda ishni qonuniy, asosli, adolatli hal etilishi uchun zarur bo'lgan boshqa barcha shart-sharoitlarni yaratish va tashkiliy choralarini ko'rishga qaratilgan va bu haqda tegishli qaror chiqariladigan jarayon tushuniladi.

Jinoyat ishini sudga ko'rish uchun tayinlash bosqichida jinoyat ishi ayblov xulosasi yoki boshqa qaror bilan sudlovga tegishlilik qoidalariga muvofiq tegishli sudga kelib tushgandan so'ng sud ishni ko'rib chiqish uchun qabul qilishi, uning mazmuni bilan tanishib chiqishi, ish yuritishni to'xtatishi, jinoyat ishini tugatishi,

texnik yo'sindagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ishni prokurorga yuborishi mumkin.

Sud muhokamasi deganda, sud majlisida jinoyat ishini ko'rib chiqish orqali jinoyat sodir etilgan yoki sodir etilmaganligiga, sudlanuvchi ushbu jinoyatni sodir etgan yoki sodir etmaganligiga, sudlanuvchining aybi bog'liq yoki aybi yo'qligiga, sudlanuvchi javobgarlikka tortilishi va jazolanishi kerak yoki kerak emasligiga, jazoning turi va miqdori qanday bo'lishi kerakligi, jazo o'talishi kerakligi va u qanday o'talishi yoki jazodan ozod qilish kerakligi, shuningdek mazkur jinoyat ishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etishga qaratilgan, hukm yoki ajrim chiqarish bilan yakunlanadigan munozara, tortishuv jarayoni tushuniladi.

Sud muhokamasi jinoyat protsessining markaziy bosqichi bo'lib, unda sud sudlanuvchining aybdorligi yoki aybsizligiga hamda unga nisbatan jinoiy jazoni qo'llash yoki qo'llamaslikka doir masalani hal qiladi. Odil sudlovning eng muhim hujjati bo'lmish sud hukmi faqat sud muhokamasi natijasidagina chiqarilishi mumkin.

Apellyatsiya tartibida ish yuritish bosqichi deganda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan apellyatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest asosida, birinchi instansiya sudida chiqarilgan hukm, ajrim, qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish maqsadida jinoyat ishini yuqori instansiya sudida to'liq qayta ko'rilishi, shuningdek hukmni bekor qilish va yangi hukm chiqarish yoki ishni tugatish yoxud ishni yangidan sudda ko'rish uchun yuborish, hukmni o'zgartirish yoki o'zgarishsiz qoldirish haqida ajrim chiqarish jarayoni tushuniladi.

Kassatsiya tartibida ish yuritish deganda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmi ustidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest asosida, birinchi instansiya sudi chiqargan hukm, ajrim, qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish maqsadida jinoyat ishini yuqori instansiya sudida kassatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan holatlardan kelib chiqib qayta ko'rilishi, shuningdek hukmni bekor qilish va ishni tugatish yoki ishni yangidan sudda ko'rish uchun yuborish, hukmni o'zgartirish yoki o'zgarishsiz qoldirish haqida ajrim chiqarish jarayoni tushuniladi.

Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish bosqichi deganda, qonuniy kuchga kirgan hukm, ajrim, qarorlarda belgilangan qarorlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan, hukmni chiqargan sudning, hukm ijrosini ta'minlash yuklatilgan vakolatli mansabdor shaxslarning hukmni ijro ettirish, hukm ijrosini tashkil etish, bevosita ijroni ta'minlash, hukmni ijro etish vaqtida yuzaga keladigan protsessual masalalarni hal etishga qaratilgan protsessual faoliyat tushuniladi.

Ushbu bosqich mantiqan qaralgandi jinoyat protsessi so'nggi bosqichi bo'lib, sud hukmida ifodalangan qarorlarni ijro ettirish, hukmni ijro etish paytida

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan protsessual masalalarni hal qilish tartibini o'zida qamrab oladi.

Jinoyat protsessining bosqichlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Ishni sudga qadar yuritish bosqichlari:

tergovga qadar tekshiruv;

jinoyat ishini tergov qilish;

2. Sud bosqichlari:

jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash;

sud muhokamasi;

apellyatsiya tartibida ish yuritish;

kassatsiya tartibida ish yuritish;

3. Alohida bosqichlar:

hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish.



E'tibor qiling! Jinoyat protsessining bosqichlari *protsessual harakatlar* yig'indisidan tashkil topadi.

Protsessual harakatlar deganda, jinoyat protsessining maqsadiga qaratilgan, vazifalar ijrosini ta'minlash uchun jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tartibda, jinoyat protsessining ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan, har biri muayyan maqsad va vazifaga ega bo'ladigan, protsessual tartibda rasmiylashtiriladigan harakatlar tushuniladi.

Protsessual harakatlarning mazmuni ularning huquqiy tartibi bilan bog'liq bo'lib, harakatlarning xususiyati, ularni amalga oshirish ketma-ketligi va huquqiy oqibatlari qonun bilan tartibga solinadi.

Protsessual harakatlar – nafaqat protsess ishtirokchilarining huquq va burchlarini amalga oshirish, balki jinoyat protsessi vazifalarini hal qilishning ham muhim usulidir. Protsessual harakatlar juda xilma-xil bo'lib, ko'plab asoslar – subyektlari, predmeti, mazmuni, huquqiy ahamiyati, bosqichlari, maqsadlari, ushbu faoliyat orqali amalga oshiriladigan protsessual funksiyalarga ko'ra tasniflanishi mumkin.

Protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan har qanday shaxs protsess ishtirokchisi va jinoyat-protsessual faoliyat subyekti hisoblanadi. Ammo protsessual faoliyat subyektlarining vazifalari JPKda ularga berilgan vakolatlar, huquq va majburiyatlar xususiyati bo'yicha o'zaro keskin farq qilishi mumkin. Shunga ko'ra, ularning jinoyat protsessining vazifalarini bajarishga qaratilgan protsessual harakatlari ham farqlanadi. Masalan, davlat organlari va ularning vakillari bo'lgan mansabdor shaxslar – sud va sudya ishni ko'rib chiqish, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishlarini tergov qilish borasidagi davlat funksiyalarini bajaradilar.



Ma'lumot uchun: Protsessual harakatlar ularning huquqiy munosabatlar bilan aloqasiga ko'ra ham o'zaro farqlanishi mumkin. Protsess subyektlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarsiz mavjud bo'la olmaydigan harakatlar (masalan, so'roq qilish, iltimos keltirish, sudda nutq so'zlash kabilar) ham bor. Shuningdek bir tomonlama, ya'ni huquqiy munosabatdan avval keluvchi, uni yuzaga keltiruvchi protsessual harakatlar ham mavjud (masalan, jinoyat ishi qo'zg'atish, shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorlarni chiqarish, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash haqida ajrim chiqarish va h.k.). Ushbu harakatlarning o'zi huquqiy munosabatlar mazmunini tashkil etmaydi. Ular yuridik faktlar vazifasini bajaradi. Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi ushbu faktlarga bog'liq bo'ladi⁷.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat protsessi tushunchasini ayting.
2. Jinoyat protsessining vazifalari nimalardan iborat?
3. Jinoyat protsessining qanday bosqichlari mavjud?
4. Protsessual harakatlarni tushuntirib bering.

⁷ Канал юристы (юридический портал), <http://www.lawcanal.ru>.

§ 1.2. Jinoyat protsessining prinsiplari

Jinoyat protsessi prinsiplari tizimini protsessual qonunchilikda belgilangan prinsiplar tashkil etadi. Prinsiplar tizimi mantiqiy-nazariy xususiyatga ko'ra shakllantiriladi. Ushbu yondashuv yordamida prinsiplar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish va tasniflash mumkin. Prinsiplar tizimini eng umumiy xususiyatga ega bo'lgan yuridik normalar tizimi sifatida e'tirof etish mumkin. Ushbu tizim protsessning tuzilishini, protsessual faoliyatning mexanizmi, mazmuni va shaklini, protsessual qarorlar va harakatlarning qonuniyligi, asosligi va adolatligi kafolatlarini belgilab beradi.



Ma'lumot uchun: "Prinsip" so'zi lotincha "principium" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "asos", "negiz" ma'nosini bildiradi.

Prinsiplar tizimi yaxlit bo'lib, ushbu yaxlitlik faoliyatni birlashtiruvchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Faqat prinsiplar tizimigina jinoyat protsessining pirovard maqsadlariga erishishni kafolatlashi mumkin. Maqsadga erishishni kafolatlash sifati aynan prinsiplar tizimigagina xos bo'lib, bunday sifatga alohida olingan hech bir prinsip ega bo'lmaydi.

Jinoyat protsessi prinsiplarining tizimini ularning muayyan xususiyatlariga ko'ra turlicha tasniflash mumkin.

Qonuniylik prinsipi. Qonuniylik quyidagilarni o'zida qamrab oladi: huquqqa oid umumijtimoiy tushunchalarga ega bo'lish, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning huquqiy normalar orqali boshqarilishiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi va qonun bilan boshqarilishini e'tirof etish, konstitutsiya va qonunlar ustunligini tan olish; fuqarolarning qonun oldida tengligi maqomiga rioya etish; qonun ijrosini ta'minlovchi yuridik va ijtimoiy mexanizmlarning mavjudligi; huquqiy normalarning yuqori darajada sifatli bajarilishi, ya'ni har qanday huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, har bir huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlik ta'minlanishi; huquqiy tartibning mustahkamligi va barqarorligi, huquqiy boshqaruv mexanizmi faoliyatining bir xildaligi⁸.



E'tibor qiling! Qonuniylik deganda, muayyan jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar va ijtimoiy munosabat subyektlarining amalda bo'lgan qonunlarga qat'iy rioya etishi, qonun talablarini to'liq bajargan holda faoliyat olib borishi, harakatlanishi yoki harakatsiz holda bo'lishi, hayot kechirishi tushuniladi. Qonuniylik huquq subyektlarining boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilgan holda, o'z huquqlaridan foydalanishi va majburiyatlarini ado etishlari kerakligini anglatadi.

⁸ A.T.Achilov, H.I.Ismoilov "Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik" O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2017. 26-bet.

Jinoyat-protsessual munosabatlarda ishtirok etuvchi sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, himoyachi va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari qonuniylik talablariga qat'i rioya etishlari kerak. Jinoyat ishlarini yuritishda qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya qilishdan chekinish, ya'ni noqonuniy harakatlarning sodir etilishi qonuniylik prinsipining buzilishi deb topiladi va tegishli javobgarlikka olib keladi. Noqonuniy xatti-harakatning bila turib yoki bilmasdan sodir etilishi, kelib chiqqan oqibatni hisobga olgan holda, mutanosib ravishda intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi. Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Sud deganda, birinchi instansiya sudlari hamda jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rib chiquvchi yuqori instansiya sudlari nazarda tutiladi. Suddan boshqa hech bir organ, korxon, tashkilot, birlashma sudlovni amalga oshirishga, ya'ni insonni biror bir noqonuniy xatti-harakat sodir etilishida aybdor deb topish va jazolash huquqiga ega emas.



Ma'lumot uchun: "Odil sudlov" deganda esa, vakolatli organ (sud) tomonidan nizo (yoki jinoyat) bilan bog'liq ishni har tomonlama va xolisona ko'rib chiqish, qonun buzilishi bilan bog'liq barcha ahamiyatli holatlarni aniqlash orqali, nizolashayotgan taraflarning ahvoli va ishga munosabatini e'tiborga olib, nizo vujudga kelishida aybi bo'lgan shaxsni aybdor deb topish, aksincha aybi bo'lmagan shaxsni aybsiz deb topish, aybdor shaxsga nisbatan qilmishiga yarasha adolatli ta'sir chorasini tayinlash va zaruratga ko'ra tayinlangan ta'sir chorasini ijroga qaratish bilan bog'liq hal qiluv qarori qabul qilish jarayoni tushuniladi.



E'tibor qiling! Jinoyat protsessida odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi deganda, jinoyat ishlarini ko'rib chiqish va odil sudlov faqat jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan amalga oshirilishi kerakligi, odil sudlov faoliyati boshqa organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin emasligi va bunga yo'l qo'yilmasligi tushuniladi. Ya'ni jinoyat protsessining hal qilish (sudlov) funksiyasi faqat sud tomonidan amalga oshirilishi kerakligi qat'i belgilangan. Jinoyat ishlarini hal qilishda adolatli qaror qabul qilinishi orqali odil sudlov ta'minlanadi. Mazkur prinsip talabiga ko'ra jinoyat ishlarini hal etish ishni sudga qadar yuritishda ham, sud jarayonida ham, agar bu shaxsning aybsizligini e'tirof etish bilan bog'liq bo'lmasa, faqat sud tomonidan amalga oshirilishi shartligini bildiradi.

Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish.

Sudda jinoyat ishlari yakka tartibda yoki hay'atda ko'rib chiqiladi.



E'tibor qiling! Sudda ishlarni yakka tartibida ko'rib chiqish deganda, bitta sudya ishni ko'rib chiqishi tushuniladi. Jinoyat kodeksi (JK)ning 15-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar haqidagi (o'n yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan) ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. O'ta og'ir jinoyatlar haqidagi ishlar hay'atda ko'riladi.

Hay'at deganda, bir necha shaxslardan iborat, bir xil vazifani bajaradigan jamoa tushuniladi. Jinoyat ishlarini ko'ruvchi sud hay'atlari quyidagicha bo'lishi mumkin: bitta sudya va ikki nafar xalq maslahatchisidan iborat hay'at, uch nafar sudya iborat hay'at, besh nafar sudya iborat hay'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida esa rayosat a'zolarining ko'pchiligidan iborat hay'at⁹.



Ma'lumot uchun: Sud muhokamasida ikki nafar xalq maslahatchisining ishtirok etishi aholini odil sudlovni amalga oshirishga jalb etish vositasi deb hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi sud tizimining demokratiya talablariga rioya etishidan dalolat beradi. Xalq maslahatchilari quyidagilarga ham yordam beradi: jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlash; jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning xulqini, uning voqelikka munosabatini baholash hamda adolatli jazo tayinlash uchun ko'maklashadi. Ular sudya ega bo'lgan barcha huquqlardan foydalanadilar, sud majlisida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda, sud bayonnomasi bilan bog'liq shikoyatlarni hal qilishda, sud jarayoni va hukm chiqarishda yuzaga keladigan turli protsessual masalalarni muhokama qilishda ishtirok etadilar, ular yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar, ulardan kelib chiquvchi muammolarni hal qilishda ishtirok etadilar. Raislik qiluvchi sudya xalq maslahatchilarining fikridan xabardor bo'lishi va yuzaga kelgan vazifalarni ular bilan birga hal qilishi kerak.

Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasiga muvofiq, sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Oliy sud raisi va sudyalari deputat yoki boshqa saylanadigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda ishlashlari mumkin emas. Sudyalar, shu jumladan jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudlarining sudyalari, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas. Sudyalar, qonunda ko'rsatilgan asoslar

⁹ O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi T:Adolat, 2011.

mavjud bo'lmasa, vakolat muddati tugaguniga qadar sudyalik vazifasidan ozod etilishlari mumkin emas.



E'tibor qiling! Sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishi deganda esa, amaldagi qonunlar asosida harakatlanishi, qonunlarga qat'i rioya etishi va ularni aniq bajarishi, qonun talablaridan chetga chiqmasligi, faqat qonun normalariga bo'ysungan holda jinoyat ishlarini ko'rishi va hal qilish tushuniladi.

Jinoyat protsessida sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi deganda, jinoyat ishlarini ko'rishda va hal qilishda (hukm chiqarishda) hech kimga bo'ysunmasligi, sudyaning faoliyatiga hech kim aralashmasligi, sudya faqatgina qonunga asoslanib, o'zining huquqiy ongi va ichki ishonchigagina tayanib ishlarni ko'rishi, hal qiluv qarorlari va hukm chiqarishi shartligi tushuniladi.

Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) sudyalar ayrim shaxslar yoki turli davlat organlari va jamoat birlashmalarining ta'siridan to'liq ozoddir; sudda ko'rib chiqiladigan ishlarni mustaqil muhokama qilish hamda qonunga mos bo'lgan to'g'ri qaror va ajrimlar chiqarish majburiyatiga egadirlar;

b) sudlar yuqori turuvchi sudlardan mustaqildir va jinoyat ishlarini yuqoridan kelgan topshiriqqa ko'ra emas, balki qonun asosida hal qiladilar; sudlar tergov organlarining, shuningdek jinoyat ishini sudda ko'rib chiqishga tayyorlashda ishtirok etuvchi shaxslarning ta'siridan mustaqildir;

d) sudyalarga ta'sir o'tkazish mumkin emas.

Hukmni bekor qiluvchi va jinoyat ishini sudda yangitdan ko'rib chiqish uchun yuborishga vakolatli yuqori instansiya sudi dalillarga baho berar ekan, quyi turuvchi sud sudyasiga hukm chiqarishida ta'sir o'tkazishi mumkin emas.

Sudyalarning mustaqilligi nafaqat ularning qonungagina bo'ysunishi bilan, balki hukm chiqarishdan avval alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqib ketishlari bilan ham kafolatlanadi (JPK, 456-modda).

Sudyalar va xalq maslahatchilarining qonunga bo'ysunishi quyidagilarda namoyon bo'ladi: jinoyat ishini ko'rib chiqishda sud majlisi vaqtida, hukm chiqarilayotgan paytda ular jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarning talablariga rioya etadilar, jinoyat ishini avval mavjud bo'lgan fikrlari, takliflar va har qanday ta'sirlardan xoli tarzda yuritishlari kerak. Ular jinoyat ishini qonun talablariga asosan hal qilishlari shart.



Ma'lumot uchun: Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga muvofiq, sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Sud hokimiyati chiqargan hujjatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilish uchun sabab bo‘ladi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi. Tergovga qadar tekshiruv organi boshlig‘i va mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat alomatlari aniqlangan har bir holatda jinoyat ishi qo‘zg‘atishlari shart. Qo‘zg‘atilgan ishni tergov qilish davomida jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanadi, tegishli javobgarlikka tortiladi, sud majlisi davomida adolatli hukm chiqarish uchun sharoit yaratiladi. Jinoyat ishining qo‘zg‘atishi jabrlanuvchi, ushbu ishdan manfaatdor boshqa shaxs yoki tashkilotning talablariga bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Bu qoida jinoyat ishi jabrlanuvchining shikoyati asosida qo‘zg‘atilgan hollarga tegishli emas, chunki bunday hollarda jinoyat ishi aynan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atilishi mumkin (JPK, 325-modda).



E‘tibor qiling! Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish aniqlangandan keyin, ushbu qilmishda jinoyat alomatlari mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish va mavjudligi aniqlanganda jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, tergov o‘tkazilishi shartligini, bu orqali jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlashga qaratilgan qonun talabi tushuniladi. Ammo bugunga kelib jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta‘minlash masalasiga yangicha yondashuvlar vujudga kelmoqda, umuman olganda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, jinoyat ishlarining yuritilishi kelgusida jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qilishi darkor. Shu bois bugun har bir jinoiy qilmish uchun muqarrar jazolashga erishish emas, balki jinoyat sodir etgan shaxslarda o‘z qilmishiga pushaymonlik hissini shakllantirish va kelgusida takror jinoyat sodir etishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qonun talablarini bajarish ustuvor ahamiyatga ega.

Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish

Jinoyat protsessida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egadirlar. Ular – jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat‘i nazar – qonun oldida tengdirlar.

Agar biron-bir shaxs jinoyat protsessida ishtirok etishi vaqtida uning huquqlari irqiy va milliy mansubligiga ko‘ra cheklanadigan bo‘lsa, yoxud unga, bevosita yoki bilvosita ekanligidan qat‘i nazar, ortiqcha huquqlar beriladigan bo‘lsa, bunday vaziyat yuzaga kelishida aybdor bo‘lgan mansabdor shaxs qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish deganda, ishni yuritishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor

shaxslarning ishni yuritishlari davomida jinoyat protsessining barcha ishtirokchilariga ularning teng huquqliligi asosida munosabatda bo'lishlari, huquqlar barcha uchun bir xilda ta'minlashlari, protsess ishtirokchisining kim bo'lishidan qat'i nazar unga protsessual qonunchilikda belgilangan barcha huquqlaridan foydalanishlari uchun bir xil sharoit yaratishlari, hech kimga ortiqcha imtiyozlar bermasliklari, kimningdir huquqini ortiqcha cheklamasliklari asosida jinoyat ishini adolatli hal qilishlariga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Fuqarolar ijtimoiy, moliyaviy ahvoli yoki lavozimidan; irqiy, jinsiy, milliy mansubligidan yoki qaysi tilda so'zlashishidan; qaysi dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligidan qat'i nazar qonun va sud oldida teng ekanligi belgilangan. Fuqarolarning qonun oldida tengligi jinoyat ishini qo'zg'atish, ishni sudga qadar yuritish va ishni sudda ko'rib chiqish vaqtida barcha fuqarolarga bir xil jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari qo'llanilishini bildiradi. Fuqarolarning sud oldida tengligi ularning surishtiruv va dastlabki tergov vaqtida ham teng ekanligini anglatadi¹⁰.

Diplomatik daxlsizlikka ega bo'lgan shaxslarga nisbatan odil sudlov faqat tegishli ruxsat olinganidan so'ng va istisno hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Aks holda bu shaxslar "persona non-grata" (nomaqbul shaxs) deb e'lon qilinishi va O'zbekiston Respublikasining hududidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs deputat bo'lsa, unga nisbatan jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarni uni deputatlik mandatidan mahrum etgandan keyingina qo'llash mumkin. U boshqa fuqarolar oldida hech qanday imtiyozlarga ega emas va ular bilan teng huquqlidir.



Ma'lumot uchun: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasiga muvofiq, "barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar... har qanday kamsitishdan teng muhofaza qilinish huquqiga... egadir". Ushbu norma O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, mamlakat hududida amal qiladi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarga muvofiq, barcha kishilar sud oldida tengdirlar. Har bir inson o'ziga nisbatan yuritilayotgan ishning qonuniy tashkil etilgan nufuzli va mustaqil sud organida adolat asosida va oshkora ko'rib chiqilishini talab qilish va undan foydalanish huquqiga ega. Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisiga huquq va majburiyatlari tushuntirib beriladi, ularga huquqlaridan foydalanishlari uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratiladi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining 2017-yil 28-oktyabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan bu boradagi faoliyatni samarali tashkil etish to'g'risida"gi Qo'shma ko'rsatma (№01-02/22-45).

Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, avvalo, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyamizning 27-moddasida: "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega", – deb belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida shunday deyiladi: "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega"¹¹. Mansabdor shaxsning ushbu talablarni tan olmasligi, qo'pol ravishda va qasddan haqoratlashi konstitutsiyaviy va xalqaro huquqiy normalar buzilganidan dalolat beradi. Bunday harakatlarni oddiy fuqaro sodir etgan taqdirda, u ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasida: "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak", – deb belgilangan. Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasida ko'rsatilishicha, "hech kim azob-uqubatga solinmasligi va unga nisbatan shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatini xo'rovchi muomala qilinmasligi yoki jazolanmasligi kerak. Jumladan, hech bir shaxs ustidan o'zining roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o'tkazilishi mumkin emas". Ushbu qoidalar Konstitutsiyamizda ham belgilangan¹².

Jinoyat ishlarini yuritishda turli toifadagi shaxslar ishtirokini kuzatish mumkin. Ular jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari vakillari bo'lishi mumkin. Har bir inson o'zi yashab turgan jamiyatda muayyan o'ringa ega. Shaxsning jamiyatdagi o'rni uning sha'ni va qadr-qimmatidan kelib chiqib belgilanadi.



Ma'lumot uchun: *Sha'n* deganda, shaxsning jamiyatda tutgan o'rni va egallagan mavqeiga nisbatan o'zi tomonidan berilgan baho tushuniladi. *Qadr-qimmat* deganda esa, shaxsning jamiyatda tutgan o'rni va egallagan mavqeiga jamiyatning boshqa a'zolari tomonidan berilgan baho tushuniladi. Jinoyat protsessida shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish deganda, protsess ishtirokchisining kimligidan, uning sha'ni va qadr-qimmatini qandayligidan qat'i nazar uni inson sifatida protsessning boshqa ishtirokchilari, ayniqsa ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining mansabdor shaxslari hurmat qilishlari tushuniladi.

¹¹ 1948-yil 10-dekabdagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 12-modda.

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 26-modda. <https://lex.uz/docs/20596>.

Agar jinoyat ishi bo'yicha tergov o'tkazish davomida yoki sud muhokamasi jarayonida ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan uni qiynoqqa solish, unga zulm o'tkazish yoki sha'ni va qadr-qimmatini erga urish bilan bog'liq harakatlar qo'llanilganligi aniqlansa hamda bu harakatlar dastlabki tergov jarayonida amalga oshirilgan bo'lsa, sud sudlanuvchiga nisbatan puxta tekshiruv o'tkazilishini tashkil qilishi va uning natijalaridan kelib chiqib, hukm chiqarishning maqsadga muvofiqligi haqidagi masalani hal qilishi kerak. Bunday sudlanuvchi sud zalining o'zidayoq darhol ozod qilinishi lozim.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan dastlabki tergov davomida unga nisbatan go'yoki kuch ishlatilgan, u qiynoqqa solingan, shafqsiz yoki sha'ni va qadr-qimmatini erga uruvchi munosabatda bo'linganligi haqida ariza tushsayu, ushbu ma'lumotlar hech bir dalillar bilan isbotlanmasa, bunday hollarda sud muhokamani davom ettiradi hamda sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishga va uning axborotini isbotlanmagan deb topishga haqli bo'ladi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish

Jinoyat ishini yuritish uchun mas'ul bo'lgan barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida ishtirok etayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish majburiyati xalqaro huquqiy hujjatlarda, Konstitutsiyamizda, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida qayd etilgan bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish talablarining darhol bajarilishi va ta'minlanishidan iborat. Masalan, har bir kishi erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.



E'tibor qiling! Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipi nafaqat jinoyat protsessining ishtirokchilari, balki jinoyat ishini yuritish bilan bog'liq holda huquq va qonuniy manfaatlari himoyaga muhtoj bo'lgan barcha fuqarolarga ham tegishlidir. Chunki jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etiladigan fuqarolarning muayyan vaqt davomida ma'lum huquqlari va erkinliklari to'liq yoki qisman cheklanishi mumkin va oqibatda ushbu ta'sir chorasi nafaqat ushbu shaxsga va cheklanayotgan huquqlariga, balki boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, shuningdek ushbu shaxsning boshqa huquqlari va erkinliklari buzilishi yoki ta'minlanmasligi uchun muayyan sharoit tug'dirishi mumkin. Shu bois jinoyat ishlarini yuritishda ishga jalb etilayotgan shaxslarning holati, sharoiti, ularning yaqinlari ahvoli va sharoitini o'rganib, ularning huquq va erkinliklari buzilishi ehtimoli bor yoki yo'qligi aniqlanishi, huquq va erkinliklarni muhofaza qilishga qaratilgan barcha choralar ko'rilishi shart. Muhofaza qilish kerak bo'lgan huquq va erkinliklarga avvalo fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan huquqlari va

erkinliklari kiradi, jumladan mol-mulk daxlsizligi, ta'lim olish, mehnat qilish, tibbiy xizmatdan foydalanish, qarovda bo'lish kabilar.

Jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish deganda, jinoyat ishi yuritilishi munosabati bilan ishda ishtirok etayotgan shaxslarning yoki ularning yaqin qarindoshlarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishi ehtimoli borligini aniqlash va bunday tahdid mavjud bo'lganda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan barcha zarur choralarni ko'rish tushuniladi.

Bu borada Konstitutsiyamizning 25-moddasida: "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas", – deb belgilangan. Mansabdor shaxslar qonun talablariga rioya etishlari hamda fuqarolarning shaxsiy hayotiga, uy-joyi, yozishmalariga, telegraf xabarlari va telefon orqali so'zlashuvlariga aralashmasliklari shart. Aks holda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12-moddasi, O'zbekiston Konstitutsiyasining 27-moddasida belgilangan talablar qo'pol ravishda buziladi.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida belgilanganidek, "hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi". Ushbu moddada ishlarning oshkora ko'rilishi prinsipi belgilangan bo'lib, uning ahamiyati shundaki, birinchidan, keng jamoatchilik jinoyat sodir etgan shaxs haqida, jinoyatga olib kelgan sabablar haqida, shuningdek jinoyatchiga sud qanday jazo belgilaganligi haqida xabardor qilingan taqdirdagina sud jarayonini yuritishning tarbiyaviy vazifalari bajarilgan bo'ladi; ikkinchidan, fuqarolarga nisbatan sudning odil qarori chiqarilishi ta'minlanadi; uchinchidan, fuqarolarga jinoyat ishini yuritishda to'liq ishtirok etish hamda huquq va erkinliklardan to'liq foydalanish uchun sharoit yaratiladi; to'rtinchidan, jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirayotganida mas'uliyatni his etishlari ta'minlanadi.



Ma'lumot uchun: Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid bo'lmaganida, shuningdek jinsiy hayot bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar haqidagi ishlar ko'rib chiqilayotganida to'liq ta'minlanadi.

Davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid bo'lgan, shuningdek jinsiy hayot bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar yopiq sud majlisida ko'riladi. Bundan tashqari, sud ajrimi bilan, 18 yoshga etmagan shaxslarning jinoyatlariga doir ishlar, fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini erga uruvchi ma'lumotlar oshkor bo'lishining oldini olish maqsadida, shuningdek

jabrlanuvchi, guvoh yoki jinoyat ishida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash manfaatlari talab etganida boshqa ishlar ham yopiq sud majlisi ko'rilishi mumkin.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi deganda, ish ko'rilayotgan sud majlisida ishdan manfaatdor bo'lmagan voyaga etgan boshqa shaxslarning, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillarining va boshqalarning erkin qatnashishlari, omma ishtirokida sud muhokamasi o'tkazilishi va hukm e'lon qilinishi tushuniladi.

Sudning jinoyat ishi bo'yicha hukmi yoki boshqa qarori kuchga kirganidan so'ng uning bir nusxasini sudlanuvchining ish yoki yashash joyiga yuborish hamda, agar bu ish sudning yopiq majlisida ko'rib chiqilmagan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarida bu haqda xabar berish mumkin.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida belgilanganidek, «...barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir. Har bir kishi, unga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko'rib chiqilayotganda yoki fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga muvofiq tuzilgan nufuzli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Sud zalidagi tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi zaldan chiqarib yuborishi mumkin. Sudda raislik qiluvchi tartibni buzayotgan, sudga hurmatsizlik ko'rsatayotgan, janjal qilayotgan, noqonuniy va g'ayriaxloqiy harakatlarga yo'l qo'yayotgan, boshqa shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilayotgan, jismoniy kuch ishlatishga harakat qilayotgan va boshqa shu kabi harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxsni zaldan chiqarib yuborishi, bunday shaxsga nisbatan qonuniy ta'sir choralarini qo'llashi mumkin.



E'tibor qiling! Sud zalida ovoz yozib olish, fotosuratga olish, videoyozuv va kinotasvirga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Bu masala yuzasidan sud ajrim chiqaradi.

Sudlarning hukmlari, ajrimlari va qarorlari barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi. Sudning yopiq majlisida chiqarilgan hukm ushbu majlis ishtirokchilariga e'lon qilinishi kerak.

Ayrim toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha sud majlisi oshkoralik keng ta'minlangan holda o'tkazish lozim. Masalan, davlatga ko'p miqdorda zarar yetkazish, qimmatbaho va noyob hayvonlarni qirib tashlash to'g'risidagi, shuningdek portlovchi moddalar, kimyoviy vositalar va hokazolarni qo'llab, guruh bo'lib sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarga oid sud jarayoni haqida keng ommaning xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq.

Jinoyat ishlari yuritiladigan til. O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarining qaysi tillarda yuritilishi Konstitutsiyaning 115-moddasiga asosan

belgilangan. “O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi”.

Mazkur prinsip jinoyat protsessining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Unga rioya etish ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashda, jinoyat protsessining tarbiyaviy ta‘sirini kuchaytirishda, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini to‘la hajmda amalga oshirishda, ularning mas‘uliyatini oshirishda, ish bo‘yicha dalillarni bevosita va og‘zaki tekshirishda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining aybsizlik prinsipini kafolatlovchi himoyasini ta‘minlashda, shuningdek fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipining amalga oshirilishida katta ahamiyatga ega.

Agar tergov yoki sud jarayonida tergov va sud jarayoni ishtirokchilari ish yuritilayotgan tilni bilmasliklarini va uni to‘liq tushunmasliklarini aytisalar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan tarjimon jalb etiladi. Bunda tarjimon surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalarga protsess ishtirokchilarining ko‘rsatuvlari, iltimoslari, arizalari va savollarini to‘liq va so‘zma-so‘z tarjima qilishi kerak.



Ma‘lumot uchun: Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari ayni bir vaqtda tarjimon sifatida ham ishtirok etishga haqli emaslar, chunki ayni bir shaxsning jinoyat protsessida bir necha funksiyani bajarishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ayblanuvchiga taqdim etiladigan hujjatlar, xususan ayblov xulosasi (dalolatnomasi) va hukm ona tiliga tarjima qilib berilishi lozim. Ayblanuvchiga taqdim etilmaydigan hujjatlar (masalan, jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror) og‘zaki tarjima qilib beriladi.

Agar jinoyat ishida ishtirok etayotgan ayblanuvchi jinoyat ishi yuritilayotgan tilni bilmasa, mazkur ishda himoyachining ishtirok etishi shart.

Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud jinoyat ishlari bo‘yicha jamoatchilikni jalb qilishning quyidagi usullaridan foydalanishlari mumkin: jamoatchilikka radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bevosita murojaat etish; mahalla, korxonalar, tashkilot jamoatchiligi bilan ularning e‘tiborini jinoyat ishlariga tortgan holda uchrashish va sh.k. Bundan tashqari, tergov yoki sudlov harakatlarini o‘tkazishda jamoatchilik vakillarining bevosita yordamidan foydalanish mumkin.

Jinoyat protsessining mazkur prinsipi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudga sodir etilgan jinoyatning holatlarini aniqlash, aybdorlarni fosh etish, adolatli

hukm chiqarishga yordam beradi. Jamoatchilik yordamida jinoyatlarning sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlar aniqlanadi.

Tergov yoki sudga yordam bergan eng faol jamoatchilik vakillarini rag'batlantirish maqsadida, bu haqda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – taqdimnoma, sud esa – ajrim chiqaradi (JPK, 300-modda).

Jamoat vakillari ishtirokida o'tkazilgan tergov va sudlov harakatlari katta daliliy ahamiyatga ega. Jamoat birlashmalari va jamoalarning vakillari jinoyat ishlarini yuritishda jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilari tariqasida ishtirok etishga haqlidirlar. Ular jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga egadirlar.



E'tibor qiling! Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror mahalla, korxonalar, muassasa va korxonalar jamoasi oldida ushbu korxonalar ishiga taalluqli jinoyat va holatlar yuzasidan so'zga chiqishlari, og'zaki va yozma faktlar keltirishlari, tegishli majlislarda, teleko'rsatuv yoki radioeshittirishda foydalanish uchun jinoyatlar haqida hujjatlar, ma'lumotlar yuborish hamda yordam ko'rsatishni so'rab jamoatchilikka murojaat etishlari mumkin.

Jamoatchilik surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga jinoyat sodir etilgan joy va uning izlarini qo'riqlashda, jinoyat sodir etish qurollarini va boshqa ashyoviy dalillarni topishda, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini qidirib topish va ushlab, jabrlanuvchilar va guvohlarni aniqlashda, jinoyatlarning sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishda yordam ko'rsatishlari mumkin.

Haqiqatni aniqlash jinoyat protsessining eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib (JPK, 22-modda), surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga jinoyat hodisasi sodir bo'lgan-bo'lmaganligini, uning sodir etilishida kim aybdor ekanligini hamda shular bilan bog'liq boshqa holatlarni aniqlash vazifasini yuklatadi. Jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun so'roq qilish hamda boshqa tergov harakatlarini xolisona o'tkazish zarur. Ushbu talablarning bajarilmasligi haqiqatni aniqlashga imkon bermaydi, keyinchalik xatolarga va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Jinoyat bo'yicha tergov o'tkazish jinoyat hodisasi va turli tasmollarni ilgari surish bilan bog'liq har xil tekshiruvlarni o'tkazishga majbur etadi. Ushbu tasmollarni tekshirishda ayblanuvchi yoki sudlanuvchini oqlaydigan, uning ahvolini yengillashtiradigan yoki og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi kerak.



Ma'lumot uchun: *Haqiqatni aniqlash* deganda, protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan

jinoyat yuz bergan yoki bermaganligi, uning sodir etilishida muayyan shaxs aybli yoki aybsizligi, shuningdek u bilan bog‘liq va ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha holatlarni ular qanday yuz bergan bo‘lsa shu holicha, xolisona aniqlashlari, tergov harakatlari natijasida to‘planadigan ishonchli va maqbul dalillar majmui bilan isbotlab berishlari tushuniladi.

Haqiqatni aniqlash jinoyat ishini adolatli hal qilish uchun eng zarur sharoit yaratadi. Shu bois ushbu prinsip jinoyat protsessining maqsadiga erishish uchun xizmat qiladi.

Jinoyat ishi bo‘yicha tergovni xolisona o‘tkazish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning jinoyat ishidagi mavjud holatlarning voqelikka mos kelish-kelmasligini aniqlashdan, dalillarni to‘plash, qayd etish, tekshirish va baholashdan iboratdir, chunki jinoyat ishining barcha ishtirokchilariga salbiy yoki ijobiy nuqtayi nazardan yondashish mumkin emas. Bunda ular xolis hamda ayblashga yoki oqlashga moyillikdan xoli bo‘lishi kerak. Agar ish bo‘yicha qandaydir holatlarning xolisligi shubha uyg‘otsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, xalq maslahatchilari, sudya ishni yuritishdan chetlashtiriladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi qonunda belgilangan tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmagunicha u aybdor hisoblanmaydi”, deb belgilangan. Ushbu qoida asosida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi rivojlantirilgan.

Shaxsning aybi ishdagi to‘plangan dalillar bilan isbotlangan, uning asosli va adolatli ravishda jinoiy javobgarlikka tortilganligiga hech qanday shubha qolmagan bo‘lsa ham agarda hali sudning ayblov hukmi chiqarilmagan bo‘lsa, u aybsiz deb hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 11-moddasiga ko‘ra “jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta‘minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir”.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi belgilanishidan ko‘zlangan asosiy maqsad jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligini ta‘minlashdan iborat.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta‘minlash.

Himoyalash deganda, jinoyat protsessida shaxsga nisbatan quyilayotgan uning jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon yoki ayblovdan, uning oqibatida cheklanishi mumkin bo‘lgan huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan faoliyat, harakatlar va jarayon tushuniladi. Huquq esa, shaxsning muayyan

harakatlar sodir etishga, muayyan imkoniyatlardan foydalanishga, muayyan narsalarga egalik qilishga haqliligidir.

Himoyalani sh huquqi deganda esa, shaxsga nisbatan ilgari surilayotgan ayblov (gumon shaklida bo'lishi ham mumkin)dan va uning natijasida yuzaga keladigan javobgarlik va jazodan o'z huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog'liq muayyan harakatlarni sodir etishga, belgilangan ma'lumotlardan xabardor bo'lishga, ma'lum imkoniyatlar va vositalarga ega bo'lishga va ulardan foydalanishga haqdorlik, shuningdek ushbu haq-huquqlarga oid talablarni ta'minlash mexanizmi tushuniladi.

Himoyalani sh huquqi bilan ta'minlash deganda, huquqdan foydalanish mexanizmi emas balki mazkur huquqdan eng yuqori darajada foydalanish uchun to'liq imkoniyat va zarur shart-sharoit yaratish tushuniladi. Mazkur imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratish jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning zammisiga yuklatilgan bo'lib, majburiy ta'minlanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalani sh huquqi bilan ta'minlash prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida belgilangan, ya'ni "Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi".

Jinoyatni ochish va aybdor shaxsni aniqlash maqsadida, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ushbu shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligidan dalolat beruvchi dalillarga asoslangan holda qonunda belgilangan tartibda bunday shaxsni aniqlaydilar. Ammo jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish huquqi faqat sudga tegishli, sud bunday hukmni chiqarmagunicha shaxsning aybdorligi qayd etilishi kerak, ya'ni surishtiruv va dastlabki tergov organlari jinoyat sodir etgan shaxsni ayblanuvchi sifatida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etishlari lozim. Mazkur harakatlar tegishli qaror asosida amalga oshiriladi. Ayblanuvchiga nisbatan jazo choralarini qo'llash yoki uni aybdor deb topishga faqat sud haqlidir.

Sudda ishlarni yuritishda tortishuv. Jinoyat ishlarini yuritishda asosiy jarayon sudda ishlarni ko'rish bilan bog'liq bo'lib, ishni qonuniy, asosli va adolatli hal etish uchun taraflar o'zaro tortishuvini yuzaga keltirish talab etiladi. **Tortishuv** deganda, manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ikki tarafning o'z manfaatlarini himoya etgan holda dalillar taqdim etishi, o'zining munosabatini bildirishi va uni asoslashi hamda qarshi tarafning fikrlarini va dalillarini rad etishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Tortishuv asosida ishni ko'rayotgan xolis sud qaysi taraf haq ekanligi, ishni kimning manfaatiga hal etish, shuningdek shu bilan bog'liq boshqa qarorlarni qabul qilish qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi haqida to'g'ri to'xtamlarga kelishi uchun ishga oid barcha holatlar to'liq oydinlashadi. Shu bilan birga jinoyat protsessining vazifalarini to'la ro'yobga chiqarish va odil sudlovni amalga oshirishga erishiladi.



E'tibor qiling! Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganida ish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida yuritiladi. Bu hol taraflar sud muhokamasi davomida teng huquqlardan foydalanishlarini, ularni tekshirishda ishtirok etishlarini, iltimoslar bilan murojaat etishlarini, ishning sudda adolatli ko'rib chiqilishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday masala bo'yicha o'z fikrlarini tushuntirishlarini bildiradi.

Sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovni isbotlash vazifasi, kim bo'lishidan – davlat ayblovchisimi yoki jabrlanuvchimi – qat'i nazar, ayblovchiga yuklatiladi. Ish yuritishda tortishuvni ta'minlash uchun himoyachi sudlanuvchining manfaatlarini himoya qilishda qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishi shart.

Ayni paytda sud jinoiy ta'qib organi emasligini, ayblov yoki himoya tarafida turmasligini hamda ularning huquq va manfaatlaridan boshqa biron-bir manfaatlarni ifodalamasligini inobatga olish lozim. U xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda taraflarga protsessual majburiyatlarini bajarishlari va huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

Dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsipi sudya va sud hay'ati a'zolaridan jinoyat ishini ko'rib chiqish davomida ish bo'yicha to'plangan materiallardan foydalanish uchun birin-ketin barcha dalillarni tekshirib chiqishni talab etadi. Ularni dastlabki tergovda ham tekshirish, qonuniy yo'l bilan olinganligiga, haqiqatan ham ushbu jinoyat ishiga aloqadorligiga ishonch hosil qilish, boshqa dalillar bilan qiyoslash hamda ularga baho berish lozim.

Dalillarni tekshirish ishdagi dalillarning ishonchliligini, ya'ni unda aks etgan ma'lumotlarning qanchalik haqiqatga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Dalillarni tekshirish ishdagi boshqa dalillar bilan yoki qo'shimcha dalillarni to'plash va ular bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Sudda dalillarni bevosita tekshirish deganda esa, ishni ko'rayotgan sudya yoki sud hay'ati a'zolarining dalilni bevosita qo'lga olib ko'zdan kechirishi, ushlab ko'rish orqali solishtirishi tushunilsa, og'zaki usulda tekshirish deganda, shaxsan o'zi eshitishi, baland ovozda o'qib eshittirilishi orqali qiyoslanishi, taqqoslanishi tushuniladi. Dalillarni tekshirishning bevosita va og'zaki usullaridan odatda bir vaqtda foydalaniladi¹³.



E'tibor qiling! Jinoyat ishi bo'yicha to'plangan dalillarni tekshirish quyidagilardan iborat: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, ekspert xulosalarini eshitish, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish, bayonnoma va boshqa

¹³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Mas'ul muharrir: prof. G'.A.Abdumajidov.–T.: TDYUI nashriyoti, 2009. 69-bet.

hujjatlarni o‘qib eshittirish. Dalillarni bevosita va og‘zaki usulda tekshirish jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli hal qilish uchun dalillarga to‘g‘ri baho berish, haqiqatga muvofiq ichki ishonch shakllanishi, huquqiy ongga tayanib qilmishga to‘g‘ri huquqiy baho berish uchun zarur sharoit yaratadi va bu orqali jinoyat protsessining maqsadiga erishish mumkin bo‘ladi.

Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi jinoyat protsessidagi asosiy prinsiplardan biri bo‘lib, huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishdagi qonuniy vosita sifatida foydalaniladi. JPKning 27-moddasiga muvofiq, protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar, shuningdek jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari protsessual harakatlar yoki qarorlar ustidan shikoyat berishga haqlidirlar.

Ayblanuvchi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud harakatlari va qarorlari xususida shikoyat qilish huquqiga ham ega (JPK, 46-modda). Xuddi shunday huquq gumon qilinuvchi (JPK, 48-modda), himoyachi (JPK, 53-modda), jabrlanuvchi (JPK, 55-modda), fuqaroviy da’vogar (JPK, 57-modda), fuqaroviy javobgar (JPK, 59-modda), qonuniy vakil (JPK, 61-modda) hamda vakilga (JPK, 63-modda) ham berilgan. Bunda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya mazkur shaxslarga shikoyat qilish huquqini tushuntirib berishlari va ushbu huquqning amalga oshirilishi uchun zarur sharoitni ta’minlashlari zarur.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat protsessi prinsiplarining xususiyatlarini tushuntiring.
2. Jinoyat protsessi prinsiplari tizimini tasniflang.

§ 1.3. Jinoyat protsessining ishtirokchilari

Jinoyat protsessining ishtirokchilari tushunchasi va tasniflanishi.

Jinoyat protsessining ishtirokchilari jinoyat-protsessual harakatlarni amalga oshirish va jinoyat-protsessual munosabatlarga kirishish uchun huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan organlar va shaxslardir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: sud, prokuror, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruv organ mansabdor shaxsi, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari, ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da'vogar va javobgar, ekspert, tarjimon va h.k.



Ma'lumot uchun: *Jinoyat protsessi ishtirokchilari* deb jinoyat ishlarini yuritishda qonun bilan belgilangan tartibda muayyan bir faoliyatini bajarishga yo'naltirilgan va qonun bilan tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarga aytiladi. Ular o'zlariga berilgan huquqlardan foydalanish, hamma vazifalarni bajarish orqali ishtirok etadigan davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar, jamoat birlashmalari, jamoalarning vakillari jinoyat protsessining ishtirokchilari hisoblanadilar¹⁴.

Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi o'ziga mos vazifani, ya'ni o'z faoliyat yo'nalishini ifoda etuvchi xizmat burchini o'taydi. Bu vazifaning xususiyati protsessning mazkur ishtirokchilari bajaradigan vazifalarga va ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga bog'liq holda belgilanadi.

Jinoyat protsessining barcha ishtirokchilarini ular oldida turgan vazifalarga, ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga va amalga oshiriladigan turli vazifalarga bog'liq ravishda quyidagi guruhlarga bo'lib tasniflash mumkin.

Ulardan biriga muayyan ***jinoyat ishini yuritish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar***: sud (sudya), sud majlisida sud majlisi kotibi, sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi); prokuror; tergovchi, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari; surishtiruvchi, surishtiruv bo'linmasi boshlig'i va uning o'rinbosari, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'ining va uning mansabdor shaxslari hamda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar kiradi. Faqat shulargina huquq me'yorlarini, protsessual majburlov choralarini qo'llaydilar, jinoyat ishini qo'zg'atish, ishni yuborish, uning mohiyatiga ko'ra hal qilish to'g'risida qaror chiqaradilar (JPK, 28-39²-moddalar)¹⁵.

Jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari boshqa guruhni tashkil etadi. Jamoalar va jamoat birlashmalari fikrining hisobga olinishi davlat

¹⁴ Jinoyat protsessi. (Umumiy qism) Darslik, prof. Z.G'.Inog'omjonova.–T.: Adolat, 2007. 67-bet.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.

organlari oldida turgan vazifalarni to'g'ri hal qilishga imkon beradi (JPK, 40-44-moddalar).

Jinoyat protsessida ko'riladigan ish mohiyati fuqarolarning, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarning, shuningdek jinoyat oqibatida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rganlarning (jabrlanuvchilarning) hamda mulkiy manfaatlari jinoyat ishining hal qilinishi bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning (fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgarlarning) shaxsiy manfaatlariga borib taqaladi. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini mumkin qadar samarali himoya qilish maqsadida mazkur protsess ishtirokchilarining vakillari jalb etiladi yoki ularning ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi. Bunda himoyachining o'rni alohida ajralib turadi. Barcha sanab o'tilgan protsess ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida «**Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar**» deb ataladigan guruhni tashkil qiladi (JPK, 45-64-moddalar).

Nihoyat, jinoyat ishlarini sudda yuritish vazifalarini bajarish uchun protsessual faoliyatga davlat organlari faoliyatiga nisbatan yordamchi, tashkiliy-texnikaviy ta'minlash vazifalarini amalga oshiradigan (tarjimonlar, mutaxassislar, xolilar) yoxud isbotlovchi ma'lumotni olishga ko'maklashadigan (guvohlar, ekspertlar) fuqarolar va mansabdor shaxslar jalb etiladilar. Yuqorida sanab o'tilgan ishtirokchilar «**Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar**» deb atalmish guruh tarkibiga kiradilar (JPK, 65-75-moddalar)



Ma'lumot uchun: Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning jinoyat-protsessual faoliyat borasida ro'yobga chiqariladigan huquqlari va majburiyatlari hajmini aniqlash uchun "jinoyat protsessi subyektlari" tushunchasi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "protsess ishtirokchilari" atamasiga eng keng tushuncha berilib, u barcha ishtirok etuvchi shaxslarni qamrab oladi. Har bir protsess ishtirokchisining oldida turgan vazifalar hamda ular bajaradigan protsessual vazifaning xususiyati bu ishtirokchiga beriladigan huquqlar va unga yuklatiladigan majburiyatlar hajmida ifoda etiladigan uning huquqiy holatini (huquqiy maqomini) belgilaydi.

Jinoyat protsessining ishtirokchilarini, vazifalari va manfaatlaridan kelib chiqib, tegishli tasniflash mumkin.



E'tibor qiling! Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar.

Sud. O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha odil

sudlovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi.

Sud qarorlari barcha davlat korxonalarini, muassasalari, tashkilotlari, tijorat tuzilmalari, jamoat birlashmalari, shuningdek mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

Birinchi instansiya sudi jinoyat ishi bo‘yicha **hukm yoki ajrim** chiqarish huquqiga ega. Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib, ajrim chiqaradi. Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib, ajrim chiqaradi.

JPKning 29-moddasiga binoan sudning vakolatlariga: qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog‘liq iltimosnoma, shikoyat va protestni ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko‘rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi, murdani ekskumatsiya qilish haqidagi, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish; prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi iltimosnomasini ko‘rib chiqish; jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash; ishni muhokama qilish va hukm chiqarish yoki boshqa qaror qabul qilish; ishni apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish; hukmni ijro ettirish kiradi.

Sud faoliyati mustaqil va faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hamda uning asosida qabul qilingan qonunlarga bo‘ysunish, oshkoralik, taraflar tortishuvi va teng huquqliligi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplarga va jinoyat protsessining boshqa demokratik asoslariga tayanadi.

Sud hay’atda yoki yakka tartibda amal qilishi mumkin. Jinoyat ishini ko‘rib chiqishda sudning tarkibiga saylangan yoki tayinlangan sudyalari va xalq maslahatchilari ishtirok etadilar.

Sudya o‘z vakolatidan foydalanib yakka tartibda yoki sud tarkibida ish ko‘radi. Bundan tashqari, sudya sud muhokamasiga ishni tayyorlash bilan bog‘liq harakatlarni bajaradi, sud majlislarida raislik qiladi.

Sud majlisida sud majlisi kotibi vazifalarini sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi.

Sud majlisi kotibi jinoyat ishini sud majlisida ko‘rish uchun tayyorlaydi; sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida protsess ishtirokchilarini xabardor qiladi; sudga chaqirilgan protsess ishtirokchilarining kelgan-kelmaganligini tekshiradi, hozir bo‘lmagan shaxslarning kelmaganligi sababini aniqlab, bu haqda sudga ma‘lum qiladi; sud majlislari bayonnomasini yuritadi; raislik qiluvchining sud muhokamasini tayyorlash va o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa topshiriqlarini bajaradi.

Prokuror. O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining vakolatlari, tashkil qilinishi va faoliyat ko‘rsatish tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunida belgilangan. Jinoyat protsessida prokurorning protsessual holati, uning faoliyat shakli va usullari sudda ishlarni yuritishning umumiy vazifalari va har bir alohida bosqichda hal qilinadigan bevosita vazifalardan kelib chiqadi.



E’tibor qiling! JPKning 33-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuror qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat’i nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rishi shart. Prokuror o‘z vakolatlarini har qanday organ va mansabdor shaxsdan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysunib va O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori ko‘rsatmalariga tayangan holda amalga oshiradi.

Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida JPKning 243, 382-388, 558, 589-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. Prokuror sud muhokamasida qatnashib, JPKning 409-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi¹⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, ularning o‘rinbosarlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, ularga tenglashtirilgan prokurorlar va ularning o‘rinbosarlari, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan boshqa prokurorlar tergov bosqichida fuqarolarni qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qo‘llash haqida sudga iltimosnoma kiritishi mumkin.



Ma‘lumot uchun: Prokuror yoki uning o‘rinbosari ko‘p voqeali jinoyat ishlari bo‘yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to‘plangan dalillarni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb e’tirof etsa, shu voqealar bo‘yicha

¹⁶ Toshkent shahar prokuraturasi ma’sul muharrirligida M.G.Esanov, M.A.Mirzayev. Prokuror nazorati hujjatlari. Toshkent-2010y.

tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida yozma ko'rsatma berishga haqli (383-m).

Tergovchi. JPKning 35-moddasiga binoan prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmatining tergovchilari jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshiradilar.

Tabiiyki, tergovchining protsessual vakolatlari va protsessual holati uning idoraviy taalluqliligiga bog'liq emas. Ularning barchasi teng. Tergovchi jinoyatni ochishga va aybdorlarni fosh qilishga, ya'ni qanday jinoyat qayerda va qaysi usulda sodir etilganligini, uning sodir etilishiga taalluqli barcha shaxslarni (ijrochilar, dalolatchilar, tashkilotchilar, yordamchilarni va hokazolar), jinoyat tarkibini tashkil etuvchi barcha alomatlarini, uning subyektini, obyektiv va subyektiv tomonlarini, jinoyat sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlashi zarur.



E'tibor qiling! JPKning 36-moddasiga muvofiq tergovchi: jinoyat ishini qo'zg'atishga va tugatishga, ishni qo'zg'atishni rad etishga; jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so'roq qilishga; JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga; shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to'g'risida qaror qabul qilishga; shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to'g'risida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash haqida qaror qabul qilishga, bundan qamoqqa olish yoki uy qamog'i mustasno; o'z yurituviga qabul qilgan ishlar bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risida yozma topshiriqlar berishga; boshqa tergovchi va surishtiruvchilarga ayrim tergov harakatlarini yuritish to'g'risida topshiriq berishga; tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to'g'risidagi qarorlarning ijrosini topshirishga, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko'maklashishni talab qilishga; qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma berishga, shuningdek ehtiyot chorasini JPKning 240-moddasiga muvofiq bekor qilishga yoki o'zgartirishga; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur protsessual majburlov choralari JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur choralarni JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Tergovchi tergovning yo'nalishi va tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror ruxsatini olish qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno

etganda, mustaqil ravishda qabul qiladi. Uning yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘i va uning o‘rinbosari



Ma’lumot uchun: Mazkur tushuncha barcha huquqni muhofaza qilish organlaridagi (prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati) barcha tergov tuzilmalarining rahbarlarini qamrab oladi.

Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarining vakolatlari JPKning 37-moddasida belgilangan. Ularning har biriga tergovchilarning o‘z vaqtida jinoyatni ochish yoki uning oldini olish bo‘yicha harakat qilishini nazorat etish, jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni mumkin qadar to‘la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko‘rish huquqi berilgan¹⁷.

Tergov tuzilmasining rahbari jinoyat ishini tekshirishga, tergovchiga dastlabki tergov o‘tkazishga, ishni bir tergovchidan boshqasiga o‘tkazishga, ishni tergov qilishni bir necha tergovchiga topshirishga, shaxsni ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok qilish uchun jalb etishga, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo‘nalishini belgilashga, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida tergovchiga ko‘rsatmalar berishga, shuningdek tergovchi vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergov olib borishda qatnashishga va dastlabki tergovni shaxsan o‘zi olib borishga haqlidir.

Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarlarining ish yuzasidan ko‘rsatmalari tergovchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir.

Tergov apparati boshlig‘i tergov qilishning resurs va uslubiy ta’minlanish bilan amalga oshirayotgan tergovchi ishining tashkilotchisi sifatida ish ko‘rishi shart.

Surishtiruvchi. JPKning 38-moddasiga asosan surishtiruvchi quyidagilar organlarda faoliyat olib boradi:

- 1) ichki ishlar organlari;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo‘linmalari;

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi “Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, axamiyati, tayinlash va o‘tkazish asoslari” Uslubiy qo‘llanma T:2016.

4) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va uning joylardagi bo‘linmalari;

5) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo‘linmalari.



E’tibor qiling! Surishtiruvchi: jinoyat ishini qo‘zg‘atishga va tugatishga, ishni qo‘zg‘atishni rad etishga; jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so‘roq qilishga; JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga; shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga; shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish haqida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishga, bundan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i mustasno; o‘z yurituviga qabul qilgan ishlar bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish haqida yozma topshiriqlar berishga; boshqa surishtiruvchilarga ayrim tergov harakatlarini yuritish to‘g‘risida topshiriq berishga; tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to‘g‘risidagi qarorlarning ijrosini topshirishga, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko‘maklashishni talab qilishga; qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma berishga, shuningdek ehtiyot chorasini JPKning 240-moddasiga muvofiq bekor qilishga yoki o‘zgartirishga; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur protsessual majburlov choralari JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; murdani eksqumatsiya qilish to‘g‘risida, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur choralarni JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Surishtiruvchi surishtiruvning yo‘nalishiga oid barcha qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, bundan qonunda prokuror ruxsatini olish nazarda tutilgan hollar mustasno.

Surishtiruvchi prokurorning shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari qo‘llash haqidagi, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritish to‘g‘risidagi, ishni sudga yuborish yoki ishni

tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, o‘z e‘tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmasini o‘z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo‘yicha surishtiruv yuritishni boshqa surishtiruvchiga topshiradi.

Surishtiruvchining o‘z yuritishidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i va uning o‘rinbosari. Ular, o‘z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan surishtiruvchilarning o‘z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni to‘la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko‘radilar.

Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari ishlarni tekshirib ko‘rishga, surishtiruvchiga surishtiruv yuritish, shaxsni ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo‘nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida ko‘rsatmalar berishga, ishni bir surishtiruvchidan ikkinchi surishtiruvchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir necha surishtiruvchiga topshirishga, shuningdek surishtiruvchi vakolatlaridan foydalanib, surishtiruv yuritishda qatnashishga va surishtiruvni shaxsan o‘zi olib borishga haqlidir.

Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarining ish yuzasidan ko‘rsatmalari surishtiruvchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir.

Olingan ko‘rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilinishi, JPK 38¹-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, ularning ijro etilishini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi O‘RQ-442-sonli qonuni bilan JPKga 39¹-modda «Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar» kiritilib, unga asosan tergovga qadar tekshiruv quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

- ichki ishlar organlari;
- harbiy qismlar, qo‘shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o‘quv yurtlarining boshliqlari – ularga bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o‘quv mashqlari o‘tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan

bog‘liq jinoyatlari yoki qism, qo‘shilma, muassasa yoxud o‘quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo‘yicha;

- davlat xavfsizlik xizmati organlari – qonunga ko‘ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari hamda turmalarning boshliqlari – shu muassasalar xodimlari xizmatni o‘tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha;

- davlat yong‘indan nazorat qilish organlari – yong‘inlarga doir va yong‘inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

- chegarani qo‘riqlash organlari – davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

- olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

- davlat bojxona xizmati organlari – bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari – byudjet, soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo‘linmalari – voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo‘yicha, shuningdek elektr, issiqlik energiyasi, gaz, suvdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari – bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo‘linmalari – qonun bilan ularning ish yuritishiga berilgan ishlar bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati – uning yurituviga taalluqli ishlar bo‘yicha.



E’tibor qiling! Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPK

qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish vazifasi yuklatiladi.

Ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, davlat bojxona xizmati organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va ularning joylardagi bo'linmalari shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga haqli. Tezkor-qidiruv faoliyatini o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o'ziga bo'ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga, jinoyat ishini qo'zg'atishga yoki ish qo'zg'atishni rad etishga yoxud arizani, xabarni tergovga tegishliligiga ko'ra o'tkazishga haqlidir.

Boshliqning topshirig'iga binoan va uning rahbarligida ishlayotgan mansabdor shaxs jinoyatning oldini olish yoki uning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik, dalillarni to'plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish hamda jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararining o'rni qoplanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, kechiktirib bo'lmaydigan barcha harakatlarni amalga oshirishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi zimmasiga tergovchi, surishtiruvchi yuritayotgan ish bo'yicha ayrim protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish hamda tergovchiga, surishtiruvchiga protsessual harakatlarni bajarishida ko'maklashish majburiyati ham yuklatiladi¹⁸.



Ma'lumot uchun: Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek tergovchining, surishtiruvchining topshirig'ini bajarayotganda, protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qarorlari mazkur organ boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim. Boshliqning yozma ko'rsatmalari ularni bajarishni to'xtatmay turib, ushbu ko'rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqli bo'lgan unga bo'ysunuvchi mansabdor shaxs uchun majburiydir.

¹⁸ M.Nurmatov, L.Eshnazarov "Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini o'tkazish va protsessual rasmiylashtirish" O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2015.

Prokurorning yozma ko'rsatmalari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i va uning mansabdor shaxsi uchun majburiydir. Ular prokurorning ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan taqdirda, ko'rsatmalarni bajarishni to'xtatmay turib, yuqori turuvchi prokurorga ularning ustidan shikoyat qilishga haqlidir (JPK, 39²-modda).

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari va jamoalar.

JPKning 40-moddasiga binoan jamoat birlashmalari va jamoalar, ularning rahbar organlari hamda vakillari sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to'g'risidagi xabar bilan surishtiruv organiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga murojaat etishlari mumkin. Ular: ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida jamoat birlashmasi yoki jamoa kafilligiga berishni tanlash haqida; mahkumni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish haqida; ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini o'zgartirish haqida; sudlanganlikni olib tashlash haqida va boshqa masalalar bo'yicha JPKda nazarda tutilgan hollar hamda tartibda iltimos qilishga haqlidirlar.

O'z navbatida surishtiruvchi va tergovchi fuqaroning og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani haqida uning ish, o'qish yoki yashash joyidagi jamoaga xabar beradi, sud esa ularga shu ish bo'yicha sud muhokamasi qachon va qayerda o'tkazilishi haqida xabar beradi.



Ma'lumot uchun: Jinoyat protsessida jamoatchilik ishtiroki jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilari institutida ko'proq namoyon bo'ladi. JPKning 42-moddasiga binoan jamoat birlashmalari va jamoalar sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakillarini yuborishlari mumkin.

Jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jamoat birlashmasining yoki korxonasi, muassasi, tashkilot jamoasining, shu jumladan tijorat tuzilmasining, shuningdek yashash joyi bo'yicha jamoaning yig'ilishi ko'rsatadi. Yig'ilish qarori sudga taqdim etilishi lozim. Lekin jamoat birlashmasi, jamoa o'zi yo'llagan jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisini xohlagan vaqtda chaqirib olishga yoki uni boshqa vakil bilan almashtirishga haqlidir¹⁹.



E'tibor qiling! Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi o'z vazifalarini davlat ayblovchisi va himoyachisi qanday nuqtayi nazarda bo'lishidan qat'iy nazar amalga oshiradigan sud muhokamasining mustaqil va teng huquqli ishtirokchilaridir.

Sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat ayblovchisi: ish materiallari bilan tanishishga; dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga;

¹⁹ O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi T:Adolat, 2011.

iltimosnoma berishga; taraflarning muzokaralarida soʻzga chiqib, ayblovning isbotlangani haqida sudga fikr bildirishga haqlidir. Jamoat ayblovchisi ayblovdan voz kechishga haqli. Shu bilan birga jamoat ayblovchisi: sud muhokamasida ishtirok etishi; jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilishi va ish holatlarini aniqlashga koʻmaklashishi shart (JPK, 43-modda).

Jamoat himoyachisi ham xuddi shunday huquq va majburiyatlarga egadir. Xususan, sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat himoyachisi: ish materiallari bilan tanishishga, dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga; iltimosnoma berishga; taraflarning muzokaralarida soʻzga chiqib, sudlanuvchini oqlaydigan yoki uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlar xususida sudga fikr bildirishga haqlidir.

Jinoyat protsessda oʻz manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar.

Jinoyat protsessida oʻz manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachilari va vakillari, jabrlanuvchi, fuqaroviy daʼvogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari kiradi.

Gumon qilinuvchi. Jinoyat sodir etgani toʻgʻrisida maʼlumotlar bor boʻlsada, bu maʼlumotlar uni ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli boʻlmagan shaxs gumon qilinuvchi deb tan olinadi. Shaxsni gumon qilinuvchi sifatida eʼtirof etish toʻgʻrisida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqarishi (JPK, 47-modda) qonunda novella hisoblanadi. Bundan tashqari, jinoyat sodir qilganligi gumon qilinib ushlangan shaxs ham gumon qilinuvchi deb eʼtirof etiladi.

Shaxs gumon qilinuvchi deb tan olinishi protsessual hujjat sifatidagi ushlab turish bayonnomasi (JPK, 225-modda), shuningdek ushlab turish qaroriga binoan ham amalga oshirilishi mumkin (JPK, 224-modda) yoki gumon qilinuvchi sifatida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish toʻgʻrisidagi qaror u jinoyat sodir etganligi haqida asos boʻla oladi.

Jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan shaxs JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud boʻlganda (shaxs jinoyat ustida ushlanganda, jinoyat shohidlarining, jabrlanuvchining u jinoyat sodir etganligi haqida toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatuvlari boʻlganda, uning oʻzida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilganda va boshqalar) ushlab turilishi mumkin.

Ayblanuvchi. Ayblanuvchi deganda, JPKda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs tushuniladi. Ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb, hukm chiqarilganidan keyin esa, mahkum yoki oqlangan deb ataladi.



Ma'lumot uchun: Ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

Jinoyat, xuddi shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan taqdirda, bunday shaxs ***jabrlanuvchi*** deb e'tirof etiladi. Jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – qaror, sud esa – ajrim chiqaradi.

Jabrlanuvchi voyaga etmagan yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxs bo'lsa, ishda u bilan birgalikda yoki uning o'rniga qonuniy vakili ishtirok etadi (JPK, 54-modda).

Jabrlanuvchi: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; haqqoniy ko'rsatuvlar berishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning talabi bo'yicha dalillar taqdim qilishi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha qonunda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarni dastlabki tergov organlari yoki sud tomonidan marhumning qonuniy vakili deb e'tirof etilgan yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar amalga oshiradilar.

Jinoyat, xuddi shuningdek aqli noraso shaxsning jamoat uchun xavfli qilmishi shaxsga, korxonaga, muassasaga yoki tashkilotga mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lsa, ular ***fuqaroviy da'vogar*** deb e'tirof etiladi. Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Voyaga etmaganlarning, shuningdek muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun fuqaroviy da'vo ularning qonuniy vakillari va prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.



Ma'lumot uchun: Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxs ayni vaqtda jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini bajaradi.

Agar fuqaroviy da'vogar sud majlisiga kelmasa, sud uning da'vosini ko'rib chiqmaydi. Biroq da'vogarning o'z da'vosini fuqaroviy protsess tartibida taqdim etish huquqi saqlanib qoladi. Agar da'vo jinoyat ishida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, shaxs davlat boji to'lash majburiyatidan ozod qilinadi.

Ayblanuvchi tomonidan yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun qonunga ko'ra mulkiy javobgar shaxs, korxonaga, muassasa yoki tashkilot ishda ***fuqaroviy javobgar*** sifatida ishtirok etish

uchun jalb qilinishi mumkin. Fuqaroviy javobgar sifatida jalb qilish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi (JPK, 58-modda).

Fuqaroviy javobgar sifatida jinoyat protsessida jinoyati tufayli zarar yetkazganligi uchun moddiy javobgarlikka tortiladigan va fuqaroviy da'vo bildiriladigan shaxslar qatnashadilar. Odatda fuqaroviy javobgar sifatida qonunga binoan moddiy javobgarlik zimmasiga yuklatilgan ota-onalar, homiylar, vasiylar yoki boshqa shaxslar, shuningdek muassasalar, tashkilotlar va korxonalar jalb etilishlari mumkin.



E'tibor qiling! Fuqaroviy javobgar yoki uning vakilining sudga kelmaganligi, bu da'voni ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Shunday qilib, jinoyat protsessida fuqaroviy javobgar ayblanuvchiga ayblov e'lon qilingan paytdan boshlab va shaxs fuqaroviy javobgar sifatida jinoyat ishiga jalb qilish haqida qaror (ajrim) chiqarilganidan so'ng paydo bo'ladi. Agar ayblanuvchining o'zi fuqaroviy javobgar bo'lsa, ayblanuvchini fuqaroviy javobgar tariqasida ishga jalb etish haqida maxsus qaror chiqarish talab etilmaydi.

Da'voni ta'minlash maqsadida ayblanuvchi yoki fuqaroviy javobgarining mulki xatlanishi mumkin²⁰.

Qonuniy vakil ishda ishtirok etishga voyaga etmagan yoxud belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun jalb qilinadi.

Ishda qonuniy vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga etmaganga yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan ishtirokchiga homiylik qiluvchi muassasalar va tashkilotlarning vakillari qatnashishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga, jabrlanuvchining qonuniy vakili esa jabrlanuvchi bilan birga, shuningdek uning o'rnida ham ishtirok etadi.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilganligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – qaror, sud esa – ajrim chiqaradi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining manfaatlari bilan qonuniy vakilning manfaatlari o'zaro mos kelmasa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi tarafida ishda ishtirok etish uchun qaror yoxud ajrim bilan advokat tayinlanadi (JPK, 60-modda).

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3723-son Qarori.

Jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning *vakillari* tariqasida advokatlar, vakil sifatida ishtirok etishga maxsus ruxsatnomalari bo'lgan shaxslar, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga ko'ra ishda qatnashishga ruxsat berilgan yaqin qarindoshlar va boshqa shaxslar ishtirok etishlari mumkin.



Ma'lumot uchun: Vakilning ishda ishtirok etishi uchun uning jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar bilan tuzgan topshiriq shartnomasi asos bo'ladi. Yuridik shaxsning vakili sifatida uning rahbari ishtirok etishi uchun alohida vakolatnoma kerak emas. Rahbar tomonidan berilgan ishonch qog'ozi bo'yicha yuridik shaxslarning vakillari sifatida uning shtatdagi xodimlariga va advokatlarga ruxsat etiladi.

Jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarning vakili ishda o'zi vakillik qilayotgan shaxs bilan birga, shuningdek uning o'rnida ham ishtirok etadi. Jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar ish yuritishning istalgan vaqtida vakildan voz kechishga yoki boshqa shaxsni vakil qilib olishga haqlidir (JPK, 62-modda).

Himoyachi gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo'l qo'yilishi mumkin.



E'tibor qiling! Himoyachining ishda ishtirok etishga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPK, 49-modda).

Jamoat birlashmalarining vakili bo'lgan advokatlarni jamoat himoyachilari bilan chalkashtirmaslik lozim: jamoat himoyachilari faqat sudda ishtirok etishlari mumkin, jamoat birlashmalarining vakillari bo'lgan advokatlar esa dastlabki tergovda ham ishtirok etishga haqlidirlar va jamoat birlashmasi ushbu birlashma yoki jamoaning fikrini bildiradi. Jamoat himoyachisi esa jinoyat ishida o'z nomidan qatnashadi.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to'lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to'lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo'ladi (JPK, 50-modda).

JPKga muvofiq quyidagi toifadagi ishlar bo'yicha himoyachining ishtirok etishi shart hisoblanadi:

- 1) voyaga etmaganlarning ishi bo'yicha;
- 2) soqovlar, karlar, ko'rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o'zini o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo'yicha;
- 3) sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 4) jazo chorasi sifatida o'lim jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 5) shaxslarning manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo'lgan ishlar bo'yicha;
- 6) davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo'yicha;
- 7) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;
- 8) tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda;
- 9) apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi tomonidan ko'riladigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi shart²¹.



Ma'lumot uchun: Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ish yuritilayotgan davrda istalgan vaqtda himoyachidan voz kechishga haqlidir. Bu haqda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek advokat, surishtiruvchi yoki tergovchi imzolaydigan bayonnoma tuziladi yoxud sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas.

²¹ "Jinoyat-protsessual huquqi" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. G.Z.To'laganova, Sh.Fayziyev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2014. –433 bet.

Jinoyat protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ushbu shaxslar qatoriga guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis kiritilgan.

Jinoyat protsessida hammadan ham ko‘proq **guvoh** qatnashadi. JPKning 65-moddasiga binoan, jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan biror holatni bilishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxs guvoh sifatida ko‘rsatuv berish uchun chaqirilishi mumkin.



E‘tibor qiling! JPKning 115-moddasiga binoan guvoh va jabrlanuvchi tariqasida:

1) hukm va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to‘g‘risida – sudyani va xalq maslahatchisini;

2) jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida – himoyachini, shuningdek jabrlanuvchining, fuqaroviy da‘vogarning, fuqaroviy javobgarning vakilini;

3) ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni so‘roq qilish mumkin emas.



Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq jinoyat protsessining ishtirokchilari qatoriga yangi “guvohning advokati” deb nomlangan ishtirokchi kiritildi.

Guvohning advokati belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo‘yicha guvohning advokati bo‘lishi mumkin emas. Guvohning advokati ishda ishtirok etishga u advokatlik guvohnomasini ko‘rsatganidan va orderni taqdim etganidan so‘ng, guvoh chaqirilgan paytdan e‘tiboran qo‘yiladi.

Xulosa berish uchun zarur bilimga ega bo‘lgan har qanday shaxs **ekspert** sifatida chaqirilishi mumkin. Ekspert chaqirish, ekspertiza tayinlash va o‘tkazish JPKning 172-187-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Ekspertiza predmetiga fan, texnika, san‘at, hunarning har qanday tarmog‘i kirishi mumkin, huquq masalalari bundan mustasno.

Ekspert uzrsiz sababga ko‘ra kelmagan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin. U shunday sababga ko‘ra o‘z vazifalarini bajarishni rad etgan yoki undan bo‘yin tovlagan taqdirda, shuningdek bila turib

yolgʻon xulosa berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar boʻladi (JPK, 68-modda).

Tergov va sud muhokamasini oʻtkazishda dalillarni topish va qayd etishda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun *mutaxassis* chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega boʻlgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin.

Himoyachining iltimosnomasiga koʻra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan mutaxassis tushuntirish berish uchun chaqirilishi mumkin



Eʼtibor qiling! Tergov va sud muhokamasiga mutaxassis chaqirish hamda uning ishtirok etishi JPKning 91, 92, 136-138, 146, 147, 149, 151, 156 va 93-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi (JPK, 69-modda).

Ekspertdan farqli ravishda, mutaxassis tadqiqotlar oʻtkazmaydi va xulosalar bermaydi. U faqat maxsus bilimi va tajribasidan foydalanib, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga tergov harakatini amalga oshirishda yordam beradi. Ekspertning xulosasi dalillar manbai hisoblanadi, mutaxassisning fikri esa bunday vazifani bajara olmaydi.

Mutaxassisni jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga jalb etish tartibi ham ekspertiza tayinlash tartibidan farq qiladi. Qonunda mutaxassis ishtiroki shart boʻlgan ikki hol koʻrsatilgan: 14 yoshgacha boʻlgan guvoh yoki jabrlanuvchini soʻroq qilishda va murdani koʻzdan kechirishda. Tergov harakatini oʻtkazishda ishtirok etish mutaxassisning majburiyati emas, huquqidir.

Tarjimon – tarjima uchun bilish zarur boʻlgan tillarni egallagan va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan ishda ishtirok etayotgan shaxslar jinoyat tergov qilinayotgan yoki sud muhokamasi amalga oshirilayotgan tilni bilmaganida tayinlanadigan shaxs.



Eʼtibor qiling! Tarjimon quyidagi hollarda chaqiriladi:
1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy daʼvogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoki kar yoki soqov boʻlsa;

2) biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat boʻlsa.

Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralari tushunadigan shaxsga nisbatan ham qoʻllaniladi (JPK, 71-modda).

Surishtiruv yoki tergov olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxs ishtirokida amalga oshiriladigan har qanday tergov harakatini oʻtkazishda, sud muhokamasida tarjimon ishtirok etishi shart. Tarjimonning tayinlanishi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan rasmiylashtiriladi. Jinoyat

protsessining boshqa ishtirokchilaridan hech biri, jumladan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya tarjimon vazifasini bajarish huquqiga ega emas.

JPKning 73-moddasiga muvofiq, **xolislarni** surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tergov harakatlari o'tkazilganini, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tasdiqlash uchun JPKda nazarda tutilgan hollarda chaqirtiradi.

Tergov harakatlarini yuritishda ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan, kamida ikki nafar voyaga etgan fuqaro chaqirilishi lozim. Tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror xolislarga ularning JPKning 74-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.



Ma'lumot uchun: *Xolis* o'zi ishtirok etgan tergov harakatini yuritish bilan bog'liq holatlar bo'yicha guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin. U bunday hollarda JPKning 66-moddasida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

JPKning 75-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi yoki uning vakili, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yoki xolis sifatida chaqirilgan shaxsning ish joyidagi o'rtacha oylik maoshi uning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud huzuriga chaqirilishi munosabati bilan ketgan hamma vaqt uchun saqlanadi. Ishlamaydigan shaxslarga ular kundalik mashg'ulotlari bilan shug'ullana olmaganliklari uchun haq to'lanadi. Bundan tashqari, ko'rsatilgan hamma shaxslar chaqirilish munosabati bilan qilgan sarf-xarajatlarini undirish huquqiga egadirlar.

Ekspert, mutaxassis va tarjimon o'z majburiyatlarini bajarganliklari uchun haq olish huquqiga ega. Sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda va miqdorda to'lanadi.

Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar. Rad etishlar.

JPK jinoyat protsessining aksariyat ishtirokchilari ish yuritilishida ishtirok etishi mumkin bo'lmagan holatlarni nazarda tutadi.



E'tibor qiling! JPKning 76-moddasiga muvofiq sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim, basharti:

- u shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vog'ar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;

- u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida tilga olingan shaxslarning qarindoshi bo'lsa;

- uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa.

Bundan tashqari, birinchi instansiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarida ishni ko'rishda ishtirok etgan sudya o'zining ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim bekor qilinishidan keyin o'sha ishni ko'rishda ishtirok eta olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarning Plenumda jinoyat ishlarini ko'rishda ishtirok etishi bundan mustasno.

Ayni vaqtda surishtiruvchining, tergovchining hamda sud majlisi kotibining o'z protsessual majburiyatini bajarishi, basharti ushbu ish qo'shimcha tergov yuritish yoki sudda yangidan ko'rish uchun jo'natilgan bo'lsa, ular tomonidan tegishincha surishtiruv, dastlabki tergov yuritishga, shuningdek sud majlisi bayonnomasini tuzishga monelik qilmaydi.

Jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi va jamoat birlashmasi yoki jamoaning boshqa vakillari yuqorida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ishda ishtirok etishga haqli emaslar va rad qilinishlari lozim²².

Ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis shu holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek ishda ishtirok etayotgan shaxslardan birortasiga xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatdan tobe bo'lsa, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va rad qilinishi lozim.

Bundan tashqari, xolislar ichki ishlar organi, Davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura, adliya yoki sud xodimi bo'lsalar, rad qilinishlari lozim.



Ma'lumot uchun: Materiallari ishning qo'zg'atilishiga asos bo'lgan taftish yoki o'zga idoraviy tekshiruv o'tkazgan shaxs ushbu ishda ekspert yoki mutaxassis sifatida ishtirok etishga haqli emas.

Ishni tergov qilish chog'ida rad etish masalasi prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan, sud majlisida esa, sud tomonidan ham qo'yilishi mumkin.

Rad qilingan shaxs rad etish haqidagi masala ko'rilguniga qadar tushuntirish berishga haqli.

Sudyani rad qilish masalasi qolgan sudyalar tomonidan rad qilingan shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi. Ovozlar teng bo'linganda sudya rad qilingan hisoblanadi. Ko'pchilik sudyalarni yoki sudning butkul tarkibini yoxud sud majlisining kotibini rad qilish haqidagi masala to'la tarkibdagi sud tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal etiladi. Ishni yakka o'zi ko'rayotgan sudyani rad qilish masalasini uning o'zi hal qiladi.

²² Jinoyat protsessi (Umumiy qism): Yuridik institut va fakultetlari talabalari uchun darslik (Z.F.Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida). - T.: TDYUI nashriyoti, 2008. -596 b.

Prokurorni rad qilish masalasi ishni tergov qilish chog'ida yuqori turuvchi prokuror tomonidan, sud majlisida esa, ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilini rad qilish masalasi ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchini rad qilish masalasi surishtiruv va dastlabki tergov ustidan nazorat olib boruvchi prokuror tomonidan hal etiladi.

Ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni, himoyachini, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakillarini rad qilish masalasi ishni tergov qilish chog'ida surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan, sud majlisida esa, ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Xolisni rad qilish masalasi surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan hal etiladi.

Ishni tergov qilish chog'ida qo'yilgan rad qilish masalasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan yigirma to'rt soat ichida hal etiladi. Rad qilish sud majlisida qo'yilgan bo'lsa, bu masala shu majlisda darhol hal etiladi.

Rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasini ayting.
2. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan organ va mansabdor shaxslarni ayting.
3. Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillarini tushuntiring.
4. Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar kimlar?
5. Himoyachi va vakillarning jinoyat protsessidagi ishtirokini bayon qiling.
6. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga kimlar kiradi?

§ 1.4. Jinoyat protsessida dalillar

Dalillar tushunchasi va turlari.

Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga muvofiq, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.

Shuningdek, qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari ham jinoyat-protsessual qonun normalariga muvofiq tegishli vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan tekshirilib, o'rnatilgan tartibda baholanganidan so'ng jinoyat ishi bo'yicha dalillar sifatida e'tirof etilishi mumkin.



E'tibor qiling! Dalillarning *xossalari* bu - faktik ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanish uchun talab etilgan zarur belgilardir.

Bu xossalarga quyidagilar kiradi:

- 1) aloqadorlik (tegishlilik);
- 2) maqbullik;
- 3) ishonchlilik;
- 4) kuchga egalik (ahamiyatlilik);
- 5) yetarlilik.

Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga *aloqador deb* e'tirof etiladi.

Dalilning maqbulligi deganda, dalilni uning manbai, vakolatli shaxslarning faktik ma'lumotlarni olish va qayd etish usullari nuqtayi nazaridan tavsiflovchi xususiyati tushuniladi.

Shuningdek, dalillar maqbul bo'lishi uchun quyidagi shartlari to'la muvofiq bo'lishi lozim:

- dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq bo'lgan barcha protsessual harakatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi;

- ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar faqat JPK 81-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan, ya'ni tergov yoki sud harakatlarini o'tkazilishi natijasida olingan bo'lishi;

- dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq faoliyat jinoyat-protsessual qonun normalarida belgilangan tartibga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lishi;

- dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo'lishi shart.

Dalillar maqbulligiga taalluqli yuqorida sanab o'tilgan shartlardan birortasiga amal etilmasligi dalilning nomaqbul deb topilishiga asos bo'ladi.

Agar faktik ma'lumotlar qonunga zid usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud jinoyat-protsessual qonun talablari buzilgan holda olingan bo'lsa, ular dalil sifatida **maqbul emas** deb topiladi.



Ma'lumot uchun: Shuningdek, dalillar:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo'li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida **maqbul emas** deb topiladi.

Faktik ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanishning maqbul yoki maqbul emasligiga doir masala tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning o'z tashabbusi bilan yoki protsess ishtirokchilarining iltimosnomasi asosida aniqlanadi. Tegishli vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxs dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi masalani hal qilayotganida har bir holatda yo'l qo'yilgan buzilish nimada aniq ifodalanganligini aniqlab olishi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan Jinoyat-protsessual kodeksi normalari buzilgan holda olingan ko'rsatuvlardan,

ekspert xulosasidan, ashyoviy dalillardan, audio-, videoyozuvlardan va boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanadi.



Ma'lumot uchun: Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunni aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko'ra yuz berganligidan qat'i nazar, shu yo'l bilan olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi. Maqbul emas deb topilgan dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan Jinoyat-protsessual kodeksining 82–84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas. Lekin dalillarni to'plash paytida yo'l qo'yilgan qonun buzilishi sababli nomaqbul deb topilgan ayrim dalillardan isbot qilishda tegishli protsessual harakatlar belgilangan talablarga amal qilgan holda o'tkazilgandan so'ng foydalanilishi mumkin (*masalan, tergov yoki sud harakati o'tkazish bayonnomalarida ayrim ma'lumotlar yoki bandlarning yo'qligi, basharti bu kamchilikni xolislar, ushbu harakatning boshqa ishtirokchilarini, zarur hollarda esa, tergovchini so'roq qilish orqali bartaraf qilish imkoniyati bo'lsa*).

Shu bilan birga, nomaqbul deb topilgan ayrim dalillarni ularning yuridik tabiatiga ko'ra tiklashning imkoniyati yo'q (*masalan, qonunga muvofiq roziligi olinishi shart bo'lgan hollarda jabrlanuvchini, guvohni uning roziligini olmay turib takroran so'roq qilish, shaxsni yoki narsani tanib olish uchun takroran ko'rsatish va h.k.*). Bu esa, isbot qiluvchi subyektni muayyan holatni tasdiqlovchi vosita sifatida mazkur dalilga tayanish huquqidan mahrum etadi. Shuning uchun ham ish bo'yicha har qanday qaror qabul qilishda, shu jumladan, ayblov xulosasi va hukmda nomaqbul dalillarga asoslanish mumkin emas.

Dalilning ishonchliligi olingan ma'lumotlarning qonunda nazarda tutilgan manbalarga mosligi bo'lib, uni dastlabki tergovda va sudda puxta tekshirish natijasidir. Tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanadi. Ayblanuvchining aybdorligi (aybsizligi) to'g'risidagi xulosalarga zid bo'lgan dalillar qaror (hukm)da nafaqat ko'rsatilishi balki, tergovchi va sud tomonidan nima uchun ular ishonchsiz deb topilganligi va rad etilganligi sabablari asoslantirilgan bo'lishi lozim.

Dalilning ahamiyatligi – bu uning daliliy qimmatini, argument sifatida mantiqiy ishonchliligidir.

Dalilning yetarliligi – jinoyat holatlarini voqelikka mos tarzda aniqlash, jinoyat ishini tergov qilish va ko'rib chiqish jarayonida asoslangan qarorlar chiqarish uchun zarur bo'lgan hamda ichki e'tiqod (ishonch) bo'yicha aniqlanadigan aloqador va ishonchli dalillar majmui.

Ishda to'plangan dalillarning yetarli emasligi, dalillar qonunga zid ravishda olinganligi sababli ular dalil hisoblanmasligi yoki qo'yilgan ayblovdan sudlanuvchining to'liq aybdorligi to'g'risidagi shubhani bartaraf qilishning imkoni yo'qligi haqidagi sudning asoslantirilgan xulosasi oqlov hukmi chiqarish uchun asos bo'ladi, bu JPKning 464-moddasi mazmunidan kelib chiqadi. Agarda shaxsning aybdorligi haqidagi shubhani bartaraf qilishning imkoni bo'lsa, sud uni bartaraf etish choralarini ko'radi, agarda JPKning 419-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lsa ishni qo'shimcha tergov yuritish uchun qaytaradi.



E'tibor qiling! Dalillar o'zining mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari; ekspertning xulosasi; ashyoviy dalillar; ovoqli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar; elektron raqamli materiallar; tergov va sud harakatlarining bayonnomalari; boshqa hujjatlar.

Dalillarning tasniflanishi. Dalillar xususiy va ashyoviy, ayblovdan va oqlov, dastlabki va hosila, bevosita va bilvosita dalillarga bo'linadi.

Xususiy dalillarga guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ko'rsatuvlari, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari hamda boshqa hujjatlar, ekspertning xulosasi kabilar kiradi. Xususiy dalillarning turli guruhlar uchun umumiy bo'lgan jihat insonning hodisalarni ruhiy idrok etishi va ishning to'g'ri hal qilinishi uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni og'zaki yoki yozma, lisoniy (til) yoki boshqa shakllarda berishi tashkil qiladi.

Ashyoviy dalillarga jinoyat holatlarini ta'sir, o'zgarish, yuz berish kabilarning izlari ko'rinishida aks ettirish xususiyatiga ega bo'lgan moddiy obyektlar kiradi. Moddiy obyektlarda mavjud bo'lgan axborot lisoniy shaklda emas, balki predmet belgilarini bevosita idrok etish orqali beriladi.

Ashyoviy dalillar va hujjatlar tergov va sud majlislarida ish bo'yicha boshqa dalillar qatorida chuqur tekshirilishi (shuningdek, ko'zdan kechirilishi, e'lon qilinishi) lozim. Shu o'rinda ularni tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxslar sudlarning e'tiborini ularni tekshirish bilan bog'liq bo'lgan u yoki boshqa holatlarga qaratishlari mumkin. Ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish va hujjatlarni e'lon qilish bilan bog'liq sudning barcha harakatlari sud majlisi bayonnomasida aks ettirilgan bo'lishi kerak.



E'tibor qiling! Olinish manbasiga qarab dalillar dastlabki va hosila dalillarga bo'linadi.

Dastlabki dalillar bu – aniqlanishi lozim bo'lgan holat to'g'risidagi ma'lumot birinchi manbadan olingan dalillardir.

Hosila dalillar esa isbotlanishi lozim bo'lgan fakt to'g'risidagi ma'lumot birinchi manbadan emas, balki boshqa manbadan olingan dalillardir.

Dastlabki va hosila dalillar tergovchi, sud ushbu axborotni dastlabki manbalardan yoki “ikkinchi qo‘l”dan olishiga qarab farqlanadi.

O‘z navbatida hosila dalillar ham isbot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, dastlabki dalillarni topish va tekshirishda yoxud dastlabki dalil yo‘qolganida ularni qayta tiklashda hosila dalillaridan unumli foydalanish mumkin.



E‘tibor qiling! Dalillarni *ayblov* va *oqlov* dalillariga bo‘lish ayblov predmetiga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq.

Ayblovchi dalillar deb – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining jinoyat sodir etganligidan dalolat beruvchi yoki uning aybini og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydigan faktik ma‘lumotlar ayblov dalillari hisoblanadi. Bunday dalillarga ayblovga asos bo‘lgan dalillar yoki ayblovchining javobgarligini og‘irlashtiruvchi holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiradi.

Oqlovchi dalillar – bu muayyan shaxsning jinoyat sodir etganligini inkor etuvchi yoki uning aybini yengillashtiruvchi holatlarni aniqlaydigan faktik ma‘lumotlar, shuningdek, ayblanuvchiga qo‘yilgan ayblovni shubha ostiga oluvchi dalillardir.

JPKning 464-moddasi talablariga muvofiq ishda to‘plangan dalillarning yetarli emasligi, dalillar qonunga zid ravishda olinganligi sababli ular dalil hisoblanmasligi yoki qo‘yilgan ayblovda sudlanuvchining to‘liq aybdorligi to‘g‘risidagi shubhani bartaraf qilishning imkoni yo‘qligi haqidagi sudning asoslantirilgan xulosasi oqlov hukmi chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Dalillarni ayblovchi va oqlovchi dalillarga bo‘lish shartli xususiyatga ega, chunki bir dalil ish yuritish davomida o‘z xususiyatini o‘zgartirishi mumkin. Qonun har bir jinoyat ishi bo‘yicha ayblanuvchini ayblovchi dalillarnigina emas, uni oqlovchi dalillarni ham, shuningdek uning javobgarligini yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni ham aniqlashni shart qilib qo‘ygan (JPK, 22-modda).

Bevosita va **bilvosita** dalillar isbotlash predmetiga ko‘ra bo‘linadi. Bevosita dalillar isbotlash predmetiga kiruvchi holatlar haqidagi axborotga ega bo‘lgan faktik ma‘lumotlardir, bilvosita dalillar esa ikkilamchi faktlar haqidagi axborotga ega bo‘lib, ulardan ish bo‘yicha qidirilayotgan faktlar haqida xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi. Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida bevosita va bilvosita dalillar **to‘g‘ri va egri dalillar** deb ham ataladi.



Ma‘lumot uchun: To‘g‘ri dalillar isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettiruvchi dalillar bo‘lsa, egri dalillar oraliq faktlar to‘g‘risidagi faktlarni aks ettiradi.

To‘g‘ri dalilda jinoyat sodir etganligini yoki etmaganligini ko‘rsatuvchi yagona xulosa bo‘ladi. Masalan: T. ismli shaxsda topilgan narsa narkotik moddasi bo‘lsa, mazkur narkotik moddasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ashyoviy dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Egri dalillar asosida esa, bir nechta xulosa chiqarish mumkin. Masalan: o'g'irlangan narsalar T. ismli shaxsdan topilganligi shu bilan izohlanadiki, u bu narsalarni yoki sotib olgan, yoki o'g'irlab olgan, yoki topib olgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha oyoq yoki poyabzal izlari, barmoq yoki qo'l izlaridan faqat egri dalil sifatida foydalanish mumkin.



E'tibor qiling! To'g'ri va egri dalillarni farqlash katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilardan iborat:

1) To'g'ri dalillar egri dalillardan yaxshiroq emas, egri dalillar esa to'g'ri dalillardan yomonroq emas degan fikrni anglab olishdan, to'g'ri dalillarning bahosini oshirishga hamda egri dalillarning bahosini kamaytirishga yo'l qo'ymaslikdan.

Amaliyotda shunday ishlar bo'ladiki, ular bo'yicha ayblov faqat egri dalillarga asoslanadi. Egri dalillarga asoslangan qaror to'g'ri dalillarga asoslangan qaror qanday qonuniy kuchga ega bo'lsa, shunday qonuniy kuchga ega bo'ladi.

2) Garchi egri dalillarning ahamiyati to'g'ri dalillarning ahamiyatidan kam bo'lmasada, ishlarni yuritish tajribasida egri dalillardan foydalanish to'g'ri dalillardan foydalanishga qaraganda qiyinroqdir. To'g'ri dalil ushbu qidirilayotgan muhim faktni bevosita, hech qanday ko'maklashuvchi bo'g'inlarsiz ko'rsatadi. Egri dalil ikkilamchi, erkin faktni bevosita ko'rsatadi hamda faqat u orqali isbotlash burchi yuklatilgan shaxsga qidirilayotgan muhim fakt haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

3) Egri dalil aynan ikkilamchi faktni bevosita ko'rsatganligi uchun u boshqa dalillar bilan uzviy o'zaro bog'langan holda yuridik ahamiyatga ega bo'ladi. Tegishincha, faqat egri dalilga ishni hal qilish uchun yetarli isbotlovchi material deb qarash mumkin emas.

4) Haqiqiy faktlar huquqni muhofaza qilish organlarining gumon va taxminlari bilan almashtirib qo'yilmagani uchun egri dalillarning tasodifiy emas, balki xolisona bog'liqligini aniqlash zarur, sababli bog'liqlik nafaqat egri dalilni, balki egri dalillar yig'indisini isbotlash predmeti, huquqbuzarlik tarkibi bilan birga qamrab olishi lozim.

5) Nihoyat, egri dalillar yig'indisi ushbu shaxsning unga ayb qilib qo'yilayotgan huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdorligi haqida xulosa chiqarish uchun yetarli deb, basharti o'zining tugallangan holda u qandaydir boshqa taxminlar, boshqa xulosalar mumkinligini istisno etsa, shuningdek ushbu xulosa faqat yagona sababli, tegishli haqiqiy ma'lumotlar yig'indisidan va ular haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsa, e'tirof etilishi mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, isbot qilinmagan aybdorlik isbotlangan aybsizlikka teng, ayblov qarori taxminlarga asoslanishi mumkin emas va u ish yuritishda huquqbuzarning

huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdorligi so‘zsiz isbotlangan taqdirdagina chiqariladi.

Demak, egri dalillar tarqoq faktlar va ular haqidagi ma’lumotlar emas, balki yagona tarkibiy qismlari o‘zaro sababli uzviy bog‘liqlikda va o‘zaro bir-birini taqozo etgan yaxlit birlikdir. Aynan shunday ko‘rinishda ular isbotlovchi va muqarrar kuchni tashkil etib, u muayyan shaxsning ma’lum huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdorligi haqida fikr yuritishga imkon beradi²³.



E’tibor qiling! Keltirilgan egri dalillarning tasnifidan ulardan foydalanishning quyidagi qoidalari kelib chiqadi:

1) egri dalillar ish bo‘yicha faqat o‘zining yig‘indisida ishonchli xulosalarga olib keladi;

2) egri dalillar o‘zaro va isbotlanadigan qoida bilan xolisona bog‘langan bo‘lishi kerak;

3) egri dalillarning tizimi (yig‘indisi) shunday asoslangan xulosaga olib kelishi kerakki, u aniqlangan holatlarning boshqacha talqinini istisno etadi, holatlar bu dalillar asosida aynan aniqlanganidek bo‘lganligidan oqilona shubhalarni istisno etadi.

Huquqshunos olim V.M Lukin yozganidek, egri dalillar “o‘z yig‘indisida va muayyan guruhda bo‘lganida bir-birini mustahkamlab, tasdiqlab va bog‘lab alohida ahamiyatga va kuchga ega bo‘ladi. Bu ikkilamchi mayda holatlar huquqbuzarlik va uning uchun ma’lum bir shaxsning aybdorligi mavjudligi haqidagi taxmin atrofida oydinlashadi, bosqichma-bosqich alohida shubhani gumonga aylantirib, shuningdek unga kuchli ehtimollik va so‘ngra unga vujudga kelgan mustahkam ishonchlilik xususiyatlarini bag‘ishlaydi”²⁴.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat protsessida dalillar tushunchasi va ahamiyatini ayting.
2. Dalillarning xossalari nimalardan iborat?
3. Dalillarning turlarini tushuntiring.
4. Dalillar o‘zining mazmuniga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
5. Dalillar qaysi hollarda nomaqbul deb topiladi?
6. Ayblovchi va oqlovchi dalillarning farqlovchi jihatlarini tushuntiring.

²³ Mark E, Cammack, Norman M. Garland. Advanced criminal procedure. Second edition. Thomson/ West. USA, 2006.

²⁴ Лукин В.М. Уголовно-протессуальная деятельность органов дознания: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – СПб.: Санкт-Петербургский университет МВД России, 2003. – С. 9.

2-BOB. TERGOV HARAKATLARI – ISBOTLASH VOSITALARI. PROTSESSUAL MAJBURLOV

§ 2.1. Isbotlash jarayoni

Ma'lumki, isbotlash – ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'lgan protsessual faoliyatdir.

JPKning 22-moddasiga binoan ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat qonunda nazarda tutilgan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Isbot qilishdan maqsad haqiqatni aniqlash ekanligini aytib o'tdik. Biroq, haqiqat tushunchasi u yoki bu ish bo'yicha aynan qaysi holatlar aniqlanishi lozimligini belgilab berolmaydi. Buning uchun boshqa tushuncha – isbot qilish predmeti xizmat qiladi. Ma'lumki, har bir jinoyat ishi o'ziga xos bo'ladi. Shu bilan birga turlicha hodisalar o'rtasida umumiy bo'lgan holatlarni ajratib olish mumkin.



Ma'lumot uchun: *Isbotlash predmeti* – xususiyati qanday ekanligidan qat'i nazar, har bir jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi shart bo'lgan va ishni mazmunan hal qilish uchun huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar majmui.

Isbotlash predmetiga quyidagilar kiradi:

- 1) jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;
- 2) jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, uni sodir etish usuli, shuningdek, Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlar; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- 3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;
- 4) jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari;
- 5) ayblanuvchi yoki sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (JPK, 82-modda).

Voyaga etmaganlar jinoyatlari haqidagi ishlar hamda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashga oid ishlar bo'yicha isbotlash predmeti ayrim xususiyatlarga ega. Mazkur holatlar jinoyat ishini tergov qilish va ko'rib chiqish davomida jinoyat sodir etilganligini tasdiqlash va uni sodir etgan shaxsni topish uchun aniqlanadi. Shu bilan birga, isbotlash predmeti doirasida jinoyat ishi yuritishni istisno etuvchi holatlar ham aniqlanishi mumkin (JPK, 83-modda). Ushbu holatlarning aniqlanishi, protsessning qaysi bosqichda ekanligiga qarab, quyidagi qarorlardan birining qabul qilinishiga olib keladi: jinoyat ishini

qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish, ayblov yoki oqlov hukmini chiqarish.

Isbot qilish jinoyat protsessida juda muhim o'rinni egallaydi. Agar isbot qilish faoliyati natijasiz yakunlansa, jinoyat kim tomonidan va qanday holatlarda sodir etilganligi aniqlanmasa, jinoyat protsessining maqsadlariga erishilmagan deb hisoblash mumkindir. Shuningdek, jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar qoplanmasa, asosiysi, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikka tortilmasa, u o'zining qonunga xilof harakatlarini davom ettirishi shubhasizdir.

Qolaversa, agar tegishli vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxs isbot qilish jarayonida xatolikka yo'l qo'ysa, og'ir oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Xususan, aybsiz bo'lgan shaxslarning javobgarlikka tortilishi buning yaqqol tasdig'idir. Shunday ekan, isbot qilish qanchalik to'la va mahorat bilan amalga oshirilsa, jinoyat ishi bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi shunchalik ta'minlangan bo'ladi.

Jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar juda ko'p bo'lib, ularning har biri o'z xususiyati va belgisiga egadir. Ushbu holatlarni to'la va har tomonlama aniqlash isbotlash chegarasini belgilash demakdir²⁵.



Ma'lumot uchun: *Isbotlash chegarasi* deganda, ish bo'yicha chiqarilgan xulosalarning asosligini tasdiqlash uchun dalillar, ularning manbalari hajmi, shuningdek tergov versiyalari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish doirasini belgilab beruvchi faoliyatni tushunish lozim.

Isbotlash chegarasining to'g'ri belgilanishi jinoyat ishi bo'yicha adolatni qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Isbotlash predmeti va chegarasi tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga tobedir. Isbotlash predmeti javobgarlik va jazo masalalarini hal qilishi uchun faktik asos bo'lgan hamda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni o'z ichiga olsa, isbotlash chegarasi esa isbotlash predmetini aniqlash uchun faktik asos bo'lgan daliliy materiallarni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida isbotlash chegarasi isbotlash predmetiga tobe bo'lib, aynan shu asosda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar to'planadi, tekshiriladi, baholanadi va tegishli protsessual harakatlar amalga oshiriladi. Isbotlash chegarasi isbotlash predmetiga kiruvchi fakt (holat)larni aniqlash va tekshirishning doirasidir. Isbotlash chegarasi isbotlash predmetiga kiruvchi faktlar,

²⁵ Уголовно-процессуальное право. Особенная часть. (коллектив авторов) – Т.: ILM-ZIYO, 2011. – 544 б.

holatlarni tekshirilishini ta'minlaydi. Shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha bo'lgan versiya, analizlar ham tekshiriladi²⁶.



Ma'lumot uchun: Isbotlash chegarasi jinoyat protsessining barcha bosqichlari uchun yagona bo'lib, uning tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar (vaqt, joy va boshqalar) va jinoyat tarkibi bor yoki yo'qligi to'g'risidagi holatlar;
- shaxsning aybini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi holatlar;
- sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ko'rsatadigan holatlar;
- jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyatini va miqdorini aniqlovchi holatlar;
- jinoyatni sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni aniqlovchi holatlar.

Shunday qilib, jinoyat protsessida isbot qilish predmeti ish bo'yicha nimalar aniqlanishini bildirs, isbotlash chegarasi esa ish bo'yicha mavjud holatlarning tekshirish hajmi va doirasini belgilaydi.

Isbot qilishning umumiy shartlari JPKning 9-bobi (85-95-moddalar)da nazarda tutilgan bo'lib, ularning bajarilmasligi har qanday tergov harakatining natijalari sudda ko'rib chiqish vaqtida daliliy ahamiyatga ega bo'lmasligiga olib keladi.

Isbotlash - butun jinoyat-protsessual faoliyatga singib ketgan va jinoyat protsessi vazifalarining ish bo'yicha haqiqatni aniqlash orqali amalga oshirilishini ta'minlaydigan murakkab jarayon.



E'tibor qiling! *Isbotlashning mazmunini*, avvalo, ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat protsessual harakatlar majmui tashkil qiladi (JPK, 85-modda). Ushbu harakatlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud amalga oshiradi.

Ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Sudlanuvchini jinoyatni sodir qilganligini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan har bir dalil, JPKning 95-moddasiga muvofiq ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.



²⁶ Jinoyat protsessual huquqi. Darslik. IIV Akademiyasi.- 2019- Mualliflar jamoasi.139-bet.

Ma'lumot uchun: Isbot qilishning umumiy shartlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- isbot qilish ishtirokchilari;
- dalillar to'plash;
- isbot qilish jarayonida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash;
- davlat sirlarini qo'riqlash;
- dalillarni bayonnomada qayd etish;
- dalillarni qayd etishda yordamchi usullar. Bayonnomaga ilovalar;
- tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish, uning asoslari, shartlari va tartibi, ushbu jarayonni va natijalarini qayd qilish;
- dalillarni qayd etishning to'g'riligini tasdiqlash;
- bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish yoki imzo cheka olmaslik hollarini tasdiqlash;
- dalillarga baho berish.



E'tibor qiling! Isbot qilishning maqsadi – jinoyat ishi bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlash yo'li bilan ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilishdir.

Jinoyat ishida haqiqatni aniqlash quyidagilarni bildiradi:

- 1) jinoyatni ochish;
- 2) uni sodir etgan shaxslarni aniqlash;
- 3) aybdorlarni adolatli jazolash;
- 4) aybsiz shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishiga va jazolanishiga yo'l qo'ymaslik;
- 5) chiqariladigan qarorlarning qonuniy va asoslangan bo'lishini ta'minlash;
- 6) fuqarolarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga ko'maklashish;
- 7) jinoyatning oldini olish;
- 8) jinoyat protsessida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash.

Jinoyat protsessidagi haqiqat tabiatan obyektiv haqiqatdir, ya'ni tergovchi va sud ish holatlari haqida chiqargan xulosalarning mazmuni ularning xohish-istaklariga bog'liq bo'lmaydi hamda obyektiv voqelikka mos kelishi kerak bo'ladi. Jinoyat protsessida aniqlanadigan haqiqat tabiatan ham mutlaq, ham nisbiy haqiqatdir. Haqiqatning nisbiyligi jinoyat protsessida obyektiv olamning tarkibiy qismi bo'lgan jinoyat voqelikdagi barcha aloqalari bilan birga emas, balki jinoyat protsessining vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan muayyan doirada o'rganilishi bilan bog'liq (JPK, 82-modda). Shu bilan birga, nisbiy haqiqat – tashqi dunyoning hodisalarini to'g'ri aks ettiradigan obyektiv haqiqatdir va shu bois

mutlaq haqiqatning zarrasiga ega. Mutlaq haqiqatning “zarralari” qonun mavjudligini muayyan huquqiy oqibatlar bilan bog‘laydigan barcha holatlarni aniqlashga taalluqlidir. Jinoyat protsessining tartibi haqiqatni aniqlash kafolatlarini yaratadi. Haqiqatga erishishda sodir etilgan jinoyatning holatlarini aniqlaydigan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudyalarning shaxsiy xislatlari katta ahamiyatga ega.

Amaliyot har qanday bilish jarayonida haqiqatning asosi va mezon sifatida qaraladi. Protsess turli ishtirokchilarining jinoyat-protsessual faoliyatida dalillar tekshiriladi va baholanadi hamda ular asosida jinoyat hodisasi tiklanadi. Ularning bunday faoliyati isbotlash asosi bo‘lib xizmat qiladi. Jinoyat protsessida, amaliy faoliyatning boshqa turlaridan farqli o‘laroq, sodir etilgan jinoyatni tajriba (eksperiment) o‘tkazib tekshirish ham, bunga yo‘l qo‘yish ham mumkin emas. Shu bois jinoyat protsessida amaliyot uning bilvosita va bevosita shakllarining, jinoyat ishini tergov qiluvchi va ko‘rib chiquvchi shaxslarning bevosita va bilvosita tajribasining majmui bo‘lmish ijtimoiy amaliyot sifatida namoyon bo‘ladi.



Ma’lumot uchun: JPKning 463-moddasiga ko‘ra, ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo‘lishi mumkin emas va faqat sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli ekanligi sud muhokamasi davomida isbot qilingan taqdirdagina chiqariladi. Ayblov hukmiga jinoyat sodir etilishining ish bo‘yicha barcha mumkin bo‘lgan holatlarini tekshirish, ish materiallarida ma’lum bo‘lib qolgan barcha kam-ko‘stni to‘ldirish, yuzaga kelgan hamma shubha va qarama- qarshiliklarga barham berish natijasida yig‘ilgan ishonchli dalillargina asos qilib olinishi lozim. Shundan kelib chiqib, sudlanuvchi tomonidan tergovda yoki sudda aybini bo‘yniga olish holati u ish bo‘yicha to‘plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona isbotlangan taqdirdagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo‘la oladi.



E’tibor qiling! *Isbot qilish subyektlari* deganda isbot qilish faoliyatida ishtirok etadigan va tegishli huquq va majburiyatlarga ega organlar va shaxslar tushuniladi. Bu subyektlar doirasi juda keng, biroq vakolatlari farq qiladi. Shu sababli ularni quyidagi mezonlar asosida guruhlariga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

1. Jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar;
2. Ish bo‘yicha shaxsiy yoki vakillik manfaatlari bo‘lgan shaxslar;
3. Daliliy axborotga ega shaxslar;
4. Texnik va yordamchi funksiyalarni bajaruvchi boshqa shaxslar.

Birinchi guruhga tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov organlari (sudgacha bosqichlarda) va sud kiradi. Bu davlat organlari va mansabdor shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

faqat mazkur davlat organlari va mansabdor shaxslar ish bo'yicha qaror chiqarishga, ya'ni tegishli holatlarni isbotlangan-isbotlanmaganligi yuzasidan xulosalar qabul qilishga vakolatlidir;

ular isbot qilish jarayonida eng ko'p vakolatlarga ega bo'lib, qonunda ko'rsatilgan dalillarni to'plash, tekshirish va baholash yuzasidan sud-tergov harakatlari o'tkazishga haqlidirlar. Ular isbot qilishning boshqa subyektlaridan dalillarni taqdim qilishni talab qilishlari mumkin;

mazkur davlat organlari va mansabdor shaxslarga jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish majburiyati yuklangan.

Ikkinchi guruhga ayblanuvchi, uning himoyachisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va uning vakillari kiradi.

Ushbu subyektlarning umumiy xususiyati shundaki, ular dalillarni tekshirishda faol ishtirok etishlari mumkin.

Sud muhokamasi davrida esa ular teng huquqli taraf sifatida ish ko'radilar. Biroq ular birinchi guruh ishtirokchilar kabi vakolatlarga ega bo'lmay, ish bo'yicha qaror chiqarishlari mumkin emas. Ular faqat dalil taqdim etishlari mumkin. Shunday qilib, isbot qilishda ular ishtirokining asosiy shakllari dalillarni taqdim qilish, iltimos qilish, tergov harakatlarida ishtirok etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari bu shaxslar isbot qilish-asoslashda ham ishtirok etadilar: ya'ni sud muzokaralarida qatnashib, ayblovning isbotlangan-isbotlanmaganligi to'g'risida o'z xulosa va fikrlarini bildirishlari mumkin.

Uchinchi guruhga daliliy axborotning manbai hisoblanmish shaxslar kiritilib, bularga guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar kiradi.

To'rtinchi guruhga tarjimon, sudyaning yordamchisi, xolislar kiradi.

Ma'lum bo'ladiki, isbot qilish tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin ekan. Isbot qilishda ishtirok etish huquqiga esa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi egadirlar. Nihoyat, isbotlashda ishtirok etishga guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek JPKda belgilangan tartibda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq huquqlarini amalga oshiruvchi va burchlarini bajaruvchi boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar ham jalb etiladilar²⁷.

Isbot qilishning mazmuniga dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari, shuningdek ushbu organlar bilan fuqarolar o'rtasida yuzaga

²⁷ O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" 2020-yil 14-may, O'RQ-617-son.

keladigan munosabatlar ham xosdir. Isbot qilish jinoyat protsessining barcha bosqichlarida mavjud, chunki hamma bosqichda faktlarning voqelikka mosligi oʻrnatilgan tartibda aniqlanishi lozim. Turli bosqichlarning vazifalari va protsessual shakllarining xususiyatlariga qarab holatlarning xususiyati, dalillarning yetarliligi, isbot qilish vositalari va dalillarni olish usullari oʻzgarishi mumkin. Ammo dalillarni toʻplash, tekshirish va baholash borasidagi faoliyatning asosiy yoʻnalishi – ish boʻyicha haqiqatni aniqlash oʻzgarmay qolaveradi.



Maʼlumot uchun: Dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni soʻroq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun koʻrsatish; koʻrsatuvni hodisa roʻy bergan joyda tekshirish; olib qoʻyish; tintuv; koʻzdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksperiment qilish; eksperiment oʻtkazish; ekspertiza tadqiqotlarini oʻtkazish uchun namunalarni olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib borilgan soʻzlashuvlarni eshitish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazish yoʻli bilan toʻplanadi (JPK, 87-modda).

Himoyachi ham jinoyat ishi boʻyicha dalillarni toʻplash va taqdim etishga haqli boʻlib, ushbu dalillar jinoyat ishi materiallariga qoʻshib qoʻyiladi, shuningdek tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov oʻtkazish va jinoyat ishini sudda koʻrish jarayonida majburiy baholanadi. Himoyachi ishga taalluqli axborotga ega boʻlgan shaxslarni soʻrovdan oʻtkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga soʻrov yuborish hamda ulardan maʼlumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali dalil toʻplashi mumkin.

Shunday qilib, protsessual **isbot qilish deganda**, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv organlari, prokuror hamda sudning qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan protsessning boshqa ishtirokchilari yordamida dalillarni aniqlash, toʻplash, tekshirish va baholash borasidagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyat davomida ish boʻyicha haqiqatni aniqlash maqsadida yuzaga keladigan munosabatlar tushuniladi.



Eʼtibor qiling! Isbot qilish elementlari:

- *dalillarni aniqlash va toʻplash* – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning faktik maʼlumotlar manbaini aniqlash, undan zarur axborotni olish va uni qayd etish borasidagi faoliyati boʻlib, ushbu faoliyat jinoyat-protsessual qonunda nazarda tutilgan shakllar va usullarda amalga oshiriladi. Dalillarni davlat organlari va mansabdor shaxslar JPK 22 va 86-moddalarining talablari asosida toʻplaydilar. Dalillarni, shuningdek gumon qilinuvchi,

ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari, har qanday fuqarolar va tashkilotlar ham taqdim etishlari mumkin. Dalillar jinoyat protsessining har qanday bosqichida har bir bosqichning protsessual xususiyatlaridan kelib chiqadigan shakl va usullarda to'planadi;

- *dalillarni tekshirish* – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning faktik ma'lumotlarning ishonchliligini hamda ular olinadigan manbalarning jinoyat ishi holatlarini to'g'ri aniqlash uchun yaroqliligini puxta, har tomonlama va xolisona aniqlash borasidagi faoliyati. Dalillar (JPK, 94-modda) protsessning barcha bosqichlarida tekshiriladi. Faktik ma'lumotlar ham, ular olinadigan manbalar ham, har bir dalil alohida hamda boshqa mavjud dalillar bilan birgalikda ham tekshirilishi lozim. Dalillarni protsessual qarorlarning qabul qilinishiga aloqador bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tekshiradilar. Protsessning boshqa subyektlari dalillarni tekshirishda ishtirok etadilar, xolos.

- *dalillarni baholash* – sudyalar, prokuror, tergovchi, surishtiruvchining fikriy faoliyati bo'lib, ushbu faoliyat davomida ular dalillarni to'liq, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib, o'zlarining ichki ishonchlari asosida har bir dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi hamda ularning protsessual qaror qabul qilish uchun yetarliligi haqidagi masalani hal qiladilar. Dalillar protsessning barcha bosqichlarida baholanadi. Dalillarni baholashning mohiyatini ularning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi hamda jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlarni topish uchun yetarliligini aniqlash tashkil qiladi. Qonunda dalillarni baholashga umumiy talablar belgilangan bo'lib, ular jinoyat protsessining barcha bosqichlari uchun yagonadir (JPK, 95-modda).

Dalillarni baholash jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etiladi.

Sudlanuvchining (jabrlanuvchining, guvohning) e'lon qilingan ko'rsatuvlari sud tomonidan sud tergovi jarayonida tekshirilishi lozim.

Hukmda sudlanuvchining jinoiy harakatlarini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan dalillarga asoslanganda, sud ularning mazmunini yoritishi va tegishli baho berishi lozim.

Agar ish bo'yicha jinoyat sodir qilganlikda bir nechta sudlanuvchilar ayblanayotgan yoki sudlanuvchi bir nechta jinoyatlarni sodir qilganlikda ayblanayotgan bo'lsa, sud hukmda har bir sudlanuvchiga nisbatan hamda har bir

ayblov bo'yicha dalillar keltirishi va tahlil qilib chiqishi hamda xulosa qilishi zarur²⁸.



E'tibor qiling! Dalillarni baholash isbot qilish jarayonining elementi sifatida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sudning aqliy, mantiqiy faoliyati bo'lib, ular ushbu faoliyat asosida har bir dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ahamiyati hamda jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlarni aniqlash uchun yetarliligi haqida ishonch hosil qiladilar, shuningdek jinoyat ishini yuritishning muayyan paytida mavjud bo'lgan dalillar majmui bo'yicha oraliq va yakuniy qarorlar qabul qilinadi.

JPKda dalillarni baholash yuqorida keltirilgan shaxslarning ichki ishonchiga havola qilinishi bilan birga, ushbu bahoning shakllanishi shartlarini hamda amalga oshirilgan baholashni ifodalashning protsessual shaklini ham belgilab beradi. Bu ichki ishonchdan iborat subyektiv omil hamda ish bo'yicha baholovchi xulosalarning ko'rib chiqilgan dalillari majmuidan iborat bo'lgan obyektiv omilning uyg'unligini ta'minlaydi.

Dalillarni baholashda ichki ishonch ikki jihatdan – dalillarni baholash usuli sifatida hamda bunday baholashning natijasi sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Ichki ishonch dalillarni baholash usuli sifatida sud, prokuror, tergovchining qandaydir boshqa organ protsessning har qanday bosqichida bergan dalillarni baholashga bog'liq emasligi; bir turdagi dalillarning boshqalaridan afzalligi haqidagi qoidalarning yo'qligi bilan kafolatlanadi. Dalillarni baholash natijasi sifatidagi ichki ishonch surishtiruvchi, tergovchi, sudyaning dalillarning ishonchliligi hamda ular jinoyat-protsessual isbot qilish davomida kelgan xulosalarning to'g'riligiga ishonishlarini bildiradi.



Ma'lumot uchun: Isbotlash jarayonida shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini, davlat sirlarini qo'riqlash. Isbotlash jarayonida, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda fuqarolarning, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash ta'minlanishi kerak. Shu bois JPKning 88-moddasiga muvofiq, isbot qilishda quyidagilar taqiqlanadi:

1) shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etish.

2) zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Mas'ul muharrir: prof. G'.A.Abdumajidov.–T.: TDYUI nashriyoti, 2009. 157-bet.

3) tungi vaqtda, ya'ni kech soat 22-00 dan ertalab soat 6-00 gacha tergov harakatlari olib borish. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish, jinoyat izi yo'qolishiga yoki gumon qilinuvchining qochib ketishiga yo'l qo'ymaslik, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zarurati bo'lgan hollar bundan mustasno.

Bojxona sohasidagi jinoyatchilikning murakkab, uyushgan va yangidan yangi ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan turlari paydo bo'lib kelayotgan sharoitda, bojxona organlarining **dalillarni to'plash va saqlash bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirishga oid amaliy munosabatlariga daxldor masalalarni tadqiq etish** zaruriyati tug'ilmoqda. Zero, dalillar jinoyatni tez fosh etishning asosiy va birlamchi vositasidir. Shu ma'noda bojxona organlarining bu boradagi faoliyati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Dalillarni to'plash va tekshirishda ishtirok etish uchun xolis, mutaxassis, ekspert va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari jalb etilib, qonunda belgilangan tartibda muayyan protsessual majburiyatlarni bajaradilar.

O'z navbatida himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etishga haqli bo'lib, ular jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida majburiy baholanishi lozim. Ushbu dalillar: ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to'planishi mumkin.



E'tibor qiling! Jinoyat protsessual kodeksi 87-moddasiga muvofiq ish bo'yicha dalillar to'plashda tergovga qadar tekshiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud qanday harakatlarni amalga oshirishga haqli ekanligini ko'rsatadi. Tergov jarayoni yoki sud muhokamasida tegishli protsessual harakatlarni olib borish ularning ixtiyoridadir.



Nazorat savollari:

1. Isbotlash predmeti va maqsadini ayting.
2. Isbotlash subyektlariga kimlar kiradi?
3. Isbotlash chegarasini tushuntiring.
4. Isbotlashning qanday elementlari mavjud?
5. Isbotlash jarayonida nimalar taqiqlanadi?

§ 2.2. Tergov harakatlari tushunchasi va turlari

Har qanday shaxs surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud chaqiruvga binoan ular chaqirgan joyga vaqtida yetib kelib, o'ziga ayon bo'lgan, jinoyat ishiga aloqador barcha faktlar bo'yicha to'liq va chin ko'rsatmalar berishi, ularning talabiga binoan u yoki protsessual harakatlarni bajarishi lozim.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha tergov harakatlari amalga oshirilishi orqali dalillarni qayd etish uchun O'zbekiston Respublika Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi va ushbu kodeks 10-25-boblarida ko'rsatilgan hamda dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan isbot qilish usullari xususida so'z yuritimiz.



Ma'lumot uchun: *Shunday qilib, tergov harakatlari bu - dalillarni yig'ish va tekshirishning qonun bilan tartibga solingan va davlat majburlov kuchini qo'llash imkoniyatlar bilan ta'minlanadigan usullaridir.*

Tergov harakatlari turli mezonlarga ko'ra tavsiflanadi. Tergov harakatlarini tasniflash huquqshunos olim S.A.Sheyfer tomonidan tadqiq qilinib, tergov harakatlarini bilish usuli, ma'lumotni olish usuli va obe'ktlarni namoyon bo'lish murakkabligiga ko'ra turlarga bo'linadi²⁹.

Tergov harakatlari bilish usuliga ko'ra:

- 1) so'rov shaklidagi tergov harakatlari;
- 2) kuzatuv shaklidagi tergov harakatlari;
- 3) kuzatuv va so'rov shaklidagi tergov harakatlariga bo'linadi.

So'rov shaklidagi tergov harakatlarida shaxsda dalil bo'la oladigan ma'lumotlar muloqot yoki so'zlashuv (so'rash) yo'li bilan olinadi. Bunga misol qilib so'roq qilish, yuzlashtirish tergov harakatlarini ko'rsatish mumkin.

Kuzatuv shaklidagi tergov harakatlari muayyan obyekt yoki jarayonning tashqi belgilarini yoki ulardagi o'zgarishlarni kuzatish orqali o'tkaziladi. Misol tariqasida guvohlantirish, olib qo'yish, eksperiment tergov harakatlarini ko'rsatish mumkin.

Kuzatuv va so'rov shaklidagi tergov harakatlari bir vaqtda bilishning ikkala usuli: ham kuzatuv, ham so'rov bilan o'tkaziladigan tergov harakatlari hisoblanadi. Bunga ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish misol bo'ladi. Bilish usullari jinoyat izlariga bog'liq va ular tergov harakatlarining protsessual shakliga sezilarli ta'sir etadi.



E'tibor qiling! Surishtiruv va tergov harakatlari o'zining maqsadiga ko'ra:

- 1) dalillarni to'plashga qaratilgan surishtiruv va tergov

²⁹ Шейфер С.А. Следственные действия. Система и процессуальная форма. М.: 2001. 73-88-бетлар.

harakatlari;

2) dalillarni tekshirishga qaratilgan surishtiruv va tergov harakatlariga bo‘linadi.

Dalillarni to‘plashga qaratilgan surishtiruv va tergov harakatlarida hali o‘rganilmagan obyekt xususida ma‘lumot olinadi. So‘roq qilish (takroran, qo‘shimcha va qayta so‘roq qilishlar bundan mustasno), olib qo‘yish, tintuv va boshqalar.

Dalilarni tekshirishga qaratilgan surishtiruv va tergov harakatlarida oldin surishtiruv va tergov harakatlari orqali boshqa bir surishtiruv va tergov harakatida yig‘ilgan dalilning haqiqiy holatga mos kelishi tekshiriladi. Bular yuzlashtirish, eksperiment o‘tkazish, tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatlaridir. Shuning uchun bunday tergov harakatlarini amalga oshirishdan oldin dastlabki kerakli dalillarni to‘plash zarur bo‘ladi³⁰.

Bulardan tashqari, fanda tergov harakatlarini tasniflashda ularni o‘tkazish paytiga ko‘ra (boshqa protsessual harakatlarga nisbatan) kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari turi ajratilib ko‘rsatiladi. Jinoyat protsessi nazariyasida “kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakati” tushunchasi ko‘plab ilmiy tortishuvlarga sabab bo‘ladi. Chunki olimlar bunday tergov harakatlarini turli xil talqin qilib, ularga mansub tergov harakatlarini o‘z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib belgilaydilar. Ayrim olimlar “kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari”ni kriminalistik tushuncha deb bilib, jinoyat tergov qilish taktikasiga ko‘ra jinoyat hali sovimagan izlaridan dalillarni olish va mustahkamlashga qaratilgan harakatlarning zaruriy birlamchilarini, ya‘ni kechiktirilmagan holda (agar tezkorlik bilan olib borilmasa, dalillarning yo‘qolishi, soxtalashtirilishiga olib kelishi mumkin) o‘tkaziladigan tergov harakatlarini tushunadilar³¹.



Ma‘lumot uchun: Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda dalillarni to‘plash bilan bog‘liq quyidagi tergov harakatlari mavjud:

- 1) so‘roq qilish;
- 2) yuzlashtirish;
- 3) tanib olish uchun ko‘rsatish;
- 4) ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish;
- 5) olib qo‘yish;
- 6) tintuv;
- 7) ko‘zdan kechirish;
- 8) guvohlantirish;

³⁰ Mark E, Cammack, Norman M. Garland. Advanced criminal procedure. Second edition. Thomson/ West. USA, 2006.

³¹ Qarang: Jinoyat protsessi (maxsus qism) dos. Z. Inog‘omjonovning umumiy tahriri ostida T: “Yangi asr avlodi” 2003-y., 22 - bet.

- 9) murdani eksperiment qilish;
- 10) eksperiment o'tkazish;
- 11) ekspertiza tadqiqotlari o'tkazish uchun namunalar olish;
- 12) ekspertiza ;
- 13) taftish tayinlash;
- 14) taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish;
- 15) telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so'zlashuvlarni eshitib turish yo'li bilan, shuningdek tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi.



E'tibor qiling! Tergov harakatlari o'tkazishning umumiy shartlari asosan quyidagilar:

a) Jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lishi kerak (hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza bundan mustasno (JPK, 329-modda, 2-qism).

b) tergov harakatini o'tkazishga vakolatli subyektning mavjud bo'lishi (monesiz ishtirok etadigan va qonunda belgilangan tartibda ishni o'z yurituviga qabul qilgan shaxs);

d) tergov harakatining o'tkazilish vaqti va joyi. Tergov harakatini o'tkazish joyi, ya'ni, tergov qilish joyi hududiy jihatdan tergovga tegishlilik (JPK, 346-modda) bilan aniqlanadi. Zarur hollarda tergov harakatlari boshqa joylarda, tergovchining shaxsan o'zi borishi yoki alohida topshiriq berishi bilan amalga oshiriladi.

Tergov harakatlari tungi vaqtda, ya'ni kech soat 22-00 dan ertalab soat 6-00 gacha tergov harakatlari olib borish mumkin emas. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish, jinoyat izi yo'qolishiga yoki gumon qilinuvchining qochib ketishiga yo'l qo'ymaslik, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zarurati bo'lgan hollar bundan mustasno (JPK, 88-modda, 2-qism, 3-band).



E'tibor qiling! Tergov harakatlarini o'tkazishning maxsus shartlari deganda muayyan holatda zaruriy tergov harakatini to'g'ri tanlashga yo'l qo'yadigan maxsus shart-sharoitlar nazarda tutiladi.

Ular sirasiga eng avvalo, tergov harakati o'tkazish uchun asoslar: aynan shu harakatlar yordamida muayyan dalil turini olish zarurati to'g'risida ma'lumot (fikir) ning mavjudligi hisoblanadi. Asos sifatida aniq ma'lumotlar, ba'zi hollarda rahbar shaxsning ko'rsatuvlari bo'lishi mumkin (Misol uchun muayyan tergov harakatini o'tkazish to'g'risida tergovchi yoki surishtiruvchiga prokurorning bergan ko'rsatmasi). Tergov harakatining asoslarini noto'g'ri aniqlash tergov harakatlarini noqonuniy ravishda birining o'rnini ikkinchisi bilan almashtirishga sabab bo'ladi. Amaliyotda guvohlantirish o'rnida yuzlashtirish, ekspertiza o'rnida tergov eksperimenti, eksperiment o'rnida esa, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda

tekshirish tergov harakatlari o'tkazilganligi va shunga o'xshash holatlarni uchratish mumkin. Bu holatlarda tergov harakatlari asossiz o'tkazilgan hisoblanadi va ularning natijalari o'zining daliliy kuchini yo'qotadi.



Ma'lumot uchun: Tergov harakatlarining maxsus shartlariga, shuningdek, ular ishtirokchilarining doirasiga va ularning huquqiy maqomiga e'lon qilinadigan talablarni ham kiritish mumkin.

Ushbu talablar *majburiy va fakultativ bo'lishi mumkin*. Ba'zi hollarda tergov harakatlari ishtirokchilarining majburiy doirasi qonun tomonidan ham belgilangan, masalan, ayrim tergov harakatida xolislarning va tarjimon va himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan holatlar Jinoyat-protsessual kodeksda ko'rsatilgan.

Ayblanuvchini so'roq qilish uchun ayblov e'lon qilinganligi, tanib olish uchun ko'rsatishda tanib oluvchi shaxsni tanib olish uchun ko'rsatiladigan shaxs yoki predmet xususida, uni qaysi belgilariga ko'ra tanib olishi to'g'risida so'roq qilish maxsus shartlardan hisoblanadi. Ekspertiza o'tkazish uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ularning himoyachisi ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror bilan dastlabki tanishuvi maxsus shart bo'lib xizmat qiladi. (JPK, 179-modda, 1-qism) Maxsus shartlarning mavjudligini qonun tergov harakatini o'tkazish to'g'risidagi yozma shaklda rasmiylashtirilgan qarorda aks ettirish talab qilinadi (bu tergov harakatining yuridik asosi deb ataladi).

Bojxona organi qaroriga ko'ra tintuv, olib qo'yish, ekspertiza (shu jumladan, ekspertiza oldiga qo'yilgan savollar) o'tkazish va boshqalar amalga oshiriladi. JPKda belgilangan ayrim hollarda davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar yoki narsalarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish va unga doir boshqa harakatlar faqat surishtiruvchi yoki tergovchining prokuror sanksiya bergan qaroriga yoxud sudning ajrimiga ko'ra amalga oshirilishi qo'shimcha ravishda nazarda tutiladi (JPK, 89-modda, 1-qism). Tergov harakatlarining ikkinchi elementi bu ularning protsedurasi, ya'ni tergovga tegishlilik va tergov harakatini o'tkazishning usullari hisoblanadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarda tergov harakatini o'tkazish bir necha bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich – tayyorlov bosqichi. Bunda tergov harakatini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi va rasmiylashtiriladi, tergov harakati o'tkazishni ta'minlash bo'yicha choralar ko'riladi.

Ikkinchi bosqich protsess ishtirokchilarini tasdiqlash, ularning huquq va majburiyatlari, tergov harakati vazifalari va o'tkazish tartibini tushuntirish bilan bog'liq. Shaxsni tasdiqlash faqat hujjat bo'yicha emas, tanib olish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin (agar surishtiruvchi, tergovchi bilan protsessning ushbu ishtirokchisi oldindan tanish bo'lsa, boshqacha usulda tanib olish uchun ko'rsatish qo'llanilishi mumkin). Muayyan tergov harakati ishtirokchilarining huquq va

majburiyatlari tushuntiriladi. Guvoh, jabrlanuvchi va mutaxassis (agar ko'rsatuv berayotgan bo'lsa) ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik to'g'risida, ekspert va tarjimon esa bila turib yolg'on xulosa va noto'g'ri tarjima qilganligi uchun ogohlantiriladi³².

Uchinchi bosqichda esa tergov harakatlari va natijalari qayd qilinadi.



E'tibor qiling! Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzilishi yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv o'tkaziladigan barcha tergov harakatlari uchun Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda ularni o'tkazishning quyidagi qoidalarini belgilagan:

- ularni o'tkazish chog'ida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish va qo'riqlash choralarini ko'rish (JPK, 18-modda va 88-modda, 1-qism);

- shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etmaslik (JPK, 88-modda, 2-qism, 1-band);

- zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishishga yo'l qo'yilmasligi (JPK, 88-modda, 2-qism, 2-band);

- tergov harakatlari o'tkazilayotganda, shaxsni yalang'och qilib yechintirish bilan bog'liq bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va ishda mutaxassis yoki ekspert sifatida ishtirok etayotgan shifokorlardan boshqa shaxslarning o'zga jinsdagi shaxsni ishtirok etmasligi (JPK, 88-modda, 2-qism);

- shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, shuningdek hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilmasligi (JPK, 17-modda, 1-qism);

- tergov harakatlari o'tkazish chog'ida ham ayblov, ham oqlov xarakteridagi dalillarni yig'ish (JPK, 22-modda);

- JPKning 90-92-moddalariga asosan bayonnoma yuritilishi va boshqalar.

Tergov harakatlari protsessual shaklining uchinchi elementi – ularni ta'minlash choralaridir. Tergov harakatlari o'tkazishning qoidalari, shartlari va asoslari to'g'risida protsessual normalarni buzish salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Ta'minlash choralari protsess ishtirokchilari uchun majburlov choralari, jarima, hattoki jinoiy javobgarlik choralari bo'lishi mumkin.

Bojxonaga oid jinoyatlarda tergov harakatlarini o'tkazishda fuqarolar va mansabdor shaxslar: tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, curishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi,

³² Уголовно-процессуальное право. Особенная часть. (коллек. авт.) – Т.: ILM-ZIYO, 2011. – 544 б.

himoyachi, jabrlanuvchi, vakillar, qonuniy vakillar, guvohlar, ekspert, mutaxassis, xolislar va boshqalar ishtirok etadilar. Ushbu ishtirokchilarning barchasi ko‘pqirrali, murakkab faoliyatni amalga oshiradilar. Tergov harakatlari o‘tkazish chog‘ida protsessual faoliyatda har bir ishtirokchining “ulushi” uning protsessual maqomi bilan o‘lchanadi.

Ish uchun ahamiyatli barcha holatlarni aniqlash majburiyatiga ega bo‘lgan isbot qilish subyektlari tergovchi, tergov qilishda qonuniy asoslarga ko‘ra ishtirok etadigan boshqa shaxslar, ya’ni surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruv organining boshlig‘i, tergov bo‘limining boshlig‘i, prokurorlar hisoblanadi. Hokimiyat faoliyatini amalga oshira turib ushbu shaxslar tergov harakatining borishiga rahbarlik qiladilar va huquqni qo‘llash faoliyatini amalga oshiradilar. Tergov harakatlarini amalga oshiruvchi shaxs tergov harakatini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, boshqa ishtirokchilar bilan huquqiy munosabatga kirishadi, ularning huquqlarini va majburiyatlarga amal qilishlarini ta’minlaydi, ishtirokchilarning xatti harakatlarini tegishli maqsadga yo‘naltiradi, tergov harakatlari o‘z vaqtida, qonuniy va samarali o‘tkazishning butun mas’uliyatini o‘z bo‘yniga oladi.



E’tibor qiling! Tergov harakatlarining qolgan barcha ishtirokchilari huquqiy maqomiga ko‘ra:

1) jinoyat protsessida shaxsiy va vakillik manfaatlariga ega bo‘lgan va isbotlash subyekti sifatida ishtirok etadigan shaxslar;

2) isbotlash subyekti bo‘la olmaydigan shaxslar guruhlariga bo‘lish mumkin.

Ko‘zdan kechirish, guvohlantirish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish kabi tergov harakatlarida ishtirok etgan himoyachi uning nuqtayi nazariga ahamiyatli bo‘lgan holatlarga e’tiborini qaratadi, ularni to‘liq bayonnomada aks ettirilishini nazorat qiladi, mutaxassisga savollar beradi, hujjatlar va ashyoviy dalillarni ishga birlashtirib qo‘yilishini iltimos qiladi. Boshqacha qilib aytganda, himoyachi ayrimlar aytganidek, tergovchi, xolis va mutaxassislarning xatti harakatlarini kuzatish bilan cheklanmasdan, ish hujjatlarini o‘rganish va tanishib chiqishni faol amalga oshirishi zarur³³.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik yuzasidan ishni yuritayotgan organ yoki mansabdor shaxs tomonidan **dalillarni to‘plash** – bu nafaqat biror bir aniq ma’lumotlarni aniqlash, balki ularni to‘g‘ri protsessual tartibda rasmiylashtirish, xususan, hujjat va narsalarni ish materiallariga birlashtirilishini unutmashimiz lozim. Bunday qaror qabul qilish faqat isbot qilish

³³ Jinoyat-protsessual huquqi fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. G.Z.To‘laganova, Sh.Fayziyev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2014. –433 bet.

subyektlari – ya'ni tergovga qadar tekshiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga tegishli.

Tergov harakatining qolgan ishtirokchilari – guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar, xolilar va boshqa bir qancha ishtirokchilar zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun jalb qilinadilar. Shu majburiyatlarga yarasha huquqlarga ega bo'lsalar-da, ular shaxsiy manfaatlarga ega bo'lmaydilar³⁴.



E'tibor qiling! Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, dalillarni to'plashda dalillar maqbulligining shartlari quyidagilar:

- dalil tegishli subyekt tomonidan, ya'ni dalilni olish bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatni o'tkazishga vakolatli mansabdor shaxs tomonidan olingan bo'lishi;
- faktga oid ma'lumotlar faqat JPK 81-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan olingan bo'lishi;
- dalil uni olish bilan bog'liq protsessual harakatni o'tkazishga oid qoidalar va tartibga rioya etilgan holda olingan bo'lishi;
- dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo'lishi³⁵.

Dalillarni ushbu ko'rsatilgan shartlar talablariga rioya qilgan holda to'plangandan so'ng, ish bo'yicha qabul qilinadigan qaror sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo'lishi lozim. Tekshiruv qo'shimcha dalillarni to'plashdan iborat bo'lib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin.

Jinoyat ishini yuritishni amalga oshirishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud dalillarni bevosita tekshirishlari: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilishlari, ekspert xulosalarini eshitishlari, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishlari, bayonnoma va boshqa hujjatlarni o'qib eshittirishlari shart. Jinoyat protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan alohida hollardagina bu qoidalardan chetga chiqishga yo'l qo'yilishi mumkin.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarda dalillarni to'plash asosan ko'zdan kechirish tergov harakatida to'planadi.

Ko'zdan kechirish asoslari: jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida hodisa sodir bo'lgan joyni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni Ko'zdan kechiriladi.

³⁴ Уголовно-процессуальное право. Особенная часть. (коллек. авт.) – Т.: ILM-ZIYO, 2011. – 544 б.

³⁵ O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi 24-son qarori 2018-yil 24-avgust.

Ko‘zdan kechirish kamida ikki nafar xolislar ishtirokida o‘tkaziladi. Zarur hollarda Ko‘zdan kechirish chog‘ida o‘lchov o‘tkaziladi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiriladi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuziladi, izlardan qoliplar va nusxalar olinadi. Bu ishlarni bajarishga yordam berish uchun ko‘zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Ko‘zdan kechirish chog‘ida topilgan va olib qo‘yilgan barcha narsalar xolislariga, taraflarga va ko‘zdan kechirishning boshqa ishtirokchilariga ko‘rsatilishi lozim. Ishtirokchilar o‘zlarining fikrlarini ish holatlarini oydinlashtirishiga yordam berishi holatlariga qaratishga haqlidirlar.

Jinoyat-protsessual qonunining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy prinsipi aybsizlik prezumsiyasiga ko‘ra shaxs uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda belgilangan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi³⁶.



Nazorat savollari:

1. Tergov harakatlari tushunchasi va turlarini ayting.
2. Tergov harakatlari qanday mezonlarga ko‘ra tavsiflanadi.
3. Tergov harakatlari o‘tkazishning umumiy shartlarini tushuntiring.
4. Tergov harakatlarini o‘tkazishning maxsus shartlarini bayon eting.
5. Bojxonaga oid jinoyatlarda o‘tkaziladigan tergov harakatlari qanday bosqichlardan iborat.

³⁶ M.Nurmatov, L.Eshnazarov “Bojxona to‘g‘rsidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini o‘tkazish va protsessual rasmiylashtirish” O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2015.

§ 2.3. Protsessual majburlov tushunchasi, mohiyati va klassifikatsiyasi

Protsessual majburlov tushunchasi, turlari.

Amaldagi JPKga muvofiq, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazgan (jinoiyat sodir etgan) subyektlarga nisbatan davlat tomonidan belgilangan ta'sir choralari tegishli organlar (muassasalar), mansabdor shaxslar va shaxslar majburiy tartibda qo'llashi mumkin. Bunda davlat majburlovining shakli bo'lgan jinoiyat-protsessual majburlov qo'llaniladi. Jinoiyat-protsessual majburlov choralari qo'llashdan maqsad protsess ishtirokchilarining zimmasidagi majburiyatlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek, jinoiyat ishlarini yuritish uchun maqbul bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Jinoiyat ishini yuritish tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud qabul qiladigan turli xil protsessual qarorlar va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan protsessual harakatlardan tashkil topadi. Ushbu qaror va harakatlar u yoki bu tarzda jinoiyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'ladi. Ushbu qarorlarga xos jihat shundaki, ular ba'zan jiddiy xususiyatga ega bo'lgan muayyan cheklovlar bilan bog'liq bo'ladi, ba'zan protsessning u yoki bu ishtirokchisiga o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishiga cheklovlar bilan bog'liq jiddiy ta'sir choralari ham qo'llaniladi³⁷.

Bunday cheklovlarning imperativ xususiyati jinoyatlarni ochish, muayyan shaxsning sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini ko'rsatuvchi dalillarini aniqlash va tegishli ravishda uni jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq jinoiyat-protsessual vazifalardan kelib chiqadi. Jinoiyat-protsessual faoliyat, avvalo, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadigan faoliyat sifatida amalga oshiriladi va ushbu majburlov tegishli protsessual majburlov choralari o'z ifodasini topadiki, ular jinoiyat protsessi u yoki bu ishtirokchisining noqonuniy va g'ayrihuquqiy manfaatlariga teskari munosabatda bo'ladi. Aynan shu bois jinoiyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga jinoiyat protsessi vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilinishini ta'minlash maqsadida turli majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq keng protsessual vakolatlar berilgan.



E'tibor qiling! *Jinoiyat-protsessual majburlov* deganda, jinoiyat protsessining vazifalari samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga tahdid tug'diruvchi noqonuniy qilmishlarning oldini olish maqsadida, qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va belgilangan tartibda vakolatli subyektlar tomonidan jinoiyat protsessining ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan shaxsiy, mulkiy va

³⁷ O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi. T:Adolat, 2011.

tashkiliy tavsifdagi huquqiy cheklovlar ko‘rinishidagi davlatning ta’sir choralari yig‘indisi tushuniladi.

Majburlov choralari o‘zining mazmuni va oqibatlari bo‘yicha farqlanadigan tegishli hokimiyat harakati tarzida amalga oshiriladi. Sud majlisida tartibni buzgan, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo‘ysunmagan yoki sudni behurmat qilgan taqdirda tartibbuzarga nisbatan JPKning 272-moddasiga muvofiq choralar qo‘llaniladi.

Sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan shaxs (sudlanuvchi, ayblovchi va himoyachi bundan mustasno) raislik qiluvchi tomonidan sud zalida chiqarilgan ajrimga asosan ma‘muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ajrim sud majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Jinoyat ishini yuritishda Jinoyat kodeksining 230–241-moddalarida nazarda tutilgan odil sudlovga qarshi jinoyatlarni sodir etgan surishtiruvchi yoki tergovchi JPKning umumiy qoidalari bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar. Bu odil sudlovga qarshi jinoyatlarni sodir etgan protsess ishtirokchilariga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishini va ular jinoiy javobgarlikka tortilishini bildiradi.

Protsessual majburlov choralari jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov yoki sud harakatlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan, o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo‘lsa, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hukm ijrosini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi.



Ma‘lumot uchun: *Jinoyat-protsessual majburlov choralariga*
quyidagilar kiradi:

- ushlab turish;
- ehtiyot choralari;
- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish;
- lavozimdan chetlashtirish;
- majburiy keltirish;
- shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish;
- protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash;
- surishtiruv, dastlabki tergov va sudda protsessual majburiyatlar hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik.

Shu bilan birga, majburlov xususiyatiga ega boshqa protsessual harakatlar ham mavjud. Jumladan tintuv, olib qo‘yish, guvohlantirish, ekspertiza, mol-mulkni xatlash kabi harakatlar maqsadi, huquqlarni cheklash darajasi va ta’sir doirasiga ko‘ra majburlov choralaridan farq qilishi bois ular boshqa protsessual harakatlar tizimiga kiradi.

Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va chegaralari.

Shaxs huquqlarini cheklash jiddiy chora bo'lganligi bois faqat yetarlicha asoslar bo'lgandagina va qonunda belgilangan tartibda qo'llanilishi mumkin. Amaldagi JPKga ko'ra jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov yoki sud harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan, o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotganligi, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hukm ijrosini ta'minlash zarurligi majburlov chorasini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Protsessual majburlov choralari qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sud ajrimida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi. Qonunda belgilangan birgina istisno bu – jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin faqat tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini JPKning 221 va 224-moddalarida belgilangan hollarda va tartibda qo'llashi mumkin. Majburlov chorasini qo'llashning asosiligi majburlov chorasi qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda qo'llanilishi va bu haqidagi qaror yetarlicha asoslantirilgan bo'lishi shartligini anglatadi. Ya'ni majburlov chorasi o'zboshimchalik bilan, tasdiqlanmagan yoki ishonchli bo'lmagan dalillarga tayanib qo'llanilishi mumkin emas.



E'tibor qiling! *Shaxs huquqlarini cheklash chegarasi*

deganda, qonunda belgilangan tartibda majburlov chorasi qo'llaniladigan shaxsning o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatining odil sudlovni ta'minlash maqsadiga erishishga to'sqinlik qilmaydigan hamda shaxs huquq va erkinliklari ortiqcha cheklanmasligini, qonuniy manfaatlarga zarar etmasligini ta'minlaydigan darajada, miqdorda bo'lishi tushuniladi.

Shaxs huquqlarini cheklash chegarasi hamma ishlarda ham bir xil bo'lishi mumkin emas. Jinoyatning og'irlik darajasi, kelib chiqqan oqibat va boshqa bir qancha holatlarni e'tiborga olgan holda shaxs huquqlari qonunga muvofiq turli darajada cheklanadi. Shaxs huquqlarini cheklash chegarasi majburlov chorasini qo'llashda e'tiborga olinadigan, qonunda belgilangan holatlar, axloq qoidalari, chorani qo'llash vaqtidagi mavjud vaziyatga mutanosib bo'lishi kerak.

Jiddiy tarzda huquqlar cheklanadigan majburlov choralari qo'llanilganda shaxs huquq va qonuniy manfaatlariga zarar etmasligini ta'minlash maqsadida qonuniy kafolatlar belgilangan. Ushbu kafolatlar nafaqat majburlov chorasi qo'llanilgan shaxs, balki boshqa shaxslarning ham huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan. Qonuniy kafolatlar shaxsni saqlash sharoitlari, ta'minoti, qarovsiz qolmasligi, muayyan huquqlardan foydalana olish, mol-mulki daxlsizligi, xabardor bo'lish (bilish) kabilarni ta'minlaydi.

Ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish protsessual majburlov chorasi qo'llangan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan barcha huquqlarga egadirlar va shu hujjatlarda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajaradilar, shu bilan birga ularga nisbatan vaqtincha saqlash hibsxonasi yoki tergov izolyatoridagi tartibga oid cheklashlar qo'llanilishi mumkin.



Ma'lumot uchun: Huquqlarni cheklash nuqtayi nazaridan eng og'ir bo'lgan protsessual majburlov choralari – ushlab turish, qamoqqa olish yoki tibbiy muassasaga joylashtirish, uy qamog'i qo'llangan shaxslarga nisbatan g'ayriinsoniy munosabatda bo'lish mumkin emas, bu mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarning normalariga to'liq mutanosibdir.

Mamlakatimiz qonunlariga muvofiq ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan, uy qamog'i qo'llanilgan shaxsga himoyalaniş huquqini to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida u saqlanayotgan joyda o'zining himoyachisi bilan xoli uchrashish, qonun hujjatlaridan foydalanish imkoniyati, shikoyat, iltimosnoma va boshqa protsessual hujjatlarni yozishi uchun ixtiyorida qog'oz va yozuv jihozlari bo'lishi ta'minlanadi.

Aynan yuqorida keltirilgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash, tergov va sud muhokamasining adolatli bo'lishi uchun ushlab turilgan va qamoqqa olinganlar saqlanadigan joy ma'muriyati: ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarga advokat bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda undan maslahat olish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi; qamoqqa olinganlarga ayblov xulosasining yoki dalolatnomasining nusxasini, shuningdek sud hukmi va ajrimining nusxasini ular kelib tushgan kunda topshirishni ta'minlashi; ushlanganlar va qamoqqa olinganlarning shikoyat, ariza va xatlarini ular ma'muriyatga berilganidan keyingi kundan kechiktirmasdan tegishli joylarga jo'natishi; qamoqda saqlanayotgan shaxsni surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida boshqa hududdagi tergov hibsxonasiga ko'chirishni ta'minlashi; ushlab turilganlarni ushlab turish muddati tugagach, darhol ozod qilishi shart.

Protsessual majburlov choralari qo'llanilganligi haqida albatta shaxsning yaqinlariga xabar berilishi lozim. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ushlab turish tarzida, sud esa qamoqqa olish, uy qamog'i va ekspertiza o'tkazish uchun shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasi qo'llaganida bu haqda yigirma to'rt soatdan kechiktirmasdan uning oila a'zolaridan biriga, ular bo'lmagan taqdirda esa

qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek bu haqda ish yoki o'qish joyiga ma'lum qilishi shart. Ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berilishi shart. Xabarnomaning nusxasi ishga ilova qilinadi.

Shaxs ushlangan, qamoqqa olingan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan bo'lsa, bu holda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ushlab turilgan, qamoqqa olingan yoki ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxsning qarovsiz va yordamga muhtoj voyaga etmagan farzandlari, keksaygan ota-onalari, boshqa qaramog'idagilari bo'lsa, ularni qarindoshlarining yoki boshqa shaxslar yoxud muassasalarning homiyligiga topshirish, majburlov chorasi qo'llanilgan shaxsning nazoratsiz qolayotgan mol-mulki yoxud uy-joyi bo'lsa, ularni qo'riqlash chorasini ko'rishi shart.

Oila a'zolari, qarindoshlar yoki yaqin shaxslarga – ota-ona, farzandlar, er, xotin, farzandlikka olgan shaxslar, farzandlikka olinganlar, tug'ishgan aka-uka va opa-singillar, buva, buvi, nabiralar, shuningdek hayoti, farovonligi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga ularning o'zaro shaxsiy munosabatlari tufayli aziz bo'lgan boshqa shaxslar kiradi.

Xabar berish telefon qo'ng'irog'i, chopar orqali, yozma shaklda yoki boshqa umum e'tirof etilgan usulda amalga oshirilishi mumkin. Xabar berish ushlab turish, qamoqqa olish yoxud ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi majburlov choralari qo'llanilgan paytdan boshlab 24 soat ichida amalga oshirilishi kerak.

Ushlab turish. Jinoyat protsessida dastlab tergovga qadar tekshiruv o'tkaziladigan bo'lsa, eng birinchilardan qo'llaniladigan majburlov chorasi ushlab turishdir. *Ushlab turish* deganda, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etishdan iborat protsessual majburlov chorasi tushuniladi.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan gumon qilinuvchini ushlab turish chorasini ma'muriy ushlab turish va qamoqqa olish ehtiyot choralaridan farqlash zarur. Jinoyat-protsessual tartibda ushlab turishda shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan bo'ladi. Shaxsni ma'muriy ushlab turish esa shaxsning kimligini aniqlash, huquqbuzarlikni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqdan ushlab turish bir necha belgilari bilan farq qiladi: birinchidan, ushlab turish ko'pincha ehtiyot choralari qo'llanilishidan avval amalga oshiriladi. Ikkinchidan, protsessual

majburlov sifatida u faqat ishni sudga qadar yuritish chog'ida qo'llanilishi mumkin. Ehtiyot chorasi esa tergov o'tkazish chog'ida, shuningdek jinoyat protsessining sud bosqichlarida hukm qonuniy kuchga kirgunicha qo'llaniladi. Bundan tashqari, ehtiyot chorasini prokuror va sud tanlashi mumkin. Uchinchidan, ushlab turish muddati qisqa bo'lib, qamoq ehtiyot chorasini qo'llash muddati ko'proq. To'rtinchidan, ushlab turilgan shaxs vaqtincha saqlash hibsxonasiga joylashtiriladi, qamoq qo'llanilgan shaxs esa tergov hibsxonasida saqlanadi.

Ushlab turish uchun albatta qonunda belgilangan asoslardan biri mavjud bo'lishi shart. Ushlab turish uchun asos bo'lib muayyan shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini tasdiqlovchi faktik ma'lumotlar xizmat qiladi.

Lavozimdan chetlashtirish. Ish yurituvchi davrida ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z ish joyida qolsa, jinoyat ishiga oid haqiqatni aniqlashga yoki jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning o'rnini qoplashga to'sqinlik qiladi yoxud jinoiy faoliyatini davom ettiradi, deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ular lavozimidan chetlashtirilishi mumkin.

Ishni sudga qadar yuritishda ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish uchun asoslar mavjud bo'lganda prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda: lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uning ish joyi; lavozimdan chetlashtirish asoslari ko'rsatiladi. Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi.

Surishtiruvchining, tergovchining ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi. Prokuror ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning asosligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda, yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashining oldini olish, uning bundan keyingi jinoiy faoliyatiga chek qo'yish, hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ayblanuvchi yoki sudlanuvchi pasportdan (harakatlanish hujjatidan) foydalanib, O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketishi yoki xorijda harakatlanishi

mumkin, deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, mazkur pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishi to'xtatib turilishi mumkin.

Ayblanuvchi pasportining (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi masala belgilangan tartibda, sudlanuvchi pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish haqidagi masala esa JPKning 530-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan hal qilinadi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish faqat davlatlararo yoki xalqaro qidiruv e'lon qilingan ayblanuvchiga yoki sudlanuvchi shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tugatishga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning huquqiy maqomini bekor qilishga sabab bo'lmaydi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish deganda pasportning, biometrik pasportning, xorijga chiqish uchun biometrik pasportning va fuqaroligi bo'lmagan shaxs harakatlanish hujjatining amal qilishini **vaqtinchalik to'xtatib turish** tushuniladi.



E'tibor qiling! Prokuror, tergovchi, surishtiruvchi pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslarini bayon etgan holda **qaror** chiqaradi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish zaruriyati yuzaga kelishiga sabab bo'lgan asoslar bayon qilinadi. Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi.

Surishtiruvchining, tergovchining pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi.

Prokuror pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomaning asoslilikini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnoma surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi materialni ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda

esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko‘rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnoma materiallar kelib tushgan paytdan e‘tiboran qirq sakkiz soatdan kechiktirmay yopiq sud majlisida ko‘rib chiqiladi.

Sud majlisida prokuror, shuningdek, agar ishda qatnashayotgan bo‘lsa, himoyachi va qonuniy vakil ishtirok etadi.



Ma‘lumot uchun: Sudya pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

1) pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida;

2) pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turishni rad etish haqida.

Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi sudyaning ajrimida: qidiruv e‘lon qilingan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi haqidagi ma‘lumotlar; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish asoslari ko‘rsatiladi.

Majburiy keltirish. Jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko‘rsatilgan vaqtda hozir bo‘lishlari shart. Uzrli sabablarsiz kelmagan taqdirda ular majburiy keltiriladilar.

Majburiy keltirish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining, guvohning protsessual harakatlarda yoki sud majlisida ishtirok etishini ta‘minlash uchun, ular uzrli sabablarsiz kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda qo‘llaniladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini oldindan chaqiruvsiz majburiy keltirish ular surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinib yurgan yoki aniq yashash joyi bo‘lmagan taqdirda qo‘llanilishi mumkin.

Sudlanuvchining sudga kelmaganligi sababini oldindan aniqlamasdan turib, majburiy keltirishga alohida hollarda, ishni ko‘rish sudlanuvchi bo‘lmaganligi sababli keyinga qoldirilayotgan va bunda uning turgan joyi to‘g‘risida ma‘lumot bo‘lmagan taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Guvohga yoki jabrlanuvchiga nisbatan majburiy keltirishning qo‘llanilgani ularni ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.



E‘tibor qiling! Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror majburiy keltirish to‘g‘risida qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Ushbu qaror yoki ajrimda: majburiy keltirilishi kerak bo‘lgan shaxsning familiyasi, ismi,

otasining ismi; uning protsessual mavqei; yashash yoki ish joyi; majburiy keltirish uchun asoslar; shaxsni qayerga va qachon olib kelish kerakligi; majburiy keltirish kimga topshirilganligi ko'rsatiladi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ijro etish uchun ish yuritilayotgan joydagi ichki ishlar organiga topshiriladi. Majburiy keltirilishi lozim bo'lgan shaxsni topgan ichki ishlar organining xodimi uni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib tilxat oladi va mazkur qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoxud sudga olib keladi. Bunda qarorga (ajrimga) shaxs topilgan vaqt va joy, u keltirib topshirilgan vaqt, shuningdek uning majburiy keltirilishi bilan bog'liq ariza, shikoyat va iltimoslar haqidagi ma'lumotnoma ilova qilinishi lozim.

Ichki ishlar organi shaxsning qochib ketganligi, ta'tilda, xizmat safarida ekanligi, og'ir kasalligi yoki boshqa sabablarga ko'ra yo'qligi oqibatida majburiy keltirishga imkon bo'lmaganligini aniqlasa, bu haqda ma'lumotnoma tuzadi hamda qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga yoxud sudga xabar beradi.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish. Agar sud-tibbiyot yoki sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazishda ayblanuvchini, sudlanuvchini statsionar ko'rikdan o'tkazish zarurati vujudga kelsa, ular tegishli tibbiy muassasaga joylashtirilishi mumkin.



Ma'lumot uchun: Ruhiy holati ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish va ayblov e'lon qilish imkoniyatini istisno etadigan gumon qilinuvchi ham, agar aynan uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligiga yetarlicha dalillar mavjud bo'lsa, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy psixiatriya muassasasiga joylashtirilishi mumkin.

Jabrlanuvchilar va guvohlar tegishli sud ekspertizasini o'tkazish uchun tibbiy muassasaga majburiy joylashtirilishi mumkin emas, ular gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining Jinoyat kodeksi 15-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganligini fosh qilayotgan va ular bergan ko'rsatuvlarning ishonchligini tekshirishning boshqa imkoniyati bo'lmagan hollar bundan mustasno.

Agar shaxsning gumon qilinuvchi tariqasida bo'lishi muddati statsionar sud-psixiatriya ekspertisasi tamom bo'lguniga qadar tugasa, uning ruhiy holati imkon bersa, unga ayblov e'lon qilish yoki uni tibbiy psixiatriya muassasasidan ozod qilish yoxud uni tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs tariqasida e'tirof etish to'g'risida qaror chiqarish zarur.

Shaxs tibbiy muassasaga ko'pi bilan bir oy muddatga joylashtirilishi mumkin. Alohida hollarda, shifokorlarning statsionar sud ekspertizasini o'tkazish davomida olingan xulosasiga asosan, bu muddat sud tomonidan faqat ayblanuvchi

va sudlanuvchiga nisbatan bir oygacha uzaytirilishi mumkin. Ayblanuvchining ishni sudga qadar yuritish bosqichida tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish sud tomonidan prokurorning qonunda belgilangan tartibda kiritilgan iltimosnomasiga binoan, sudlanuvchining tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish esa JPKning 423 va 438-moddalarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash deganda, jinoyat protsessi ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i, mulkiy hamda boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy-texnikaviy va boshqa mazmundagi choralar kompleksini amalga oshirish tushuniladi.

JPKning 270-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o'zga g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinyapti deyish uchun yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralari ko'rishlari shart³⁸.

Protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik deganda, protsess ishtirokchilari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni va majburiyatlarni bajarmayotgan yoki lozim darajada bajarmagan bo'lsa, jinoyat protsessining vazifalarini ro'yobga chiqarish maqsadida, ularga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralari va ularni qo'llash tartibi tushuniladi.

JPKning 271-moddasiga muvofiq, jinoyat ishini yuritish chog'ida Jinoyat kodeksining 230-241-moddalarida nazarda tutilgan, odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatni sodir etgan protsess ishtirokchilari JPKning umumiy qoidalariga binoan javobgarlikka tortiladilar.

Bundan tashqari, protsessual majburiyatlarni buzganliklari uchun, xususan: jabrlanuvchilar va guvohlar – surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning guvohlantirishdan, ekspertizadan o'tish, ekspert tekshiruvi uchun namunalarni taqdim etish to'g'risidagi qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortganlik uchun;

uyida olib qo'yish, tintuv o'tkazilayotgan shaxslar, shuningdek mol-mulki xatlangan shaxslar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ularning yaqin qarindoshlaridan tashqari) – surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning talabi bilan izlanayotgan ashyolarni berishdan bosh tortganlik uchun;

³⁸ A.T.Achilov, H.I.Ismoilov. "Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik". O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2017.

aloqa muassasalarining xodimlari – surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi qarorini bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun;

mansabdor shaxslar va fuqarolar – basharti ular hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishga, tergov eksperimenti o‘tkazishga, murdani ekskumatsiya qilishga, olib qo‘yish va tintuv o‘tkazishga to‘sqinlik qilsalar;

protsess ishtirokchilari – surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini oshkor qilganlik uchun, agar ular ma‘lumotlarni oshkor qilishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan ogohlantirilgan bo‘lsalar;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, mutaxassis, ekspert, tarjimon, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, xalq maslahatchilarining kelishiga to‘sqinlik qilganlik, jinoyatning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarga barham berish to‘g‘risidagi surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdimnomasini yoki sudning xususiy ajrimini bajarmaganlik yoxud talab darajasida bajarmaganlik uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishlari mumkin.



Nazorat savollari:

1. Protsessual majburlov choralari tushunchasi va turlarini ayting.
2. Ushlab turish majburlov chorasi qaysi hollarda qo‘llaniladi.
3. Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish protsessual majburlov chorasi ahamiyatini tushuntiring.
4. Majburiy keltirish va lavozimdan chetlashtirish majburlov choralarining qo‘llanilish tartibini bayon qiling.
5. Shaxs qanday hollarda majburlov turi sifatida tibbiy muassasaga joylashtiriladi.
6. Protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalasini qanday?

§ 2.4. Ehtiyot choralari

Ehtiyot choralari deganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining zimmasidagi majburiyatlarni to'la ijro etishlarini va hukm ijrosini ta'minlash, shuningdek jinoyat protsessining vazifalari bajarilishi uchun sharoit yaratish maqsadida qonunda belgilangan tartibda, muayyan asoslar bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya tomonidan qo'llaniladigan protsessual majburlov choralari tushuniladi.

Odil sudlovni amalga oshirish jinoyatni o'z vaqtida aniqlash va jinoyat sodir etgan shaxsni qisqa muddatlarda javobgarlikka tortish masalasining muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq. Buning uchun muayyan sharoit mavjud bo'lishi talab qilinadi. Shunga ko'ra qonun bilan tergov, prokuratura va sud organlariga gumon qilinuvchi, ayblanuvchilarning shaxsiy erkinligini cheklaydigan, ularning yangi jinoyatlar sodir etishga, jinoyat izlarini yashirishga qaratilgan harakatlariga chek qo'yadigan protsessual majburlov choralari qo'llash huquqi berilgan. Ushbu choralari ehtiyot choralari deb ataladi.

Ehtiyot choralari qo'llashda majburlov ayblanuvchining shaxsiy erkinligini (erkin harakatlanish huquqi va sh.k.) cheklash yoki chegaralashda namoyon bo'ladi.

Ehtiyot chorasi faqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va muomala layoqatiga ega bo'lmagan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ularning tergov va suddan bo'yin tovlashi hamda keyingi jinoiy faoliyatining oldini olish, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, shuningdek hukmning yoki ajrimning ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi³⁹.



E'tibor qiling! *Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat olish, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi, garov, uy qamog'i, qamoq, voyaga etmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv kabi ehtiyot choralari mavjud.*

Ehtiyot choralari ahamiyati ularning jinoyat protsessini muvaffaqiyatli amalga oshirishda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jinoyatchilar tajovuzidan himoya qilishda muhim o'rin tutishi bilan belgilanadi. Ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qonuniy va asosli ravishda qo'llash tergov o'tkazish uchun qulay sharoit yaratadi, uning tez va samarali bo'lishiga yordam beradi.

³⁹ Toshkent shahar prokuraturasi ma'sul muharrirligida M.G.Esanov, M.A.Mirzayev. Prokuror nazorati hujjatlari. Toshkent-2010y. 187-bet.

Ehtiyot chorasi qo'llanilishi ayblanuvchi yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qonunda majburlov choralarini qo'llash huquqi belgilanishi bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqlarini asossiz tarzda cheklashga, xususan, ularga nisbatan asossiz ravishda ehtiyot choralarini tanlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan qat'iy talab aks etgan.

Ehtiyot choralarini qo'llash doimo fuqaroning shaxsiy erkinligini cheklash bilan bog'liq. Shu bois qonun talablariga va ayniqsa protsessual kafolatlarga aniq rioya etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bir vaqtda bir shaxsga nisbatan faqat bitta ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

Ehtiyot chorasini tanlash va qo'llashning umumiy qoidalari belgilangan bo'lib, ehtiyot choralaridan qaysi birini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilishda jinoyatning xavflilik darajasi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tergov va suddan yashirinishi ehtimolining yuqoriligi, qo'yilgan aybning og'irligi, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning shaxsi, mashg'ulot turi, yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlar ham hisobga olinadi. Boshqa holatlar deganda shaxsning moddiy ahvoli, qaramog'idagilar mavjudligi, egallab turgan lavozimi, jamiyatda tutgan o'rni va martabasini, jamoatchilikning unga munosabatini tushunish mumkin⁴⁰.



Ma'lumot uchun: Ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish **qaror** yoki **ajrim** bilan amalga oshiriladi. Ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish, o'zgartirish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda: shaxsning qanday jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi; ehtiyot chorasi qanday qonuniy asoslarga tayanib qo'llanganligi yoxud tegishli dalillar keltirish yo'li bilan bu asoslar yo'qligi yoki o'zgargani; ehtiyot chorasini tanlashga ta'sir qiluvchi, qonun bilan belgilangan holatlarni hisobga olib, ehtiyot choralarini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish zaruratini izohlovchi sabablar ko'rsatilishi zarur. Qaror yoki ajrim kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxsga darhol e'lon qilinadi, shaxsning og'ir kasalligi yoki uning qochib ketganligi tufayli e'lon qilinishi mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno.

Muayyan ehtiyot choralarini tanlashda bu haqda qaror chiqarishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Agar munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat olish ehtiyot chorasi tanlanadigan bo'lsa, ushbu ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror asosida ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan yozma majburiyat olinadi. Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasi tanlanganida, ulardan o'z zimmlariga olgan majburiyat haqida tilxat olinadi. Jamoat birlashmasi (jamoat)ning kafilligi ham yozma shaklda, ya'ni jamoat birlashmasi yoki jamoat umumiy majlisining qarori shaklida taqdim etiladi.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Sh.Gaziyev umumiy tahriri ostida. "Jinoyat ishlari bo'yicha sud hujjatlari". Toshkent, Adolat, 2015-y. 93-bet.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida qamoqqa olish, uy qamog‘i, garov tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llash haqidagi yoki qamoqda saqlash, uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi yoxud uy qamog‘i bo‘yicha qo‘shimcha taqiq (cheklov) belgilash haqidagi sudning ajrimi ustidan mazkur ajrim chiqarilgan kundan e‘tiboran etmish ikki soat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin. Shikoyat, protest ajrim chiqargan sud orqali beriladi, ushbu sud ularni yigirma to‘rt soat ichida materiallar bilan birga apellyatsiya instansiyasi sudiga yuboradi. Apellyatsiya instansiyasi sudi mazkur materiallarni ular shikoyat yoki protest bilan birga kelib tushgan paytdan e‘tiboran etmish ikki soatdan kechiktirmay ko‘rib chiqadi.

Qamoqqa olish – eng og‘ir ehtiyot chorasi bo‘lib, insonning huquq va erkinliklarini, jumladan shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqlarini jiddiy ravishda cheklaydi. Shu bois qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi boshqa ehtiyot choralarini qo‘llash orqali ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning munosib xulq-atvorda bo‘lishini va hukm ijrosini ta‘minlash imkoni bo‘lmagan, bundan keyingi jinoiy faoliyatini davom ettirishiga yo‘l qo‘ymaslikning boshqa chorasi qolmagan hollarda qo‘llanadi. Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llamaslik yoki o‘z vaqtida qo‘llamaslik yangi jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin.



E‘tibor qiling! Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta‘qib va shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqi samarali muhofaza etilishini ta‘minlashdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, 1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”⁴¹ning 9-moddasi 3-qismiga asosan “Jinoiy ayblov bilan qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo‘yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi berilgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko‘rilishi yoki ozod qilib yuborilish huquqiga ega”ligi qayd etilgan. Mazkur xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadida 2007-yil 11-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab qo‘llana boshlandi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs faqat prokuror, prokurorning roziligi bilan tergovchi tomonidan beriladigan iltimosnomaga asosan sud tomonidan ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olinishi

⁴¹ Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (to‘plam). – T., 2004. – 40-b.

mumkin. Qamoqda saqlab turish muddati ham faqat sud tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni qo'llashning alohida asoslari mavjud bo'lib, ular ikki xil yo'nalishdagi holatlarni o'zida aks ettiradi. Birinchi holatlarga: sodir etilgan jinoyat uncha og'ir bo'lmagan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarga kirishi; ikkinchi holatlarga esa gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan yashirinishi mumkin degan o'rinli taxmin (asoslovchi dalillar) mavjudligi kiradi. Mazkur ikki holatlar bir vaqtda mavjud bo'lishi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun asoslar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga qonunda birinchi holatlarga oid asosni istisno etuvchi qo'shimcha shartlar bilan bog'liq holatlar belgilangan. Bu shartlar alohida hollar sifatida belgilangan bo'lib, ularga: ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanligi; ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganligi; ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganligi; ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganligi; jinoyat ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganligi kiradi.

Qayd etilgan asoslar mavjudligi jinoyat ishida albatta qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanishi shart degani emas. Jinoyat-protsessual qonunda tergov va sud organlariga ehtiyot chorasini (tanlash) qo'llash huquqi berilgan, shu bois ehtiyot chorasi qo'llanilmasligi qonun buzilishi hisoblanmaydi.

Sud-tergov amaliyotida ko'pincha qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatga oid ishlarda, voyaga etgan, lekin 60 yoshdan oshmagan, sog'ligi holati yaxshi bo'lgan erkaklarga nisbatan qo'llaniladi.

Ehtiyot chorasi sifatida *qamoqqa olish* deganda, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning tergov va suddan bo'yin tovlashi va bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida tergov organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qo'llaniladigan, ayblanuvchini ozodlikdan mahrum qilish tushuniladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sodir etilgan jinoyat uchun jazo deb baholab bo'lmaydi. Ehtiyot choralarida protsessual javobgarlik elementlari bo'lsada, ammo ularning asosiy vazifasi – huquqbuzarliklarning oldini olish, chunki ular jinoyat sodir etganlik yoki protsessual qoidani buzganlik uchun emas, balki ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning protsessual majburiyatlarni bajarishini ta'minlash va uning yangi jinoyatlar sodir etishi, tergov va suddan yashirinishi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishga urinishlarining oldini olish uchun qo'llaniladi.



Ma'lumot uchun: Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash huquqi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyalariga berilgan.

Prokuror surishtiruvchi yoki tergovchining qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori asosligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, iltimosnoma qo'zg'atish to'g'risidagi qaror va zarur materiallarni sudga yuboradi. Bunda prokuror iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qaror, unga ilova qilingan va iltimosnomani asoslantiruvchi hujjatlar bilan tanishib, ushbu shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning qonuniyligi va buning uchun asoslar yetarliligini tekshiradi. Prokuror tergovchining iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorida aks ettirilgan vajlariga qo'shilgan taqdirda qarorga roziligini tasdiqlovchi imzosini qo'yadi. Qarorning prokuror imzo qo'yadigan qismida prokuratura organining nomi, prokurorning unvoni, familiyasi va ismi, otasining ismi, sana, imzo tegishli prokuratura organining gerbli muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak⁴².

Ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi qarorning asoslanganligi deganda, qaror va taqdim etilgan materiallarda tegishli ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini tasdiqlovchi, jumladan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shaxsi haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi nazarda tutiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning qonuniyligi deganda, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash tartibini belgilovchi jinoyat-protsessual qonunchilikning barcha normalariga rioya etilganligi tushuniladi.

Qamoqqa olish (uy qamog'i) tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingan va garov tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan taqdirda, gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini ushlab turish muddati garov kiritish imkonini berish uchun sud tomonidan ko'pi bilan qirq sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga uzaytiriladi, ko'rsatilgan muddatda garov kiritilmagan taqdirda qamoqqa olish (uy qamog'i) tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnoma qanoatlantirilgan hisoblanadi.

Sudyaning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi yoki uni qo'llashni rad qilish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro qilinishi kerak. Sudyaning ajrimi ijro uchun prokurorga, ma'lumot uchun esa gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga yuboriladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrim asosida ozodlikda bo'lgan ayblanuvchi sud zalining o'zida qamoqqa olinadi va qamoqqa

⁴² O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi "Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, axamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari" Uslubiy qo'llanma T: 2016, 34-bet.

olingan shaxslarni saqlanadigan joyga (tergov hibsxonasiga) soqchi qo‘riqlovi ostida yuboriladi. Ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar tergov hibsxonasining kameralarida, vaqtincha saqlash hibsxonalarida va boshqa maxsus joylarda JPKning 244-moddasida belgilangan tartibda saqlanadi.

Uy qamog‘i qamoqqa olishga nisbatan yengilroq ehtiyot chorasi bo‘lib, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganida uning yoshini, sog‘lig‘i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo‘llanilishi mumkin.

Uy qamog‘i ehtiyot chorasini qo‘llash asoslari qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash asoslari bilan bir xil, shu bilan birga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarga ko‘ra unga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash mumkin emasligi sharti mavjud bo‘lishi kerak. Uy qamog‘i ehtiyot chorasini tanlashga yuqorida qayd etilgan yengillashtiruvchi holatlarning har biri yoki majmui asos bo‘lishi mumkin. Uy qamog‘i ehtiyot chorasini qo‘llashda har bir yengillashtiruvchi holatlar asoslantirilgan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi shart. Bunda, yengillashtiruvchi holatlar nima sababdan va qaysi xususiyatlariga ko‘ra, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashga asos bo‘lishi yoritilishi va tasdiqlovchi hujjatlar ish materiallariga ilova qilinishi kerak. Uy qamog‘i gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining jamiyatdan to‘liq yoxud qisman ajratib qo‘yilib, o‘zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda taqiqlar (cheklovlar) yuklatilgan, shuningdek uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda bo‘lishidan iborat. Tibbiy muassasa uy qamog‘ida saqlash joyi etib belgilanishi mumkin.



Ma‘lumot uchun: *Uy qamog‘i ehtiyot chorasi* ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning tergov va suddan bo‘yin tovlashi va bundan buyonggi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik, hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida, tergov organining iltimosnomasi bilan sud qarori asosida ayblanuvchiga nisbatan muayyan taqiqlar o‘rnatiladigan va uni yashab turgan joyida nazorat ostida saqlagan holda jamiyatdan ajratishdir.

Turar joy deganda – fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar,

shuningdek bolalar uylari, boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar tushuniladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining sog'ligi holatini hisobga olgan holda tibbiy muassasa ham uy qamog'ida saqlash joyi etib belgilanishi mumkin. Bunda tibbiy muassasani uy qamog'ida saqlash joyi etib belgilashga ekspertning shaxs statsionar tartibda davolanishga muhtojligi haqidagi xulosasi asos bo'ladi.

Tibbiy muassasa deganda – sog'liqni saqlash tizimiga qarashli kasalxona va klinikalar tushunilib, bunda tegishli sog'liqni saqlash muassasasining hududi uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyi hisoblanadi.



E'tibor qiling! Uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llanilganda shaxsga quyidagi taqiqlar (cheklovlar) to'liq yoki ulardan ayrimlari o'rnatilishi mumkin:

- 1) muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lish;
- 2) xat-xabar olish va jo'natish;
- 3) har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish;
- 4) uy-joyini tark etish.

Muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ish holatlaridan kelib chiqib, shu ishning boshqa ishtirokchilari va shu kabi boshqa shaxslar bilan bevosita va bilvosita uchrashish va gaplashishga, har qanday tarzda yozishmalarni amalga oshirishga taqiq (cheklov) qo'yilishi tushuniladi.

Xat-xabar olish va jo'natishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining har qanday xat-xabarni ya'ni pochta-telegraf, faks orqali jo'natmalarni, o'zaro xat yozishmalarni, shuningdek E-mail, SMS, MMS va boshqa elektron shakldagi xabarlarni qabul qilishiga yoki jo'natishiga taqiq (cheklov) qo'yilishi tushuniladi.

Har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining bevosita yoki bilvosita aloqa vositalari orqali so'zlashuvlarni, pochta-telegraf, faks jo'natmalarini, shuningdek E-mail, SMS, MMS va shu kabi boshqa elektron shakldagi yozishmalarni amalga oshirishiga to'liq taqiq (cheklov) o'rnatish tushuniladi.

Uy-joyini tark etishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda – shaxsni uy qamog'i ehtiyot chorasini o'tash joyidan chiqishga sud ajrimi bilan to'liq yoki qisman taqiq (cheklov) o'rnatish tushuniladi. Qisman taqiq (cheklov) o'rnatilganda sud tomonidan uy qamog'i qo'llanilgan shaxsning o'qish yoki ish joyiga borishiga

yoxud kundalik oila turmush masalalarini hal etishi uchun kunning ma'lum paytlarida uy qamog'i qo'llanilgan joydan tashqariga chiqishga ruxsat berilishi mumkin.

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risidagi qarorda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi duchor qilinadigan ozodlik bo'yicha aniq taqiqlar (cheklovlar), shuningdek o'rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish zimmasiga yuklatilayotgan organ ko'rsatiladi. Har qanday taqiqni (cheklov) o'rnatishda uning ta'sirchanligi e'tiborga olinishi va zaruratsiz ularning doirasi kengaytirilmasligi zarur.

Quyidagi holatlarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining telefon aloqasidan foydalanish huquqi cheklanishi mumkin emas:

himoyachi, qonuniy vakil, belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bilan so'zlashish uchun;

zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, tez tibbiy yordamni, yong'in xavfsizligi xizmatini, qutqaruv xizmatini va boshqa shoshilinch xizmatlarni chaqirish uchun⁴³.



E'tibor qiling! Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z yashash joyidagi uy qamog'ini ijro etish zimmasiga yuklatilgan ichki ishlar organiga har bir shunday qo'ng'iroq haqida xabar beradi.

Muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lish, xat-xabar olish va jo'natish, xar qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish kabi taqiq va cheklovlar doirasiga uy qamog'ida saqlash joyi sifatida belgilangan turar joyda gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga yashab turgan shaxslar kirmaydi.

Uy qamog'ini ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining uy-joyidan chiqishi bo'yicha o'rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilgan mas'ul xodim uning yashash joyida bo'lishini sutkaning istalgan vaqtida, kunduzgi vaqtda ko'pi bilan bir marta va tungi vaqtda ko'pi bilan bir marta tekshirishga haqli. Zarur hollarda, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsning xulq-atvori ustidan nazorat nisbatan elektron kuzatish vositalari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog'i voyaga etmagan

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining 2017-yil 28-oktyabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan bu boradagi faoliyatni samarali tashkil etish to'g'risida"gi Qo'shma ko'rsatma (№01-02/22-45).

shaxsga nisbatan faqat JPKning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lganda va unga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini boshqa ehtiyot choralari ta'minlay olmaydigan taqdirda qo'llanilishi mumkin. Voyaga etmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi masalani ko'rib chiqishda prokuror ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqishi, iltimosnomaning asosligini tekshirishi, hodisaning favquloddaligiga ishonch hosil qilishi va ayblanuvchini ushbu ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq holatlar bo'yicha so'roq qilishi shart.

Garov. Ehtiyot choralari tizimida garov o'ziga xos o'rinni egallaydi, chunki garov ehtiyot chorasi qo'llanilganda odil sudlovni ta'minlash uchun ham, jinoiy ta'qib amalga oshirilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun ham maqbul shart-sharoitlar yaratiladi.



E'tibor qiling! Ehtiyot chorasi sifatida **garov** deganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning tergov va suddan yashirinmasligi, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmasligi, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmasligi, chaqiruvga binoan etib kelishini, shuningdek ochiqda qoldirilishini ta'minlash maqsadida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlari, boshqa shaxslar tomonidan tergov organi yoki sud (ularning bankdagi depozit hisobi)ga pul mablag'i, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta boyliklari, zargarlik buyumlari, qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlar (bunday buyumlarning rezgilari) hamda boshqa qimmatbaho buyumlarning topshirilishi tushuniladi.

Garov predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qarindoshlari, boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslar dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisob varag'iga topshiradigan pul mablag'i yoki qimmatbaho buyumlardan, shuningdek ko'chmas mulkdan iborat.

Garovni qo'llashda qo'yilgan aybning og'irligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsi, mashg'ulotining turi, yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlar ham hisobga olinishi zarur. Ushbu holatlar garov ehtiyot chorasini qo'llashda, uning miqdorini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etilganlar bilan bir qatorda, garov miqdorini belgilashda garovga qo'yuvchining shaxsi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) va garovga qo'yuvchining mulkiy ahvoli hamda o'zaro munosabatlarini ham inobatga olish zarur.

Garov ehtiyot chorasining huquqiy tabiatiga e'tibor beriladigan bo'lsa, ushbu huquqiy institut jinoyat-protsessual huquqqa fuqarolik huquqidan kirib kelgan bo'lib, fuqarolik huquqida garov deganda bir shaxsning boshqa shaxsga

mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatni ta’minlash uchun berishi tushuniladi (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 264-modda).

Garov ehtiyot chorasini qo‘llashdan *maqsad* gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni jamiyatdan ajratmagan holda garovga qo‘yilgan mol-mulkdan mahrum bo‘lish tahdidi ostida zimmasidagi majburiyatlarning bajarilishini va hukm ijrosini ta’minlash hisoblanadi. Shu bilan birga, garov ish bo‘yicha hukm chiqarilguniga qadar shaxsni erkinlikda qoldirish va jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini ta’minlash maqsadida ham qo‘llanilishi mumkin.

Garov ehtiyot choralarini qo‘llashning umumiy asoslariga ko‘ra qo‘llaniladi, shuningdek garov ehtiyot chorasini qo‘llashga ish bo‘yicha mavjud dalillarga tayangan holda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning tergov va suddan yashirinishi, haqiqatni aniqlashga va odil sudlovni amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkinligi haqida qilingan o‘rinli taxmin va bunday oqibatlar kelib chiqishining moddiy zarar ko‘rish tahdidi orqali oldini olish imkoniyatining mavjudligi haqidagi xulosa asos bo‘ladi. Noxush oqibatlar kelib chiqishi (tergov va suddan yashirinish, ishda haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qilish, jinoiy faoliyatni davom ettirish)ning moddiy zarar ko‘rish tahdidi orqali oldini olish imkoniyati barcha jinoyat ishlarida mavjud bo‘ladi, lekin gumon qilinuvchi, ayblanuvchining belgilangan garov miqdoriga teng mol-mulk (pul)ga ega emasligi garov qo‘llanilmasligiga olib keladi.



Ma’lumot uchun: Jinoyat ishlarini yuritishda ehtiyot chorasini qo‘llash haqidagi masala shaxs ushlanganidan so‘ng yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, shaxsga ayb e‘lon qilingan paytda vujudga keladi. Ehtiyot chorasi sifatida garovni qo‘llash masalasi tegishli asoslar (shart-sharoitlar) yuzaga kelganda paydo bo‘ladi. Garov ehtiyot chorasini tanlash haqidagi tashabbus asosan ishni yuritayotgan tergovchi yoki prokuror, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi yoki yaqin qarindoshlari tomonidan bildiriladi.

Ish bo‘yicha garov ehtiyot chorasini qo‘llash haqida to‘xtamga kelinganidan so‘ng, garov predmeti va miqdori bilan bog‘liq masalalarni hal etiladi. Garov predmeti garovga qo‘yuvchi (ayblanuvchi yoki boshqa shaxs) bilan kelishilgan holda aniqlanadi va tergovchi tomonidan hal etiladi. Garov sifatida pul mablag‘i, qimmatbaho buyumlar va ko‘chmas mulk topshirilishi mumkin. Pul mablag‘i deganda, bugungi kunda amalda bo‘lgan (muomalada) milliy valyuta, chet el valyutasi tushuniladi va ular garov sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, qimmatbaho qog‘ozlar ham garov sifatida qabul qilinishi mumkin. *Qimmatbaho buyumlar deganda* esa, erkin muomalada bo‘lgan turli texnika vositalari va ularning ehtiyot qismlari, transport vositalari va ularning alohida qismlari, tele-video apparaturalar, telefon apparatlari, maishiy texnika vositalari, qimmatbaho san’at asarlari, xususiy egalikda bo‘lishiga ruxsat etilgan tarixiy buyumlar, oltin,

kumush va boshqa shu kabi qimmatbaho metallar va toshlar hamda ulardan yasalgan taqinchoqlar, buyumlar, yombilar, shuningdek, muayyan vaqt o'tishi bilan qadri keskin tushib ketmaydigan va sifati tez buzilmaydigan iste'mol mollari (tovarlar), to'qimachilik mahsulotlari, mebellar tushuniladi. *Ko'chmas mulk deganda* esa, uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan boshqa binolar, ishlab chiqarish sexlari va binolari, savdo uylari, do'konlar, firma, maishiy xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan binolar, oshxona, choyxona, qahvaxona, restoran, mehmonxona, klub va boshqa shu kabilar tushuniladi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 83-modda)⁴⁴.

Garov predmeti aniqlangandan so'ng, garov miqdori belgilanadi. Garov summasi bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oz bo'lishi mumkin emas va uni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ayblovning og'irligini, ayblanuvchining, sudlanuvchining va garovga qo'yuvchining shaxsini, garovga qo'yuvchining mulkiy ahvolini va uning ayblanuvchi bilan munosabatlarini e'tiborga olib belgilaydi. JPKda belgilangan holatlarni inobatga olgan holda garov miqdorini belgilash haqidagi tergovchining fikri asoslantirilgan holda garovni qo'llash haqidagi qarorda aks ettiriladi.

Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat ayblanuvchining yoki sudlanuvchining surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga tergov va suddan yashirinmaslik, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruvi bilan etib kelish haqida bergan yozma majburiyatidir. Tilxat beruvchi shaxs bundan tashqari o'z zimmasiga surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning ijozatisiz ushbu aholi punktidan chiqib ketmaslik va shu aholi punkti doirasida istiqomat joyini o'zgartirsa, bu haqda ularni xabardor qilish majburiyatini oladi.

Ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda unga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin, bu haqda u tilxat olish chog'ida ogohlantiriladi.

Munosib hulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat shaklidagi ehtiyot chorasining mohiyati shaxsning nafaqat huquqqa xilof xatti-harakatlarni sodir etmaslik, balki o'zi yashab turgan aholi punktidan chiqib ketmaslik majburiyatini olishdan ham iborat bo'ladi.

Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat olish ehtiyot choralarini qo'llashning umumiy maqsad va asoslariga ko'ra umumiy tartibda qo'llaniladi. Bunda ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror chiqariladi va ushbu qaror ayblanuvchiga tanishtirilib, uning majburiyatlari va majburiyatlarga amal qilmaslikning oqibatlarini tushuntirilib, undan tilxat olinadi.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/docs/3517337>.

Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasining mohiyati shundaki, ishonch tugʻdiradigan shaxslardan ular gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining munosib xulq-atvorda boʻlishi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir boʻlishi haqida yozma majburiyat olinadi.

JPKda shaxsiy kafillikka nafaqat ayblanuvchining organlarga kelishini taʼminlash vositasi, balki ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining munosib xulq-atvorda boʻlishini taʼminlash vositasi sifatida ham qaraladi. Munosib xulq-atvorda boʻlish deganda, ayblanuvchining boshqa jinoyat, shuningdek haqiqatni aniqlashga toʻsqinlik qiluvchi harakatlar sodir etmasligi tushuniladi.

Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasi tanlanganda kafillar soni qancha boʻlishini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud belgilaydi. Kamdan-kam hollarda alohida ishonchga ega boʻlgan bitta shaxs ham kafil boʻlishi mumkin⁴⁵.

Ushbu ehtiyot chorasini qoʻllash haqidagi masala koʻpincha ayblanuvchini kafillikka olishni istovchi fuqarolardan arizalar tushishi munosabati bilan yuzaga keladi. Qanday ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror, shuningdek ayblanuvchini ishonib topshirish mumkin boʻlgan kafillarni tanlash uchun masʼuliyat surishtiruv oʻtkazayotgan shaxs, tergovchi, prokuror va sudning zimmasiga tushadi.

Shaxsiy kafillik haqida tilxat olinayotganida, kafil ehtiyot chorasi tanlangan ishning mazmunidan xabardor qilinishi hamda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ehtiyot chorasini tanlash bilan oldini olish moʻljallanayotgan harakatni sodir etgan, yaʼni tergov va suddan yashiringan, yangi jinoyat sodir etgan yoki ish boʻyicha haqiqatni aniqlashga toʻsqinlik qilgan taqdirda javobgar boʻlishi haqida ogohlantirilishi kerak. Ushbu hollarda kafillar qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Kafillar ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvorini kuzatish imkoni boʻlmaganligini bahona qilishga haqli emaslar. Kafillar ularni javobgarlikka tortish uchun sabab boʻladigan asoslar kelib chiqquniga qadar zimmalariga olgan majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin.

Shaxsiy kafillik ham ehtiyot choralari qoʻllashning maqsad va asoslariga koʻra umumiy tartibda qoʻllaniladi. Bunda ehtiyot chorasini qoʻllash toʻgʻrisidagi qaror chiqariladi va ushbu qaror ayblanuvchiga, kafillarga tanishtirilib, ularning huquq va majburiyatlari, majburiyatlarga amal qilmaslikning oqibatlari tushuntirilib, bu haqda bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi. Jamoat birlashmasi yoki jamoa ishda ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsni kafillikka olish toʻgʻrisida qaror qabul qilishga haqli boʻlib, oʻz qarorini

⁴⁵ A.T.Achilov. "Kontrabanda va bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari boʻyicha ekspertiza tayinlash uslubiyati". Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Toshkent, 2017. 71-bet.

ayblanuvchining, sudlanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishiga kafil ekanligi to'g'risidagi yozma majburiyat tarzida bayon qiladi. Bu majburiyat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga taqdim qilinadi, ular jamoat birlashmasi yoki jamoaning qaroriga rozi bo'lsalar, shunday ehtiyot chorasini tanlab, bu haqda qaror yoki ajrim chiqaradilar. Ayni vaqtda jamoat birlashmasi yoki jamoa vakiliga ushbu ehtiyot chorasi qo'llanilishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga esa, basharti xulq-atvori nomunosib bo'lsa, ehtiyot chorasi og'irrog'i bilan almashtirilishi mumkinligi tushuntirilgani to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa ishga o'tgan yoxud istiqomat joyini o'zgartirgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa bu haqda ehtiyot chorasini tanlagan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga darhol xabar berishi shart. Bunday hollarda jamoa kafilligi bekor qilinadi va boshqa ehtiyot chorasi bilan almashtirilishi mumkin. Ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvori nomunosib bo'lgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa kafillikdan voz kechishga haqlidir.

Jamoat birlashmasining kafilligi jamoatchilikning jinoyat protsessida ishtirok etishi shakllaridan biridir. Lekin ehtiyot chorasi sifatidagi jamoat birlashmasining kafilligini uncha xavfli bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxsni jamoat birlashmasi yoki jamoa otalig'iga berishdan farqlash lozim. Otaliqqa berilganda aybdor jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi va jinoyat ishi tugatiladi. Jamoat kafilligiga olish ehtiyot chorasi tergov yuritilayotganida yoki ish sudda ko'rilayotganida tanlanadi.



Ma'lumot uchun: Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash uchun majburiyat jamoat birlashmasi yoki jamoa a'zolarining umumiy majlisidan kelib chiqishi zarur. Ushbu majburiyat majlisning yozma qarori ko'rinishida bo'lishi va unda jamoa ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishi va chaqirilganda hozir bo'lishiga kafolat berishi talab etiladi.

Muassasa va korxonalar ma'muriyatidan yoki jamoat birlashmalarining ijro organlaridan kelib chiqadigan kafillik jamoat kafilligini qo'llash uchun yetarli emas. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, jamoa kafilligi ehtiyot chorasi sifatida hali juda kam qo'llanilmoqda. Chunki tergov organlari amaliyotida jamoatchilikni jinoyatchilikka qarshi kurashga jalb etishning ushbu shakli yetarli baholanmayapti. Ba'zan jamoatchilik bilan aloqaning sustligi ham bunga sabab bo'lmoqda.

Jamoat birlashmasining kafilligi ehtiyot chorasi ayblanuvchi ijtimoiy xavfi uncha katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan va kelajakda uni tegishli jamoat ta'siri chorasini ko'rib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo'lgan hollarda qo'llanilishi mumkin. Ushbu holda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishi va tergov yoki ishni ko'rib chiqish jarayonida hozir bo'lishi uchun majburiyat olgan jamoa ilgari jinoyat ishi materiallari bilan to'qnashgan hamda o'z a'zosining

taqdirini belgilashda faol ishtirok etgan bo'lardi. Ayblanuvchiga kelganda esa, jamoat tashkiloti uning pirovard taqdiri hal bo'lmasidan avval kafillik berishi unga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi va ish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilinishiga yordam berishi mumkin.

Ushbu choraning kuchi jamoaning ishonch bildirishida bo'lib, bunday ishonchni yo'qotish o'zini jamoadan tashqari qo'yish bilan barobardir. Ana shu narsa ayblanuvchining o'z vaqtida hozir bo'lishini va munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlaydi. Bunday ehtiyot chorasini tanlash tashabbusi tergov olib borayotgan shaxslardan ham, jamoat birlashmalaridan ham chiqishi mumkin.

Voyaga etmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun (qarovga) topshirish. Voyaga etmagan ayblanuvchilarga nisbatan maxsus kuzatuv ostiga olish uchun (qarovga) topshirish ehtiyot chorasini qo'llanilishi belgilangan. Unga ko'ra voyaga etmaganlarni ota-onalari, vasiylari, homiylari, bolalar muassasasining ma'muriyati kuzatuv ostiga olishi uchun topshirish mumkin. Ushbu ehtiyot chorasining mohiyati shundaki, mazkur shaxslardan birontasi voyaga etmaganning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror huzuriga va sudga o'z vaqtida kelishini, shuningdek ayblanuvchining JPKning 46-moddasida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishini ta'minlash mas'uliyatini yozma ravishda o'z zimmasiga oladilar. Shu bilan birga, voyaga etmaganlarga nisbatan ushbu ehtiyot chorasini tanlash nafaqat ehtiyot choralariga xos bo'lgan maxsus maqsadlarga erishish, balki tarbiya choralari ko'rilishiga erishish maqsadida ham qo'llaniladi. Ota-onalar va boshqa qonuniy vakillar, shuningdek tegishli bolalar muassasalari ma'muriyatining kuzatuv voyaga etmagan shaxsni tergov bosqichidayoq tarbiyalash bilan shug'ullanish uchun real imkoniyat beradi.



E'tibor qiling! Voyaga etmagan ayblanuvchilarga nisbatan maxsus kuzatuv ostiga olish uchun (qarovga) topshirish ehtiyot chorasini ikki xil tartibda qo'llaniladi: 1) voyaga etmagan shaxsni to'g'ridan-to'g'ri qarovga topshirish; 2) voyaga etmagan shaxsni bolalar muassasasiga joylashtirish orqali qarovga topshirish.

Tergovchi kuzatuv ostiga berish ehtiyot chorasini tanlayotganida ushbu shaxslar o'z vazifalarini qay darajada bajara olishlarini va voyaga etmagan shaxsga to'g'ri tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishini aniqlashi shart. Buning uchun mazkur shaxslarning shaxsiy xislatlari, ularning jamiyatdagi mavqei, farzandlariga ta'siri kabi jihatlari puxta o'rganiladi.

Voyaga etmaganni ota-onasining, vasiylarning, homiylarning yoki boshqa shaxslarning qaroviga topshirish ularning, shuningdek voyaga etmagan shaxsning o'zining roziligi bilangina amalga oshiriladi.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash haqida qaror chiqarishdan oldin surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ota-onalar, vasiylar yoki homiylarning

shaxsi, ularning voyaga etmagan shaxs bilan o'zaro munosabatini o'rganishi va ular o'smirni qarov ostiga olishni lozim darajada amalga oshirishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Qaror qarovga olayotganga, ayblanuvchiga tanishtiriladi, ota-onalardan, vasiylardan, homiylardan bolalar muassasasi rahbarlaridan voyaga etmagan shaxsni qarovga qabul qilish haqida tilxat olinadi. Shuningdek, ularga ushbu ehtiyot chorasi qo'llanishiga asos bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo va voyaga etmagan shaxs sodir etishi ehtimol tutilgan qilmishlarning oldini olish maqsadida qarovga berilganidan keyin u xuddi ana shu xatti-harakatlarni sodir etsa, qarovga oluvchilarning javobgarligi haqida tushuntiriladi va bu haqda qarovga berish bayonnomasida yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi.

Voyaga etmagan shaxsni bolalar muassasasiga joylashtirish orqali kuzatuvga topshirish ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni turmush va tarbiyalanish sharoitiga ko'ra ilgari yashash joyida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lmasa, surishtiruvchining, tergovchining prokuror sanksiya bergan qaroriga yoki sudning ajrimiga binoan amalga oshiriladi. Ish yurituvchi davrida shaxsni bolalar muassasasiga joylashtirish haqidagi qaror ayblanuvchini bolalar muassasasiga joylashtirish zarurligini asoslovchi va boshqa kerakli hujjatlar ilova qilingan holda bolalar muassasasiga yuboriladi. Mazkur qarorni taqdim etish bilan bir vaqtda voyaga etmagan ayblanuvchi ham ushbu muassasaga joylashtiriladi. Voyaga etmagan ayblanuvchi bolalar muassasasiga joylashtirilganidan so'ng ehtiyot chorasi qo'llash haqidagi qaror muassasa rahbariyatiga tanishtirilib, ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilib, tegishli bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv. Ayblanayotgan muddatli harbiy xizmatchi yoki o'quv yig'iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bo'yicha harbiy qism, qo'shilma, harbiy muassasa, harbiy o'quv yurti qo'mondonligining kuzatuviga berilishi mumkin.

Qo'mondonlik kuzatuv qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlaydigan choralarni ko'rishdan iborat.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sudning ajrimi qo'mondonlik uchun majburiydir, unga harbiy xizmatchi ustidan kuzatuv o'rnatish zaruratini keltirib chiqargan ayblovning mohiyati tushuntirilishi lozim. Oldini olish maqsadida mazkur ehtiyot chorasi qo'llanilgan harakatlarni ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan taqdirda, qo'mondonlik surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudni bu haqda darhol xabardor qilishi shart.

Aslida voyaga etmaganni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish va harbiy

xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuv ehtiyot choralari shaxsiy kafillikning bir ko‘rinishi bo‘lib, ayblanuvchi shaxsiga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda alohida tartibda qo‘llanilishi belgilangan.



Nazorat savollari:

1. Ehtiyot choralari tushunchasi va turlarini ayting.
2. Munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat olish va shaxsiy kafillik ehtiyot choralari qaysi hollarda qo‘llanilishini tushuntiring.
3. Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi hamda garov ehtiyot choralarining qo‘llanilish tartibini bayon qiling.
4. Uy qamog‘i va qamoq ehtiyot choralari qanday holatlarda qo‘llaniladi.
5. Voyaga etmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish, harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuv ehtiyot choralarini qo‘llanilish tartibini yoritib bering.

3-BOB. JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH


§ 3.1. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichi va ahamiyati

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish – jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo‘lib, unda jinoyat ishini qo‘zg‘atishga vakolatli bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat haqida kelib tushgan ariza va xabarlarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va hal etish orqali jinoyat ishni qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad etish, yoxud tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborish to‘g‘risida qarorlardan birini qabul qiladilar. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 15-moddasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsip darajasiga ko‘tarilgan.

Jinoyat protsessining ushbu birinchi va boshlang‘ich bosqichida jinoyat ishi alohida shaxsga nisbatan emas, balki jinoyat holati faktiga nisbatan qo‘zg‘atiladi.

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov davrida jinoyat ishini qo‘zg‘atishda jinoiy javobgarlikka jalb qilinuvchi shaxs odatda noma‘lum bo‘ladi, uni aniqlash jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyin amalga oshiriladi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida jinoyat sodir etganlik to‘g‘risida tegishli shaxsga nisbatan ko‘rsatmalar bo‘lsa ham, protsessning keyingi bosqichlarida ularni tekshirib, dalillar bilan tasdiqlangandan so‘ng jinoiy javobgarlik masalasi hal etiladi.

Ayrim jinoyat ishlari yuzasidan jinoyat ishi tegishli shaxslarga nisbatan qo‘zg‘atilishi aniq bo‘ladi (masalan, jinoyat sodir qilish vaqtida ushlangan gumon qilinuvchi). Bunday hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish bilan jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan o‘tkaziladigan protsessual harakatlar o‘zaro yaqin bo‘lsa ham, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jinoiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyin qabul qilinadi.

 **Ma‘lumot uchun:** Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichining mazmuni jinoyat haqida berilgan ariza yoki xabar yuzasidan bir qator holatlarni tekshirish va hal etish yuzasidan protsessual faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Bunda jinoyat haqidagi ariza yoki xabar JPKning 322-moddasida keltirilgan sabablarning qaysi biriga taalluqli, jinoyat haqidagi ariza yoki xabarda keltirilgan ma‘lumotlarda jinoyat alomatlari mavjudmi, agar jinoyat mavjud bo‘lsa, u JKning qaysi moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak, qaysi holatlar ariza yoki xabarda keltirilgan faktlarni tasdiqlaydi, tergovga qadar tekshiruv jarayonida JPKning 329-moddasida keltirilgan qaysi tergov va protsessual harakatlarni o‘tkazish lozim, ariza yoki xabar kelib tushgan organ yoki mansabdor shaxs jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal qilish vakolatiga egami yoki mavjud materiallar tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborilishi kerakmi, jinoyat

ishini yuritishni istisno etadigan holatlar (amnistiya akti, jabrlanuvchi ariza bermaganligi) mavjudmi, jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng surishtiruv yoki dastlabki tergov o'tkazishni kimga topshirish lozim, jinoyat faqat jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atiladigan (JPK, 325-modda) yoki yarashilganligi munosabati bilan tugatiladigan jinoyatlar (JK, 66¹-modda) turlariga kiradimi, kabi savollar hal etilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan savollarga olingan javoblarning natijasiga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki materiallarni tergovga tegishlilik bo'yicha yuborish haqida qaror qabul qiladilar.



E'tibor qiling! Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichini ikki qismga bo'lish mumkin:

- 1) Jinoyat ishini qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyat;
- 2) Jinoyat ishi qo'zg'atildandan yoki rad etildandan keyingi faoliyat.

Jinoyat ishi qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyatga:

- 1) jinoyat haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va ro'yxatga olish;
- 2) tergovga qadar tekshiruv o'tkazish, ya'ni olingan ma'lumotlarni qonuniy va asosli ekanligini tekshirish. Buning uchun qo'shimcha hujjatlar, izohlar, tushuntirishlar talab qilish;
- 3) tergov harakatlaridan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish o'tkazish, ekspertiza tayinlash uchun namunalar olish, ekspertiza yoki taftish o'tkazish;
- 4) protsessual majburlov choralaridan biri ushlab turishni qo'llash;
- 5) tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish;
- 6) Jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan JPKning 330-moddasida belgilangan qarorlardan birini qabul qilish.

Jinoyat ishini qo'zg'atish faoliyatining **ikkinchi qismi** qabul qilingan qarorga bog'liq.

Agar jinoyat fakti bo'yicha ***jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi qaror chiqarilgan bo'lsa,***

- 1) qarorni nusxasi tergov qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokurorga yuboriladi;
- 2) uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning oldini olish choralari ko'riladi;
- 3) jinoyatni takrorlashga yo'l qo'ymaslik harakatlari olib boriladi;
- 4) ish uchun ahamiyatli jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va qo'riqlash yuzasidan darhol chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

5) O‘zbekiston Respublikasi JPKning 336-moddasida belgilangan tartibda jinoyat ishini qo‘zg‘atilgandan keyingi faoliyatni amalga oshirish uchun qaror yuboriladi.

Agar *jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqarilgan bo‘lsa*;

1) qarorning nusxasini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi nazorat qiluvchi prokurorga yuboradi.

2) jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilganligi to‘g‘risida xabar bergan fuqaro, korxon, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi va mansabdor shaxsga xabar qilinadi.

3) agar berilgan xabar jinoyat bo‘lmay, balki ma‘muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoki axloq normalari buzilganligi haqidagi ma‘lumot bo‘lsa, huquqni buzgan shaxsga nisbatan ta‘sir choralari qo‘llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o‘qiydigan joy ma‘muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatga ega bo‘lgan davlat organlariga, mansabdor shaxsga yuboriladi.

4) agar berilgan xabarda fuqarolarning siyosiy, mehnat, uy-joy, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi, shuningdek korxon, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarining fuqarolik sudlov ishlarini yuritish tar-tibida qo‘riqlanadigan qonuniy manfaatlari buzilganligi ko‘zga tashlansa, unda ishni qo‘zg‘atishni rad qilish bilan bir vaqtda manfaatdor shaxslarga sudga murojaat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim. Basharti ular ma‘lum sabablarga ko‘ra, sud orqali o‘zlarini himoya qilishni so‘rash imkoniyatiga ega bo‘lmasalar, prokuror bunday shaxslarni himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat etishga haqlidir⁴⁶.



Ma‘lumot uchun: Jinoyat ishini asossiz ravishda qo‘zg‘atish ham, qo‘zg‘atishni asossiz rad etish ham qonunni qo‘pol tarzda buzishdir.

U davlatga va jamiyatga, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga katta zarar yetkazadi, jamoatchilik ko‘z o‘ngida jinoyatchilikka qarshi kurashishi lozim bo‘lgan organlarning obro‘sini tushiradi.

Jinoyat ishini asossiz ravishda qo‘zg‘atish kuch va mablag‘larning befoyda sarflanishiga, sun‘iy ravishda ortiqcha ish yaratilishiga olib keladi. Asos bo‘lmay turib jinoyat ishini qo‘zg‘atish yanada jiddiy qonun buzilishlariga - noqonuniy ushlab turish, ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish, asossiz ravishda tintuv o‘tkazish, qamoqqa olish va boshqa protsessual majburlov

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining 2017-yil 28-oktyabrdagi “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan bu boradagi faoliyatni samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi Qo‘shma ko‘rsatma (№01-02/22-45).

choralarini qo'llashga olib kelishi mumkin. Ayni paytda jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz ravishda rad qilish jinoyat sodir etgan shaxslarning jazolanmay qolishiga olib keladi, jinoiy faoliyatning davom etishi uchun sharoit yaratadi, sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligi prinsipi buziladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining **ahamiyati** hodisaning jinoyat yoki jinoyat emasligini aniqlab berishidir. Aynan shu bosqichda jinoiy qilmish malakalanadi (kvalifikatsiyalanadi).



E'tibor qiling! Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi o'zining xususiyatlari, mohiyati va qabul qilinadigan qarorlardan kelib chiqqan holda **protsessual, huquqiy va profilaktik ahamiyatga** ega.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining **protsessual ahamiyati** shundan iboratki, aynan jinoyat haqidagi ariza yoki xabar yuzasidan chiqariladigan qaror jinoyat ishini paydo bo'lishi, ish bo'yicha jinoyat protsessining keyingi bosqichlari, ularning tarkibiy qismlari bo'lgan protsessual munosabatlarning yuzaga kelishi, tergov va protsessual harakatlarning bajarilishi, isbotlash jarayonining amalga oshirilishi, protsessual majburlov choralarining qo'llanilishi, sud muhokamasi o'tkazilishi va sud qarorining qabul qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Albatta, agar jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadigan bo'lsa, unda o'z-o'zidan jinoyat protsessual munosabatlar yuzaga kelmaydi va bu ham bosqichning protsessual ahamiyatini tashkil etadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida qabul qilinadigan protsessual qarorsiz hech qanday jinoyat ishi paydo bo'lishi mumkin emas. JPKning normalariga asosan surishtiruv va dastlabki tergov organlari hamda prokurorlar o'z ish yurituviga faqat jinoyat ishi qo'zg'atilgan ishlarni qabul qilishlari mumkin.

E'tiborli jihati shundan iboratki, faqat jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarilganidan so'nggina surishtiruv va dastlabki tergov organlari so'roq qilish, yuzlashtirish, tintuv, olib qo'yish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish, protsessual majburlov va ehtiyot choralarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarilganidan keyingina fuqarolar, mansabdor va yuridik shaxslarning surishtiruv va dastlabki tergov organlarining muayyan materiallarni taqdim etish to'g'risidagi talabini bajarish, tergov harakatlarini o'tkazishga chaqirilganda kelish, xolis sifatida fuqarolik burchini bajarish kabi majburiyatlari yuzaga keladi. Zero, protsessual normalar talablariga asosan jinoyat ishi qo'zg'atilmasidan oldin bunday talablarni qo'yish mumkin emas.

Shu bilan birga, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror bilan jinoyat protsessining keyingi bosqichlarida amalga oshiriladigan protsessual faoliyatning yo'nalishlari belgilab beriladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining *huquqiy ahamiyati* deganda, eng avvalo, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror bilan sodir etilgan yoki suiqasd qilingan jinoyat, uning belgilari, tarkibi, turini, og'irlik darajasini, kvalifikatsiyasi, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar-ning doirasi, dastlabki tergovning yo'nalishi belgilab berilishini yodda tutish kerak. Chunki shaxs tomonidan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik qasddan (to'g'ri yoki egri qasd) yoxud ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik) oqibatida sodir etilganligi masalasiga ilk baho aynan jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida hal etiladi.

Aynan jinoyat haqidagi ariza yoki xabar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv o'tkazish jarayonida sodir etilgan (tayyorgarlik ko'rilgan) qilmishning jinoyligi, ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xilofligi va jazoga sazovorligi haqida masala birlamchi ravishda hal etiladi. Agar o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruv jarayonida yuqorida keltirilgan masalalar ularning mavjudligini ko'rsatsa, jinoyat ishi qo'zg'atiladi, agar ular o'z tasdig'ini topmasa, ishni qo'zg'atish rad etiladi.

Aynan jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyat huquqi va jinoyat protsessining o'zaro bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyatmi, unda jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjudmi, jinoyat obyekti nima, uning moddiy, jismoniy va ma'naviy qiymati qanday, jinoyatning obyektiv tomonining qanday belgilari mavjud, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs ma'lum bo'lganida u jinoyatning subyekti bo'la oladimi, u shu turdagi jinoyat uchun javobgarlikka tortish yoshiga yetganmi, aqli rasomi; jinoyat subyektiv tomonidan qaysi belgilar asosida sodir etilgan va hokazo masalalarning barchasi jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida hal etilishi zarur. Demak, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining huquqiy ahamiyati aynan unda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishga huquqiy baho berilishi va vakolatli subyekt tomonidan tegishli qarorlardan biri qabul qilinishida namoyon bo'ladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining *profilaktik (oldini olish) ahamiyati* uning jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligiga ta'siri bilan belgilanadi. Chunki sodir etilgan har bir jinoyatning fosh etilishini va ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxslarning qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, JKning talablari asosida javobgarlik va jazoning muqarrarligini ta'minlash aynan jinoyat ishi qo'zg'atilishi bilan uzviy ravishda bog'liq. Jinoyat ishini qo'zg'atmasdan oldin shaxsga ayb e'lon qilish, unga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llash mumkin emas⁴⁷.

Jinoyat ishini qo'zg'atish orqali davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat sodir etilganligi holatiga davlatning rasmiy munosabatini bildiradilar va

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3723-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3735818>.

jinoyatni fosh etish, uni sodir etgan shaxslarni aniqlash, qidirish va topish, shuningdek, ularning qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishini va jazo qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar. Ushbu faoliyat jinoyatchilikka qarshi kurashning negizini tashkil etadi va boshqa jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda umumiy va yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

Faqat jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani qonuniy va asosli hal qilishgina jinoyat protsessining dastlabki bosqichida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Ushbu vazifa prokurorning jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligini nazorat qilish vazifasiga kiradi.



E'tibor qiling! O'zbekiston Respublikasi JPKning 15 va 321-moddalarida jinoyat ishini qo'zg'atishining subyektlari masalasi uzil-kesil hal etilgan. JPKning tegishli normalariga asosan ushbu subyektlar qatoriga prokuror, tergovchi, surishtiruvchi hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar kiritilgan.

Ularning zimmasiga jinoyat alomatlari topilgan, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rish majburiyatlari yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni⁴⁸ga asosan JPKning bir qator normalariga o'zgartirishlar kiritilgan va sud adolat va odillik timsoli sifatida jinoyat ishini qo'zg'atishga vakolatli organlar qatoridan chiqarilgan.

Shu bilan birga, sudlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar, iqtisodiy nizolar, fuqarolik munosabatlariga taalluqli, shuningdek jinoyat ishlari ko'rib chiqayotgan paytda ilgari aniqlanmagan va ish qo'zg'atilmagan jinoyat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlansa, sud barcha materiallarni prokurorga jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish uchun yuborishi kerak.

Prokuror O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasiga ko'ra, mamlakatimiz hududida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan davlat organining mansabdor xodimi hisoblanadi. U o'z vakolatlari doirasida qonunlarning ijro etilishini nazorat qilayotganida muayyan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganligini va unda jinoyat

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentyabrdagi O'RQ-335-sonli Qonuni // O'R QHT, 2012-y., 38-son, 433-modda.

alamatlari mavjudligini aniqlaydigan bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror chiqarishga vakolatlidir.

JPKning 344-moddasiga asosan dastlabki tergov ichki ishlar, prokuratura va Davlat xavfsizlik xizmati organlarining *tergovchilari* tomonidan amalga oshirilishi mumkin. JPKning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik qoidalariga asosan har bir organning tergovchisi o'zining tergoviga tegishli deb belgilangan jinoyatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishi mumkin.

Shuningdek, tergovchiga boshqa tergov organining tergoviga tegishli bo'lgan jinoyat haqidagi tergovga qadar tekshiruv materiallari kelib tushsa, u ushbu materialni jinoyat ishini qo'zg'atmasdan turib, tergovga tegishliligi bo'yicha jo'natishga haqli. Lekin bu holatda ham tergovchi jinoyat faoliyatga chek qo'yish, uni davom ettirilishini oldini olish, bartaraf etish, shuningdek jinoyatning izlarini qayd etish choralarini ko'rishi shart.

Shu bilan birga, ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan tergov va protsessual harakatlarni o'tkazish kerak bo'lganida, tergovchi jinoyat ishi qo'zg'atib, tegishli kechiktirib bo'lmas harakatlarni bajarishi va undan keyingina ishni tergovga tegishliligi bo'yicha yuborishi shart.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat ishini qo'zg'atish tushunchasini ayting.
2. Jinoyat ishini qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyatni tushuntiring.
3. Jinoyat ishi qo'zg'atilgandan yoki rad etilgandan keyingi faoliyatni bayon eting.
4. Jinoyat ishi qo'zg'atishning ahamiyati nimalarda namoyon buladi?
5. Jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nechta tarkibiy qismlardan iborat?

§ 3.2. Jinoyat ishi qo'zg'atish sabablari, asosi va tartibi

Jinoyat ishini qo'zg'atish sababi deganda, JPKda belgilangan va o'zida tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma'lumot beradigan manbalar tushuniladi. Sababning mavjudligi ushbu organlarning jinoyat ishini qo'zg'atish zarurligi haqidagi masalani ko'rib chiqish majburiyatini yuzaga keltiradi.

JPKning 322-moddasining 1-qismiga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish uchun quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- 1) shaxslarning arizalari;
- 2) korxonalar, muassasa, tashkilot hamda jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar;
- 3) ommaviy axborot vositalarining xabarlarini;
- 4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, shuningdek tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning bevosita o'zi aniqlashi;
- 5) aybini bo'yunga olish haqidagi arz sabab bo'ladi.



Ma'lumot uchun: Jinoyat ishini qo'zg'atishning sabablari jinoyat-protsessual qonunchilikda aniq va to'liq ro'yxat sifatida keltirilgan bo'lib, ularni kengaytirish yoki boshqacha talqin etish mumkin emas.

Endi har bir sababni alohida ko'rib chiqamiz:

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshirayotgan davlat organlarining faoliyatida jinoyat ishini qo'zg'atishning eng ko'p tarqalgan sababi – **shaxslarning arizalaridir**. JPKning 324-moddasiga muvofiq, shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin.

Og'zaki arizalar og'zaki arizani qabul qilish bayonnomasida qayd etiladi. Bayonnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- bayonnomaning nomi, tuzilgan joyi va sanasi;
- arizani qabul qilgan shaxsning lavozimi va familiyasi;
- ariza qabul qilingan joy va vaqt;
- ariza beruvchi haqidagi ma'lumotlar (familiyasi, ism-sharifi, tug'ilgan yili, lavozimi va ish joyi, shaxsini tasdiqlovchi pasport yoki boshqa hujjati seriyasi, raqami, kim tomonidan qachon berilganligi, yashash manzili, telefon raqami);
- JKning 237-moddasi bo'yicha ariza beruvchiga yolg'on xabar bersa, jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida tushuntirilganligi to'g'risida belgi (imzo);
- ariza mazmunining birinchi shaxs (arizachi) nomidan bayoni (qanday holatlar sodir bo'lganligi, qanday choralarni ko'rish kerakligi);

– bayonnomani arizachi o‘qib chiqqanligi va uning so‘zlaridan to‘g‘ri yozilganligi haqidagi belgi (imzo), shuningdek arizachining va arizani qabul qilgan mansabdor shaxsning imzosi⁴⁹.

Ariza beruvchi shaxs o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eta olmagan hollarda uning shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlar boshqa yo‘llar bilan tekshirilishi va aniqlanishi kerak.

JPKning talablariga asosan yozma arizalar imzolagan bo‘lishlari kerak. Anonim, ya’ni, imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan ariza jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘la olmaydi (JPK, 323-modda). Anonim arizada jinoyatlarga oid aniq faktlar mavjud bo‘lganda, uni surishtiruv organi (o‘z tashabbusi bilan yoki prokuror, tergovchining topshirig‘i bo‘yicha) tekshirib chiqishi va agar faktlar tasdiqlansa, bunday holda surishtiruv organlarining jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashlari jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘ladi.

Qonunning arizani uning muallifi imzolashi shart ekanligiga oid talabi jinoyat haqida ma’lumotlardan xabar beruvchi fuqaroning javobgarligini oshirishga, pirovardida, jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal etish uchun asos qilib olish mumkin bo‘lgan ishonchli faktlarni olishga qaratilgan. Shu bois og‘zaki yoki yozma ariza yohud xabar olingan har bir holda arizachining shaxsini aniqlash jinoyat ishini asosli tarzda qo‘zg‘atish uchun katta ahamiyatga ega.

Jinoyat-protsessual nazariyada ommaviy va xususiy ayblov institutlari mavjud. Xususiy ayblov deganda jinoyat ishining qo‘zg‘atilishi va davlat tegishli ayblov chora-tadbirlarining amalga oshirishi uchun jabrlanuvchi arizasigina asos bo‘la oladi. Jabrlanuvchi ariza bermagan hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish mumkin emas, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari esa tugatilishi kerak.

Mamlakatimizning jinoyat-protsessual qonunchiligida xususiy ayblovga taalluqli bo‘lgan jinoyat turlari JPKning 325-moddasida ko‘rsatilgan. Ushbu ro‘yxat 1994-yil 22-sentyabrda (JPK qabul qilinganida) ikkita jinoyat tarkibi (JK, 118-modda, 1-qism va 119-modda, 1-qism)dan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2012-yil 5-yanvardagi, 2012-yil 29-dekabrda va 2016-yil 23-sentyabrdagi qonunlar bilan ancha kengaytirilgan. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jarayonida dispozitivlik institutining kengaytirilishini va jinoyat-protsessual qonunchilikning bosqichma-bosqich liberallashtirilayotganligidan dalolat beradi.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3723-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3735818>.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi Qonuniga asosan Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi⁵⁰.



Ma‘lumot uchun: Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart (JPK, 325-modda).

2012-yil 29-dekabrda qonunga asosan Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi⁵¹.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun mustaqil sabab sifatida bunday xabarlarining ajratilishi orqali jinoyat protsessida jamoatchilik ishtirokining katta ahamiyatga egaligi ko‘rsatilgan. Ushbu xabarlar yozma shaklda (xizmat xati, tasdiqlangan telefonogramma, telegramma, radiogramma shaklida) bayon etilishi mumkin. Shu bilan birga, xabar yuboruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o‘z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilib yuborishi mumkinligiga ham ruxsat berilgan.

Ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar. Muayyan jinoyat to‘g‘risida matbuot, radio va televideniye, hujjatli kinofilmlardagi, shuningdek ommaviy axborot vositalariga yo‘llangan, lekin e‘lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘ladi.

Jinoyat to‘g‘risidagi xabarni e‘lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek bu xabar mualliflari surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning talabiga asosan o‘z ixtiyorlarida bo‘lgan hujjatlarni va xabarni tasdiqlovchi boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart (JPK, 327-modda).

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘R QHT, 2012-y., 1-son, 3-modda.

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda O‘RQ-345-sonli Qonuni // O‘R QHT, 2013-y., 1-son, 1-modda.

JPKda jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun bunday sababning belgilanganligi ichki ishlar organlari, surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarga doimiy ravishda matbuot xabarlarini kuzatib borish va ular bo‘yicha chora ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Muassasa, korxonalar va tashkilotlarning devoriy gazetalarida e‘lon qilingan xabarlar JPKda nazarda tutilmagan. Devoriy gazetalaridagi xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan organlarga ma‘lum bo‘lib qolsa, tegishli organning jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi buning sababi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda keng tarqalgan internet tarmog‘i xabarlarini jinoyat ishini qo‘zg‘atishning sababi bo‘lishi uchun ularning manbasi ma‘lum va ularni tekshirish imkoni mavjud bo‘lishi lozim. Agarda internet tarmog‘ida tarqatilgan xabarlar orqali jinoyat sodir etiladigan bo‘lsa ular surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi sababini tashkil etadi.

Masalaning eng asosiy jihati shundan iboratki, ommaviy axborot vositalari tomonidan berilgan xabarlar aynan mamlakatimiz hududida sodir etilgan jinoyatlarga taalluqli bo‘lishi kerak. Masalan, xorijiy davlatda sodir etilgan terroristik xuruj to‘g‘risidagi ommaviy axborot vositasining xabari jinoyat ishini qo‘zg‘atish sababi bo‘la olmaydi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish vakolatiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdor shaxs tomonidan jinoyatga oid ma‘lumotlarning bevosita aniqlanishi. Ushbu sababning o‘ziga xosligi unda jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masala tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ariza yoki xabar berilganligi uchun emas, balki surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning tashabbusi bilan hal qilinadi.

Jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlarning bevosita aniqlanishi quyidagi hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘lishi mumkin:

1) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi ma‘muriy vazifani amalga oshirayotganida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlaganida;

2) surishtiruvchi, tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha surishtiruv, dastlabki tergov yuritish chog‘ida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlaganida;

3) prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha dastlabki tergov olib borish chog‘ida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlaganida (JPK, 328-modda).

JPKning 113-moddasiga asosan ***aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz*** ariza beruvchining o‘zi sodir etgan jinoyati to‘g‘risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e‘lon qilinmasdan oldin bergan xabaridir. U ham ariza kabi og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror arizani qabul qilib olgandan keyin arizachining shaxsini aniqlashlari va bu to'g'rida bayonnoma tuzishlari lozim. Ushbu bayonnomada ariza beruvchining shaxsi, yashash va ish joyi haqida uning hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topishi kerak. Bayonnomaga ariza ilova qilinib, arizachiga, aybni bo'yniga olishi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi, jinoyatni ochishda faol qatnashishi javobgarlikni yengillashtiruvchi holat ekanligi to'g'risida tushuntirish beriladi. Arizachi yolg'on xabar bergan arzi uchun ogohlantirilmaydi. Har bir aybni bo'yniga olish to'g'risidagi arz yolg'on va kelishilgan bo'lishi mumkin, shuning uchun u sinchkovlik bilan tekshirilishi, so'ngra baholanishi lozim (JPK, 113-modda).

Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror og'zaki xabarni bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma'lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror imzo chekadi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan gumon qilinuvchi ushlanganida o'tkazilgan so'roqlardan keyingi chin ko'ngildan aybiga iqrор bo'lishni farqlash lozim. Bunday iqrорlik ba'zan ichki ishlar idoralari amaliyotida aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz sifatida noto'g'ri rasmiylashtiriladi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan murojaat qilgan shaxs JPKning 221-moddasida ko'rsatilgan shartlar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxs, uning aybi jinoyatni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligini va boshqa isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida aniqlanadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi jinoyatni belgisiga ko'ra kvalifikatsiyalaydi, xolos.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan baholanadi. Bunda gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko'rsatuvlari va ayblanuvchining o'z aybiga iqrор bo'lishi, bu iqrор bo'lish mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining bergan ko'rsatuvlari bilan aniqlangan holatlar, ayblanuvchi o'z aybiga iqrор bo'lgan taqdirda ham, o'zining aybdor ekanligini inkor qilgan taqdirda ham ishning hamma holatlari bilan bog'langan holda boshqa dalillar kabi tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim.

Qonuniy sababdan tashqari, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun yetarli asoslarning mavjud bo'lishi ham zarur. JPKning 321-moddasiga muvofiq jinoyat ishi yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda qo'zg'atiladi.



E'tibor qiling! Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari tushunchasi jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni nazarda tutadi (JPK, 322-modda).

U ikkita o'zaro chambarchas bog'liq unsur dan tashkil topadi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxsga ma'lum bo'lib qolgan hodisada jinoyat alomatlarining mavjudligi;

2) jinoyat alomatlarini aniqlashga asos bo'ladigan yetarli ma'lumotlarning mavjudligi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorni qabul qilish paytida jinoyat tarkibining barcha elementlari haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish shart emas. Muayyan shaxslarni, ayb shaklini, jinoyat sodir etilishining motivlari, usullari va boshqa holatlarini to'liq va har tomonlama aniqlash dastlabki tergov bosqichining keyinchalik esa sud muhokamasining vazifalaridir.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslarining zaruriy elementi bo'lmish "jinoyat alomatlari" tushunchasini tahlil qilishda jinoyat va jinoyat-protsessual huquqining chambarchas aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi. Jinoyat alomatlarining aniqlanishi JKning muayyan normasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli, jinoiy jazolanadigan qilmish haqida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilishda jinoiy jazoga tortiladigan qilmishni faqat ma'muriy, fuqaroviy-huquqiy va boshqa munosabatlarni yuzaga keltiruvchi harakatlardan farqlash imkonini beruvchi belgilarga alohida e'tibor berish kerak. Ushbu belgilar, avvalo, jinoyatning obyektiv tomoniga taalluqli bo'lib, jinoyat hodisasining o'zi haqiqatda mavjud bo'lganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Jinoyat ishini qo'zg'atish chog'ida aniqlangan jinoyat belgilariga muvofiq, qilmish JKning tegishli moddasi bo'yicha tavsiflanadi. Jinoyat protsessini bundan keyingi yuritish davomida ushbu tavsifga aniqlik kiritilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi faktik ma'lumotlarni olish yoki tekshirish maqsadida surishtiruv organi, tergovchi yoki prokuror muayyan tekshiruv harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Ushbu harakatlarning butun ma'nosi va vazifasi jinoyat belgilarining va ish yuritishni istisno etuvchi holatlarning bor-yo'qligini aniqlashdan iborat. Bu narsa aniqlangan zahoti jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish haqida tegishli qaror qabul qiladi. Tekshiruv harakatlari haqiqatan zarur bo'lgan hollarda va faqat qonunda belgilangan muddatda amalga oshirilishi mumkin. Agar sabablarda jinoyat alomatlarini yoki ularning yo'qligini ko'rsatuvchi yetarli faktik ma'lumotlar mavjud bo'lsa, qaror qo'shimcha tekshirishsiz qabul qilinishi kerak.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablarini tushuntiring.
2. Jinoyat ishini qo'zg'atish asosi nimadan iborat?
3. Qaysi hollarda jinoyat ishi jabrlanuvchining arizasisiz qo'zg'atiladi?
4. Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslarining zaruriy elementi bo'lmish "jinoyat alomatlari"ni tushuntiring.
5. Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi faktik ma'lumotlarni bayon eting.

§ 3.3. Jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar

Jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- 1) jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida;
 - 2) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida;
 - 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab jo'natish to'g'risida.
- Qabul qilingan qaror haqida arizachiga xabar beriladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qaror qabul qilish uchun jinoyatni sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning aybini isbotlash, ishni to'laligicha tergov qilish talab etilmaydi. Kelib tushgan ariza yoki xabarda keltirilgan ma'lumotlarda jinoyat alomatlarining mavjudligini o'zi yetarlidir. Boshqacha aytganda, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida dastlabki tergovni boshlash uchun asoslarning mavjudligi tekshiriladi, uning natijasi oldindan hal etilmaydi⁵².



E'tibor qiling! Qonuniy sabab yoki yetarli asoslar bo'lganda, qabul qilinadigan ***jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorga***, JPKning 331-moddasiga muvofiq tegishli protsessual hujjat shakli berilishi kerak.

JPKning 336-moddasiga muvofiq jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarilganidan keyin:

1) prokuror ishni JPKning 345 va 381²-moddalariga muvofiq dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga yuboradi yoxud o'zi dastlabki tergov yoki surishtiruv yuritishga kirishadi;

2) tergovchi dastlabki tergovni yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi yoki prokurorning roziligi bilan jinoyat ishini JPKning 345-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra boshqa dastlabki tergov organiga yoki JPKning 381²-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra surishtiruv organiga yuboradi;

3) surishtiruvchi surishtiruv yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi yoki prokurorning roziligi bilan jinoyat ishini JPKning 381²-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra boshqa surishtiruv organiga yoki JPKning 345-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra dastlabki tergov organiga yuboradi;

4) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i jinoyat ishini JPKning 345 va 381²-moddalarida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga o'tkazish uchun darhol prokurorga

⁵² Уголовно-процессуальное право. Особенная часть. (коллектив авторов) – Т.: ILM-ZIYO, 2011. – 544-bet.

yuboradi. Jinoyat ishining tergovni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirgan organning surishtiruviga yoki dastlabki tergovga tegishli bo'lgan taqdirda, jinoyat ishi prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvni yoki dastlabki tergovni amalga oshirish uchun qabul qilinishi mumkin.

Agar jinoyat ishini tergovni yuritayotgan shaxs qo'zg'atgan bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish va uni o'z yurituviga olish haqida qaror chiqariladi. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi chiqargan jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organining boshlig'i tasdiqlaydi. U asossiz ravishda jinoyat ishini qo'zg'atishga yo'l qo'ymaslik uchun dastlabki materiallarni shaxsan o'rganib chiqishi shart.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror muhim protsessual hujjatdir. Unga qo'yiladigan talablarga qat'iy rioya etish jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlovchi kafolatlardan biridir.

*Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror uchta qismdan, ya'ni **kirish, tavsiflash-asoslantirish va xulosa** qismlaridan iborat bo'ladi.*

Qarorning kirish qismida:

- qaror nomi, tuzilgan vaqti va joyi, qaror chiqargan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatiladi;

- tavsiflash-asoslantirish qismida - jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslari bayon etiladi;

- xulosa qismida esa - jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qabul qilinayotgan qaror jinoyatning JK tegishli moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi hamda jinoyat ishining bundan buyon qayerga yuborilishi ko'rsatilgan holda beriladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng darhol davom etayotgan jinoyatlarni to'xtatish va takroran jinoyat sodir etilishining oldini olishga, shuningdek, jinoyatning ish uchun ahamiyati bo'lishi mumkin bo'lgan izlari, narsalar va hujjatlarni qayd etish va saqlab qolishga qaratilgan choralar ko'rilishi kerak.



E'tibor qiling! *Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish* protsessual faoliyatni inkor etilganligi va yakuniy xususiyatga ega bo'lganligi bois, jinoyat belgilari yo'qligi haqidagi ishonchli ma'lumotlar yoki jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni inkor etuvchi boshqa holatlarning yoxud uni qo'zg'atish bosqichidayoq jamoat ta'sirini qo'llashning o'zi yetarli ekanligi haqida yetarli xulosa asosida amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno etuvchi holatlar aniqlanishi mumkin. Ularning ro'yxati JPKning 333-moddasida berilgan.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari mavjud bo'lmagan taqdirda, shuningdek ish yuritishni istisno etuvchi holatlar (JPK, 83-modda 1 va 2-bandlar va 84-modda 1, 3-7-bandlar) aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar

bergan fuqaro, korxonaga, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim.

JPKning 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida (e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa) nazarda tutilgan holat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

JPKning 83-moddasiga muvofiq quyidagi hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari esa tugatilishi lozim:

1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilishda shaxs harakatlarida ma'muriy yoki intizomiy, boshqa huquqbuzarlik yoki axloq normalarini buzish alomatlarini aniqlansa, tegishli mas'ul organlar va mansabdor shaxslar kelib tushgan arizani ko'rib chiqish va hal etish uchun jamoat birlashmasi, mehnat jamoasi, aholi istiqomat joylaridagi fuqarolar yig'iniga ma'muriy yoki intizomiy tartibda hal qilish uchun yuborishga haqlidirlar.

Jinoyat ishi qo'zg'atish va tergov o'tkazilishi lozim bo'lgan jinoiy hodisa yuz bermaganligi, jinoyat tarkibi bo'lmaganligi, shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganligi aniqlangan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi hamda bu haqda xabar bergan fuqaro, korxonaga, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs xabardor qilinadi.



Ma'lumot uchun: Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida qaror ham jinoyat ishini qo'zg'atish singari ***kirish va tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan*** iborat bo'ladi. Unda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishni asoslovchi aniq ma'lumotlar keltiriladi.

Agar jinoyat ishini qo'zg'atish shaxsning jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmaganligi tufayli rad etilgan bo'lsa, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanadigan komissiyaga yuborilishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan taqdirda manfaatdor shaxslar va muassasalarga zararni undirish tartibi ham tushuntiriladi, olib qo'yilgan jinoyat qurollari, muomalaga kiritish taqiqlangan buyumlarga nisbatan choralar haqida qaror qabul qilinadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishning rad qilinganligi haqida ariza yoki xabar bergan shaxs, muassasa, korxonaga yoki jamoat tashkiloti xabardor qilinadi va ularga ushbu qaror yuzasidan shikoyat qilish huquqlari tushuntiriladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish

asossiz ravishda rad qilingan taqdirda prokuror o'z qarori bilan tergovchi yoki surishtiruv organining noto'g'ri qarorini bekor qiladi va jinoyat ishi qo'zg'atadi.

Ba'zi holatlarda vakolatli organlariga JPKning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik qoidalariga asosan dastlabki tergovni o'tkazish vakolatiga kirmaydigan ariza, xabar yoki hatto materiallar kelib tushadi. Bunday hollarda arizani yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborishga ushbu tuman yoki shahar hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyat haqida xabar berilgan va jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekshirish harakatlarini jinoyat sodir etilgan tuman yoki shaharda o'tkazish zarur bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi (JPK, 335-modda). Boshqa hollarda ariza yoki xabarni, jumladan, materialni tergovga tegishliligiga qarab bir tergov apparatidan boshqasiga berish taqiqlanadi.

Ayni paytda jinoyat ishini u qo'zg'atilganidan keyin, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarilganidan keyin ishni:

a) prokuror – ish bo'yicha JPKning 345-moddasiga muvofiq dastlabki tergov olib borish uchun tergovchiga yoki surishtiruv olib borish uchun surishtiruv organi boshlig'iga yuboradi yoxud o'zi dastlabki tergovni yuritishga kirishadi;

b) tergovchi – dastlabki tergov yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi;

d) surishtiruv organining boshlig'i – ishni surishtiruv o'tkazish uchun surishtiruvchiga yuboradi yoki o'zi surishtiruv yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi;

e) surishtiruvchi – surishtiruv yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi (JPK, 336-modda).



Nazorat savollari:

1. Jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qarorlardan qabul qilinadigan qarorlar turlarini ayting.
2. Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorning tavsif-asoslantirish qismini bayon qiling.
3. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qarorga nimalar asos bo'lishi mumkinligini tushuntiring.
4. Qaysi hollarda ariza yoki xabar tergovga tegishliligiga qarab jo'natiladi.
5. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorning xulosa qismini bayon eting.

§ 3.4. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati

Har bir sohada bo‘lgani kabi jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida ham qonuniylik va adolatni ta‘minlash, ularni kafolatlash omillaridan biri bo‘lib, nazoratning mavjudligi hamda ularning samarali mexanizmlari hisoblanadi.

Ushbu nazoratni ikkiga, ya‘ni idoraviy va protsessual nazorat turlariga bo‘lish mumkin. Idoraviy nazorat, bevosita jinoyat ishini qo‘zg‘atish vakolatiga ega idora va mansabdor shaxslarning rahbarlari tomonidan JPKda ko‘rsatilgan va belgilab qo‘yilgan tartib asosida butun faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Protsessual nazorat esa jinoyat ishini qo‘zg‘atish davridan boshlab tegishli hududiy prokuratura idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu har ikkala nazoratning maqsadi ham umumiy asoslarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish jarayonida qonuniylik va adolat mezonlarini ta‘minlashga, shuningdek inson va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini kafolatlashga qaratilgandir⁵³.



E‘tibor qiling! Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning yoki qo‘zg‘atishni rad etishning qonuniyligini prokuror nazorat qiladi. Prokuror:

1) tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, surishtiruv organi boshlig‘ining, tergovchining jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorini bekor qilishga va ish qo‘zg‘atishni rad qilishga;

2) tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, surishtiruv organi boshlig‘ining, tergovchining jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qarorini bekor qilishga va ayni vaqtda ish qo‘zg‘atishga haqlidir (JPK, 337-modda).

Tergovchining protsessual qarorlari qonuniyligi va asosliligi ustidan prokurorning nazorati aksariyat hollarda tergovning jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki ishni qo‘zg‘atishni rad qilish, jinoiy javobgarlikka tortish va ehtiyot chorasini tanlash, shuningdek, dastlabki tergovni, ayblov xulosasini yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi qarorni tuzgan holda tugatish bosqichlarida o‘z aksini topadi. Tergovchining protsessual qarorlari qonuniyligi va asosliligi ustidan prokuror nazorati xususiyatlarini tasniflovchi masalalar doirasini belgilashda qonunbuzarliklarning o‘xshashligi va jiddiyligi hisobga olingan.

Jinoyatlar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va hal qilish jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv bosqichi deb ataluvchi mustaqil bosqichini tashkil etadi. U har bir tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan va sodir etilgan jinoyat to‘g‘risidagi xabarga nisbatan zudlik bilan chora ko‘rilishini ta‘minlashga, uning ochilishi va tergov qilinishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgandir.

⁵³ “Jinoyat-protsessual huquqi” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. G.Z.To‘laganova, Sh.Fayziyev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2014. – 433-bet.

JPKning 331-moddasi “jinoyat ishini qo‘zg‘atish tartibi” ni belgilab, shuni nazarda tutadiki, tergovchi yoki surishtiruv organi tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida chiqarilgan qaror nusxasi zudlik bilan prokurorga yuboriladi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning qonuniyligi va asosliligi to‘g‘risidagi masala sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalarni, shuningdek dalillar manbai sifatida boshqa hujjatlar deb ko‘rib chiqiladigan tekshiruv materiallarini (JPK, 81-modda, 2-qism) o‘rganish asosida hal qilinadi. JPKning 322-moddasiga muvofiq jinoyat belgilari mavjudligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar yetarli bo‘lgan hollardagina ish qo‘zg‘atilishi mumkin. Jinoyatlar to‘g‘risidagi ariza va xabarlarini tekshirish hamda jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish bo‘yicha faoliyat protsessual tusga ega bo‘lib, u tegishli protsessual qaror qabul qilish bilan tugallanadi. Shu boisdan JPKning 95-moddasida ko‘rsatilgan yetarli ma’lumotlar haqiqiy ma’lumotlar, ish bo‘yicha dalillar hisoblanadi. Qayd etish joizki, tergovga qadar tekshiruv bosqichidagi tekshirish faoliyati daliliy xususiyatga ega, daliliy axborot mavjudligi esa jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani qonuniy va asosli hal qilish uchun zarur shart hisoblanadi.

Jinoyat ishlarini qo‘zg‘atishning, shuningdek, ularni qo‘zg‘atishni rad qilishning qonuniyligi va asosliligi tergovga qadar tekshiruv bosqichida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati to‘g‘ri tashkil etilganligiga jiddiy tarzda bog‘liqdir. Jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish bosqichidagi prokuror nazorati jinoyat protsessida shaxs, uy-joy daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasi va shu kabi konstitutsiyaviy tamoyillarga rioya etishni ta’minlaydigan qonuniylikning jiddiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qaror prokurorning diqqat markazida bo‘lishi kerak. Prokuror tergovchi tomonidan qonunning bunday protsessual hujjatga nisbatan bo‘lgan talablariga rioya etilganligini tekshirishi lozim⁵⁴.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etishning qonuniyligi va asosliligini tekshirib, prokuror tergovchidan quyidagilarni talab qilishi lozim: tegishli qarorning ta’riflovchi qismida kimdan, qachon va qaysi organ tomonidan jinoyat to‘g‘risidagi ariza yoki xabar qabul qilinganligi ko‘rsatilishi kerak. Qarorda tergovchining jinoyat ishini qo‘zg‘atish mumkin emasligi yoki maqsadga muvofiq emasligi haqidagi qarorga olib kelgan sabablar bayon etilishi kerak.



Ma’lumot uchun: Agar prokuror jinoyat ishini rad qilish noqonuniy va asossiz degan xulosaga kelsa, u bu qarorni bekor qilib,

⁵⁴ Mark E, Cammack, Norman M. Garland. Advanced criminal procedure. Second edition. Thomson/ West. USA, 2006.

jinoyat ishini yoki o'zi qo'zg'atadi, yoki tergovchiga tegishli ko'rsatma beradi. Agar jinoyat ishi qo'zg'atilgani xato bo'lsa, prokuror tergovchining tegishli qarorini bekor qiladi. Agar qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha hech bo'lmasa bitta tergov harakati o'tkazilgan bo'lsa, prokuror jinoyat ishini tugatadi (JPK, 373-modda).

Prokuror o'zining asosli qarori bilan qarorning tariflovchi qismini o'zgartirishga, qarorda xato bo'lgan ta'kidlashlarni istisno etishga va ularni aniqlangan haqiqiy ma'lumotlar hamda qonun normalariga muvofiqlashtirishga haqlidir.

Bu ham jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorga, ham ishni qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorga teng darajada tegishlidir. Lekin bu hollarda yangi qaror chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Prokuror nafaqat qonunbuzarliklarni bartaraf etadi, balki u buning uchun javobgar shaxslarni ham aniqlashga va zarur bo'lgan hollarda ularni javobgarlikka tortish masalasini qo'yishga majburdir. Prokurorning qonuniy talablari bajarilmagan hollarda qonunbuzarlarni egallab turgan lavozimlaridan bo'shatishga qadar javobgarlikka tortish haqidagi masala qo'yiladi.

Xulosa qilish mumkinki, mazkur jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida qonuniylikni ta'minlash bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarning yechimini hal etish maqsadlarida, tegishli idoralarining rahbarlari o'z vakolatlari doirasidagi barcha zaruriy masalalarni hal etish bilan birgalikda jinoyat ishini qo'zg'atishda qonuniylikni ta'minlash yo'llaridan borib jinoyat ishini qo'zg'atish davrida protsessual qonunlar buzilishining oldini olish bilan birga muntazam ravishda qonuniylik holatlarini ham mustahkamlab borishlari zarurdir. Bunda prokuror katta vakolatlarga ega bo'lib, bunday vakolatlar unga jinoyat ishini qo'zg'atishning yoki qo'zg'atishni rad etishning qonuniyligini nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga qonun jinoyat sudlov ishlarini yuritishning vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tergov va protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi davlat vakolatli organlari va mansabdor shaxslariga huquq beradi, boshqa tomondan esa, jinoyatni ochish uchun zarur bo'lgan qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, hech kimni jinoyat ishiga jalb qilinmasligi yuzasidan fuqarolar uchun huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichida prokuror nazoratining huquqiy jihatlarini bayon eting.
2. Jinoyat ishi qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan organ va mansabdor shaxslarni tavsiflang.
3. Jinoyat ishlarini qo'zg'atishning, shuningdek, ularni qo'zg'atishni rad qilishning qonuniyligi va asosliliigi tergovga qadar tekshiruv bosqichida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tashkil etilishini tushuntiring.
4. Surishtiruv jarayonida jinoyat ishini qo'zg'atish bo'yicha prokuror nazorati qanday yo'nalishlar yuzasidan amalga oshiriladi.
5. Dastlabki tergovda jinoyat ishini qo'zg'atilishi ustidan prokuror nazorati tashkil etilishini bayon qiling.

4-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR BO‘YICHA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV

§ 4.1. Tergovga qadar tekshiruv tushunchasi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida bojxona organlari, ularning vakolatlari va majburiyatlari

Inson va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan asosiy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi, ularga jinoiy tajovuzlar tufayli kelib chiqqan munosabatlarning jinoyat protsessida qonuniy hal etilishi, haqiqatni aniqlab, adolatni yuzaga chiqarish uchun ham tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov, prokuratura va sud idoralari faoliyat yuritadi. Ular orasida jinoyat protsessida iyerarxik shaklda ham, tadrijiy ko‘rinishda ham dastlabki bosqichda tergovga qadar tekshiruv turadi.



Ma’lumot uchun: *Tergovga qadar tekshiruv* - aniqlangan huquqbuzarlik holati yuzasidan jinoyat tarkibi mavjud yoki mavjud emasligi bo‘yicha vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan protsessual tadbirlar majmuasidir⁵⁵.

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish uchun jinoyat alomati bor huquqbuzarlik holatlarining sodir etilganligini yoki sodir etilayotganligini yoxud tayyorlanayotganligini bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan aniqlanganligi, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar, ommaviy axborot vositalari tomonidan e‘lon qilingan xabarlar asos bo‘la oladi. Tergovga qadar tekshiruv yo‘nalishida o‘tkaziladigan tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi talablari asosida tartibga solinadi, shuningdek tadbirlarning tashkil etishga vakolatlilik bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taalluqli qonunlar bilan mustahkamlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida tergovga qadar tekshiruv faoliyatini amalga oshirish bojxona organlari huquqlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga vakolatli organlar surishtiruv yoki dastlabki tergovni olib borishga vakolatli organlarga nisbatan ko‘psonliligi, harakatlar tergovga qadar tekshiruv organining maxsus mansabdor shaxsi tomonidan olib borilishi yoki protsessual tadbirlarning shaxsan organ boshlig‘i tomonidan yoki uning nazorati ostida olib borilishi bilan ajralib turadi.

JPK Maxsus qismining IX-bo‘limi “Ishni sudga qadar yuritish” deb atalib, kodeksning 320¹-moddasiga ko‘ra, ishni sudga qadar yuritish jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanishi hamda

⁵⁵ <https://advokat-dobikov.ru/dosledstvennaya-proverka/>.

tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o'z ichiga olishi belgilangan.



E'tibor qiling! JPKning 320²-moddasida “**tergovga qadar tekshiruv** jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarni o'z ichiga oladi” deb ko'rsatilgan.

Tergovga qadar tekshiruvga oid protsessual harakatlarni JPKning 39¹-moddasida ko'rsatilgan vakolatli organlar tomonidan jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi, shu bilan birga tergovga qadar tekshiruv surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ham olib borilishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning eng asosiy vakolatlaridan biri - aniqlangan huquqbuzarlik holati yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'ata olishidir. Chunki bunday vakolat quyida ko'rib chiqishimiz mumkin bo'lgan bir qator tergovga qadar tekshiruv organlari, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorga berilgan, xolos. JPKning 321-moddasi bo'yicha esa tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi o'z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishi shartligi yuzasidan majburiyat yuklaydi.



E'tibor qiling! *Tergovga qadar tekshiruv olib borishning muddatlari* JPKning 329-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ya'ni jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim bo'ladi. Ushbu muddatning boshlanishi jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hisoblanadi va bu muddat ichida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi.



Ma'lumot uchun:

Yuqorida ko'rsatilgan 10 sutkalik muddat ichida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tekshirilayotgan ish yuzasidan quyidagicha tergov harakatlarini o'tkazishi mumkin:

- qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish;
- shaxsni ushlab turish;
- shaxsiy tintuv va olib qo'yish;

- hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;
- ekspertiza o'tkazish;
- taftish tayinlash;
- tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish.

Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazilishi mumkin emas.

JPKning ushbu 329-moddasi asosida, alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddati tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining asoslantirilgan qaroriga ko'ra prokuror tomonidan **bir oygacha uzaytirilishi mumkin**. Ular quyidagilar:

1) o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa;

2) olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo'lsa;

3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo'shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa.

4) yetkazilgan moddiy zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplash va jinoyat oqibatlarini bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan muddat o'tmagan bo'lsa.

Jinoyat kodeksining 69-moddasida jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish hollari belgilangan, bunda tayinlagan jazoga qarab, ozodlikdan mahrum qilish jazosi hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 3 yildan 25 yilgacha bo'lgan muayyan muddat o'tgan taqdirda jazo ijro etilmagan bo'lsa, mahkum asosiy va qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi, agar jazo tayinlangan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, jazoni ijro etish mumkin emasligi belgilangan.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ish materiallari yuzasidan JPKning 330-moddasi tartibida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- 1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida;
- 2) ishni qo'zg'atishni rad qilish haqida;
- 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida.

Tergovga qadar tekshiruv harakatlari boshlanishiga sabab va asoslar bilan JPKning 322-moddasida ko'rsatilgan jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslar o'rtasidagi farq shundaki, ya'ni shaxslarning arizalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar; ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning bevosita o'zi aniqlagan huquqbuzarlik holatida, aybini bo'yniga olish haqidagi arz tarkibida jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi. Bunday holatlarda tergovga qadar

tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida vakolatli mansabdor shaxs JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Faqatgina JPKning 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan holat, ya’ni e’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish sud tomonidan amalga oshiriladi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar darhol prokurorga yuboriladi (JPK, 333-modda).

Agar tekshirilayotgan xabar, ma’lumot yoki ish materiallarida jinoyat haqida emas, balki ma’muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoxud axloq normalari buzilganligi haqida ma’lumot aniqlangan taqdirda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish bilan bir paytda xabarni huquqni buzgan shaxsga nisbatan ma’muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta’sir choralari qo‘llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o‘qiydigan joy ma’muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuboradi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda ushbu organ boshlig‘i jinoyat ishini JPKning 345 va 381²-moddalari da belgilangan tergovning tegishliligiga ko‘ra dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga o‘tkazish uchun darhol prokurorga yuboradi. Jinoyat ishining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirgan organning surishtiruviga yoki dastlabki tergovga tegishli bo‘lgan taqdirda, jinoyat ishi prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvni yoki dastlabki tergovni amalga oshirish uchun qabul qilinishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruv organining vakolat va vazifalarini, vakolatli mansabdor shaxsning ish yuritishiga mo‘nelik qiladigan holatlar, majburlov choralari qo‘llashga oid normalarni, tergovga qadar tekshiruv davomida amalga oshiriladigan ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish tartibi bilan bojxona organlarining ushbu yo‘nalishdagi vakolat va vazifalari o‘rganilganda misol tariqasida ko‘rib chiqishimiz mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi O‘RQ-442-son Qonuni asosida surishtiruv institutining takomillashtirilishi munosabati bilan qonunchilikka jiddiy o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Natijada surishtiruv hamda tergovga qadar tekshiruv organlari o‘zaro farqlanadigan bo‘ldi, chunki bunga qadar O‘zbekiston Respublikasida tergovga qadar tekshiruvni amalga

o'shiradigan organlar surishtiruv organlari deb yuritilardi, ular o'z vakolati doirasida jinoyat ishini qo'zg'ashlari va kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishsa-da, biron turdagi jinoyat ishi materiallarini sudga taqdim etish vakolati yo'q edi. Zarur tergov harakatlarining barchasi o'tkazilgan bo'lsa ham, vakolatli prokuror orqali tegishli tergov organi yuborilar edi. Endi esa ayrim jinoyat ishlari yuzasidan tergov harakatlarini yakuniga yetkazib, jinoyat ishini sudga taqdim etadigan surishtiruv organlari tashkil etilib, avvalgi "surishtiruv organlari" deb nomlanadigan organlar tergovga qadar tekshiruv organlari deb yuritiladigan bo'ldi.

Shu o'rinda JPKning 39¹-moddasi bilan esa tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar belgilab berildi. Mazkur moddaning 8-bandiga ko'ra, **davlat bojxona xizmati organlari** tergovga qadar tekshiruv organi hisoblanadi. Bojxona organlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha tekshirish ishlari o'tkazadilar.

Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv faoliyatiga bojxona huquqining kompleks huquq tarmog'i ekanligi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bojxona qonun hujjatlarining buzilishiga doir huquqbuzarlik holatlarining markazida, asosan, tovar va transport vositalari turishi hisobga olinsa,



bu qanchalik murakkab jarayonga aylanishini anglash mumkin. Buni O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 13-moddasida tovar va transport vositalari tushunchasi bo'yicha qayd etilgan normalar isbot bo'la oladi.

Jumladan, unda "bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta boyliklari va boshqa qimmatli qog'ozlar, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk obyektlari, transport vositasi tovar hisoblanadi", "tovarlarni va yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan vosita transport vositasidir" deyilgan. Bojxona chegarasi orqali harakatlangan yoki bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati davomida aniqlanadigan ana shunday tovar va transport vositalari bilan bog'liq jinoiy holatlar o'z xususiyatiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ko'plab turdagi jinoyatlar tarkibini berishi mumkin.

Bunga misol tariqasida oziq-ovqat yoki parfyumeriya mahsulotlarini noqonuniy o'tkazilishini oldini olish bo'yicha aniqlangan huquqbuzarlik holatlari yuzasidan tekshiruvlar o'tkazilganda, ushlab qolingani tovarlar oz miqdorni tashkil etgan taqdirda ham iste'molga yaroqsiz va inson sog'lig'i va hayoti uchun zararli

ekanligi to'g'risida olingan ekspert xulosasi asosida xavfsizlik talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab saqlash, tashish jinoyati fosh etilishi mumkin. Yoki bojxona organlari faoliyatida 20 quti sigaretni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilayotganligi holati yuzasidan tekshiruv jarayonida huquqbuzar shaxsning muqaddam shunday harakatlarni sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligini aniqlash natijasida tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish jinoyati fosh bo'lganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, JPKning 39¹-moddasida davlat bojxona xizmati organlari bilan birga jami 13 ta tergovga qadar tekshiruv organlari sanab o'tilgan. Unga ko'ra, bu organlarni quyidagilar tashkil etadi:

1. Ichki ishlar organlari. Bu O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasida ham o'z aksini topgan.



2. Harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari. E'tibor beriladigan bo'lsa, bunda "komandirlar", "boshliqlar" so'zlari ishlatilgan, ya'ni zikr etilgan ushbu muassasalarning rahbarlarigina tergovga qadar tekshiruv ishlarini amalga oshirishga haqli hisoblanadi. Ular harbiy sohadagi, xususan, ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoxud o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar ma'lumotlarni tekshiradilar, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan tegishli qarorni qabul qiladilar va o'z navbatida ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlash choralarini ko'radilar.



3. Davlat xavfsizlik xizmati organlari. Mazkur organning vakolatli xodimlari ham qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazadilar. Buni O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi "Davlat xavfsizligi xizmati to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida ham mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, mazkur organlarga tergov Davlat xavfsizlik xizmati vakolatiga kiritilgan jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni o'tkazish vakolati berilgan.



4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari



hamda turmalarning boshliqlari. Jazoni ijro etish tizimi ichki ishlar organlari tarkibida bo'lsada, tizimning xizmat olib borish xususiyati va ushbu soha muassasalarning jamiyatdan ajratilgan toifadagi shaxslar kontingentidan kelib chiqib, ularning rahbar xodimlariga tergovga qadar tekshiruv ishlarini olib borish vakolati berilgan. Ular o'zlari rahbarlik qilayotgan yoki boshqaruvi nazoratida bo'lgan muassasalarning xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha ham belgilangan tartibda tekshiruv o'tkazib, tegishli qaror qabul qiladilar.

5. Davlat yong'indan nazorat qilish organlari. Mazkur organlar O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda O'RQ-597-son Qonuni bilan qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar asosida Favqulodda vaziyatlar vazirligining tarkibiy tuzilmalari hisoblanadi va ushbu tizimda yong'in-qutqaruv yo'nalishida maxsus markazlar, boshqarma va bo'linmalar tashkil etilgan. Ular yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni tashkil etadilar.



6. Chegarani qo'riqlash organlari. Bu organlar Davlat chegaralarini himoya qilish qo'mitasi va uning tarkibiy tuzilmalari, chegara qo'shinlaridan iborat bo'lib, Davlat xavfsizlik xizmati tarkibiga kiradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi "Davlat xavfsizligi xizmati to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida Davlat xavfsizlik xizmati faoliyati yo'nalishlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish belgilab qo'yilgan. Bu organlar davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borishga haqli hisoblanadilar.



7. O'lis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari. Dengizda o'lis safarda suzib yurgan kemalarda sodir etiladigan qilmishlar yuzasidan kema kapitanlari tekshiruv ishlarini olib borishlari va zarur hollarda kechiktirib bo'lmaydigan ayrim tergov harakatlarini o'tkazishlari lozim bo'ladi.



8. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari. Mazkur departament O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-son Qonuni bilan "Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash kurashish departamenti"dan yuqorida keltirilgan



nomlanishga o'zgartirildi. Departamentning xodimlari byudjet, soliq va valyuta to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazishga hamda tekshiruv yakunlari bo'yicha JPKda belgilangan qarorlardan birini qabul qilishga vakolatli hisoblanadi. Bu vakolat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida nizom"ning 12-bandida ham mustahkamlab qo'yilgan.

9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo'linmalari. Majburiy ijro byurosi voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, otanonani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo'yicha, shuningdek elektr, issiqlik energiyasi, gaz, suvdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha tekshirib, protsessual qarorlar qabul qiladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to'g'risidagi nizom"da ham qayd etilgan.



10. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari. Bu organlar davlat soliq xizmati tarkibidagi tergovga qadar tekshiruvga vakolatli bo'lgan alohida tuzilmalar bo'lib, ular bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha shug'ullanadilar.



11. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalari. Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan maxsus turidir.



12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati. Oxirida keltirilgan mazkur organlarning tergovga qadar tekshiruv faoliyati qonun bilan ularning ish yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha protsessual harakatlarni qamrab oladi.



13. O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari. Bojxona organlarining ushbu yo‘nalishdagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tezkor-qidiruv faoliyat bilan ham shug‘ullanishga vakolatli organlar qatoriga kirishi jinoyat-protsessual qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan. Ya’ni unda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar o‘z ish yurituvidagi ishlar bo‘yicha jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, tekshiruv natijalariga ko‘ra jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalanib zarur choralar ko‘rish vazifasini bajarish maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. Shuning uchun ham bojxona organlari tarkibida tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug‘ullanuvchi alohida tuzilmalar mavjud.



Bunday vakolat barcha tergovga qadar tekshiruv organlariga ham berilmagan. Davlat bojxona xizmatidan tashqari, ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti ham tezkor-qidiruv faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tergovga qadar tekshiruv organi hisoblanadilar. Bunday faoliyat esa O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda “Tezkor-qidiruv faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa tegishli qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi.



turidir”⁵⁶.

Ma’lumot uchun: “Tezkor-qidiruv faoliyat - maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat



Esda tuting! Tergovga qadar tekshiruv organi tergovchi, surishtiruvchi va prokurorning o‘z vakolatlari doirasida bergan topshiriqlarini bajarishlari shart.

Tergovchi yoki surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to‘g‘risidagi qarorlarning ijrosini topshirish, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko‘maklashishni talab qilish vakolatiga ega. Shuning uchun ham amaliyotda tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan o‘z ish yurituvida bo‘lgan jinoyat ishlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv organlariga zarur hollarda tegishli qaror chiqarilib, ijrosini ta’minlash uchun yuboriladi.

Jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga ko‘ra, bojxona organlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishi belgilangan ekan, shu o‘rinda bojxona organlari tushunchasiga ham aniqlik kiritish lozim bo‘ladi.

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda “Tezkor-qidiruv faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. <https://lex.uz/docs/2107763>.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlaridan iborat.



Bojxona organlari faoliyatida huquqbuzarlik holatlarini aniqlash va o‘tkaziladigan protsessual harakatlarni rasmiylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi DBQning buyruqlari asosida amalga oshiriladi. Qo‘mita tomonidan ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan ichki idoraviy hujjatlar JPKda belgilangan tartib va qoidalarga to‘la mos keladi.

Xususan, JPKning 392-moddasi talablaridan kelib chiqib, bojxona organlarining boshliqlari, xususan, Davlat bojxona qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari, barcha turdagi bojxona postlarining boshliqlari va o‘rinbosarlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning boshlig‘i sifatida harakat qila oladilar. Shu asosda ular tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o‘ziga bo‘ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga, jinoyat ishini qo‘zg‘atishga yoki ish qo‘zg‘atishni rad etishga yoxud arizani, xabarni, shu jumladan aniqlangan jinoyat alomati bo‘lgan huquqbuzarlik alomatlari bor holatlar bo‘yicha to‘plangan materiallarni tergovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazishga haqli hisoblanadilar.

Yuqorida keltirilgan tuzilmalarda xizmat qilayotgan bojxona xodimlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi bojxona organining mansabdor shaxsi sifatida jinoyat-protsessual qonunchilik hamda DBQ tomonidan ishlab chiqilgan tegishli ichki idoraviy hujjatlarda ko‘rsatilgan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Bojxona organining boshlig‘ining topshirig‘iga binoan va uning rahbarligida ishlayotgan vakolatli bojxona xodimi bojxona sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish yoki ularning sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, aniqlangan huquqbuzarlik holatlari yuzasidan dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish hamda sodir etilgan jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararining o‘rni qoplanishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan, kechiktirib bo‘lmaydigan barcha harakatlarni amalga oshirishi shart bo‘ladi.

Bojxona organi tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organ sifatida belgilangan bo‘lib, bojxona organi mansabdor shaxsi zimmasiga tergovchi yoki surishtiruvchining (*bojxona organlarining hamda*

surishtiruv organi sifatida belgilab qo'yilgan boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning surishtiruvchilari ham shular jumlasidandir) o'zi yuritayotgan ish bo'yicha ayrim protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish hamda tergovchiga, surishtiruvchiga protsessual harakatlarni bajarishida ko'maklashish majburiyati ham yuklatiladi.

Bojxona organining mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek tergovchining, surishtiruvchining topshirig'ini bajarayotganda, JPKda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi. Bojxona organi mansabdor shaxsining tergovga qadar tekshiruvni olib borish jarayonida qabul qilgan qarorlari tegishli bojxona organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'ladi.

Tergovga qadar tekshiruvda bojxona organi boshlig'i va prokuror bojxona organi mansabdor shaxsiga uning ish yurituvdagi materiallar bo'yicha yozma ko'rsatma berish vakolatiga ega. Ushbu ko'rsatmalar bojxona xodimining ish yurituviga, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishiga qanday ta'sir qilishidan qat'iy nazar, bajarilishi majburiydir. Bunda bojxona organi boshlig'ining yozma ko'rsatmalari ularni bajarishni to'xtatmay turib, bojxona xodimi ushbu ko'rsatmalar ustidan prokurorga, prokurorning yozma ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan taqdirda esa, uning ko'rsatmalarini bajarishni to'xtatmay turib, yuqori turuvchi prokurorga ularning ustidan shikoyat qilishga haqlidir. Prokurorning yozma ko'rsatmalari nafaqat tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan bojxona xodimiga, balki ana shu bojxona organining boshlig'iga ham taalluqli hisoblanadi.

Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish chog'ida ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, taftish tayinlash kabi ayrim kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini o'tkazishga, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ushlab turish shaklida majburlov chorasini qo'llashga, tegishli hollarda sudga qadar ish yuritish jarayonida ayblilik masalasini hal qilmay turib, tergovga qadar tekshiruv bosqichidayoq amnistiya aktini qo'llashga vakolati mavjud.

Bojxona xodimi jinoyat haqidagi xabar yoki ma'lumot, shuningdek to'plangan ish materiallari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv jarayonida JPKning 135-moddasi tartibida hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko'zdan kechirish tergov harakatini amalga oshirish mumkin.



Esda tuting! Bunda bojxona nazorati shakllari bilan tergovga qadar tekshiruv jarayonida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tergov harakatlarini o'zaro farqlash muhim ahamiyatga

ega.

Jumladan, bojxona ko‘rigi va ko‘zdan kechirish tergov harakatining farqi shundaki, “bojxona ko‘rigi qo‘yilgan plombalarni, muhrlarni yoki bojxona identifikatsiyalashining boshqa vositalarini buzgan holda, tekshirilayotgan obyektlarni va ularning qismlarini bo‘laklarga ajratib, demontaj qilib yoki boshqa yo‘llar bilan ularning butligini buzib, tovarlarning o‘ramini yoki transport vositasining yuk joylanadigan bo‘limini yoxud idishlarini, konteynerlarni va tovarlar bo‘lgan yoki bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan boshqa joylarni ochishni nazarda tutadi”⁵⁷.

Ko‘zdan kechirish esa tergov harakati sifatida jinoyat haqidagi xabar yoki ma‘lumot yuzasidan, shuningdek bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha to‘plangan birlamchi ish hujjatlari materiallari asosida olib boriladi. Bojxona xodimi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan paytda, lozim bo‘lgan hollarda, JPKning 16-bobida keltirilgan tartibda ko‘zdan kechirish o‘tkazishga haqli. Shu bilan birga JPKning 167-moddasida pochta-telegraf jo‘natmalarini ham ko‘zdan kechirish tartibi belgilab berilgan.

Bundan tashqari, odam badanini ko‘zdan kechirish va shaxsiy tintuv tergov harakatlari bilan bojxona nazorati shakli bo‘lgan shaxsiy ko‘rikni o‘zaro farqlash lozim bo‘ladi. Chunki odam badanini ko‘zdan kechirish guvohlantirish yoki ekspertiza o‘tkazish qoidalariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Shaxsiy ko‘rik esa Bojxona kodeksining 196-moddasi tartibida bojxona chegarasi orqali o‘tayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo‘nalishlar uchun ochiq bo‘lgan tranzit zonasida bo‘lgan jismoniy shaxsga nisbatan o‘tkaziladi. Shaxsiy ko‘rik bojxona hududiga olib kirish yoki ushbu hududdan olib chiqish taqiqlangan tovarlarni yoxud Bojxona kodeksida belgilangan tartibni buzgan holda olib o‘tilayotgan tovarlarni jismoniy shaxs yonida yashirmoqda va ularni o‘z ixtiyori bilan taqdim etmoqchi emas, deb taxmin qilishga asoslar bo‘lgan taqdirda bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi. Shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi qaror bojxona organining boshlig‘i yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs tomonidan yozma shaklda qabul qilinadi.

Bojxona organi xodimlari ushlab qolingan tovarlar turiga qarab, ularning turi, inson hayoti va sog‘lig‘i hamda davlat va jamiyat manfaatlari uchun ziyonini aniqlash, iste‘molga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligi, tovar bahosini belgilash yo‘nalishlarida ekspertiza tayinlash to‘g‘risida, shu bilan birga tergovga qadar tekshiruv jarayonida muayyan yuridik shaxs faoliyatiga daxldor bo‘lgan holatlar yuzasidan taftish tayinlash to‘g‘risida qarorlar chiqarishlari mumkin.

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 195-moddasi, <https://lex.uz/docs/2876354>.

Bojxona xodimi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi sifatida ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini JPKning 221 va 224-moddalarida belgilangan hollarda va tartibda qo'llashga haqli hisoblanadi. Aslida JPKning 222-moddasida vakolatli organlar, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi boshqa organning xodimlari, shuningdek hatto muomalaga layoqatli har qanday shaxs JPKning 221-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab va yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelishga haqli ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Bu qayd etilgan asoslar quyidagilardan iborat:

“1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;

2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;

3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxs aniqlanmagan bo'lsa”⁵⁸.

Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish jarayonida qonunlarning ijro etishi ustidan prokuror nazorati o'rnatiladi, bunda prokurorning vakolatlari JPKning 382-moddasida belgilab qo'yilgan. Jumladan, prokuror tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan bojxona organidan yoki uning mansabdor shaxsidan materiallarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olishi, jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshirish, bojxona organi mansabdor shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qilish, tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan majburiy ko'rsatmalar berish vakolatlarga ega.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/111460>.



Nazorat savollari:

1. Tergovga qadar tekshiruv deganda nima tushuniladi?
2. Tergovga qadar tekshiruv muddati qanday hollarda uzaytirilishi mumkin?
3. Qaysi organlarga tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish vakolati berilgan?
4. Tergovga qadar tekshiruv organi kimlarning o‘z vakolatlari doirasida bergan topshiriqlarini bajarishlari shart?
5. Bojxona organlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida qanday vakolatlarga ega?
6. Bojxona organi tergovga qadar tekshiruv vaqtida qanday tergov harakatlarini amalga oshirishlari mumkin?

§ 4.2. Bojxona organlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi

Tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarni o'z ichiga oladi.

Bojxona organlari JPKning 39¹-moddasiga muvofiq, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik bilan bog'liq jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiradi. Bojxona organlari zimmasiga zarur choralar ko'rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPK qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish vazifasi yuklatiladi.

Shu maqsadda bojxona organlari tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga haqli bo'lib, mazkur faoliyat qonun bilan belgilanadi.

Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv o'tkazishdagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan, ular:

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamoat tartibini, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash;
- jinoyatga oid ariza, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida ro'yxatga olish;
- ularni xolisona ko'rib chiqish, natijalari bo'yicha qonunda belgilangan muddatda qonuniy qaror qabul qilish;
- jinoyatlarni hisobdan yashirish holatlarini oldini olish;
- fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

Bojxona organlarida tergovga qadar tekshiruv surishtiruvchi, bojxona organi boshlig'i yoki unga bo'ysunuvchi boshqa mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Tergovga qadar tekshiruvni o'tkazadigan mansabdor shaxs va ular o'rtasida ishlarni taqsimlash bojxona organlari boshlig'i tomonidan hal etiladi.

Bojxona xodimi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda, shuningdek prokurorning, tergovchining, surishtiruvchi va sudning topshirig'ini bajarayotganda, JPKda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar bojxona organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim. Bojxona organlariga taalluqli bo'lmagan

jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha bojxona xodimiga tergovga qadar tekshiruv o'tkazishni topshirish taqiqlanadi.

Bojxona organlari tomonidan aniqlangan yoki kelib tushgan barcha huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi Navbatchilik qismidagi "Aniqlangan huquqbuzarliklarni qayd qilish" (Shakl-2) kitobiga qayd qilinadi.

Agar huquqbuzarlikni ko'rib chiqish va murojaatni tekshirish jarayonida JPKning 330-moddasida nazarda tutilgan qarorlardan birini qabul qilish lozim bo'lganda, xodim darhol bildirgi orqali hujjatlarni ilova qilgan holda bojxona organlarida yuritiladigan "Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini ro'yxatga olish (ya'ni Shakl-1) kitobi"dan ro'yxatdan o'tkazish masalasini hal qilish uchun bojxona organi boshlig'iga taqdim etadi. Bojxona organi boshlig'i esa bildirgi va unga ilova qilingan hujjatlarni qisqa muddatda ko'rib chiqib, kitobdan ro'yxatga olish haqida ko'rsatma beradi va bir vaqtning o'zida shaxsan o'zi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga kirishadi yoki surishtiruvchi yoxud bojxona organining boshqa mansabdor shaxsini o'zining ustxati bilan yozma ravishda belgilaydi.

Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida kitobga ro'yxatga olinishi va tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshiruvchi surishtiruvchi yoki mansabdor shaxsga topshirilishi uchun bojxona organi boshlig'i mas'ul hisoblanadi.

Agar kelib tushgan yoki qabul qilingan jinoyatga oid ariza va xabarda zudlik bilan tekshirishni talab qiladigan yoki tayyorlanayotgan tinchlik va xavfsizlikka, jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqda darhol bojxona organi boshlig'iga xabar beriladi. Bojxona organi boshlig'i zudlik bilan bu toifadagi jinoyatga oid ariza va xabar yuzasidan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tergovga qadar tekshiruv o'tkazishni tashkillashtirish choralari ko'radi.

Shakl-1 kitobi DBQning Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksining surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limlarida yuritiladi. Jinoyat haqida ariza va xabarni ushbu kitobdan ro'yxatdan o'tkazishga Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi hamda uning quyi tarkibiy tuzilmalari xodimi mas'ul hisoblanib, bildirgiga ro'yxatga olinganligi haqida belgilangan tartibda shtamp bosadi va imzo qo'yadi.



Esda tuting! Kitob quyidagi tartibda to'ldiriladi:

1-ustuniga jinoyat haqidagi ariza va xabarlarining qayd etilish tartib raqami ketma-ketlikda kiritiladi;

2-ustunida bojxona organlariga kelib tushgan jinoyat haqidagi ariza va xabarlarining sanasi qayd etiladi;

3-ustuniga huquqbuzarlik muqaddam “Aniqlangan huquqbuzarliklarni qayd qilish” (Shakl-2) kitobidan ro‘yxatdan o‘tgan sanasi va tartib raqami kiritiladi;

4-ustunda jinoyat haqidagi ariza va xabarni kelib tushish manbasi qayd etiladi;

5-ustunida jinoyat haqidagi ariza va xabar muallifi haqidagi tegishli ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Agar huquqbuzarlik bevosita bojxona organlari tomonidan aniqlansa, kitobning mazkur ustunini to‘ldirish talab etilmaydi.

6-ustuniga jinoyat haqidagi ariza va xabarning qisqacha mazmuni kitobning kiritiladi va unda sodir etilgan vaqt, joy va usuli ko‘rsatiladi;

7-8-ustunlariga jinoyat haqidagi ariza va xabarni ish yurituviga qabul qilgan xodim haqidagi ma’lumot va sanasi qayd etiladi;

9-ustuniga jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini tekshirish natijasi bilan bog‘liq ma’lumot kiritiladi;

10-ustunida jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini tekshirish natijasida yuzaga kelgan qo‘shimcha va izohlar qayd etiladi.

“Aniqlangan huquqbuzarliklarni qayd qilish” Shakl-2 kitobiga qayd qilinmagan jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni Shakl-1 kitobidan ro‘yxatdan o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shakl-1 kitobiga ro‘yxatga olmasdan turib, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni tekshirish taqiqlanadi. Bu kitob qoida tariqasida har bir hisobot yili uchun kalendar yil boshidan e’tiboran yuritiladi. U tartib raqami qo‘yilgan va ip o‘tkazib bog‘langan bo‘lishi kerak. Oxirgi sahifasida ipning bog‘langan joyiga qog‘oz yelimlanadi, unga vakolatli organ muhri tushiriladi va unda bojxona organi boshlig‘i tasdiqlagan ishonch yozuvi bo‘ladi. Barcha yozuvlar aniq holda, ko‘k rangli siyohlar bilan qayd etiladi. Unda o‘chirib yozishga, tuzatishga yoki ilgari qayd etilgan yozuvlarni tuzatish vositalari yordamida yo‘qotishga yo‘l qo‘yilmaydi. Zarur holatlarda, xato yozuvlar ilgari qayd etilgan matnni to‘liq o‘qish mumkin bo‘lgan holda o‘chiriladi. Yangi yozuv aynan shu ustunda qayd etiladi. Bu holda kitobning yuritilishi uchun mas’ul shaxs tuzatishni sana ko‘rsatgan holdagi imzosi bilan tasdiqlaydi.



Esda tuting! Shakl-1 kitobi qat’iy hisobdagi hujjat hisoblanib, jinoyat haqidagi ariza va xabarlarining hal etilishi yuzasidan hisobotlar kitobdagi ma’lumotlar asosida yuritiladi. Kitobni yuritish va saqlanishiga xodimlardan biri mas’ul etib belgilanishi lozim, mas’ul xodim kitobning saqlanishi, undagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli holda qayd etilishi uchun javobgar hisoblanadi.



Ma'lumot uchun: Bojxona organi boshlig'i jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilinishi, ro'yxatdan o'tkazish va qonunga muvofiq ko'rib chiqilishi ustidan **shaxsan javobgar hisoblanadi**. Shundan kelib chiqib, bojxona organi boshlig'ining ushbu yo'nalishdagi bir qator vazifalari belgilab berilgan:

- jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqilishi ustidan kunlik nazorat o'rnatadi va qonunda belgilangan muddatda qaror qabul qilinishini ta'minlaydi;

- bojxona organi mansabdor shaxsiga ish yurituvdagi tergovga qadar tekshiruv doirasida bajarilishi va tekshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni amalga oshirish yuzasidan yozma ko'rsatma beradi;

- bojxona organi mansabdor shaxsining qabul qilgan qarorlarining qonuniyligini o'rganib, tasdiqlaydi, qaror bilan kelishmagan taqdirda yozma ko'rsatma bilan qaytaradi, qonunga xilof hamda asossiz qarorlarni bekor qilish yuzasidan prokurorga taklif kiritadi;

- jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqishda qonun buzilishi holatlari aniqlanganda, bojxona organi boshlig'i ularni zudlik bilan bartaraf etadi va zarur hollarda aybdor shaxslarga nisbatan choralar ko'radi.

Bojxona organi boshlig'ining yozma ko'rsatmasi ularni bajarishni to'xtatmay turib, ushbu ko'rsatmalar ustidan nazorat qiluvchi prokurorga shikoyat qilishga haqli bo'lgan unga bo'ysunuvchi mansabdor shaxs uchun majburiydir. Prokurorning yozma ko'rsatmalari esa bojxona organi boshlig'i va uning mansabdor shaxsi uchun majburiydir. Ular prokurorning ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan taqdirda, ko'rsatmalarni bajarishni to'xtatmay turib, yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir.



Nazorat savollari:

1. Bojxona organlari xodimlari tergovga qadar tekshiruv davomida qanday vazifalarni amalga oshiradi?
2. Bojxona organlarida tergovga qadar tekshiruv kim tomonidan amalga oshiriladi qarorlar bojxona organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim?
3. Bojxona xodimi tomonidan tergovga qadar tekshiruv davomida protsessual harakatlarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilish tartibi qanday?
4. Bojxona organlarida Shakl-2 kitobi nima maqsadda va qanday tartibda yuritiladi?
5. Bojxona organlarida yuritiladigan Shakl-1 qanday kitob va uning Shakl-2 kitobidan farqi nima?
6. Bojxona xodimining tergovga qadar tekshiruv o'tkazishiga qanday hollar monelik qilishi belgilab qo'yilgan?

§ 4.3. Kontrabanda ashyolarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tishda qo‘llanilayotgan usullar va ularni fosh etish hamda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda dunyoning turli joylarida, qarama-qarshilik va keskinlik tobora kuchayib, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafik hamda boshqa xavf-xatar va tahdidlar barchamizni xavotir va tashvishga solmasdan qo‘ymaydi. Mana shunday o‘ta murakkab vaziyat barchamizdan avvalo ogoh, hushyor va sezgir bo‘lishni talab qilmoqda.

Shu ma’noda hozirgi davrning o‘zi O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari oldiga bojxona chegarasida bojxona nazorati samaradorligini yanada oshirish, kontrabanda ashyolarini noqonuniy ravishda olib o‘tilishi, birinchi navbatda, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, psixotrop moddalar, prekursorlar, qurol-yarog‘, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarning olib o‘tilishini oldini olish kabi o‘ta mas’uliyatli vazifani ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Shuningdek, Jahon bojxona tashkiloti hamda Jahon savdo tashkiloti doirasida qabul qilingan “Jahonda savdoni yengillashtirish va xavfsizlikning hadli standartlari”ning eng asosiy talablaridan biri kontrabanda ashyolarining noqonuniy harakatini aniqlash, oldini olish va chek qo‘yish vazifasini bajarish chog‘ida bojxona organlaridan xalqaro savdo, yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlariga minimal darajada aralashish orqali huquqni muhofaza qilish faoliyatini samarali ta’minlash talab etiladi.



Ma’lumot uchun: Kontrabanda ashyolarining davlat chegaralari orqali noqonuniy olib o‘tilishi ham oson ish emas. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning faoliyati samaradorligi ortib, bojxona nazorati yildan yilga takomillashib bormoqda. O‘z navbatida jinoyatchilar ham muntazam ravishda kontrabanda ashyolarini olib o‘tishning yangi usullaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bunday usullarni to‘liq sanab o‘tish amalda imkonsizdir. Biroq, kontrabanda ashyolarini chegara orqali olib o‘tishning amaliyotda eng ko‘p tarqalgan yo‘nalish, usul va vositalarni ko‘rib chiqilishi mamlakat, mintaqa va butun jahonda ularning noqonuniy aylanmasi to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali narkotik moddalar noqonuniy olib o‘tilishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirib kelinmoqda:

- Afg‘onistondan Surxondaryo viloyatining Termiz shahri, Termiz va Muzrobod tumanlari orqali;
- Tojikistondan Surxondaryo viloyatining Denov, Uzun va Sariosiyo tumanlari orqali;

- Tojikistondan Samarqand viloyatining Urgut, Bulung‘ur va Toyloq tumanlari orqali;
- Tojikistondan Sirdaryo viloyatining Guliston, Yangiyer va Xovos shaharlari orqali;
- Tojikistondan Toshkent viloyatining Bekobod tumani orqali;
- Tojikistondan Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlarining chegaradosh hududlari orqali.



Ma‘lumot uchun: Bugungi kunda ayrim davlatlarda kontrabanda ashyolaridan biri bo‘lgan narkotik moddalarni yetishtirish, ularni dunyo bo‘ylab iste‘molchilariga yetkazib berish hajmi ortib bormoqda. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasining (UNODC) Afg‘onistondagi narkotik moddalar ishlab chiqarish bilan bog‘liq vaziyat bo‘yicha yangi hisobotida aytilishicha, 2021-yilda Afg‘onistonda afyun yetishtirish hajmi 8 foizga o‘shib, 6,8 ming tonnaga yetgan. Mazkur o‘shish ko‘rsatkichlari 320 tonna sof heroin dunyo bo‘ylab bozorlarga kirishini anglatadi. Mamlakat dunyodagi barcha iste‘molchilarning 80 foizini opiat bilan ta‘minlaydi. 2020-yili afyunning 85 foizi Afg‘onistonda ishlab chiqarilgan⁵⁹.

“Tolibon” harakati Afg‘oniston hokimiyatini 2021-yil avgust oyida egallagach, mamlakatni “narkotiklardan xoli” qilishga va‘da bergan hamda 2022-yilning apreliga kelib Afg‘oniston Islom Amirligi oliy rahbari Haybatulloh Oxundzodaning buyrug‘iga asosan mamlakatda ko‘knori yetishtirishni taqiqlandi⁶⁰.

Biroq, uzoq yillarga cho‘zilgan urushlar tufayli iqtisodiy jihatdan o‘ta zaiflashgan Afg‘onistonda narkotik moddalarni yetishtirishdan birdaniga, to‘liq voz kechish imkonsiz. Yuqori daromad keltiruvchi boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan agrar islohotlar o‘tkazish bir necha yillarni talab etishi tabiiy. Bu esa aynan narkotik moddalarni yetkazib berishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “shimoliy yo‘nalish”da joylashgan O‘zbekistondagi narkovaziyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omilning saqlanib turishidan dalolat beradi.



Esda tuting! O‘zbekiston Respublikasi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash sohasida muayyan ijobiy natijalarga erishmoqda. Xususan, mamlakatimiz mazkur masalaga oid barcha xalqaro Konvensiyalarning ishtirokchisidir.

Markaziy Osiyodagi beshta davlat (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston) va BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik

⁵⁹ УНП ООН: производство опиума в Афганистане увеличилось на 8 процентов. <https://news.un.org/ru/story/2021/11/1413952>.

⁶⁰ “Tolibon” butun Afg‘oniston hududida ko‘knori yetishtirishni taqiqladi. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/04/drugs/>.

bo'yicha boshqarmasi tomonidan 1996-yilda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni noqonuniy ishlab chiqarish, aylantirish, iste'mol qilishni nazorat qilish sohasida o'zaro ahdlashuv va hamkorlik to'g'risida memorandum imzolangan. Keyinchalik unga Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikalari ham qo'shildi. Bu bilan giyohvandlik moddalarini nazorat qilish borasidagi xalqaro hamkorlik ko'lamini kengaytirish uchun katta imkoniyat yaratildi.

O'zbekiston BMTning narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining "Parij pakti" Tashabbusi doirasida o'tkazilib kelinayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistonning narkotrafikka qarshi kurash harakatlarini kengroq yoritish dasturi doirasida narkotiklarga qarshi kurash xalqaro kuni munosabati bilan har yili 26-iyunda Davlat xavfsizlik xizmati bilan hamkorlikda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qo'lga olingan giyohvandlik moddalarini yoqish marosimi o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekistonda aniqlangan ayrim e'tiborga loyiq holatlar

Bojxona postlaridagi yo'lovchilar, transport vositalari, yuklarning xajmi va ish yuklamasining yuqoriligi tovar va transport vositalarini belgilangan tartibda to'liq bojxona nazoratidan o'tkazish imkoniyatini chegaralaydi.

Kontrabandaga qarshi kurashishni obyektlar bo'yicha mavjud tezkor ma'lumotlar asosida hamda ularni tashuvchilarni aniqlashning maxsus usullaridan foydalanish hisobiga samarali tashkil etish mumkin.

Giyohvandlik vositalarini keltirilishi xavfi yuqori bo'lgan hududlardan kelayotgan ayrim yo'lovchilarni hamda yuklarni alohida diqqat-e'tibor bilan kuzatish, tashqi belgilari bo'yicha shubhali shaxslarga diqqatni jamlash, shubhali jo'natuvchi yoki yuk qabul qilib oluvchiga yuborilgan tovarlarni sinchkovlik bilan tekshirish zarur.



Ma'lumot uchun: Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda kontrabanda ashyolari bojxona chegarasi orqali asosan quyidagi vositalar yordamida olib o'tilmoqda:

- avtomobil, temir yo'l, havo va suv transportlari hamda boshqa transport vositalarida (ularning kabina va salonlari, yuk va boshqa xonalari, qoplama qismlari hamda konstruksiyali elementlari, xufiya qismlarida);

- tovar moddiy boyliklari orasida (turli sanoat, qurilish va xo'jalik mollari, tirik hayvonlar, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, gumanitar va boshqa maqsadlarda olib o'tilayotgan yuklarda);

- xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida;

- shaxslarning kiyimi, tanasi va ichki a'zolarida;

- yo'lovchilarning qo'l yuklari, bagajlari va o'zlari bilan olib o'tayotgan jonzotlarda;

- chegara hududida “erkin harakatlanuvchi” chorva hayvonlari va parrandalar yordamida;

- uchuvchisiz uchish apparatlari (dron) hamda boshqa moslamalarda;

- transchegaraviy yashirin tunnel va quvur yo‘llarida.

Quyida O‘zbekiston hududida kontrabanda ashyolarining noqonuniy harakati bilan bog‘liq aniqlangan ayrim qonunbuzilishi holatlariga oid fotosuratlar misol sifatida keltirilgan.

Giyohvandlik vositalarini odam ichki a‘zosiga yashirgan holda bojxona chegarasi orqali “jonli konteyner” sifatida olib o‘tilishi




Surxondaryo viloyati bojxona boshqarmasi “Ayritom” chegara-bojxona postida Body scanner yordamida bojxona nazoratidan o‘tkazilgan Afg‘oniston fuqarosi o‘z oshqozonida 46 ta silindrsimon konteynerlarga joylashtirilgan, ustki kismi skotch bilan o‘ralgan sof vazni 1 kg. 76,01 gr. bo‘lgan “opiy” giyoxvandlik vositasini olib kirib kelayotganda to‘xtatib qolingan. 2021-yil fevral.

Qishloq xo‘jaligi mahsuloti orasidagi sun‘iy “kartoshka”larda olib o‘tilayotgan giyohvandlik vositasi



Surxondaryo viloyati “Ayritom” chegara bojxona posti orqali kirib, Andijon viloyati “Do‘stlik” chegara bojxona posti orqali tranzit harakatlanishi lozim bo‘lgan yuk avtomashinasida 154 kg.dan ziyod og‘irlikdagi 1305 dona yasama “kartoshka” o‘ramlarida “gashish” giyohvandlik vositasining noqonuniy olib kirilishiga chek qo‘yilgan. 2022-yil mart.



Toshkent shahar bojxona boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirida oldindan kuzatuvda bo'lgan "Neksiya-2" rusumli transport vositasining orqa yukxonasida polietilen paketga o'ralgan go'sht mahsuloti ichiga yashirilgan 108 gr. og'irlikdagi "opiy" giyohvandlik vositasi borligi aniqlangan. 2021-yil may.

Vagon g'ildiragiga yashirilgan marixuana




Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi "Bekobod" temir yo'l chegara bojxona postida o'tkazilgan tezkor tadbirida qo'shni davlatdan kirib kelgan yuk poyezdining yog' mahsulotlarini tashish uchun mo'ljallangan sisternasi g'ildiragining ichki tomonidagi bo'shliqda 1 dona o'ramdagi 61,7 gr. "marixuana" giyohvand moddasi borligi aniqlandi. 2021-yil mart.

Yuk avtomashinalarida olib o‘tilayotgan giyohvandlik vositalarini fosh etish holatlari



“Oybek” chegara bojxona posti orqali Tojikistondan Rossiyaga tranzit harakatlanayotgan, uzum mahsuloti ortilgan yuk avtomashinasi tirkamasining pol qismidan 141 ta yelim idishlarda sof og‘irligi 149,76 kg. “gashish”, 4,44 kg. “opiy” va 1,52 kg. “geroin” giyohvandlik vositasi noqonuniy olib o‘tilayotgani aniqlangan (*xizmat iti payqamasligi uchun idishlar qopqog‘iga maxsus smola - qatron bilan ishlov berilgan*). 2021-yil oktyabr.



Tojikistondan Rossiyaga “Oybek” chegara bojxona posti orqali yo‘l olgan, paxta tolasi ortilgan yuk avtomashina tirkamasining old qismi ichki devorlari orasida 232 ta o‘ramda 229 kg 719 gramm “geroin” giyohvandlik vositasi olib o‘tilayotgani aniqlangan (*Yevropa “qora bozorlari”dagi narxi o‘rtacha 12–14 mln. AQSH dollari*). 2022-yil fevral.

Ichki hududda o‘tkazilgan tezkor tadbirlarda kontrabanda predmetlarining aniqlanishi holati



Xorazm viloyatida o‘tkazilgan tezkor tadbirda “Denov-Xazorasp” yo‘nalishida harakatlanayotgan “Neksiya” avtomashinasi xolislar ishtirokida xizmat iti yordamida ko‘zdan kechirilganida, avtomashina o‘ng old eshigi qoplamasi ichida 2 dona o‘ramdagi sof og‘irligi 1 kg. 936,83 gramm “opiy” giyohvandlik vositasi noqonuniy olib ketilayotganligi aniqlangan. 2021-yil may.

Kontrabanda predmetlarini pochta va kuryerlik jo‘natmalari orqali yuborilishi bilan bog‘liq holatlar



Toshkent shahri “Bosh pochтамt” TIF bojxona postida o‘tkazilgan tezkor tadbirda O‘zbekiston fuqarosi nomiga Rossiyadan “EMS” tezkor xalqaro pochta xizmati orqali yuborilgan jo‘natmalar ichida giyohvand moddalar tayyorlashda ishlatiladigan 35 kg o‘tkir xidli suyuq holdagi kimyoviy moddalar – prekursorlar borligi aniqlangan. 2021-yil 23-noyabr.

Takroriy jinoyat sodir etilgan holda pochta jo‘natmasi sifatida yuborilgan giyohvandlik vositalarini aniqlash holatlari




Bojxona xodimlari tomonidan Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Nazorat ostida yetkazib berish” tezkor-qidiruv tadbiri davomida Rossiya Federatsiyasidan berib yuborilgan, 1 dona bolalar elektr samokati ichiga joylashtirilgan sof vazni 504,41 gr. heroin, 947,88 gr. “gashish” hamda 7,99 gr. (LSD) lizergin kislotasidan iborat giyohvandlik vositalari buyurtmachi tomonidan qabul qilib olinayotganda to‘xtatib qoling. 2021-yil 16-sentyabr. **1-epizod.**



“Nazorat ostida yetkazib berish” tezkor-qidiruv tadbiri davomida Rossiyadan berib yuborilgan 1 dona qog‘oz qutiga solingan bolalar elektr samokati buyurtmachi tomonidan qabul qilib olish jarayonida to‘xtatilganda, jo‘natma ichida jami vazni 1 kg. 994,1 gr. “mefedron”, 499,43 gr. “ABD-Butinaca” (spays) moddasi hamda 2,10 gr. “kannabis moyi” giyohvandlik vositalari borligi aniqlangan. 2021-yil 29-sentyabr. **2-epizod.**

Bojxona xodimlari tomonidan kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy harakatini oldini olish holatlari



Namangan viloyat bojxona boshqarmasi xodimlari tomonidan Chortoq tumanida o'tkazilgan tezkor tadbirda huquqbuzar o'z yashash xonadonidan "yama" sifatida foydalangan holda muqaddam Qirg'izistondan O'zbekistonga noqonuniy ravishda aylanma yo'llar orqali olib o'tilgan, xorijda ishlab chiqarilgan, qiymati 1,3 mlrd. so'mlik 8808 dona kapsuladagi "Tropikamid" nomli kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini saqlab kelayotganligi aniqlangan. 2022-yil 1-fevral.



"Nazorat ostida yetkazib berish" tezkor-qidiruv tadbiri davomida "Farg'ona-Yo'zovon-Namangan" yo'nalishida harakatlanayotgan "Kobalt" rusumli avtomashina Yo'zovon tumani hududida to'xtatilib, xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, avtomashina salonida 1920 dona "Tramadol lannexar 50 mg" nomli psixotrop modda, 150 dona "Tropikamid 10 mg" nomli va 4704 dona "Regopen 300" nomli kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari borligi aniqlangan. 2022-yil aprel.

Bojxona xodimlari tomonidan qurol-yarog‘, o‘q-dori va portlovchi moddalarni ushlab qolish holatlari



Namangan shahrida “nazorat xaridi” tezkor-qidiruv tadbiri davomida Qirg‘izistondan O‘zbekistonga aylanma yo‘llar orqali olib o‘tilgan, skotchlangan qog‘oz qutidagi shirinliklar ostida yashirilgan 1 dona Kalashnikov (AKS-74) avtomati, 3 dona o‘qdon hamda 43 dona 5.45 ml.li jangovor holatdagi o‘qlar shartli xaridorga sotilayotgan vaqtda to‘xtatib qilingan. 2022-yil mart.



Andijon viloyati bojxona boshqarmasi tomonidan boshqa huquqni muhoqaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirda bir guruh shaxslardan hech qanday xujjatlari bo‘lmagan 18 kg. 250 gr. porox, 2615 dona gilzalar, 24 936 dona pistonlar, 124 kg. drob, drob tayyorlash moslamasi va boshqa buyumlar daliliy ashyo tariqasida olingan. 2021-yil dekabr.

BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tahlillariga ko'ra jahonda narkotiklarning tashilishi asosan piyoda hamda avtotransport vositalarida amalga oshiriladi.



Esda tuting! Kontrabanda ashyolari avtomobillarda, kemalarda, tijorat aviakompaniyalarining samolyotlarida, pochta orqali va sanoat tovarlarining tijorat to'plarida yuboriladi, yo'lovchilar esa ularni o'zlarining yuklarida yoki badanida berkitishadi. Yo'lovchilar, transport vositalari, yuklarning katta qismi tegishli tarzda umumiy bojxona tekshiruvini amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi.

Kontrabandaga qarshi faqatgina ayrim obyektlar bo'yicha mavjud ma'lumotlarni qo'llagan holda, shuningdek kontrabandachilarni fosh qiladigan maxsus usullardan foydalanib kurashish mumkin.

Demak, masalan, giyohvandlik vositasi keltirilishi xavfi yuqori bo'lgan hududlardan kelayotgan ayrim yo'lovchilarni, bagajlarni, yuklarni, alohida diqqat-e'tibor bilan o'rganish;

tashqi belgilar bo'yicha kontrabandachilarga o'xshash odamlarga o'z diqqatini jamlash;

shubhali yetkazib beruvchidan yoki shubhali yuk qabul qilib oluvchiga yuborilgan tovarlarni sinchkovlik bilan tekshirish.

Kontrabanda bilan yakka o'zi harakat qiluvchi shaxslar ham, shuningdek mayda va yirik jinoiy tashkilotlarning a'zolari ham shug'ullanishadi.

Kontrabanda bilan bog'lik operatsiyalarning katta qismi ancha yaxshi tashkillashtirilgan va ushbu sohaga ixtisoslashtirilgan xalqaro jinoiy tashkilotlar tomonidan, yaxshi tashkillashtirilgan tijorat korxonasi haqida gap ketgani singari maxfiylik asosida amalga oshiriladi. Kontrabanda jinoyatining turli bosqichlari puxta rejalashtiriladi va yuqori darajadagi muvaffaqiyatni ta'minlashga qarab amalga oshiriladi.

Agar bojxona xodimida kontrabanda jinoyati yoki boshqa bojxona qoidalarini buzganlikda gumon qilinayotgan aniq yo'lovchi to'g'risida tezkor ma'lumot bo'lmasa, u holda yo'lovchilardan qay biri alohida e'tibor talab qilishini hal qilish uchun o'zining shaxsiy bilimi, tajribasiga tayanishiga to'g'ri keladi.

Bunda bir qator xususiyatlarni, shu jumladan kontrabanda tovarini olib o'tayotgan "mashhur" shaxslarni hisobga olish lozim.



Ma'lumot uchun: Bojxona xodimlari mamlakatga kirib kelayotgan yoki undan chiqib ketayotgan halol yo'lovchilardan shubhali shaxslarni ajratib olgan nazoratni amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim.

Shubhali shaxslarni ajratib olish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

1. Xavfni baholash – xodimga ishonib topshirilgan chegara o‘tish punktida kontrabanda ashyolarini olib o‘tishga yashirin tahdid soluvchi yo‘nalishlarni belgilash.

2. Odatiy yo‘lovchi bilan tanishish – ishda ko‘pincha yetarlicha baho berilmaydigan, odatda chegarani kesib o‘tuvchi va mamlakatda bo‘lish uchun asoslantirilgan sababga ega bo‘lgan odatdagi yo‘lovchining belgilarini o‘rganishdan iborat bo‘lgan bosqich (agar sizga har bir yo‘nalishning odatiy yo‘lovchilari belgilari ma’lum bo‘lsa, sizga kontrabandachining farqlovchi belgilari orqali aniqlash oson bo‘ladi).

3. Jinoyatchining belgilari bilan tanishish – kontrabanda tashuvchisi sifatida ancha xavf uyg‘otuvchi odamlarning tashqi ko‘rinishi va o‘zini tutishini aniqlash. Hech bo‘lmasa, umumiy ma’noda jinoyatchining qanday ko‘rinishini, u yoki bu vaziyatda o‘zini qanday tutishini tasavvur qilish kerak.

4. Chegaradan o‘tayotgan yo‘lovchilarning hujjatlaridagi ma’lumotlar bilan tanishish – mazkur ma’lumotlar xodimga ushbu shaxs haqida, shu bilan bir qatorda uning safar maqsadi to‘g‘risida ham ko‘pgina ma’lumotlar olish imkonini beradi.

5. Yo‘lovchilarni so‘roq qilish vaqtida kuzatuv texnikasi bilan tanishish – nafaqat so‘roq qilinayotgan shaxs xodimning savollariga bog‘liq holda javob berishini va uning javoblari yo‘lovchilarning hujjatlarini o‘rganish natijasida yig‘ilgan ma’lumotlarga qanchalik mosligini aniqlash, balki xavfga nisbatan tashqi ta’sir belgilarini aniqlash imkonini beradi.



Yodda tuting! Kontrabanda predmetini olib o‘tayotgan shaxs bilan muloqotga kirishilganda, shuningdek yuklari ko‘zdan kechirilayotganda hamisha o‘zida xavf-xatarga nisbatan ko‘z bilan ilg‘ash mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni namoyon qiladi. Yo‘lovchini kuzatishni u transport vositasidan tushib kelishidan to pasport nazoratidan o‘tgunicha amalga oshirish mumkin. Suhbatlashish vaqti kelganida, bojxona xodimi eng boshdan to‘g‘ri savollarni berishi lozim. Beriladigan savollar, avvalo kerakli ma’lumotlarni olishga, qolaversa, xavfli vaziyatlarda shaxsda namoyon bo‘ladigan ruhiy o‘zgarishlarni (bosim, asabiylashish, ortiqcha qo‘zg‘alish yoki sekinlashish kabilarni) aniqlashga xizmat qilishi kerak.

Suhbat chog‘ida bojxona xodimi tomonidan beriladigan taxminiy savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- qayerdan kelyapsiz?
- qaysi mamlakatda (viloyatda, shaharda, tumanda) yashaysiz?
- bizning mamlakatda qancha vaqt bo‘ldingiz (yoki qancha vaqt bo‘lmadingiz)?
- nima maqsadda keldingiz?/Tashrifdan maqsadingiz (yoki nima maqsadda chiqib ketgan edingiz)?
- siz yolg‘iz kelmadingizmi?

- barcha yuklar sizga tegishlimi?
- yana boshqa yuklaringiz bormi?
- bagajingizda nimalar borligini bilasizmi?
- boshqa shaxslarga berib qo'yish uchun biror narsa olib ketyapsizmi?
- chipta va pasportingizni ko'rsam bo'ladimi va h.k.?

Ushbu oddiy savollar kerakli bo'lgan muhim ma'lumotlarni olishga yordam berishi mumkin. Biroq yo'lovchi savol berishdan avval ham, javob berayotgan vaqtda ham doimiy kuzatuvda bo'lishi lozim. Shuningdek, yo'lovchi berilgan savolga darhol to'liq javob berolmasa, bojxona xodimi keyingi aniqlashtiruvchi savollarni berishga tayyor turishi kerak. Bir vaqtni o'zida, savol berayotgan xodim qonun-qoidalarga rioya etayotgan fuqarolar orasidan huquqbuzarni aniqlab olishi uchun suhbatdoshining qo'l harakatlari, yuz ifodalari va boshqa hissiy holatlariga diqqatini qaratishi lozim. Odatda bojxona xodimi kontrabanda predmetlarini olib o'tuvchilarni aniqlashda ichki ishonchi va tuyg'ulariga tayanadi. Aksariyat hollarda xodim aldamaydigan ushbu hissiyotini so'z bilan aniq ifodalab berolmasligi mumkin.

Giyohvandlik moddalari kontrabandasi kanallarini fosh qilishda nazorat ostida tashish usulidan foydalanish

Bojxona kodeksining 407-moddasiga muvofiq, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini, psixotrop moddalarni, prekursorlarni va boshqa ashyolarni bojxona chegarasi orqali nazorat ostida yetkazib berish tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning ijozati hamda nazorati ostida bojxona hududiga ularni olib kirish, ushbu hududdan olib chiqish yoki olib kirilgan ashyolarni undan olib o'tishga yo'l qo'yiladigan tezkor-qidiruv tadbiridir.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, prekursorlar va boshqa ashyolar xalqaro qonunga xilof muomalada bo'lishining oldini olish, shuningdek bunday muomalada ishtirok etayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar har bir alohida holda chet davlatlarning vakolatli organlari bilan kelishuvlarga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida nazorat ostida yetkazib berish usulidan foydalanadi, ya'ni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarning, shuningdek boshqa ashyolarning o'z nazorati ostida bojxona hududiga olib kirilishiga, bu hududdan olib chiqilishiga yoki tranzit tarzida olib o'tilishiga yo'l qo'yadi.



Ma'lumot uchun: Nazorat ostida yetkazib berish usuli jinoyat sodir etish quroli yoki vositasi bo'lgan boshqa ashyolarga yoxud jinoyi yo'l bilan topilgan ashyolarga nisbatan o'zi bilan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etish kontrabanda deb hisoblanuvchi ashyolarga nisbatan ham

qo‘llanilishi mumkin.

Nazorat ostida yetkazib berish usulidan foydalanish to‘g‘risidagi qaror qonunchilikda belgilangan tartibda har bir alohida holda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ tomonidan qabul qilinadi. Mazkur organlar bojxona organlari bilan kelishilgan holda tovarlarni nazorat ostida yetkazib berishni amalga oshiradi.

Bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan giyohvandlik vositalari, ularning analoglarini, psixotrop moddalarni, prekursorlarni va boshqa ashyolarni nazorat ostida yetkazib berish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda O‘zbekiston Respublikasida jinoyat ishi qo‘zg‘atilmaydi.

Nazorat ostida yetkazib berishni amalga oshiruvchi organ rahbari qabul qilingan qaror haqida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini darhol xabardor qiladi.

Bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan, erkin realizatsiya qilish taqiqlangan yoki muomalasiga qonunchilikka muvofiq litsenziya yoki ruxsatnoma asosida yo‘l qo‘yiladigan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, prekursorlar va boshqa ashyolar nazorat ostida yetkazib berilayotganda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda to‘liq yoki qisman olib qo‘yilishi yoki almashtirilishi mumkin.

Odamlarning sog‘lig‘i, atrof muhit uchun katta xavf tug‘diradigan yoxud ommaviy qirg‘in quroli tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan ashyolar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda almashtirilishi kerak.



Ma‘lumot uchun: BMT Bosh Assambleyasining Nayrobidagi 48-sessiyasi (1979) hisobotida, modomiki ko‘pgina mamlakatlarning qonunchiligi va amaliyoti giyohvandlik vositalarini yetkazib berish ustidan yashirin nazoratni belgilash mumkinligiga yo‘l qo‘yar ekan, demak ushbu yo‘nalishda xalqaro politsiya operatsiyasini amalga oshirilishi mumkinligi ta‘kidlangan. Nazorat ostida yetkazib berish usuli 1988-yilda Birlashgan millatlar tashkilotining konvensiyasi bilan rag‘batlantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi ham nazorat ostida yetkazib berish usulini qo‘llab-quvvatlaydi va hozirgi kunda bu borada amaliy natijalarga erishmoqda.

Nazorat ostida yetkazib berish turlari va uni amalga oshirish imkoniyati



Esda tuting! Nazorat ostida yetkazib berishni to‘rtta turga bo‘lish qabul qilingan (hududiy belgisi bo‘yicha):

- a) mamlakatning ichida nazorat ostida yetkazib berish;
- b) mamlakatga chet davlatlardan nazorat ostida yetkazib berish;
- d) mamlakatdan chet davlatlarga nazorat ostida yetkazib berish;
- e) mamlakat hududi orqali tranzit yo‘li bilan nazorat ostida yetkazib berish.

Nazorat ostida yetkazib berishni amalga oshirish uchun eng qulay sharoit bu kuryer tomonidan kuzatib borilmaydigan kontrabanda aniqlanganda ish beradi (masalan, kuzatib borilmaydigan yuk jo‘natmalari, pochta-yuk jo‘natmalari va h.k.)

Kontrabanda giyohvandlik vositalari aniqlanganda va nazorat ostida yetkazib berishni o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish bilan dastlabki tergov harakatlarini tezkorlik bilan o‘tkazish zarur (foto va videoga olish, qo‘l barmoq izlarini olish, yuboruvchi va qabul qiluvchini aniqlash). Giyohvandlik vositalarini olish yoki almashtirib qo‘yish mumkin, biroq har qanday holatda o‘ramga dastlabki ko‘rinishini berish kerak. Har qanday nazorat ostida yetkazib berishni amalga oshirishda ma’lumotlarning chiqib ketmasligiga alohida diqqat-e’tiborni qaratish kerak.

Kontrabanda ashyolarini aniqlashda kinologiya xizmatining o‘rni

Insonning itlardan foydalanishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. 5-6 ming yillik qadimiy Misr freskalarida itlar odamlarga ov qilishda yoki dushmanlarga qarshi kurashda yordam berayotganligi tasvirlangan. Qadimgi misrliklar ko‘rgazmali (dekorativ) itlarni yetishtirishga nihoyatda katta e’tibor va ahamiyat berishgan.

Itning tez yugurish, hid bilish, eshitish qobiliyati, kechasi ko‘rish, har qanday joyda yengil harakatlanish, nihoyatda chidamliligi kabi sifatlari – harbiy mutaxassislar tomonidan yuqori baholanadi.

Yuqoridagilarga asosan, inson doimo yaxshi zotdor itlarni yaratish ustida izlanish ish olib borib, uning tuzilishi va xulq-atvorini o‘rgangan. Shu asnoda itlar to‘g‘risida fan vujudga keldi. Bu fanning nomi “Kinologiya” deyiladi. “Kinologiya” qadimgi yunoncha tildan olingan bo‘lib, Kinos-it va logiya-fan degan ma’noni anglatadi.

Hozirgi paytda Respublikamiz hududida itlarning 50ga yaqin zoti hisobga olingan, ular it havaskorlari va davlat tashkilotlari qaramog‘ida saqlanadi.

It yarim milliongacha bo‘lgan turli hidlarni ajratish qobiliyatiga ega. Tasavvur qiling, it bir milliard kub kilometr suvda qorishtirilgan bir choy qoshiq ammiak hidini ajrata oladi. Bundan tashqari, it yuzlab hidlardan yagona kerakli hidni saralab ajrata olishi mumkin.

Bojxona xizmatini yaratish asosida bozorni tartibga solish, davlat chegarasidan taqiqlangan tovarlarni, giyohvand va psixotrop moddalarni, qurol-yarog‘ va portlovchi moddalarni noqonuniy kirish va chiqishdan himoyalash vazifalari yotadi. Bu ishlarda xizmat itlari katta yordam beradilar.

Bitta passajir aviareys bagajini tekshirish uchun xizmat itiga 15-20 daqiqa kerak xolos. Temir yo‘lda bitta poyezd sostavini tekshirish uchun xizmat itiga 10-15 daqiqa kerak. Bojxona postlarida avtomobil yo‘llarida it bitta

mashinani 2-3 daqiqada tekshira oladi. 30 daqiqada 400-500 ta o‘ramdagi yukni tekshira olishi mumkin.



Esda tuting! O‘zbekiston “Oltin uchburchak” davlatlaridan giyohvand moddalari o‘tadigan yo‘lida joylashgan. Shuning uchun 1993-yil oktyabr oyida O‘zbekiston Davlat bojxona qo‘mitasi qoshida kinologiya xizmati yaratildi. 1994-yil may oyida O‘zbekiston hukumati va BMTning O‘rta Osiyoda giyohvandlarni tekshirish xalqaro programmasi bilan birlashgan loyiha bo‘yicha Milliy kinologiya markazi qurilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

1996-yil 24-oktyabrda Prezidentimiz tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining “Milliy kinologiya markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 364-sonli qarori asosida Milliy kinologiya markazi tashkil etilib, Milliy kinologiya markazi kichik-inspektor kinologlar va xizmat itlarini tayyorlovchi bazaviy o‘quv markazi etib belgilangan. Uning zimmasiga kuch salohiyatiga ega bo‘lgan vazirliklar va idoralar hamda DBQ uchun malakali kinologlar va xizmat itlarini tayyorlab berish, qayta tayyorgarlikdan o‘tkazish, kinologlarni malakasini oshirish va kinologiya sohasida o‘quv-uslubiy bazani yaratish vazifasi yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 31-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida kinologiya xizmatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 291-42-sonli qarori talablariga ko‘ra, Milliy kinologiya markazi zimmasiga Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat chegaralarini himoya qilish qo‘mitasi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari uchun inspektor-kinologlarni o‘qitish va xizmat itlarini tayyorlash, qayta tayyorgarlikdan o‘tkazish hamda zotli xizmat itlarini ko‘paytirish vazifasi yuklatilgan.

Kontrabanda holati bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari

Kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan vazifalar, tergovga qadar tekshiruvning dastlabki va keyingi bosqichlari davomida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tergov harakatlari va boshqa choralar majmuidan iborat bo‘lib, ular vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.



Ma‘lumot uchun: Har bir vaziyat (asosan tergovga qadar tekshiruvning dastlabki bosqichida) mavjud bo‘lgan ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Bunday vaziyatda tergovga qadar tekshiruvning birinchi navbatdagi vazifalari qo‘yidagicha:

- barcha izlarni o‘rganish, tahlil qilish va qayd qilish;
- jinoyatning motiv va maqsadini aniqlash;
- gumon qilinuvchi shaxslarning aybini isbotlash;
- protsessual majburlov chorasini belgilash.

Shaxsiy taxmin (versiya)lar ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqib, kontrabandaning motiv, maqsad, ishtirokchilari va h.k.larga taalluqlidir.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilishda, tergovga qadar tekshiruvning dastlabki bosqichini rejalashtirish jarayonida quyidagilar hal etiladi:

1. Gumon qilinuvchilarning qaysi biriga, qanday ketma-ketlikda, qayerda, qachon va qanday holatda protsessual majburlov chorasi qo'llanilishi;

2. Qaysi gumon qilinuvchi yoki uning yaqinlarida tintuv o'tkazilishi, nima va qayerdan qidirilishi;

3. Ko'zdan kechirish davomida topib olingan ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

4. Kontrabanda ashyolarini saqlash va o'tkazishda foydalanilgan vosita va moslamalarni ko'zdan kechirish;

5. Kontrabanda ashyolari va unga taalluqli hujjatlarni, ular saqlanishi mumkin bo'lgan gumon qilinuvchi va boshqa aloqador shaxslarning yashash va ish joylaridan olib qo'yish;

6. Kontrabanda ashyolarini yashirish uchun qo'llanilgan narsalarni ko'zdan kechirish;

7. Kimlardan qachon va qanday ketma-ketlikda ko'rsatma olish, ko'rsatma olish davomida ularning har biridan qanday holatlarga aniqlik kiritilishi;

8. Xolis va guvohlarga kontrabanda ashyolari, zarur hollarda gumon qilinuvchilarni ko'rsatish;

9. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tezkor-qidiruv harakatlari (yoxud tezkor-qidiruv tadbirlari)ni o'tkazish;

10. Tegishli ekspertizalarni tayinlash.

Shunday qilib, kontrabanda jinoyatining yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdor yoki aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni bojxona xodimining qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.

Bu ma'lumotlar guvoh va gumon qilinuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovoqli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov harakatlari bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.

Ko'zdan kechirishning kriminalistik taktikasi

Kontrabanda holati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borishda ashyolar, hujjatlar va izlarni o'z vaqtida aniqlash, olib qo'yish va qayd etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu narsaga esa, ko'zdan kechirish orqali erishiladi. Ko'zdan kechirish shuningdek, sodir etilgan jinoyat bo'yicha versiyalar (taxminlar) ishlab chiqish,

uning sodir etilish mexanizmi, ishtirokchilari, jinoyatchining shaxsi haqida boshlang'ich ma'lumot olish hamda uning qidiruvini tashkil etish va boshqa tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi.



Ma'lumot uchun: Ko'zdan kechirishdan oldin unga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshiriladi, ya'ni hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlash, sharoitni dastlabki holatida saqlashni ta'minlash bo'yicha zaruriy choralar ko'riladi. Qo'riqlash kontrabanda holatini aniqlagan mansabdor shaxslar tomonidan korxonalar va muassasalar ma'muriyati, bojxona xodimlariga topshirilishi mumkin. Hodisa sodir bo'lgan joyga borishga tayyorgarlik ko'rayotib, texnik-kriminalistik vositalarning butligini tekshirish lozim.

Ma'lumki, ko'zdan kechirish protsessual harakati quyidagilarni o'z ichiga oladi: hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tevarak-atrofni, binolar-omborlarni, transport vositalarini ko'zdan kechirish, predmetlar (kontrabanda ashyolarini) va hujjatlarni ko'zdan kechirish, guvohlantirish va hokazolar.

Kontrabanda ashyolarini ko'zdan kechirish ular joylashtirilgan xufiya joy bilan bog'liq.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning maqsadi kontrabanda ashyolarini yashirishda foydalanilgan o'rash materiallari va vositalarini aniqlash, dastlabki tekshiruvdan o'tkazish, ularning belgilari, xususiyatlari va holatini qayd qilish, shuningdek, hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoitni o'rganib chiqishdir.

Ko'zdan kechirishni amalga oshirganda turli xil mayda detallar (belgilar), me'yordan chetlanishlarni aniqlash lozim. Masalan, bir holatda narkotiklar partiyasi yuk konteynerida aniqlangan: yuklar konteynerdan tushirilgach, konteyner ichki tomonidagi gofralar (ariqchalar) ustuni bilan konteyner tashqi tomonidagi gofralar ustuni miqdori mos emasligi aniqlangan, bu narsa esa konteynerning ikkinchi orqa devori borligidan dalolat berardi. Konteyner devori yuzasi parmalangach hamda "endoskop" yordamida, oradagi bo'shliqda narkotik vositalari borligi aniqlangan.

Shuni nazarda tutish lozimki, kontrabanda ashyolarini yashirish uchun mo'ljallangan bo'shliqlar oldindan, maxsus texnika qo'llab mukammal tayyorlanishi mumkin. Masalan, ikkilamchi devorlar konteyner burchaklariga ulanib, oddiy ko'z bilan qaraganda konteyner bo'yog'idan farqlanmaydigan bo'yoq bilan bo'yab qo'yiladi. Shu sababli ko'zdan kechirishni maxsus texnik vositalarni qo'llab amalga oshirish kerak. Ko'zdan kechirish spiral, soat strelkasi bo'yicha – markazdan periferiyaga qarab (*ekssentrik usul*) va periferiyadan markazga qarab (*konsentrik usul*) yoki frontal (*chiziqli usul*) – hodisa sodir bo'lgan joyning bir chekkasidan boshqa chekkasigacha kvadrat yoki sektorlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Ko'rikni periferiyadan markazga qarab amalga oshirish quyidagi hollarda maqsadga muvofiq: hodisa sodir bo'lgan joyda aniq bir markaz bo'lmaganda va ko'zdan kechirish jinoyat sodir qilgan shaxsning, transport vositasining hodisa sodir bo'lgan joyga kelganligi va ketganligi izlarini topish yoki boshqa iz va belgilarni topish bilan bog'liq bo'lganda. Tevarak-atrofdagi katta hududni ko'zdan kechirishda, odatda, frontal (chiziqli) usul qo'llaniladi.



Ma'lumot uchun: Umumiy ko'rinishni tasvirlash uchun hodisa sodir bo'lgan joy tevarak-atrofga bog'liq holda suratga olinadi (*oriyentirli suratga olish*) va sharoitning umumiy ko'rinishi dastlabki holatida suratga olinadi (*obzorli suratga olish*).

Shundan so'ng umumiy sharoitni va har bir obyektning hodisa sodir bo'lgan joyda alohida sinchiklab o'rganib chiqish uchun detalli ko'zdan kechirishga kirishiladi. Bunda ko'zdan kechirilayotgan obyektlar qo'lga olinadi, ya'ni aniqlangan joydan qulayroq sharoitda ko'zdan kechirish uchun olinadi. Ko'zdan kechirishning bu bosqichini dinamik bosqich deb ham atashadi.

Har qanday obyektning qo'lga olish va joyini o'zgartirishdan oldin, uni holati o'zgartirilmagan holda ko'zdan kechirish va uning qo'llanilish maqsadi, joylashgan joyi (ikkita doimiy harakatlanmaydigan oriyentirlardan shu obyektgacha bo'lgan masofani o'lchash orqali), boshqa obyektlarga nisbatan holatini xarakterlab berish lozim. Shundan so'nggina ko'zdan kechirilayotgan obyektning joyini o'zgartirish va uning holati, xususiyatlarini va belgilarini (o'lchami, shakli, rangi, defektlari) yanada chuqurroq hamda har tomonlama o'rganish uchun tekshiruvlar o'tkazish mumkin.

Zarur hollarda, kontrabanda ashyolari xususiyatidan kelib chiqib, ko'zdan kechirish jarayonida ishtirok etish uchun maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Samolyot, poyezd, avtomobil kabi transport vositalarini ko'zdan kechirishda ushbu vosita tegishli bo'lgan korxonaning rahbari (uning egasi), mutaxassis-transport injeneri (bojxona xodimiga kontrabanda yashirilishi mumkin bo'lgan xufiyona joylar, bo'shliqlarni ko'rsatib bera oladigan uni qanday ochish mumkinligini va shu kabilar haqida tushuncha bera oladigan mutaxassis) qatnashishiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Zarur hollarda bojxona xodimi ko'zdan kechirish chog'ida o'lchov o'tkazadi, fotosuratga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi.



Ma'lumot uchun: Narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirish, odatda, ular topilgan joyda amalga oshiriladi: olib qo'yilayotgan narsalar o'raladi (qadoqlanadi) va muhrlanadi. Basharti, ko'zdan kechirish ko'p vaqt talab qilsa, shuningdek boshqa asoslar bo'lsa (masalan, hodisa

sodir bo'lgan joyni, tevarak-atrofni, transport vositasini ko'zdan kechirishda mutaxassislarning yoki olib qo'yilayotgan narsalarni mukammal ko'zdan kechirish uchun texnik vositalarning yo'qligi), ko'zdan kechirish imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bunday zarurat yuzaga kelganda, olib qo'yilayotgan narsalar yoki hujjatlar hisobga olinadi, umumiy ko'rinishi tasvirlanadi, o'raladi (qadoqlanadi) va muhrlanadi. Bu narsa butun obyekt (hodisa sodir bo'lgan joyni, tevarak-atrofni, transport vositasini) ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etilib, olib qo'yilgan narsalar va hujjatlar alohida ko'zdan kechirilishi ko'rsatiladi.

Ko'zdan kechirish bayonnomasida, amalga oshirilgan harakatlar, barcha aniqlangan narsa va hujjatlar ko'zdan kechirish qanday ketma-ketlikda amalga oshirilgan bo'lsa hamda qanday ketma-ketlikda topilgan bo'lsa, xuddi shunday ketma-ketlikda tasvirlab beriladi.

Ko'zdan kechirish bayonnomasini rasmiylashtirishda ikki jihatga e'tibor berish kerak.

Birinchi, ko'zdan kechirilayotgan ashyoning nomi, nimadan yasalgani, mo'ljallangan vazifasi ko'zdan kechirayotgan shaxsga noma'lum bo'lsa, u holda bu ashyo nima ekanligini aniqlashga urinmasdan uning to'liq tavsifi va uni olib qo'yish bilan chegaralanish kerak. Ko'zdan kechirish davomida shunday ashyolarning ekspress-analizini amalga oshiruvchi bojxona organlarining imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Agar bunday imkoniyat mavjud bo'lmasa, u holda keyinchalik yuzaga kelgan savollarni hal qilish uchun ekspertiza tayinlash, yoxud ekspertiza o'tkazish zarurati bo'lmasa, ashyoni qayta ko'rikdan o'tkazish uchun tegishli mutaxassisni jalb etish lozim.

Ikkinchi, ko'zdan kechirishga sabab bo'lgan, sodir bo'lgan hodisa mazmuni bo'yicha hech qanday versiyalar, taxminlar, fikr va xulosalar bayonnomada aks etishi kerak emas. Unda faqatgina ko'zdan kechirish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar va aniqlangan faktlar qayd etiladi.



Esda tuting!

Ko'zdan kechirish harakatini amalga oshirish jarayonida yagona rahbarlikni ta'minlash lozim, masalan, kontrabanda holati bo'yicha aniqlangan huquqbuzarlik holatini o'z ish yurituviga qabul qilgan va tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshirayotgan yoxud hodisa sodir bo'lgan joyga birinchi bo'lib yetib kelgan bojxona organining mansabdor shaxsi rahbarlikni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'zdan kechirish to'liq bo'lishi uchun har bir ishtirokchining vazifalari belgilab berilishi kerak.

Shuni ko'zda tutish lozimki, ko'zdan kechirish jarayonida hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoitni saqlab qolish, jinoyat izlarini topish va mustahkamlash, jinoyatchini "issiq izlaridan" ta'qib (aniqlash, topish va ushlab) qilish, xolislarini

jalb etish, jinoyatga shohid bo'lgan shaxslarni aniqlash, surishtiruv va qidiruv versiyalarini ishlab chiqish uchun tezkor ma'lumotlarni olish bo'yicha amaliy harakatlarni bajarish lozim.

Kontrabanda ashyolarini ko'zdan kechirish jarayonida ishtirok etayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yetarli choralarni ko'rish talab etiladi.

Portlovchi va radioaktiv moddalar olib o'tilayotganligiga gumon paydo bo'lsa, u holda ko'zdan kechirish jarayonida maxsus uskunalar, radiatsion nurlanishni qayd qiluvchi datchiklar va dozimetrlardan foydalanish kerak. Ayni vaqtda xavfsizlik choralari ko'rib, mazkur obyektlar izolyatsiya qilinishi, xavfli hudud to'silishi, odamlarning o'tishi taqiqlanishi va bu moddalarni ko'zdan kechirish uchun maxsus tashkilotlar (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi instituti, SEO va JSX, IIV, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa) mutaxassisleri jalb etiladi.



Esda tuting! Ko'zdan kechirishda bojxona xodimi qaysi o'lchov uskunasidan, o'lchovning qanday usullaridan foydalangani bayonnomada ko'rsatilishi kerak. Mazkur talabning bajarilmaganligi natijasida olingan dalillar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual Qonuni normalarini qo'llanishining ayrim masalalari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, sud tomonidan, dalil deb hisoblanmasligi mumkin.

Qo'l, oyoq, poyabzal, transport vositalari va boshqa turli izlarini aniqlash hamda dastlabki o'rganib chiqishga alohida ahamiyat beriladi.

Oddiy ko'z bilan ko'rish, ajratish qiyin bo'lgan, alohida e'tibor va ehtiyotkorlik bilan muomala qilishni talab qiladigan mikroizlar va mikro qismlarni topish uchun optik asboblardan foydalaniladi.

Kontrabanda ashyolari yashiriladigan xufiyona joylarni aniqlash uchun quyidagi kriminalistik usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: vizual, urib ko'rish usuli, obyektlarning ichki va tashqi parametrlarini tuzish usuli, shup usuli, induktiv usul (tok o'tkazmaydigan muhitda metall izlagichlardan foydalanish), boshqa usullar.

Ashyoviy dalil bo'lishi mumkin bo'lgan barcha aniqlangan izlar va predmetlar ko'zdan kechirilishi, qayd qilinishi va olinishi kerak.

Ko'zdan kechirishning so'nggi bosqichida yakuniy xulosa chiqariladi, ashyoviy dalil bo'lishi mumkin bo'lgan izlar va predmetlar olinadi, o'raladi (qadoqlanadi) va zarur hollarda muhrlanadi, bayonnoma va unga ilovalar (chizmalar, rejalar, foto-jadval tasvirlari) rasmiylashtiriladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasini tuzishda JPK talablari va kriminalistik tavsiyalar e'tiborga olinishi lozim.

Ko‘zdan kechirish bayonnomasi hodisa sodir bo‘lgan joyda tuziladi. U hodisa sodir bo‘lgan joydagi sharoitni to‘liq, obyektiv, aniq, hodisa sodir bo‘lgan joy qanday tartibda ko‘zdan kechirilgan bo‘lsa, xuddi shu tartibda tasvirlab berishi kerak.

Bayonnomada: hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish sanasi va joyi, ko‘zdan kechirish boshlangan va yakunlangan vaqt, unda ishtirok etgan bojxona mansabdor shaxslari haqidagi ma’lumotlar (lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi, ismi, shariflari), ko‘zdan kechirishning faktik va huquqiy asoslari (sodir bo‘lgan hodisa xarakteri, u haqidagi ma’lumot manbalari, JPKning tegishli moddalariga ilovalar), ko‘zdan kechirish ishtirokchilari va xolislariga ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilgani to‘g‘risidagi yozuv (ularning imzolari bilan), ko‘zdan kechirish amalga oshirilgan sharoit (ob-havo holati, harorat, yorug‘lik darajasi) ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Shundan so‘ng bayonnomada hodisa sodir bo‘lgan joy tasvirlanadi, u sodir bo‘lgan joy (ko‘zdan kechirilayotgan joyning chegaralari), ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan izlar va predmetlarning joylashish tartibi va holati ko‘rsatiladi.

Bayonnoma aniq va tushunarli, ortiqcha qaytarishlarsiz, noaniq tushunchalar va ko‘zdan kechirish ishtirokchilariga notanish bo‘lgan maxsus atamalar qo‘llanilmagan holda yozilgan bo‘lishi lozim.

Bayonnomaning so‘nggi qismida olingan izlar va predmetlar sanab o‘tiladi, unga ilova qilinadigan rejalar, chizmalar, tasvirlar, foto, ovozli va videoyozuvlardan foydalanish tartibi va shartlari, shuningdek, qo‘llanilgan texnik vositalar ko‘rsatiladi.

Shu yerning o‘zida ko‘zdan kechirish ishtirokchilari va xolislar tomonidan ko‘zdan kechirish va uni protsessual rasmiylashtirish jarayonida e’tirozlar bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi qayd etiladi. Bayonnoma ko‘zdan kechirishning barcha ishtirokchilari va xolislar tomonidan tanishib chiqish uchun taqdim qilinadi va imzolanadi.

Kontrabanda ashyolari bo‘yicha ekspertiza tayinlash

Sudga oid ekspertiza tayinlanishi va o‘tkazilishini, shuningdek, ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olishni tartib-qoidalari hamda protsessual asoslari JPKning 172-187, 188-197-moddalarida belgilab qo‘yilgan.

Sudga oid ekspertiza tayinlash va o‘tkazish – fan, texnika, san’at va kasb bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lgan shaxsning, tergovga qadar tekshiruv materiallari va jinoyat ishi yuzasidan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirayotgan mansabdor shaxsning ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorida oldiga qo‘yilgan savollar bo‘yicha maxsus tekshirish o‘tkazganidan keyin javob berishidan iborat bo‘lgan tergov harakatidir.

Maxsus bilimga ega bo'lgan va surishtiruvchi (tergovchi)ning qaroriga muvofiq shunday xulosa beradigan shaxs ekspert hisoblanadi.



Ma'lumot uchun: Ekspertizalar o'z maqsadi, mazmuni va o'tkaziladigan obyektlari hamda savollarni hal qilish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim turiga qarab guruhlariga (kriminalistik, trasologik, daktiloskopik, ballistik, xatshunoslik, avtorlik, hujjatlarni tekshirish, fonoskopik, portretlik, tovarshunoslik, metallshunoslik, sud-kimyoviy, sud-tibbiy, sud-psixiatrik, biologik, sud-iqtisodiy va boshqalar) ajratiladi.

Kontrabanda ashyolarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tishning barcha holatlarida tegishli ekspertizalar tayinlanadi.

Ekspertiza o'tkazish orqali, aynan qanday kontrabanda ashyolarini noqonuniy olib o'tishga urinilgani, ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari aniqlanadi. Kontrabanda jinoyatiga oid ishlar bo'yicha kriminalistik, daktiloskopik, ballistik, trasologik, xatshunoslik, materiallar, moddalar va boshqa ekspertizalar o'tkaziladi.

- kriminalistik ekspertiza: - kontrabanda ashyolaridagi qo'l izlariga muvofiq shaxsni aniqlash (daktiloskopiya); qalbakilashtirilgan muhr, shtamp, identifikatsiya belgilari va hokazolarni tekshirayotgan hujjatlarni texnik-kriminalistik ekspertizasi; soxta hujjatlardagi qo'lyozma tekstlarni tekshiruvchi yozuvga oid (xatshunoslik); yashirin joylar va ularning jihozlanishiga oid (trasologik) ekspertiza;

- sud-kimyoviy ekspertizasi: - giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli va boshqa moddalar tarkibini, obyektlarning o'zaro ta'siri faktini, umumiy kelib chiqish manbaini belgilashga oid ekspertizadir;

Shuningdek, kontrabanda ashyosi - qurol-yarog'ni noqonuniy yo'l bilan olib o'tish bilan bog'liq bo'lsa, qurolga oid (ballistik), diniy ekstremizm va separatizmni targ'ib qiluvchi materiallar mazmunini aniqlash maqsadida dinshunoslik ekspertizasi o'tkaziladi.



Ma'lumot uchun: Kontrabanda ashyosi sifatida olib qo'yilgan har qanday qurol va o'q dorilar, portlovchi modda va portlatish qurilmasi ekspertizadan o'tkazishlik uchun O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika bosh markaziga yoki viloyat IIB EKBga yuboriladi va ekspertlar oldiga quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

Qurol va o'q-dorilar gumon qilinganda:

- ekspertizaga taqdim etilgan qurol o'qotar qurol toifasiga kiradimi, agar kirs qanday toifasiga kiradi?

- ekspertizaga taqdim etilgan qurol zavod yoki qo'lbola usulda tayyorlanganligi aniqlansin?

- ekspertizaga taqdim etilgan qurol o'q uzishga yaroqlimi?

- ekspertizaga taqdim etilgan modda o‘q-dorilar toifasiga kiradimi, agar kirsam qaysi toifasiga kiradi?

Portlovchi moddaga gumon qilinganda:

- agar modda portlovchi hisoblansa, portlovchi moddalarning qaysi turiga kiradi?

- ushbu modda qanday (qo‘lbola yoki sanoat) usulda tayyorlangan?

- taqdim etilgan modda qanday komponentlardan tashkil topgan?

- taqdim etilgan modda portlash uchun yaroqlimi?

Portlatish qurilmasiga gumon qilinganda:

- tadqiqot uchun taqdim etilgan qurilma o‘q-dorilar hisoblanadimi? Agar hisoblansa, o‘q-dorilarni qaysi turiga kiradi?

- qurilma qanday ishga tushiriladi? Ishlash prinsipi?

- qurilma zaryadi sifatida qanday portlovchi moddadan va qancha miqdorda foydalanilgan?

- qurilma qobig‘i qanday materialdan tayyorlangan?

- ushbu qurilma qanday usulda (qo‘lbola yoki sanoat) yasalgan?

- ushbu turdagi qurilma va undagi portlovchi modda qaysi sohada qo‘llaniladi?

- taqdim etilgan qurilma portlash uchun yaroqlimi?

- qurilmani yasagan shaxs maxsus bilim va malakaga egami? Agar ega bo‘lsa, qaysi sohada?

- taqdim etilgan qurilma jinoyatchilikda qo‘llanilgan portlatish qurilmalari bilan o‘xshashligi mavjudmi?

Giyohvandlik vositalari kontrabandasi to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha giyohvandlik vositasi turini, uning nomini, xususiyatlarini, uni tayyorlashda foydalanilgan xom ashyoni, o‘simlikning tarkibida giyohvandlik vositalari bor o‘simliklar guruhiga kirish-kirmasligini, giyohvandlik vositasi ishlab chiqariladigan va tarqatiladigan manbani topish maqsadida uning kelib chiqish mamlakatini aniqlash lozim. Kontrabanda ashyolari bo‘lgan xavfli moddalar ekspertizasining maqsadi ham shunga o‘xshashdir. Bunday hollarda kriminalistik va odatda, kompleks ekspertiza tayinlanadi.

Ekspertiza o‘tkazilishi tufayli tergovga qadar tekshiruv muddatlarini cho‘zib yubormaslik maqsadida, bojxona xodimi kontrabanda ashyolari bo‘lgan moddalarning ekspress-analizi ma‘lumotlaridan foydalanishi mumkin.



Esda tuting! *Giyohvandlik vositalari bo‘yicha test o‘tkazish va ularni aniqlashda ehtiyotkorlik choralari.* Giyohvandlik vositalari

aniqlanganida bojxona organi xodimi ularni maxsus sinov vositalari yordamida tekshirishi zarur. Ekspress-testlar o‘zida kimyoviy reaktivlar va moslamalarni aks ettiradi. Ularning yordamida bir necha daqiqada rangli kimyoviy

reaksiyalar asosida, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmay turib shubhali obyektlarni o'rganish mumkin. Turli firmalar tarkibi va qo'llaniladigan kimyoviy reagentlar usuli bilan farqlanuvchi ekspress-testlar to'plamini ishlab chiqaradi.



Esda tuting! Giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish joylari va ularning turi haqidagi bilimlarga ega bo'la turib, birinchi navbatda, qaysi giyohvandlik vositasi to'g'risida gap ketayotganligini taxminan bo'lsada aniqlab olish zarur, keyin esa rangli reaksiya keltirib chiqaruvchi kimyoviy ekspress-testlar asosida uning dastlabki tekshiruvini amalga oshirish kerak.

Test o'tkazgunga qadar quyidagi harakatlarni amalga oshirish zarur:

- agar tadqiq qilinayotgan giyohvandlik vositasi qattiq narsa (tabletkalar, briketlar va h.k.) bo'lsa, uni kukun holatiga kelgunga qadar maydalash;
- agar tadqiq qilinayotgan giyohvandlik vositasi suyuq (ampulada, flakonda va h.k.) ko'rinishda bo'lsa, aralashtirish;
- agar tadqiq qilinayotgan giyohvandlik vositasi kapsulada bo'lsa, ajratib chiqarilishi kerak.

Ekspress-test o'tkaza turib, giyohvandlik vositalari zararli va zaharli ekanligini va sog'liq uchun xavf tug'dirishini esdan chiqarmaslik lozim. Aniqlangan moddalarga qo'lqopsiz tegish, ta'mini bilish uchun hidlash, yalash mumkin emas.

Yodda tutish kerakki:

- giyohvandlik vositalarini o'ramidan ajratib olishda ehtiyotkorlik choralariga rioya qilish lozim;
- giyohvand tashuvchilarning o'zlari yuqumli kasallik bilan kasallangan bo'lishi va sog'liq uchun xavf tug'dirishi mumkin, shuning uchun ular bilan muomalada ancha e'tiborli va ehtiyot bo'lish lozim;
- ekspress-testlar yordamidagi analiz dastlabki va taxminga asoslangan (yakuniy analizni faqatgina ekspertiza muassasasi berishi mumkin);
- ijobiy rangli reaksiya ham giyohvandlik vositasining mavjudligiga kafolat bermaydi, salbiy reaksiya ham giyohvandlik vositasining mavjudligini istisno qilmaydi;
- vaqt o'tishi bilan reaktivlarning amal qilish muddati tugaydi va ular o'zining xossasini yo'qotadi.

Shu o'rinda chegara bojxona postida mavjud bo'lgan giyohvandlik vositalarini identifikatsiya qilish "NIK" tizimi yordamida aniqlangan moddada marixuana giyohvandlik vositasi mavjudligini aniqlash amaliyotini yoritib berishni lozim deb topdik:

- marixuanaga o'xshash o'simlik moddasidan 10-15 ta kichik bo'lakchalari namuna sifatida olinadi (katta miqdordagi namuna rangning juda quyushtashishiga

olib keladi va isbotlashni qiyinlashtiradi);

- narkotester ogʻzini berkitib turuvchi mahkamlagich olib tashlanadi va unga test namunasi solinadi. Narkotester qadogʻiga bir-ikki kichik zarba berilib namuna narkotesterning pastki qismiga tushiriladi;

- narkotester yozuvlar tarafi bilan oʻziga qaratib ushlanadi. Ampulalar oʻrta qismini katta va koʻrsatkich barmoqlari bilan ezib, chapdan oʻng tomon birma-bir ochiladi;

- dastlab chapdan birinchi ampula sindiriladi. Qadoq kamida bir daqiqa mobaynida qattiq silkitiladi (eritma rangsiz boʻlib qoladi yoki chang tusini olishi mumkin);

- oʻrtadagi ampula sindiriladi va ehtiyotkorlik bilan silkitiladi. Bir necha soniyadan bir daqiqagacha boʻlgan davrda koʻk-siyohrang (sine-fioletovyy) yoki guloba rang rivojlanadi va mazkur rang moddada marixuana borligidan dalolat beradi. Test ijobiy natija berganligiga ishonch hosil qilish uchun koʻk-siyohrang yoki guloba rang aniq toblanishini kutib turish lozim.

- koʻk-siyohrang yoki guloba rang aniq toblanganidan soʻng oʻng ampula sindiriladi va qadoq 5-10 soniya ichida qattiq silkitiladi. Qatlamlar yuzaga kelishi kutib turiladi. Bunda pastki qatlam koʻk-siyohrang yoki guloba rangni saqlab qoladi, yuqori qatlam esa och, koʻkimir-kulrang rangga toblanadi.



Maʼlumot uchun: Koʻk-siyohrang yoki guloba rangning yuzaga kelishi va uni pastki qatlamga ajrab chiqishi oʻtkazilgan test “marixuana” moddasiga ijobiy natija berganligidan dalolat beradi.

Analiz salbiy natija bergan holatlarda gumonlanuvchi modda tarkibida idoraviy nazorat ostida boʻlgan boshqa moddalar mavjudligi tekshiriladi.

Ekspress-analiz oʻtkazilganidan soʻng, uning natijalarini qayd etish va ish materiallariga qoʻshish maqsadida bayonnoma tuziladi. Bayonnomada oʻtkazilgan ekspress-analizning butun jarayoni va natijalari koʻrsatilib, qayd etiladi. Bayonnomada ekspress-analiz oʻtkazilishida ishtirok etgan shaxslar, shu jumladan, xolislar, mutaxassislar va boshqa shaxslar koʻrsatiladi va ularning imzolari bilan tasdiqlanadi. Ekspress-analiz natijalari – narkotesterlar oʻralib, imzolanib, muhrlanib bayonnomaga ilova qilinadi.

Olingan moddani narkotik yoxud psixotrop deb eʼtirof etish uchun sud-kimyoviy ekspertizasi tayinlash lozim boʻlib, ekspert oldiga hal etish uchun quyidagi savollar qoʻyilishi mumkin:

- olingan modda gilyohvandlik vositasi hisoblanadimi, agar hisoblansa qanday gilyohvandlik vositasi hisoblanadi, uning sof vazni qancha,

- olingan modda yoki tabletka(lar) psixotrop modda hisoblanadimi, agar hisoblansa qanday psixotrop modda hisoblanadi, psixotrop moddaning sof vazni, shuningdek, tabletka(lar)dagi psixotrop moddaning sof vazni qancha;

- narsada (qanday narsa ekanligi ko'rsatiladi) giyohvandlik vositalarining izlari (mikroskop orqali ko'rinadigan nishonalari) bormi;

Tekshiruvga berilgan modda giyohvandlik vositasimi, degan savolga ijobiy javob olingan taqdirda, ekspert, shuningdek quyidagi savollarga javob beradi: aynan qaysi narkotik modda tekshiruvga taqdim etilgan, u inson organizmiga qanday ta'sir o'tkazadi, moddaning sof og'irligi qancha, uning og'irligi saqlanganda o'zgaradimi, mazkur moddadan tibbiy maqsadlarda foydalanish mumkinmi, tekshiruvga berilgan modda joylashgan predmetda identifikatsiya qilish uchun yaroqli barmoq izlari bormi (chemodanlarda, portfelning yon devorlari va tagida, modda joylashgan o'ramda), agar barmoq izlari mavjud bo'lsa, ular gumon qilinuvchiga tegishlimi; portfel (chemodan va h.k.) yon devorlaridagi moslama nimaga mo'ljallangan, u xufiyona joy bo'la oladimi; portfelning yon devorlaridagi moslama qanday materiallardan va qanday yo'l bilan (qo'lbolami yoki sanoat yo'li bilanmi) yasalgan; giyohvandlik vositasi joylangan o'ram (kapsula) qanday materiallardan va qanday yo'l (qo'lbola yoki sanoat yo'li) bilan yasalgan; tekshirishga berilgan izlarda u tayyorlangan yoki transportirovka qilingan hudud (joy)ni ko'rsatuvchi mikro qismlar bormi, kabi.



Esda tuting! Ba'zi bir hollarda moddaning kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli va boshqa shu kabi zaharlovchi moddaligini aniqlash maqsadida kimyoviy ekspertiza o'tkaziladi.

Odatda, giyohvandlik vositasi kontrabandasi bilan shug'ullanuvchi shaxslar uni o'z iste'moli uchun olib o'tayotganliklarini e'tirof etadilar. Bunday hollarda sud-tibbiyot (narkologik) ekspertizasi tayinlanadi va ekspertlar oldiga quyidagi savollar qo'yiladi:

shaxs giyohvandlik vositani iste'mol qiladimi, qanday shaklda, qanday giyohvandlik vositasini iste'mol qiladi?

mazkur shaxsda giyohvandlik alomatlari bormi, bor bo'lsa, uning qanday alomatlari bor, narkologik tobelik bormi, mazkur tobelik paydo bo'lganiga qancha bo'lgan?

- shaxs giyohvandlikka qarshi majburiy davolanishga muhtojmi, buning salbiy oqibatlari bormi?

Huquqbuzarlik ashyosi sifatida olib qo'yilgan diniy mazmundagi materiallar yuzasidan dinshunoslik ekspertizasi tayinlanib, ekspertlar oldiga quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

- olib qo'yilgan materiallar diniy mazmundagi materiallar turkumiga kiradimi yoki kirmaydimi?

- diniy mazmundagi materiallar turkumiga kirgan taqdirda, ular Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan O'zbekistonga olib kirish va foydalanishga ruxsat etilgan diniy adabiyotlar ro'yxatiga mansubmi?

- olib qo'yilgan materiallarda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi ma'lumotlar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, materialning aynan qaysi qismi (jumlasida) mavjud?

- olib qo'yilgan materiallarda diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan yoki targ'ib qiluvchi, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma'lumotlar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, materialning aynan qaysi qismi (jumlasida) mavjud?

- olib qo'yilgan materiallarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud Qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilishlar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, materialning aynan qaysi qismi (jumlasida) mavjud?

- olib qo'yilgan materiallar O'zbekiston Respublikasida faoliyati cheklangan yoxud taqiqlangan tashkilotlarga tegishlimi? Agarda tegishli bo'lsa qaysi faoliyati cheklangan yoxud taqiqlangan tashkilotga mansub?

- olib qo'yilgan materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (olib chiqish) uchun biron-bir cheklov yoxud taqiqlar mavjudmi? Agarda mavjud bo'lsa ular qaysi qonun va qonun osti hujjatlarda aks ettirilgan?

Bundan tashqari, har bir ish hujjatlaridagi tafsilotlarini inobatga olib, ishni qonuniy hal etish uchun boshqa ahamiyatli savollar ham qo'yilishi mumkin.



Ma'lumot uchun: Kontrabanda to'g'risidagi ishlar bo'yicha ayrim hollarda kontrabanda holatini sodir etgan odamning pasport va boshqa turdagi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning haqqoniyligini tekshirish zarurati tug'iladi. Hujjatni qalbaki deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa, kriminalistik ekspertiza tayinlanadi va ekspertlar oldiga pasport qanday yo'l bilan – tipografik yoki boshqa usulda tayyorlanganligi, hujjat qandaydir o'zgarishlarga uchraganligi, fotosurat almashtirilganligi kabi savollar qo'yiladi.

Gumon qilinuvchini ushlab turish taktikasi

Kontrabanda holatini aniqlagan bojxona xodimining dastlabki xatti-harakatlari huquqbuzarni qo'lga olish, kontrabanda ashyolarini olib qo'yish va aniqlangan holatni rasmiylashtirishga qaratilishi lozim.

Bunda ashyoviy dalil sifatida olingan narsa va hujjatlarni, aniqlangan xufiyona joylarni, shaxsiy ko'rikdan (guvohlantirishdan) o'tkazilayotgan shaxsning his-tuyg'ularini, u tomondan qilinishi mumkin bo'lgan haqoratlar, do'q-pupisalar, jismoniy ta'sir choralari, pora berishga harakat qilinishi, kontrabandani boshqa usulda amalga oshirishga urinishlarni qayd etish maqsadida texnikaviy usullar

(foto-video tasvirga tushirish, ovoz yozish va h.k.) qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda texnikaviy usullarning qo'llanilishi haqiqatni aniqlashga va bojxona xodimlarini bo'xtonlardan himoya qilishga yordam beradi.

Jinoyat ustida qo'lga olinishini sezgan jinoyatchi kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida bo'ladi va to'satdan keskin harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Shaxsiy xavfsizlik hamda atrofdagi hamkasblar va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida bojxona xodimi bu paytda g'oyat ehtiyotkorlik bilan harakat qilishi lozim.

Yuqorida aytib o'tilganlarga qo'shimcha tariqasida shuni ta'kidlash kerakki, bojxona xodimlari bunday holatlarga doimo tayyor bo'lishlari talab etiladi. Vaziyatdan kelib chiqib, zarur hollarda (o'rni va vaqtdan qat'iy nazar) dadillik bilan, cho'chimasdan qo'l kishan ishlatishlari lozim. Yashirin qurolning barcha turlarini (pichoq, shisha, otvyortka va boshqa xavfli ashyolar hamda ashyoviy dalil sifatida olingan kriminalistik obyektlar) huquqbuzarning qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi bo'yicha choralar ko'rilishi shart.



Ma'lumot uchun: Shuning uchun xorijiy davlatlar bojxona xizmatlarining boy amaliy tajribasini inobatga olgan holda, bojxona postlarida shaxsiy ko'rikdan o'tkazishga mo'ljallangan va maxsus jihozlangan xonalarida maxsus audio-video qurilmalar o'rnatish hamda fotografiya usullaridan samarali, axloq qoidalariga amal qilgan holda foydalanish, kontrabanda buyumlarini ashyoviy dalil sifatida olish jarayonini, huquqbuzarning his-tuyg'ularini yozib, mustahkamlash e'tiborga molikdir.

Kontrabanda ashyolarini olib o'tishda gumon qilinuvchi shaxs yoki bir guruh shaxslarning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilish – ushlab turish qo'llanilishi mumkin.

Ushlab turish, jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilgandan keyin ham amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxs JPKning 221-moddasiga binoan quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin:

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;
- 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi

yo‘q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.



Esda tuting! JPKning 223-moddasiga ko‘ra, deputatlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, sudyalarda va prokurorlar ushlab turilishi hamda ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinishi mumkin emas. Mazkur taqiq JPKning 221-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan ushlab turish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bojxona organi xodimi, JPKning 222-moddasiga binoan, har qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlashga va ularni yaqin oradagi bojxona, ichki ishlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ idorasiga olib borishga haqli.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar, ushlab turish tartibi JPKning 224-moddasida ko‘rsatilgan bo‘lib, ushlanayotgan shaxsda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutilish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, ushlayotgan vakolatli shaxs uni shaxsiy tintuv qilishga va tintuv natijasida topilgan narsalarni olib qo‘yishga haqlidir. Shaxsiy tintuv yoki olib qo‘yish o‘tkazish to‘g‘risidagi bayonnoma, ushlangan shaxs bojxona, ichki ishlar yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoraga keltirilganidan so‘ng, xolislar ishtirokida tuzilishi mumkin.

Bunday hollarda ushlagan xodim ushlangan shaxsga o‘zini tanishtirishi va tasdiqlovchi hujjatini ko‘rsatishi hamda uning huquq va majburiyatlarini o‘qib eshittirishi shart, ya’ni:

“... Siz jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlandingiz. Siz o‘zingizga qarshi ko‘rsatmalar bermasligingizni, shu bilan birga barcha aytganlaringiz dastlabki tergov va sudga Sizga nisbatan dalil sifatida qo‘llanilishi mumkinligini xabar qilaman. Siz yaqin qarindoshingizga yoki o‘zingizning himoyachingizga ushlanganligingiz va qayerda ushlab turilganligingiz haqida telefon orqali xabar berishingiz mumkin. Siz qanday jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotganligingiz haqida bilishga huquqingiz bor...”



Esda tuting! Ushlab turilgan shaxs bojxona, ichki ishlar yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan bo‘lsa, mazkur organ boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari ko‘rsatmasiga asosan, JPKning 225-moddasi tartibida ushlab turish bayonnomasi tuziladi va unda quyidagilar aks ettiriladi:

- bayonnoma tuzilgan joy va vaqt;
- kimning, kim tomonidan, qachon, qanday holatda, qonunda ko‘rsatilgan

qanday asoslarga ko‘ra ushlangani;

- ushlangan shaxs qanday jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotgani;
- bojxona, ichki ishlar organi yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga u qachon olib kelingani;
- shaxsiy tintuv qilish va olib qo‘yish natijalari (ular o‘tkazilgan bo‘lsa);
- ushlashning videoyozuv orqali qayd etilganligi (u o‘tkazilgan bo‘lsa), ushlangan shaxsning videoyozuv materiallari bilan tanishganligi, shuningdek shaxsni ushlash vaqtida foydalanilgan vositalarning texnik xususiyatlari.

Bayonnomani ushlab turishning asoslilikini tekshirish topshirilgan bojxona organi xodimi, ushlab keltirgan vakolatli shaxs yoki fuqaro, ushlangan shaxs va xolislar imzo chekib tasdiqlaydilar.

Shuningdek, ushlangan shaxs bojxona, ichki ishlar organi yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan paytdan boshlab o‘n ikki soat ichida prokurorga yozma shaklda xabar berilishi shart.

Bundan tashqari, JPKning 217-moddasiga ko‘ra, gumon qilinuvchiga nisbatan ushlab turish tarzidagi majburlor chorasi qo‘llanilganida, bu haqda yigirma to‘rt soat ichida uning oila a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmagan taqdirda esa boshqa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berilishi, shuningdek bu haqda ish yoki o‘qish joyiga ma’lum qilinishi shart.

Ushlab turilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi bo‘lsa, yuqorida ko‘rsatilgan muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar beriladi. Xabarnoma nusxasi ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yiladi.

Ushlab turish muddati, JPKning 226-moddasiga asosan, shaxs amalda ushlangan paytdan (erkin harakatlanishga bo‘lgan huquqlarning haqiqiy cheklangan payti) e‘tiboran ko‘pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etadi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo‘shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin.

Kontrabanda ashyosining egasi aniqlanmagan hollarda kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlari

Amaliyotda kontrabanda ashyolarini olib o‘tayotgan shaxslar aniqlanmasdan qolish hollari ham uchraydi. Bu holatlar poyezd, ba‘zan, samolyotlar tekshirilganda aniqlanadi. Bunday hollarda jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan zarur tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshiriladi. Jumladan, kontrabanda berkitilgan joy ustidan yashirin kuzatuv o‘rnatiladi, pistirma tashkil qilinadi, kontrabanda ashyolari lyuminofor bilan belgilanadi va hokazo.



Ma’lumot uchun: Shu bilan birga, tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazilib, poyezd brigadasi, kema va samolyot ekipaj

a'zolari va jinoyatga aloqasi bor deb gumon qilinayotgan boshqa shaxslardan ko'rsatma olinadi. Ularning mazkur jinoyatga aloqadorligi mavjud tezkor ma'lumotlarga asosan tekshirilib, ko'rsatma olish jarayonida bunday shaxslardan birortasi o'zining g'ayritabiiy xatti-harakatlari bilan o'zgarar e'tiborini tortgan-tortmaganligiga e'tibor qaratiladi.

Kontrabanda ashyolari joylashtirilgan yuk yoki bagajning aniq bir shaxsga tegishliligini aniqlash maqsadida sinchiklab, qo'l izlari yoki muayyan shaxsga tegishliligini bildiruvchi boshqa izlar mavjudligi nuqtayi nazaridan ko'zdan kechirilishi lozim.

Jinoyatni ochish maqsadida kontrabanda yukining fosh etilganligini sir saqlanishi va uni oshkor etadigan harakatlar bajarilmasligi mumkin:

1) kontrabandani faqat tashuvchisi emas, balki qabul qiluvchisi va sotish yo'llarini aniqlash lozim bo'lganda. Tezkor usul bilan kontrabanda harakatining to'liq "zanjiri"ni kuzatish imkoniyati tug'iladi: tashuvchi-yu qabul qiluvchidan, sotuvchigacha;

2) yuk O'zbekistondan tranzit tarzda olib o'tilayotganda, bojxona organlari tegishli xabarnoma yuborib, yukni qabul qiluvchilarni manzilda jinoyat ustida qo'lga olishni uyushtirishi lozim bo'lganda;

3) chegara yoki bojxona xodimlarining kontrabanda bilan aloqalari borligi to'g'risida asosli shubhalar bo'lsa va bu shubhalar Shaxsiy xavfsizlik organlari tomonidan tekshirilayotganda.

Shunday hollarda kontrabanda holati bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha tergov jarayonida qo'shni chegara o'tish bekatlari va bojxona tuzilmalari xabardor qilinadi.



Nazorat savollari:

1. Kontrabanda ashyolarini noqonuniy olib o'tishning qanday usullari mavjud?
2. Giyohvandlik moddalari kontrabandasi kanallarini fosh qilishda nazorat ostida tashish usuli va uning o'ziga xos xususiyatlari?
3. Kontrabanda ashyolarini aniqlashda kinologiya xizmatining ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Kontrabanda holati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
5. Hodisa sodir bo'lgan joyini va kontrabanda ashyolarini ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Kontrabanda ashyolari bo'yicha qanday ekspertizalar tayinlanadi?
7. Gumon qilinuvchini ushlab turish taktikasi haqida gapirib bering.
8. Kontrabanda ashyosining egasi aniqlanmagan hollarda qanday kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari o'tkaziladi?

§ 4.4. Tergovga qadar tekshiruv natijalari bo'yicha qaror qabul qilish tartibi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish ustidan nazorat

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari JPKning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Ushbu muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, JPKning 162-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi.



Ma'lumot uchun: Alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddati JPKning 329-moddasi tartibida uzaytirilishi mumkin. Bunday holatda bojxona xodimining bojxona organi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan asoslantirilgan qarori va to'plangan hujjatlar muddat tugashidan kamida o'n ikki soat oldin nazorat qiluvchi prokurorga taqdim etiladi.

Bojxona xodimi tomonidan jinoyatga oid ma'lumotlar olingan yoki bunday ma'lumotlar bevosita aniqlangan har bir holatda JPKning 330-moddasida ko'rsatilgan quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida;
- 2) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida;
- 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish haqida.

Jinoyat ishini qo'zg'atish tartibi

Bojxona organi boshlig'i yoki mansabdor shaxsi JPKning 321-moddasi talablari asosida o'z vakolati doirasida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishi shart.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni dastlabki tergovning boshlang'ich qismi sifatida qarash noto'g'ri, chunki uni mustaqil bosqich deb atash uchun barcha asoslar yetarli. Jinoyat ishini qo'zg'atish:

- tartibga solinadigan jinoiy ijtimoiy munosabatlariga;
- protsess ishtirokchilariga;
- o'z muddatlariga;
- protsessual hujjatlariga ega.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni ikki qismga bo'lib o'rganish lozim:

1) Jinoyat ishini qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyat;

2) Jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyingi faoliyat.

Jinoyat ishi qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyatga:

a) tergovga qadar tekshiruv;

b) jinoyat haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va ro'yxatga olish;

d) olingan ma'lumotlarni qonuniy va asosli ekanligini tekshirish. Buning uchun tushuntirishlar talab qilish; qo'shimcha hujjatlar, izohlar;

e) tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish;

f) tergov harakatlaridan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, JPKning 162-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shaxsiy tintuv va olib qo'yish, taftish tayinlash, ekspertiza o'tkazish;

g) protsessual majburlov choralaridan ushlab turishni qo'llash;

h) jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va tergovga kadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan JPKning 330-moddasida belgilangan qarorlardan birini qabul qilish tegishlidir.

Jinoyat ishini qo'zg'atish faoliyatining ikkinchi qismi qabul qilingan qarorga bog'liq. Agar jinoyat fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa,

a) qarorning nusxasi tergov qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokurorga yuboriladi;

b) uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning oldini olish choralari ko'riladi;

d) jinoyatni takrorlashga yo'l qo'ymaslik harakatlari olib boriladi;

e) ish uchun ahamiyatli jinoyat izlar, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va qo'riqlash yuzasidan darhol chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

f) O'zbekiston Respublikasi JPKning 336-moddasida belgilangan tartibda jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyingi faoliyatni amalga oshirish uchun qaror tegishli organga yuboriladi;

g) Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan faktlar bo'yicha tadbirkorlik subyektiga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atishga faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining roziligi bilan yoxud O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Bojxona organi boshlig'i yoki mansabdor shaxsi o'z vakolati doirasida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishi shart.

Jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarning bevosita aniqlanishi tergovga kadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi

ma'muriy vazifani amalga oshirayotganida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida, surishtiruvchi, tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida, prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov olib borish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida jinoyat ishini qo'zg'atadi. Bu majburiyat surishtiruv organining boshlig'iga, tergov bo'limi rahbarlariga, prokuror o'rinbosari va yordamchilariga ham taalluqli hisoblanadi. Davlatning boshqa organlari yohud mansabdor shaxslari jinoyat ishini qo'zg'atishga haqli emas. Agar boshqa davlat idoralari va mansabdor shaxslar jinoyat alomatlarini aniqlab qolsalar, darhol tegishli surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga xabar berishlari lozim.



Esda tuting! Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslari quyidagilar:

- 1) shaxslarning arizalari;
- 2) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar;
- 3) ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar;
- 4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, shuningdek tergovga kadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning bevosita o'zi aniqlashi;
- 5) aybini bo'yniga olish haqidagi arz sabab bo'ladi.

Shuningdek, jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi. JPKning 323-moddasiga muvofiq, jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan xat, ariza yoki boshqa anonim xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'la olmaydi.

Qarorda: ishni qo'zg'atish sabablari va asoslari; Jinoyat kodeksining jinoyat ishi qo'zg'atilgan jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi; bundan buyon ishni o'z yurituviga oluvchi mansabdor shaxs ko'rsatiladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i jinoyat ishini JPKning 345 va 381²-moddalarida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga o'tkazish uchun darhol prokurorga yuboradi.

Jinoyat ishining tergovi bojxona organining surishtiruviga tegishli bo'lgan taqdirda, jinoyat ishi prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvchiga o'tkaziladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi ushbu ishning tergov qilinishi ustidan nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi.

Ish qo'zg'atildandan keyin uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning oldini olish va jinoyatlar takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek ish uchun ahamiyatli

bo'lishi ehtimol tutilgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va qo'riqlash yuzasidan darhol choralar ko'rish lozim.



Esda tuting! Qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha bojxona organlari boshlig'i yoki mansabdor shaxsi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati va Davlat bojxona qo'mitasining 04.04.2018-yildagi 3/20/11-121-18/2/01-02/22-29-sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "Jinoyatlarni, ularni sodir etgan shaxslarni, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar hamda sudning protsessual qarorlarini hisobga olish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomada belgilangan tartibda jinoyat va uni sodir etgan shaxslarni hisobga olish kartochkalari to'ldirilib, imzolangan kartochka prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolanganidan so'ng hududiy ichki ishlar organlariga yuboriladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish

JPKning 83-moddasi 1 va 2-bandlarida (*reabilitatsiya asoslari*) hamda 84-moddasi 1-qismining 1, 3-8-bandlarida (*ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish*) nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, bojxona organlari boshlig'i yoki mansabdor shaxsi jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi.



E'tibor bering! Jinoiy holat yuzasidan reabilitatsiya yoxud ayblilik to'g'risidagi masala hal etilmay turib jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, bu haqda jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs xabardor qilinadi. Bunda, ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bilan birga o'rganish uchun nazorat qiluvchi prokurorga, qaror qabul qilingan kundan boshlab 10 kun ichida yuboriladi.

Reabilitatsiya uchun asoslar. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va reabilitatsiya etilishi lozim:

- 1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;
- 2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;
- 3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Bojxona organlari amaliyotida, asosan aniqlangan huquqbuzarlik holati yuzasidan olib borilgan tergovga qadar tekshiruvlari jarayonida jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan, lekin to'plangan hujjatlar, ashyoviy va yozma dalillardan kelib chiqib, jinoyat tarkibi bo'lmasa, bojxona organi tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Aksariyat hollarda

ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan ish yuritilishi davom ettiriladi, ayrim hollarda esa ish batamom tugatilishi mumkin.

Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar. Quyidagi hollarda shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim, basharti:

- 1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;
- 2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;
- 3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;
- 4) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;
- 5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;
- 6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- 7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Agar o'ziga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi masala qo'yilgan shaxs yoki vafot etgan bunday shaxsning yaqin qarindoshlari bunga e'tiroz bildirsa, JPKning 84-moddasi 1-qismining 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi bojxona organlari boshlig'i yoki mansabdor shaxsi tomonidan JPKning 84-moddasi 1-qismining 2-bandida nazarda tutilgan holat (e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa) aniqlangan taqdirda, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar hamda shaxsning amnistiya aktini qo'llashni so'rab yozgan arizasi darhol nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi.

Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar yuzasidan JPKning 84-moddasi 1-qismining 1, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan taqdirda, jinoyat va uni sodir etgan shaxslarni hisobga olish kartochkasi to'ldiriladi.

Kelib tushgan xabarda jinoyat haqida emas, balki ma'muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoxud axloq normalari buzilganligi haqida ma'lumot bo'lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish bilan bir paytda xabarni huquqni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta'sir choralari qo'llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuboradi.



Ma'lumot uchun: Kelib tushgan xabarda fuqarolarning siyosiy, mehnat, uy-joy, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida qo'riqlanadigan qonuniy manfaatlari buzilganligi ko'zga tashlansa, unda ishni qo'zg'atishni rad qilish bilan bir vaqtda mansabdor shaxslarga sudga murojaat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim. Basharti ular ma'lum sabablarga ko'ra, sud orqali o'zlarini himoya qilishni so'rash imkoniyatiga ega bo'lmasalar, prokuror bunday shaxslarni himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat etishga haqlidir.

Jinoyat to'g'risidagi arizani (xabarni) tegishliligiga qarab yuborish

Arizani (xabarni) tegishliligiga qarab yuborishga ushbu hudud (viloyat-shahar)dan tashqarida sodir etilgan jinoyat haqida xabar berilgan va jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekshirish harakatlarini jinoyat sodir etilgan hududda (viloyat-shahar) o'tkazish zarur bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Shuningdek, bojxona organlariga taalluqli bo'lmagan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar belgilangan tartibda tegishliligiga ko'ra yuboriladi.

Bunday holatda jinoyat to'g'risidagi ariza va xabar hamda tergovga qadar tekshiruv hujjatlari tegishli idoraga yuborish haqida qaror chiqarilgan holda, tegishliligiga ko'ra yuborish masalasini ko'rib chiqish uchun nazorat qiluvchi prokurorga darhol taqdim etiladi.



Esda tuting! Bojxona organining mansabdor shaxsi JPKning 76-moddasida ko'rsatilgan quyidagi hollarda, protsessual harakatlarni o'tkazishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim:

1) bojxona xodimi o'sha ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;

2) bojxona xodimi ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida ko'rsatilgan o'zga shaxslarning qarindoshi bo'lsa;

3) bojxona xodimining xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa.

Tergovga qadar tekshiruv hujjatlari yuzasidan mansabdor shaxsda o'zini-o'zi rad etishga asoslar bo'lganda tergovga qadar tekshiruvda qatnashishdan o'zini-o'zi rad etishi shart. Bu haqda u bojxona organi boshlig'iga asoslantirilgan bildirgi orqali xabar beradi.

Mansabdor shaxsning avval ayni shu holat bo'yicha o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruvda ishtirok etganligi, ushbu holat bo'yicha qaytadan tergovga qadar tekshiruv o'tkazishiga monelik qilmaydi.

Agar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi JPKning 76 va 79-moddalarida ko'rsatilgan holatlar mavjudligi sababli o'zini-o'zi rad etmasa, uni rad qilish masalasi manfaatdor shaxslarning arizalariga ko'ra, organ boshlig'i yoki nazorat qiluvchi prokuror tomonidan hal qilinadi. Rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida qaror chiqariladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish ustidan nazorat

Bojxona organi boshlig'i tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o'ziga bo'ysunuvchi mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga, jinoyat ishini qo'zg'atishga yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga yoxud arizani, xabarni surishtiruvga tegishlilikiga ko'ra o'tkazishga haqlidir.

Bojxona organi boshlig'i jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilinishi, ro'yxatdan o'tkazish va qonunga muvofiq ko'rib chiqilishi ustidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

Bojxona organi boshlig'i:

jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqilishi ustidan kunlik nazorat o'rnatadi va qonunda belgilangan muddatda qaror qabul qilinishini ta'minlaydi;

mansabdor shaxsga ish yurituvidagi tergovga qadar tekshiruv doirasida bajarilishi va tekshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni amalga oshirish yuzasidan yozma ko'rsatma beradi;

mansabdor shaxsning qabul qilgan qarorlarining qonuniyligini o'rganib, tasdiqlaydi, qaror bilan kelishmagan taqdirda yozma ko'rsatma bilan qaytaradi, qonunga xilof hamda asossiz qarorlarni bekor qilish yuzasidan prokurorga taklif kiritadi;

jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqishda qonun buzilishi holatlari aniqlanganda, bojxona organi boshlig'i ularni zudlik bilan bartaraf etadi va zarur hollarda aybdor shaxslarga nisbatan choralar ko'radi.

JPKning 337-moddasiga muvofiq, jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra prokuror:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorni bekor qilishga va ish qo'zg'atishni rad qilishga;

2) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorni bekor qilishga va ayni vaqtda ish qo'zg'atishga haqlidir.

Bojxona organi boshlig'ining yozma ko'rsatmasi ularni bajarishni to'xtatmay turib, ushbu ko'rsatmalar ustidan nazorat qiluvchi prokurorga shikoyat qilishga haqli bo'lgan unga bo'ysunuvchi mansabdor shaxs uchun majburiydir.

Prokurorning yozma ko'rsatmalari bojxona organi boshlig'i va uning mansabdor shaxsi uchun majburiydir. Ular prokurorning ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan taqdirda, ko'rsatmalarni bajarishni to'xtatmay turib, yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat ishini qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyatga nimalar kiradi?
2. Jinoyat ishini qo'zg'atish huquqiga kimlar ega?
3. Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun qanday sabab va asoslar bo'lishi kerak?
4. Jinoyat ishini qo'zg'atish tartibi qanday?
5. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish tartibi qanday?
6. Jinoyat to'g'risidagi arizani (xabarni) tergovga tegishliligiga qarab yuborish, jinoyat qo'zg'atilgandan keyin yuborish tartibi qanday?
7. Jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati nimani anglatadi?

5-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR BO‘YICHA SURISHTIRUV

§ 5.1. Surishtiruv tushunchasi, surishtiruv organi sifatida bojxona organlari, ularning vakolatlari va majburiyatlari


Surishtiruv deganda O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, og‘ir va o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlar toifasiga kirmaydigan ayrim turdagi jinoyatlar bo‘yicha tergovning qisqa muddatli ish yuritish shaklini, shuningdek kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari o‘tkaziladigan jinoiy protsessual faoliyatni tushunish mumkin. Surishtiruv hozirda MDH, Sharqiy Yevropa, Hindixitoy va Yaqin Sharq mintaqalarining ayrim davlatlarida sudgacha tergov o‘tkazishning shakli sifatida saqlanib qolgan.



Ma’lumot uchun: Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida surishtiruv 3 shaklda amalga oshiriladi: to‘liq, qisqartirilgan hamda kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirish ko‘rinishida. Birinchi shaklida surishtiruv organlari tomonidan dastlabki tergov organlari kabi sudga qadar ish yurilib, tergov harakatlari o‘tkaziladi, ya’ni jinoyat ishini tergov qilish uchun dastlabki tergov organiga yuborishga ehtiyoj bo‘lmaydi. Qisqartirilgan shakli esa protsessual qonunchilikda belgilangan hollarda, jumladan, gumon qilinuvchining iltimosi asosida tashkil etilishi mumkin. Uchinchi shaklida esa jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan so‘ng kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari surishtiruv organi tomonidan tergovchiga jinoyat ishini yuborganga qadar o‘tkaziladi. Ko‘zdan kechirish, tintuv, olib qo‘yish, guvohlantirish, gumon qilinuvchini ushlab turish va so‘roq qilish, jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish kabi tergov harakatlarni o‘tkazish orqali jinoyat izlarini aniqlaydi va dalillar bilan mustahkamlaydi.

Surishtiruv dastlabki tergovdan uni amalga oshiruvchi organlar, tergov harakatlarini o‘tkazish muddatlari, shuningdek ularning protsessual ish faoliyati hajmi kabilar bilan farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi O‘RQ-442-son Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga binoan, surishtiruv O‘zbekistonda ham jinoyat ishini tergov qilishning mustaqil shakliga aylandi. Ya’ni bir qator jinoyatlar bo‘yicha jinoyat ishlari surishtiruvdan dastlabki tergovga yuborilmaydi. Hozirgi kunda Jinoyat kodeksida mavjud 154 ta tarkibdan iborat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarning 98 tasi bo‘yicha sudgacha ish



yuritishning ana shunday soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Surishtiruv shaklida tergov o‘tkazish Rossiya Federatsiyasida 93 ta, Qozog‘istonda 120 ta, Belarusda 36 ta jinoyat tarkiblari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Natijada ilgari barcha jinoyat ishlari bo‘yicha majburiy bo‘lgan dastlabki tergov endi faqat alohida jinoyat tarkiblari bo‘yicha majburiy tartibda amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi bilan prokurorga va keyinchalik tasdiqlagan holda sudga yuborish bilan tugatiladigan surishtiruv ko‘rinishidagi dastlabki tergov muddati bir oy qilib belgilangan.

Hozirda jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv ichki ishlar organlari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, Milliy gvardiya hamda Davlat bojxona qo‘mitasi va uning joylardagi bo‘linmalari surishtiruvchilari tomonidan olib boriladi. Ya’ni bojxona organlariga ham surishtiruv shaklida tergov qilish vakolati berilgan.



Xalqaro tajribada bojxona organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti ko‘plab davlatlarda mavjud. Masalan, AQSHda ikki turdagi bojxona xizmati mavjud bo‘lib, ulardan Immigratsiya va bojxona xizmati (ICE-Immigration Customs Enforcement) tergov sohasida juda katta vakolatlarga ega organ hisoblanadi. Jumladan, Immigratsiya va bojxona xizmati ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatish, terrorizm, odam savdosi va kontrabandasi, qurol-yarog‘ kontrabandasi, narkotik moddalar savdosi va kontrabandasi, hujjatlar va daromadlar firibgarligi, soxta immigratsiya va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash, foydalanish va sotish, inson huquqlari buzilishi, transmilliy uyushgan jinoiy faoliyat, pul yuvish va yirik miqdordagi valyuta kontrabandasi kabi moliyaviy jinoyatlar, kiberjinoyat, seks-turizm va bolalar ekspluatatsiyasi, tijorat firibgarligi va intellektual mulk o‘g‘irligi kabi savdo jinoyatlari, kontrafakt dori vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari kontrabandasi, ommaviy marketing firibgarligi, san’at o‘g‘irligi, viza xavfsizligi, xalqaro madaniyat va antikvariatga oid jinoyatlar kabilarning tergovini amalga oshiradi va mamlakat Milliy xavfsizlik kotibiga hisobot beradi.



Hozirda Yevropa Ittifoqining a’zo mamlakatlaridan biri Latviya Respublikasida bojxona idoralari Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari xizmati tarkibida bo‘lib, uning Soliq va bojxona politsiyasi deb nomlanuvchi tuzilmasi Latviya jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra, 11 ta tergov organlaridan biri hisoblanadi. U soliq, bojxona va moliya sohasidagi

huquqbuzarliklar yuzasidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish, gumonlanuvchini ushlab, ushlab turish, barcha zarur tergov harakatlarini olib borish va ishni sudga yuborish vakolatlariga ega. Soliq va bojxona politsiyasining respublika bo‘yicha uchta hududiy tuzilmasi bo‘lib, ularga bojxona idoralarida aniqlangan jinoyat alomatlari bor barcha huquqbuzarlik holatlari yuzasidan xabar berilishi va to‘plangan hujjatlar o‘z vaqtida taqdim etilishi shart.

MDH doirasida esa Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikasi bojxona organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda naqd pul vositalari kontrabandasi jinoyatlari bo‘yicha (Rossiya



Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 194 va 200¹-moddolari) bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan tergov shaklidagi surishtiruv o‘tkaziladi. Ozarbayjon Respublikasi Bojxona kodeksiga ko‘ra, bojxona organlari surishtiruv organi hisoblanib, Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 207-moddasi (Ozarbayjon Respublikasi hududiga badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarni qaytarmaslik) hamda 209-moddasida (Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash) ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha sudgacha soddalashtirilgan ko‘rinishdagi tergov o‘tkazadilar.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 38-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv organlari belgilangan bo‘lib, mazkur organlarining surishtiruvchi xodimlari JPK asosida tegishli jinoyatlar yuzasidan surishtiruv ishlarini tashkil etadilar. Ammo JPK qoidalari asosida ayrim hollarda prokuror va tergovchilar tomonidan ham ushbu surishtiruvchilarga tegishli ishlar yuzasidan zarur tergov harakatlari o‘tkazilishi mumkin.



Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, 5 ta huquqni muhofaza qiluvchi organlarga surishtiruv organi maqomi berildi. Surishtiruv organining tergovga qadar tekshiruv organi faoliyatidan farqli ravishda JPK asosida tegishliligi belgilab berilgan jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar to‘liq ish ish yuritishlari mumkin bo‘ladi. Ya‘ni har bir surishtiruv organi jinoyat ishi yuzasidan zarur barcha tergov harakatlarini o‘tkazish va ayblov dalolatnomasi bilan ishni tamomlash hamda ko‘rib chiqishlik uchun sudga yuborish vakolatiga ega bo‘ldi.



Esda tuting! Jinoyat-protsessual qonunchilikda surishtiruv harakatlarini amalga oshirishga vakolatli organlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- 1) ichki ishlar organlari;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining va uning joylardagi bo'linmalari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi bo'linmalari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va uning joylardagi bo'linmalari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo'linmalari.

JPKning 46¹-bobi "Surishtiruvning umumiy shartlari" deb nomlanib, 381²-moddasida jinoyat ishining tergoviga tegishliligi surishtiruv organlari o'rtasida belgilab berilgan. Unga ko'ra, eng ko'pi ichki ishlar organlarining surishtiruvchilari tomonidan olib boriladi, ya'ni ular tomonidan Jinoyat kodeksining 70 dan ortiq moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar yuzasidan surishtiruv o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning joylardagi bo'linmalari surishtiruvchilari esa tomonidan Jinoyat kodeksining 122, 123, 185²-moddalarida, 232-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv o'tkazadilar.

3) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo'linmalari tomonidan Jinoyat kodeksining 177-moddasi 1 va 2-qismlarida, 179, 183-moddalarida, 184-moddasi 1 va 2-qismlarida, 184¹-moddasida, 186-moddasi 1-qismida, 189–192-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ishlari tashkil etiladi, bunda "Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yin tovlash" (JK, 184-modda) jinoyati bo'yicha bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari holatdagina mazkur organ tomonidan olib borilishi ko'rsatib o'tilgan.

4) Bojxona organlarining surishtiruvchilari Jinoyat kodeksining 130-moddasi 1 va 2-qismlarida, 130¹-moddasida, 184-moddasi 1 va 2-qismlarida, 244³-moddasida, 244⁴-moddasi 1-qismida, 250¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha shug'ullanishligi oldingi bobda batafsil ko'rib chiqildi.

5) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari Jinoyat kodeksining 250¹-moddasi

1-qismida va 259¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha protsessual tartibda ishni tashkil etadilar, bunda o'z navbatida "Pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi" (JK, 250¹-modda) jinoyati bo'yicha bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari ekanligi belgilangan.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 130-moddasi 1-2-qismlari, 130¹-moddasida 244³-moddasida hamda 167-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ishni qo'zg'atgan organ tomonidan olib boriladi. Ammo mazkur jinoyatlarning birinchi keltirilgan uchta modda bo'yicha bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari bo'lgandagina xuddi shu umumiy tusga ega bo'lishligi mustahkamlab qo'yilgan. Agar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyat bo'lgan taqdirda ushbu turdagi jinoyatlar o'z-o'zidan bojxona organlari surishtiruviga tegishli bo'ladi.



Ma'lumot uchun: Jinoyat kodeksining 237-moddasi 1-qismi, 238-moddasi 1 va 2-qismlari, 239, 240-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat qaysi organning tergoviga tegishli bo'lsa, o'sha organ tomonidan olib boriladi.

Shuningdek surishtiruv jarayonida aniqlanadigan yangi jinoiy holatlar bo'yicha tartib quyidagicha belgilangan:

- agar surishtiruvni olib borishda boshqa surishtiruv organi tergoviga tegishli yangi jinoyat aniqlansa, ishni yuritayotgan surishtiruv organi faqat tegishli prokurorning roziligi bilan surishtiruvni to'liq hajmda tamomlashi mumkin;

- agar surishtiruvni olib borishda dastlabki tergov organiga tegishli bo'lgan va tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan yangi jinoyat aniqlansa, prokurorning roziligi bilan jinoyat ishi JPKning 345-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra dastlabki tergov organiga o'tkaziladi;

- agar surishtiruvni olib borishda dastlabki tergov organiga tegishli bo'lgan va tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlansa, jinoyat ishini ajratish va boshqalarga o'tkazish JPKning 332 va 345-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Surishtiruv organlari ish yurituvidagi jinoyat ishlarini birlashtirish yoki ajratish ishlari ham JPK qoidalari asosida tartibga solinadi. Jumladan, turli surishtiruv organlariga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilganda, prokuror surishtiruvni olib borishni og'irroq jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishining tergovi qaysi organga tegishli bo'lsa shu organga, jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi teng bo'lganda esa, jinoyat ishi bo'yicha uzoqroq muddat davomida surishtiruv olib borayotgan organga topshirilishi ko'zda tutilgan.

Surishtiruv organlari tergovga tegishli bo'lgan jinoyat ishlari boshqa dastlabki tergov organlari tergovga tegishli bo'lgan jinoyat ishlari bilan bitta ish yurituviga birlashtirilgan holatda esa, prokuror tergovni olib borishni JPKning 345-moddasida belgilangan tartibda tergovga tegishlilik qoidalari bo'yicha dastlabki tergov organiga topshiradi.



Esda tuting! Surishtiruv organlari tomonidan olib boriladigan ish yuritishda ham hududiylik tamoyiliga tayaniladi, ya'ni jinoyat qayerda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishi o'sha hududning surishtiruv organi surishtiruvchisiga tegishlidir. Faqatgina ikkita holatda istisno tariqasida ish yuritilishi mumkin:

1) surishtiruv, agar ish holatlarini ancha tez, puxta, to'la, xolisona, har tomonlama tekshirishga yordam bersa, ish qo'zg'atilgan joyda yoki gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi yoki guvohlarning ko'pchiligi turgan yerda ham o'tkazilishi mumkin;

2) yuqori turuvchi prokuror yoki yuqori turuvchi surishtiruv bo'linmasi boshlig'ining farmoyishiga asosan surishtiruv hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinmagan holda olib borilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son qarori bilan Davlat bojxona qo'mitasining bevosita surishtiruv ishini tashkil etadigan bojxona tekshiruvlari va surishtiruv tuzilmalari surishtiruv va ma'muriy amaliyot tuzilmalari sifatida qayta tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni bilan esa mazkur yo'nalishdagi markaziy tuzilmaning ish hajmi va ushbu yo'nalishdagi olib borilayotgan davlat islohotlaridan kelib chiqib, shtatlar soni sezilarli miqdorda ortdi.

Hozirda DBQning Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi hamda ushbu yo'nalishda hududiy boshqarmalarning bo'limlari, shuningdek bojxona postlarining guruhlari faoliyat yuritadi. Bir narsaga e'tibor berish lozimki, mazkur yo'nalishda xizmat olib borayotgan rahbarlardan inspektor xodimga qadar, agar muayyan jinoyat ishi yuzasidan protsessual harakatlarni olib borayotgan chog'da barchasi surishtiruvchi sifatida ish olib boradilar va ularning vakolatlari JPKning 38¹-moddasida belgilab berilgan.

Jumladan, surishtiruvchi quyidagi vakolatlarga ega:

- jinoyat ishini qo'zg'atishga va tugatishga, ishni qo'zg'atishni rad etishga;
- jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so'roq qilishga;
- JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga;
- shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to'g'risida qaror qabul qilishga;

- shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish haqida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida qaror qabul qilishga, bundan qamoqqa olish yoki uy qamog'i mustasno;

- o'z yurituviga qabul qilgan ishlar bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish haqida yozma topshiriqlar berishga;

- boshqa surishtiruvchilarga ayrim tergov harakatlarini yuritish to'g'risida topshiriq berishga;

- tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to'g'risidagi qarorlarning ijrosini topshirishga, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko'maklashishni talab qilishga;

- qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash to'g'risida iltimosnoma berishga, shuningdek ehtiyot chorasini JPKning 240 va 243¹-moddalariga muvofiq bekor qilishga yoki o'zgartirishga;

- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma berishga;

- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur protsessual majburlov choralari JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga;

- murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur choralarni JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga;

- amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritish.



Ma'lumot uchun: Surishtiruvchi surishtiruvning yo'nalishiga oid barcha qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, faqatgina qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda prokuror ruxsatini olish lozim bo'ladi. JPK qoidalariga ko'ra, prokuror surishtiruvchiga yozma ko'rsatmalar beradi, bu yozma ko'rsatmalarda aks etadigan yo'nalishlar belgilab qo'yilgan:

- shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida;

- jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqida;

- qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida;

- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini qo‘llash haqida;

- amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritish to‘g‘risida;

- ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqida;

- tugallangan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish to‘g‘risida.

Mazkur yo‘nalishlarda kiritilgan prokuror ko‘rsatmalariga surishtiruvchi rozi bo‘lmasa, o‘z e‘tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqli hisoblanadi. Bunday hollarda yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmasini o‘z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo‘yicha surishtiruv yuritishni boshqa surishtiruvchiga topshiradi.

Shuningdek surishtiruvchining o‘z yurituvidagi jinoyat ishi yuzasidan qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiyligi qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, jinoiy-protsessual qonunchilikda surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari atamaları mavjud va o‘z navbatida JPKning 39-moddasida ularning vakolatlari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, “surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i va uning o‘rinbosari o‘z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan surishtiruvchilarning o‘z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni to‘la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko‘radilar. Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari ishlarni tekshirib ko‘rishga, surishtiruvchiga surishtiruv yuritish, shaxsni ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo‘nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida ko‘rsatmalar berishga, ishni bir surishtiruvchidan ikkinchi surishtiruvchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir necha surishtiruvchiga topshirishga, shuningdek surishtiruvchi vakolatlaridan foydalanib, surishtiruv yuritishda qatnashishga va surishtiruvni shaxsan o‘zi olib borishga haqlidir.



Esda tuting! Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarining ish yuzasidan ko‘rsatmalari surishtiruvchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir. Bunda JPKda keltirilgan surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari sifatida bojxona organlarida DBQning Surishtiruv ma‘muriy amaliyot boshqarmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari hamda hududiy boshqarmalarning Surishtiruv va ma‘muriy

amaliyot bo'limlari boshliqlarini tushunish mumkin. Ular yuqorida keltirilgan vakolatlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Bojxona organlari ham tergovga qadar tekshiruv organi, ham surishtiruv organi hisoblanganligi uchun jinoyat alomati bor holatlar yuzasidan surishtiruvchilar jinoyat aniqlangandan e'tiboran, ya'ni jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin ham ish yuritishga kirishishlari mumkin. JPKning 336-moddasiga asosan, jinoyat ishining tergov tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirgan organning surishtiruviga tegishli bo'lgan taqdirda, jinoyat ishi prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvni amalga oshirish uchun qabul qilinishi mumkin. Boshqa vakolatli organlar tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlar bo'yicha esa JPKning 381²-moddasi tartibida prokuror tomonidan yuborilgandan so'ng ish yuritishga kirishadi va bu haqida surishtiruvchi qaror qabul qiladi.

Har bir surishtiruvchi, shu jumladan, bojxona organining surishtiruvchisi o'z yurituvida bo'lgan jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hududida istalgan joyda biror tergov harakatini shaxsan o'zi bajarishga yoxud uni o'tkazishni boshqa surishtiruvchiga topshirishga haqli hisoblanadi. Surishtiruvchining topshirig'ida ijro etuvchi uchun majburiy bo'lgan ijro muddati ko'rsatiladi. Topshiriqni bu muddat ichida ijro etishning iloji bo'lmasa, topshiriq olgan shaxs topshiriq bergan surishtiruvchiga topshiriq qachon bajarilishi mumkinligi to'g'risida yozma ravishda, telegramma yoki telefonogramma orqali xabar qiladi va uning ko'rsatmalariga binoan topshiriqni bajarishni davom ettiradi.

Jinoyat ishini bir bojxona posti doirasida boshqa surishtiruvchiga o'tkazish lozim bo'lsa, o'sha bojxona posti boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Agar bir hududiy bojxona boshqarmasi doirasida jinoyat ishini bir surishtiruvchidan boshqa surishtiruvchiga o'tkazish lozim bo'lib qolsa, ayni boshqarma boshlig'i yoki uning mutasaddi o'rinbosari yoxud Surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limi boshlig'i tomonidan prokuror roziligi bilan amalga oshiriladi. Agarda ishni bir hududiy boshqarmadan boshqasiga o'tkazish kerak bo'lganda esa prokuror roziligi bilan amalga oshiriladi.



Ma'lumot uchun: Surishtiruvning ikkita holatda jinoyat ishini surishtiruvchi tomonidan ish yurituviga olingandan so'ng boshlanadi, ya'ni surishtiruvni boshlash uchun jinoyat ishi qo'zg'atilishi kerak:

1) Bojxona organlari tomonidan aniqlangan yoki qonuniy hal etishlik uchun boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yuborilgan birlamchi materiallarni o'rganib chiqib, surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zg'atish va uni o'z ish yurituviga olish to'g'risida qaror qabul qiladi;

2) Boshqa vakolatli organlardan qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuborilgan taqdirda surishtiruvchi uni o'z yurituviga olish yuzasidan qaror chiqaradi.

Bojxona organlariga oid surishtiruvning o'ziga xos xususiyatlari biri shuki, undan protsess ishtirokchilaridan jabrlanuvchi bo'lmaydi. Yana bir muhim jihati esa surishtiruv sudga yuborish uchun doim ayblov dalolatnomasi bilan yuboriladi, ya'ni tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash yoki taraflarning yarashuvi bilan sudga yuborish to'g'risidagi qaror chiqarish bojxona organlari amaliyotida mavjud emas.



Esda tuting! JPKning 381⁷-moddasida surishtiruv jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab bir oydan oshmagan muddatda tamomlanishi lozimligi belgilangan ammo prokuror tomonidan yigirma kungacha uzaytirilishi mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan. Agar jinoyat ishi qo'shimcha surishtiruv o'tkazish uchun qaytarib yuborilsa, to'xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanadigan bo'lsa qo'shimcha surishtiruv muddati bojxona organi surishtiruvchisi qabul qilgan paytdan e'tiboran o'n kun doirasida belgilanadi.

Surishtiruv muddatiga ayblanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt, surishtiruv to'xtatib turilgan vaqt, qo'shimcha surishtiruv o'tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushgunga qadar o'tgan vaqt kirmaydi.

Bunda jinoyat ishlari birlashtirilgan holatlar bo'yicha uzoqroq tergov qilingan jinoyat ishi bo'yicha muddat belgilanadi. Misol uchun, birlashtirilgan jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish muddati uzoqroq tergov qilingan ishning muddati ularning hammasini qamrab oladi, boshqa jinoyat ishlariga nisbatan qo'shimcha ravishda hisobga olinmaydi.

Agar jinoyat ishi yangi jinoyat bo'yicha yoki yangi shaxsga nisbatan ajratiladigan bo'lsa, uni alohida ish yurituviga olish bo'yicha qaror chiqarilgandan e'tiboran muddat hisoblanadi. Lekin yangi jinoyat yoki yangi shaxsga nisbatan bo'lmasa, ajratilgan jinoyat ishining yurituvi tegishli jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab, uzog'i bir oy muddat hisobida olib boriladi.



Esda tuting! Bojxona organlarida surishtiruv quyidagi holatlardan birida tamomlanadi:

- surishtiruvchi jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuboradi;

- surishtiruvchi amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risidagi taqdimnoma bilan ishni prokurorga topshiradi;

- ishni tugatish haqida qaror chiqariladi.

Surishtiruvni to'xtatish JPKning 364-371-moddalarida belgilangan hollarda va tartibda, jinoyat ishini tugatish esa JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslarda amalga oshiriladi.

Bojxona organlarida surishtiruvni tashkil etishda boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikdagi harakatlar amalga oshiriladi va kitoblar yuritiladi. Xususan, hududiy bojxona boshqarmalarida Surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limi boshlig'i boshqarma boshlig'i yoki uning o'rinbosarlari tomonidan bildirilgan munosabatga asosan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha to'plangan hujjatlarni Navbatchilik qismidagi "Aniqlangan huquqbuzarliklarni qayd qilish va hisobga olish" (Shakl-2) kitobidan ro'yxatdan o'tkazilganligini, to'plangan hujjatlarni to'liqligini tekshirib chiqib, qabul qilib oladi va o'z munosabatini bildirgan holda, qo'l ostidagi xodimlardan biriga DBQning 2009-yil 13-iyundagi 155-son buyrug'i bilan joriy etilgan "Bojxona qonunbuzarlik holatlarini hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritib borish va qonuniy choralar ko'rish uchun topshiradi. Surishtiruvchi o'z ish yurituviga qabul qilib olgan ish bo'yicha, sodir etilgan qonunbuzilishi holatini to'liq fosh etilishini ta'minlash, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni, ushlangan tovarlarni kelib chiqish manbalarini aniqlash borasida, tegishli boshqarma yoki bo'limga alohida topshiriq kiritishga haqli.

DBQning 2009-yil 13-iyundagi 155-sonli buyrug'i bilan joriy etilgan "Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha qabul qilingan qarorlar bo'yicha ma'lumotlar surishtiruvchilari tomonidan kiritib boriladi hamda shu asosda Navbatchilik qismida yuritilayotgan Shakl-2 kitobning 9-ustuniga huquqbuzarlik holatlari yuzasidan qabul qilingan yakuniy qarorlar qayd etib qo'yiladi.

Bojxona organlarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, DXX, IIV va DBQning 2018-yil 30-dekabrda qo'shma qaroriga muvofiq, elektron jinoiy-huquqiy statistika axborot tizimi yuritiladi. Unga ko'ra, birlamchi hisobga olish elektron statistik kartochkalari to'ldirib boriladi. Jumladan, surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror qabul qilganda, jinoyatni hisobga olish uchun elektron ko'rinishda maxsus statistik varaqa - Shakl-1 ni to'ldiradi.

Shuningdek, 24 soat ichida nazorat qiluvchi prokurorga jinoyat ishi qo'zg'atilganligi to'g'risidagi qarorning nusxasini yuborish yo'li bilan xabar beradi. Shundan so'ng surishtiruvchi qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini o'tkazishga kirishadi.

Surishtiruvchi bojxona organlariga surishtiruviga taalluqli bo'lmagan, lekin jinoyat ishi qo'zg'atilgan ishlarni tegishli tergov organiga o'tkazish masalasini hal etish uchun nazorat qiluvchi prokurorga yuboradi. O'z navbatida jinoyat ishini tegishliligiga ko'ra yuborish haqida qaror chiqargan taqdirda ushbu ish bo'yicha to'ldirilgan maxsus statistik varaqa - Shakl 1.1ni to'ldiradi.

Bundan tashqari, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatning ochilganligi va boshqa tergovga harakatlarini hisobga olish uchun Shakl 1.2, jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish uchun Shakl 2, uyushgan guruh tarkibida jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish uchun Shakl 2.1 kabi elektron statistik kartochka va talonlar to'ldirilishi mumkin. Surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv jarayonida o'tkazilgan tergov harakatlari va to'plangan dalillar asosida jinoyat alomati bor holat yoki jinoyat ishi bo'yicha to'plangan hujjatlarni o'rganib chiqib, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi JPKning 330, 333-moddalariga asosan, ishni qo'zg'atishni rad qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin va bu qaror nusxasi nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi.

Har bir jinoyat ishi bo'yicha Surishtiruv va ma'muriy amaliyot tuzilmalarida, ya'ni DBQning Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi hamda hududiy boshqarmalarning ushbu yo'nalishdagi bo'limlarida barcha qabul qilingan qarorlar va boshqa ish uchun ahamiyatli hujjatlar nusxalaridan iborat Nazorat ishlari yuritiladi.



Ma'lumot uchun: Surishtiruvchi tomonidan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha to'plangan hujjatlarni o'rganib chiqib, jinoyat emasligi, balki ma'muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yohud axloq normalari buzilganligi aniqlansa, u holda O'zbekiston Respublikasi JPKning 334-moddasiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish bilan bir paytda, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan ma'muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta'sir choralari qo'llash uchun huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga xabar yuboradi.

Har oy yakunida tegishligiga ko'ra yuborilgan hujjatlar bo'yicha sud va boshqa organlar tomonidan qabul qilingan qaror nusxalarini olib, qaror natijasini "Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga surishtiruvchi tomonidan kiritib boriladi, shu bilan jinoiy ishlar bo'yicha harakatlar tugallangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan DBQ tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Davlat bojxona organlarida surishtiruv ustidan nazoratni kuchaytirish va qonunlarga rioya etilishini ta'minlash to'g'risida"gi ko'rsatmaning 6-bandiga asosan, har chorak yakunida jinoyat ishlari harakati va hal etilishi to'g'risida o'zaro solishtiruv ishlari amalga oshiriladi.



Nazorat savollari:

1. Surishtiruv deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasida qanday surishtiruv organlari mavjud?
3. Bojxona organlarining surishtiruv organi sifatida qanday vakolat va vazifalari mavjud?
4. Qanday hollarda bojxona organi surishtiruvchisi jinoyat ishini o‘z ish yurituviga qabul qiladi?

§ 5.2. Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha surishtiruv o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.

Bojxona organlari tomonidan bevosita qo'zg'atilgan yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan qo'zg'atilib, tergovga tegishliligi bo'yicha yuborilgan ishlar surishtiruv olib borishlik uchun Surishtiruv va ma'muriy amaliyot tuzilmasi surishtiruvchisi tomonidan ish yurituvga qabul qilinadi, ish bo'yicha isbotlash harakatlari tashkil etiladi. Har bir harakat Jinoyat-protsessual kodeksi, Oliy sud plenumi qarorlari, vakolatli vazirliklar va idoralarning qo'shma qarorlari va ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tomonidan surishtiruv jarayonida JPKda belgilangan tartibda dalillarni to'plash va ularni har tomonlama mustahkamlash maqsadida barcha zarur tergov harakatlari o'tkazilishi mumkin.

Xususan, JPKning 87-moddasiga ko'ra, dalillar tergov harakatlarini yuritish, ya'ni gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, guvohni, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvni hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so'zlashuvlarni eshitish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi.

Bojxona organlarida tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv jarayonida eng ko'p amalga oshiriladigan tergov harakatlaridan ko'zdan kechirish va olib qo'yish harakatlari hisoblanadi. Ya'ni bojxona sohasidagi tovar-moddiy boyliklar bilan bog'liq jinoyatlarda jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin ham, jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng ham tegishli tovarlar, transport vositalari, hujjatlar ko'zdan kechirilishi va dalil sifatida olib qo'yilishi mumkin. Bu harakatlarning barchasi bayonnomalarda qayd etiladi va olib qo'yilgan ashyolar ishda dalil sifatida foydalaniladi. Bojxona organlari tomondan surishtiruv olib borilishi belgilangan jinoyatlarning aksariyat qismi tovarlar bilan bog'liqligi ham shuni taqozo etadi.

Shuningdek, bojxona organi surishtiruvchisi jinoyat ishiga aloqador shaxslarni gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilishi hamda ularni so'roq qilishi, jinoyat ishi bo'yicha muayyan ma'lumotni bilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslarni ham guvoh sifatida so'roq qilishi, ashyolarning turi, kelib chiqish va yaroqliligi yoki baholanishi yuzasidan o'z xulosalarini taqdim etgan ekspertlarni so'roq qilishi mumkin. Zarur hollarda esa, jinoyat ishi yuzasidan qidirilayotgan shaxslarni, jumladan, tovar yoki transport vositalarini tashlab qochib ketgan shaxslarni tanib olish harakatini amalga oshiriladi. So'roq qilingan

shaxslarning ko'rsatuvlarini hodisa ro'y bergan joyda tekshirish, asos mavjud bo'lgan hollarda prokuror sanksiyasi asosida turar joy yoki noturar joylarda tintuv o'tkazilishi mumkin.

Bojxona organlari amaliyotida guvohlantirish, murdani eksqumatsiya qilish, eksperiment o'tkazish, telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so'zlashuvlarni eshitish kabi tergov harakatlari uchramaydi. Lekin bu bojxona organlari ushbu tergov harakatlarini amalga oshira olmaydi, degan xulosani bermaydi.

Bundan tashqari, bojxona organlari surishtiruvchisi ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalar olish, ekspertiza va taftish tayinlash, taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish orqali dalillarni to'play oladi.

Ish yakuni bo'yicha esa ayblov dalolatnomasi tuzilib, sud idoralariga yuboriladi.



Esda tuting! Ayblov dalolatnomasi - namunaviy shakli

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadigan, surishtiruvchi tomonidan to'plangan dalillarni ishni sudga o'tkazish uchun yetarli deb topilgan taqdirda soddalashtirilgan shaklda tuziladigan va surishtiruvda aniqlangan holatlar, ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar, e'lon qilingan ayblovning mazmuni, shuningdek surishtiruv davomida aniqlangan va ushbu jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan protsessual hujjat.

Ayblov dalolatnomasiga sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning yashash joyi ko'rsatilgan ro'yxati, shuningdek gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan qancha vaqt qamoqqa olish yoki uy qamog'i tariqasidagi ehtiyot chorasi qo'llanilganligi, ashyoviy dalillar, hukmning fuqaroviy da'vo va boshqa mulkiy undirishlar bo'yicha qismi ijrosini ta'minlash choralari, sud chiqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinadi (JPK, 381¹²-modda).

Quyida esa bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, amaliyotda juda ko'p uchraydigan ayrim tergov harakatlarini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Ko'zdan kechirish va olib qo'yish harakatlari bojxona organlarida tergovga qadar tekshiruv vaqtida ham, surishtiruv jarayonida ham amalga oshirish mumkin bo'lgan tergov harakati hisoblanadi. Xususan, bojxona organlari amaliyotida tovarlarni, transport vositalarini, tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish harakatlari ko'p uchraydi. Bu borada DBQning 2015-yil 15-martdagi 45-son buyrug'i bilan tasdiqlangan namunalar asosida bayonnomalar tuziladi.

Tovarlarni ko'zdan kechirishda bojxona xodimi tovarlarning har bir jihatiga e'tibor berishi lozim bo'ladi. Jumladan, uning nomi, rusumi, o'rami, qanday idishlarga solinganligi, miqdori, o'ramida yoki idishida mavjud yozuvlar va yoki boshqa ajratib turuvchi belgilari batafsil yozilishi kerak. Tovarlarning ko'zdan

kechirish bayonnomasida to‘la tavsiflab qayd etilganligi ishning tovar bilan bog‘liq taqdiri bo‘yicha kelgusida muammo chiqmasligiga xizmat qiladi. Ayrim holatlarda tovar bilan bir vaqtda transport vositasini ko‘zdan kechirish, shu bilan birga, juda ko‘p hollarda, ko‘zdan kechirish harakati bilan ketma-ket ravishda olib qo‘yish harakatini amalga oshirish va buni bir bayonnomada qayd etish lozim bo‘ladi. Masalan: muayyan transport vositasi va undagi tovarlarni ko‘zdan kechirish bayonnomasidagi harakat shunday qayd etilishi mumkin:

“Damas” rusumli 00F000AD raqamli davlat belgili, 2010-yilda ishlab chiqarilgan (qanday hujjatlar taqdim qilindi, transport vositasini ishlab chiqarilgan yili, rangi, dvigatel va kuzov raqami, VIN raqami) rangi oq bo‘lgan avtoulov ko‘zdan kechirilganida, ushbu avtoulov orqa tomonida ko‘zdan kechirish davomida topilgan va olingan ashyolar va hujjatlar) brezent bilan yashirib qo‘yilgan, fuqaro Abdullayev Abdurahmon Nuriddinovichga tegishli bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilganligini va sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lmagan Xitoyda ishlab chiqarilgan televizor tasviri tushirilgan Xitoy yozuvli bo‘lgan maxsus qutilarga joylashtirilgan 6 (olti) dona “LG” nomli, qora rangdagi 32 dyuym diagonalli rangli televizorlar va DVD tasviri tushirilgan Xitoy yozuvlari bo‘lgan maxsus qutilarda 35 (o‘ttiz besh) dona “LG” nomli DVD pleyerlar boriligi aniqlandi va olib qo‘yildi.

Ko‘zdan kechirish jarayonida surishtiruvchi yoki uning talabi bilan mazkur jinoyat aniqlagan mas‘ul bojxona xodimi xolislari ishtirokini ta‘minlaydi. Ko‘zdan kechirishni amalga oshirayotgan xodim tovar va transport vositalarini yoki joyni, jumladan, tovarlar saqlangan yoki ular to‘xtatib qolingan joyni fotosuratga olishi yoki videosyemka qilib, bayonnomaga ilova qilishi mumkin. Bu ushbu tergov harakatini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek ko‘zdan kechirish jarayonida tovarshunoslik bo‘yicha yoki transport sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassisni jalb etishi mumkin. Chunki tovarlarning qanchalik turi ko‘p bo‘lsa, tergov harakati bojxona xodimi uchun, surishtiruvchi uchun shunchalik ko‘p bilim talab etadi. Bu esa o‘z-o‘zidan mutaxassis jalb etilishini talab etadi. Misol uchun, avto ehtiyot qismlari yoki ayollar ko‘ylagi uchun materiallar, kerak bo‘lsa, ayrim xo‘jalik mollari uchun ham mutaxassisning ishtiroki ko‘zdan kechirish jarayonida tovarlarni aniq, to‘g‘ri va atroflicha tavsiflash imkonini beradi.

JPKning 138-moddasida “Tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirish” bo‘yicha normalar o‘rnatilgan. Bojxona organlari faoliyatida joyni ko‘zdan kechirish, surishtiruv jarayonida, asosan, jinoyat ishida gumonlanayotgan shaxsning ko‘rsatuvi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu haqida surishtiruvchi qaror chiqaradi. Ko‘zdan kechirilishi kerak bo‘lgan turar yoki noturar joy va uning tevarak atrofi o‘sha joyning egasi, ya‘ni mulkdoriga qaror tanishtirilgan holda

xolislar ishtirokida ko‘zdan kechiriladi. Qonunchilikda alohida nazarda tutilmagan bo‘lsada, amaliyotda bojxona organi surishtiruvchisi tomonidan ko‘zdan kechirish o‘tkazayotganda o‘sha joydagi ichki ishlar organi profilaktika inspektori, mahalla vakillari ishtirok etishi mumkin.



Ma’lumot uchun: Bojxona organlari faoliyatida shunday holatlar uchraydiki, olingan ko‘rsatuvlar asosida tegishli joylarni, tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirish orqali tovar-moddiy boyliklar topilishi mumkin. Joyni yoki transport vositasini ko‘zdan kechirish jarayonida tovarlarning turi va miqdori ko‘p ekanligi sababli ularni kunning yorug‘ qismida ko‘zdan kechirish lozim bo‘lgan hollarda va buni imkoni bo‘lmasa, tovarlar muayyan transport vositasi yoki joyga joylashtirilib, muhrlanadi va tovarlar bo‘yicha alohida ko‘zdan kechirish harakati o‘tkaziladi. *Hodisa joyini ko‘zdan kechirish harakati to‘g‘risida 3.4.4 paragrafda, olib qo‘yish harakatining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha 3.4.5 paragrafda batafsil tanishish mumkin.*

Ekspertiza va taftish tayinlash. Odatda, bojxona organlari faoliyatida tergovga qadar tekshiruv jarayonida tovarlarning turlariga qarab, ekspertiza tayinlanadi va ekspert xulosasi asosida qaror qabul qilinadi. Tayinlangan ekspertiza natijalariga ko‘ra ekspert xulosasida muayyan jinoyatning alomati bor ekanligi aniqlansa, u holda jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, surishtiruv ishlari tashkil etiladi.

Ekspertiza – ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda tayinlanadi (JPK, 172-modda).

Ammo e’tiborli jihati shundaki, surishtiruvchi tomonidan ekspert xulosasida bo‘shliqlar mavjud bo‘lsa qo‘shimcha ekspertiza yoki ekspertiza organining xulosasi asoslantirilmaganda yoki uning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki ekspertizani o‘tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta ekspertiza tayinlanishi mumkin. Qo‘shimcha va qayta ekspertiza o‘tkazish tartibi JPKning 176-moddasida belgilab berilgan.

Surishtiruvchi shuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar ekspert qo‘yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo‘lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to‘ldirib bo‘lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo‘yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risida asoslantirilgan hujjat tuzib, surishtiruvchiga yoki surishtiruvchi organ nomiga yuborishi lozim bo‘ladi.

Jumladan, qo‘llanmaning bojxona organlari amaliyotiga taalluqli protsessual hujjatlarda “Sudga oid texnikaviy ekspertizani tayinlash to‘g‘risida”gi qaror keltirilgan. Unda “olib qo‘yilgan 1 (bir) dona, vertolyot ko‘rinishidagi, “T-SERIES T-40” yozuvli uchuvchisiz uchish apparatiga o‘xshash qurilma O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish taqiqlangan yoki taqiqlanmaganligi, vazni, uchish masofasi, uchuvchisiz uchadigan apparatlar yoki ularning butlovchi va ehtiyot qismlari hisoblanishi yoki hisoblanmasligi hamda foydalanishga yaroqliligini aniqlash yuzasidan sudga oid texnikaviy ekspertiza tayinlanishi va uning ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi huzuridagi fuqaro aviatsiyasi agentligi “O‘zaviatsiya” agentligi ekspertlari zimmasiga yuklatilishi, ekspertlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 238-moddasida ko‘rsatilgan “Ekspertni bila turib yolg‘on xulosa berganlik” hamda Jinoyat Kodeksining 240-moddasida ko‘rsatilgan “ekspertning xulosa berishni rad etishi” to‘g‘risida jinoiy javobgarlikka tortilishlari to‘g‘risida ogohlantirilishi” ko‘rsatilgan.

Taqdim etilayotgan ekspertiza obyektini bo‘yicha ekspertlar oldiga quyidagicha savollar qo‘yilgan:

- “T-SERIES T-40” yozuvli qurilma, uchuvchisiz uchadigan apparatlar yoki ularning butlovchi va ehtiyot qismlari turkumiga mansubmi, shuningdek ushbu qurilma video va foto kameralar bilan jihozlanganmi?

- “T-SERIES T-40” yozuvli uchuvchisiz uchish apparatiga o‘xshash qurilma O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish taqiqlangan yoki taqiqlanmaganligi, vazni, uchish masofasi, aniqlansin?

- “T-SERIES T-40” yozuvli uchuvchisiz uchish apparatiga o‘xshash qurilmani O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishga fuqaro M.F.Tilloevning nomiga ruxsatnoma berilgan yoki berilmaganligi aniqlansin?

- “T-SERIES T-40” yozuvli uchuvchisiz uchish apparatiga o‘xshash qurilmasi foydalanishga yaroqlimi?

Surishtiruvchi ekspert oldiga qanday savollar qo‘yishiga qarab, jinoyat ishini mustahkamlash, dalillar to‘plash borasida sifat darajasini qo‘lga kiritadi. To‘g‘ri qo‘yilgan savollar bo‘yicha ekspert xulosasi asosida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi rad etilishi ham, yangi jinoyat aniqlanishi ham, yoki jinoyat sodir etgan shaxs uchun og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar ham aniqlanishi mumkin. Bu ekspertizaning to‘g‘ri tayinlash va ekspertga aniq va to‘g‘ri savollar berish surishtiruv uchun naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek bojxona organi surishtiruvchisi tomonidan JPKning 22¹-bobida belgilangan normalar asosida taftish tayinlashi mumkin. Surishtiruvchining ushbu yo‘nalishdagi maxsus bilimlari bo‘lgan taqdirda ham taftish tayinlanishi kerak.

Taftish – surishtiruvchining qarori bilan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni taftish qilish ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar haqidagi ma’lumotlarni tekshirilayotgan subyektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslab ko‘rish yo‘li bilan olish mumkin bo‘lgan hollarda tayinlanadi.

Qo‘llanmaning ilovasida keltirilgan namunalarda “Hujjatli taftish tayinlash va ishga aloqador hujjatlarning asl nusxalarini olish haqida”gi surishtiruvchining qarori mavjud. Unda qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha tegishli mas’uliyati cheklangan jamiyat faoliyati yuzasidan jinoyat ishi doirasida hujjatli taftish tayinlangan va uni o‘tkazish Davlat soliq inspeksiyasi xodimlariga topshirilgan. Shuningdek tekshirish davomida zaruriyati tug‘ilgan hollarda tegishli mutaxassislarini jalb qilinib, xulosalar olinishi, yangi aniqlangan holatlar yuzasidan qo‘shimcha savollar kiritilishi va dalolatnomada ko‘rsatib o‘tishi yuzasidan surishtiruvchi tomonidan topshiriqlar berilgan.

So‘roq qilish – bojxona organlarida surishtiruvchi tomonidan o‘tkaziladigan tergov harakatlarining markazida so‘roq qilish yotadi. Bojxona organlari amaliyoti va jinoyat-protsessual qonunchilikka asosan, so‘roq qilish tergov harakati jinoyat protsessining to‘rt turdagi ishtirokchilariga, ya’ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ekspert va guvohlarga nisbatan o‘tkazilishi mumkin. So‘roq qilishda ham bojxona organlari surishtiruviga taalluqli jinoyatlarning xususiyatidan kelib chiqib, jabrlanuvchini so‘roq qilish mavjud emas.

Bojxona organlari surishtiruvchisi JPKning 10-12-boblarida belgilangan tartibda va o‘rnatilgan umumiy qoidalarga muvofiq so‘roq qiladi va natijasi yuzasidan so‘roq bayonnomasini tuzadi. Jumladan, surishtiruvchi so‘roq qilinuvchini chaqiruv qog‘ozi orqali so‘roq qilinadigan joyga chaqirishi, so‘roq qilishdan oldin so‘roq qilinuvchining shaxsiga aniqlik kiritishi, qaysi tilda ko‘rsatuv bera olishini aniqlashi, huquq va majburiyatlarini tushuntirishi hamda ish holati yuzasidan erkin so‘zlab berishi, so‘roq qilinuvchiga hujjatlar va boshqa yozuvlardan foydalanishiga imkoniyat yaratib berishi, zarur hollarda, ilgarigi so‘roqlarda bergan ko‘rsatuvlarini o‘qib eshittirishi lozim.

Shu bilan birga, surishtiruvchi ishorali savollarni bermasligi, so‘roqning umumiy davom etish vaqtini bir kunda sakkiz soatdan oshirmasligi, qo‘shimcha so‘roq lozim bo‘lgan hollar esa JPKning 108-moddasi talablaridan kelib chiqib amalga oshirishi shart hisoblanadi.



Esda tuting! Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so‘roq qilish muddati yuzasidan surishtiruvchi eng e’tibor beradigan qoida shuki, Surishtiruv jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ushlangan, so‘roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy

keltirilgandan keyin darhol yoki yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay so‘roq qilinishi kerak.

Surishtiruvchi, kimlarni qanday hollarda guvoh sifatida so‘roq qilish mumkin emasligiga e‘tibor qaratishi muhim. Xususan, JPKning 115-moddasiga ko‘ra, jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida himoyachini, fuqaroviy da‘vogarning yoki fuqaroviy javobgarning vakilini, shuningdek ruhiy holati buzilganligi yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni so‘roq qilish mumkin emas. Gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli holatlar haqida guvoh tariqasida faqat o‘zlarining roziliklari bilan so‘roq qilinishlari mumkin.

Surishtiruvchi so‘roq qilishdan oldin o‘zidan to‘plangan materiallarni puxta o‘rganib chiqishi, asosiy va qo‘shimcha tarzda beriladigan savollarni tayyorlashi lozim. So‘roq qilish jarayonida avvaldan tayyorlagan savollardan tashqari so‘roq qilinuvchi tomonidan yoritilgan holatlar yuzasidan ham zarur savollarni berishi, holatga yanada oydinlik kiritish mumkin. Asosiysi, asosiy yoki qo‘shimcha savol bo‘lsin, har bir savolning o‘z vazifasi va savol berishdan surishtiruvchining dalil yig‘ish yo‘lida maqsadi bo‘lsin.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish alohida ajralib turuvchi tergov harakati bo‘lib, bu harakatga o‘ziga xos normalar o‘rnatilgan. Xususan, JPKning 137-moddasiga ko‘ra, “hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma‘lumotlar bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi”. Ushbu tergov harakati ham surishtiruv davomida ham, jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin.

Hodisa sodir bo‘lgan joy – jinoyat yoki hodisa sodir etilganligi yoxud ularning izlari borligi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan joy.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish - jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo‘lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlash maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan o‘tkaziladigan tergov harakati.



Esda tuting! Hodisa sodir bo‘lgan joyga darhol bir nafar bojxona xodimi mas‘ul etib biriktirilishi, u tegishli hududdagi bojxona posti inspektori yoki tezkor tuzilma xodimi bo‘lishi mumkin. Surishtiruvchi yoki jinoyat yuzasidan tuzilgan tergov-tezkor guruhi yetib borguniga qadar muayyan topshiriqlarni bajarishi va harakatlarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi. Topshiriqlar surishtiruvchi tomonidan yoki Navbatchilik qismi

mas'ul xodimi tomonidan beriladi va amalga oshirilish lozim bo'lgan harakatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlash, unga begona shaxslarni kiritmaslik, ushbu joydagi narsa va buyumlarning holatini o'zgartirmaslik, ularga tegmaslik va izlarni asl holida saqlash choralarini ko'rish;

- jinoyat sodir etgan shaxslar aniqlangan taqdirda ularni ushlab, ularning yashirinishini oldini olish yoki jinoyat sodir etgan shaxsning hodisa sodir bo'lgan joydan qochishi mumkin bo'lgan yo'llarni hamda yashirinishi mumkin bo'lgan joylarni to'sish choralarini ko'rish;

- guvohlardan sodir etilgan jinoyat va uni sodir etgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni surishtirishi va bojxona posti yoki boshqarmaning navbatchisiga gumon qilinuvchi shaxsni ushlab va qidirib topish choralarini ko'rish maqsadida uning tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot berish;

- guvohlarning shaxsiga oid ma'lumotlarni, shuningdek hodisa sodir bo'lgan joydagi transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etish choralarini ko'rish;

- jinoyat izlari, qurollari, ashyoviy dalillar va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa narsalarning yo'qolishi, yo'q qilinishi, ularga shikast yetkazilishi yoki tabiiy sharoit yoxud tashqi ta'sir natijasida xususiyati o'zgarishining oldini olish choralarini ko'rish.

- hodisa sodir bo'lgan joyni maxsus lenta yoki boshqa vositalar yordamida o'rab olinishi lozim bo'ladi. Bu borada yuqorida keltirilgan Yo'riqnomada qoidalar batafsil belgilab berilgan. Harakat ishtirokchilari hodisa sodir bo'lgan joyning xususiyatidan kelib chiqib, jumladan, o'sha joyda zaharli yoki inson sog'lig'iga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'tkir hidli moddalar aniqlanganda yoki epidemiya, epizootiya holatlarida, tungi vaqtlarda maxsus kiyim bosh bilan, masalan, respirator, aks ettiruvchi jilet va boshqalardan foydalanish kerakligi ko'zda tutilgan.

Surishtiruvchi tomonidan bojxona chegarasidagi tovar va transport vositalari olib o'tilgan joy, shuningdek unga tutash dalalar, o'rmon, ariq va boshqa obyektlar, shuningdek ichki hududda "yama" sifatida aniqlangan xonadonlar, noturar binolar yoki alohida maydonlar, chuqurlar ko'zdan kechirilishi mumkin.

Agar ko'zdan kechirilishi kerak bo'lgan joyning kengligi va maydoni katta bo'lgan taqdirda, bir necha surishtiruvchi yoki surishtiruv guruhiga jalb qilingan xodimlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'zdan kechirish o'tkazayotgan har bir surishtiruvchi bilan tergov harakatida kamida ikki nafardan xolis ishtirok etadi. Chunki hodisa sodir bo'lgan joydan olingan tovarlar, transport vositalarining ehtiyot qismlari yoki jinoyat ishiga

daxldor har qanday narsa-buyumlar yoki hujjatlar alohida bayonnoma asosida olinadi va ishga qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasining 2018-yil 1-martdagi qo‘shma qarori bilan “Hodisa sodir bo‘lgan joy holatini o‘zgartirish, dalillarni yo‘qotish yoki yo‘q qilishning oldini olishga qaratilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni ko‘rish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma tasdiqlangan bo‘lib, bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5268-sonli Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda, jinoyatga aloqador ashyoviy dalillarni aniqlash, qayd etish va mustahkamlashda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 12-sonli qarori talablariga qat’iy rioya etilishi belgilangan.

Bojxona organlarida surishtiruv davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulk bo‘yicha amalga oshiriladigan harakatlar

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagi 200-sonli “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablari asosida “Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida” Yo‘riqnoma ishlab chiqilgan.



Esda tuting! Yo‘riqnomaga ko‘ra, jinoiy ishlar bo‘yicha surishtiruv davomida surishtiruvchi quyidagilarni olib qo‘yishga haqli: ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan, muayyan xususiyatlari, belgilari, izlari mavjud narsa, hujjat va boshqa yozuvlar;

sud tomonidan fuqaroviy da‘voni ta‘minlash maqsadida undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan milliy va chet el valyuta hamda boshqa qimmatliklar;

muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan narsalar – agarda egasida ularni sotib olish, saqlash, foydalanish uchun tegishli ruxsatnoma bo‘lmasa;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar – agar unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo qo‘llanilgan holda;

davlat mukofotlari va ularga tegishli hujjatlar – ularning kimga tegishliligi aniqlanmagan bo‘lsa yoki ularning egasiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo qo‘llanilganligi sababli ularning saqlanishini ta‘minlash imkoniyati bo‘lmasa.

Narsa, hujjat, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni, shu jumladan tovarlar va transport vositalarini olib qo‘yish JPKning 16, 20 va 24-boblarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. JPKning 206-moddasiga muvofiq, olib qo‘yilayotgan yoki taqdim qilinayotgan narsalar ishga taalluqliligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan, shuningdek ularni boshqa narsalardan farqlovchi belgilarini aniqlash maqsadida JPKning 135-137, 139 va 140-moddalarida belgilangan qoidalar asosida darhol ko‘zdan kechiriladi. Bu ko‘rsatilayotgan harakatlar bo‘yicha, ya‘ni narsalarning olib qo‘yilganligi, taqdim etilganligi, ko‘zdan kechirilganligi to‘g‘risida surishtiruvchi bayonnoma tuzadi.

Odatda ko‘p turdagi tovarlarni olib qo‘yishda ular to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlarni bayonnomada aks ettirish imkoniyati bo‘lmaydi, bunday hollarda surishtiruvchi tomonidan majburiy tarzda ularning ro‘yxati tuzilib, bayonnomaga ilova qilinadi va uning ajralmas qismi hisoblanadi. Zarur hollarda tovarlar yoki transport vositalarini olib qo‘yish jarayoni fotosuratga yoki videoyozuvga tushiriladi. Bunda fotosuratlar, videoyozuv bayonnomaga ilova qilinadi.



Ma‘lumot uchun: Ashyoviy dalilni ishda qoldirish yoki uni saqlash uchun topshirish masalasi narsani ashoviy dalil deb e‘tirof etish va jinoyat ishiga qo‘shish to‘g‘risidagi surishtiruvchining qarori bilan hal etiladi. Ashyoviy dalillar jinoyat ishi bilan saqlanadi, ammo bojxona organlarida olib qo‘yiladigan tovarlar va transport vositalarining jinoyat ishi bilan saqlashning imkoniyati bo‘lmaganligi sababli ixtisoslashgan tashkilotlarga saqlashga topshiriladi va bu haqda ikki nusxada bayonnoma tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi O‘RQ-442-son va 2019-yil 2-maydagi O‘RQ-534-son Qonunlari bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga binoan, mazkur kodeksning 381²-moddasida (*Jinoyat ishining tergovga tegishliligi*) surishtiruv olib borilishining tegishliligi belgilab berildi. Xususan, JPKning ushbu moddasining 4-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi hamda uning joylardagi bo‘linmalari Jinoyat kodeksining 130-moddasi (*Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*) birinchi va ikkinchi qismlarida, 130¹-moddasida (*Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib*

qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 184-moddasi (*Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash*) birinchi va ikkinchi qismlarida, 244³-moddasida (*Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish*), 244⁴-moddasida (*Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish*), 250¹-moddasi (*Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi*) birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv olib borishlari mumkin bo'ladi. Bunda Jinoyat kodeksining 130-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 130¹-moddasida va 244³-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ishni qo'zg'atgan organ tomonidan olib borilishi ko'rsatilgan, ammo mazkur moddalarda ko'rsatilgan ushbu jinoyatlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Bojxona organlari esa boshqa surishtiruv organlari kabi Jinoyat kodeksining 167-moddasi (*O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish*) birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat yuzasidan ish qo'zg'atgan taqdirda, surishtiruv olib borishga haqli bo'ladi. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 237-moddasi (*Yolg'on xabar berish*) birinchi qismida, 238-moddasi (*Yolg'on guvohlik berish*) birinchi va ikkinchi qismlarida, 239 (*Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish*), 240-moddalarida (*Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi*) nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat bojxona organining tergoviga tegishli bo'lsa, surishtiruv shaklidagi tergov tegishli bojxona organi tomonidan olib boriladi.

Bojxona organlari tomonidan surishtiruvni olib borishda boshqa surishtiruv organining tergoviga tegishli yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, ishni yuritayotgan bojxona organi faqat tegishli prokurorning roziligi bilan surishtiruvni to'liq hajmda tamomlashi mumkin. Lekin surishtiruv jarayonida dastlabki tergov organlaridan biriga tegishli bo'lgan va tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan yangi jinoyat aniqlanadigan bo'lsa, prokurorning roziligi bilan jinoyat ishi JPKning 345-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra dastlabki tergov organiga o'tkaziladi.



Ma'lumot uchun: Agar surishtiruvni olib borishda dastlabki tergov organiga tegishli bo'lgan va tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlansa, jinoyat ishini ajratish va boshqalarga o'tkazish JPKning 332 va 345-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ya'ni ishlarni birlashtirish va ajratish bojxona organi

surishtiruvchisining qarori bilan amalga oshiriladi. Aniqlangan yangi jinoyat JPKning 345-moddasi oltinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlar turkumiga kirsa, ya'ni ishni qo'zg'atgan tergov organining vakolatiga kiritilgan jinoyat bo'lgan taqdirda, mazkur ajratilgan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirish prokuror tomonidan dastlabki tergov organiga topshiriladi.

Agar turli surishtiruv organlariga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilganda, ularning orasida og'irroq bo'lgan jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishining tergov bo'jxona surishtiruviga taalluqli bo'lsa, surishtiruv olish borish prokuror tomonidan bo'jxona organiga topshiriladi. Agar bo'jxona ish yurituvidagi jinoyat bilan boshqa jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi teng bo'lganda esa, jinoyat ishi bo'yicha uzoqroq muddat davomida surishtiruv olib borayotgan organga topshiriladi. Agar bitta ish yurituviga birlashtirilayotgan jinoyat ishlaridan biri dastlabki tergov organlari tergoviga tegishli bo'lgan jinoyat ishi bo'lsa, u holda prokuror tergovni olib borishni JPKning 345-moddasida belgilangan tartibda tegishli tergov organiga topshiradi.

Hududiylik tamoyili bo'yicha jinoyat qayerda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishi o'sha hududda bo'jxona nazorati uchun mas'ul bo'lgan bo'jxona organi surishtiruvchisiga tegishli bo'ladi. Agar muayyan bo'jxona posti tomonidan bo'jxona nazorati olib boriladigan hudud tarkibiga kirmaydigan tuman hududida sodir etilgan bo'lsa, u holda ish yuritish tegishli hududiy bo'jxona boshqarmasining Surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limi xodimlarining vakolatiga tegishli bo'ladi. Lekin yuqori turuvchi prokuror yoki yuqori turuvchi surishtiruv bo'linmasi boshlig'ining farmoyishiga asosan surishtiruv hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinmagan holda olib borilishi mumkin.



Nazorat savollari:

1. Bo'jxona organlari tomonidan qanday jinoyatlar bo'yicha surishtiruv harakatlari olib borilishi mumkin?
2. Ayblov dalolatnomasi qanday protsessual hujjat va u qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?
3. Surishtiruv jarayonida ko'zdan kechirish, so'roq qilish kabi tergov harakatlarining qanday ahamiyati bor?
4. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda bo'jxona xodimi nimalarga e'tibor qaratishi kerak?
5. Ekspertiza va taftish tayinlash tergov harakatlarining mohiyatini aytib bering.
6. Bo'jxona organlarida surishtiruv davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulk bo'yicha qanday harakatlar amalga oshiriladi?

§ 5.3. Surishtiruvni tamomlash va surishtiruv ustidan nazorat

Surishtiruvchi yurituviga olgan jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv muddati davomida surishtiruv harakatlarini o'tkazganidan so'ng surishtiruvni yakunlashi lozim.

Surishtiruv jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarish, ayblov dalolatnomasi, ishni tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida taqdimnoma tayyorlash bilan tamomlanadi.

Jinoyat ishi JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi.

JPKning 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lganda jinoyat ishini tugatish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.



Ma'lumot uchun: Surishtiruvchining jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori quyidagi talablarga rioya etilgan holda tuziladi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari va uning sodir etilishiga doir tergov vaqtida tekshirilgan tasmollar;

2) gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga qo'yilgan ayb va qo'llanilgan ehtiyot choralari, basharti bu shaxslarga qo'yilgan gumon yoki ayb ilgari chiqarilgan alohida qaror bilan tugatilmagan bo'lsa;

3) jinoyat ishini tugatish asoslari;

4) bu asoslarni tasdiqlovchi dalillar, ular ishning qaysi jildlari va sahifalarida aks ettirilganligi;

5) ashyoviy dalillarning ro'yxati, bu ashyolar saqlanayotgan joy va ularning egalari, shuningdek manfaatdor shaxslar yoki muassasalar tomonidan bu ashyolarni ularga qaytarib berish to'g'risidagi iltimoslari, basharti shunday iltimos qilingan bo'lsa;

6) fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bayon qilinadi.

Qarorning xulosa qismida:

1) jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi;

2) gumonni yoki ayblovni olib tashlash to'g'risidagi;

3) ehtiyot choralari, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari, shuningdek fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bekor qilish to'g'risidagi;

ashyoviy dalillar to'g'risidagi qarorlar bayon qilinadi.

Surishtiruvchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek ish korxonasi, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxonasi, muassasa, tashkilot vakillariga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda surishtiruvchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi.

Surishtiruvchi to'plangan dalillarni ishni sudga o'tkazish uchun yetarli deb topsa, ayblov dalolatnomasi tuzadi.

Ayblov dalolatnomasi soddalashtirilgan shaklda tuziladi va surishtiruvda aniqlangan holatlar, ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar, e'lon qilingan ayblovning mazmuni, shuningdek surishtiruv davomida aniqlangan va ushbu jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ayblov dalolatnomasining namunaviy shakli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Mudofaa vazirligi, Davlat soliq qo'mitasining 2017-yil 28-oktyabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan bu boradagi faoliyatni samarali tashkil etish to'g'risida"gi 29qk, Uk7, 56, 01-02/22-45, 1/1127, 40-k-sonli qo'shma ko'rsatmasi ilovasiga muvofiq tasdiqlangan.



Ma'lumot uchun: Ayblov dalolatnomasiga sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning yashash joyi ko'rsatilgan ro'yxati, shuningdek gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan qancha vaqt qamoqqa olish yoki uy qamog'i tariqasidagi ehtiyot chorasi qo'llanilganligi, ashyoviy dalillar, hukmning fuqaroviy da'vo va boshqa mulkiy undirishlar bo'yicha qismi ijrosini ta'minlash choralari, sud chiqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinadi.

Sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash zarur bo'lgan hollarda, JPKning 380-moddasi uchinchi qismiga muvofiq mazkur shaxslarning tegishli ro'yxati tuziladi va sudga taqdim etiladi.

Ayblov dalolatnomasi surishtiruvchi tomonidan imzolanadi va surishtiruv bo'linmasi boshlig'i bilan kelishilganidan so'ng, jinoyat ishi darhol prokurorga yuboriladi.



Esda tuting! Surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi ariza va xabarlarini ko'rish hamda hal

qilish, tekshirishni amalga oshirishning JPKda belgilangan tartibi, chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi surishtiruv va dastlabki tergov organlarining qonunlarning ijro etilishi ustidan olib boradigan nazoratining sohasidir.

Surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, prokuror o'z vakolati doirasida:

surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlardan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov ishlarining borishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi; sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshiradi;

surishtiruvchilar va tergovchilarning shuningdek tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi;

jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash haqida iltimosnoma qo'zg'atish jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to'g'risida yozma ko'rsatmalar beradi;

qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

guvohlarning va jabrlanuvchilarning (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to'g'risida JPKda belgilangan tartibda kelishuv tuzadi;

tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, qidirish haqidagi qarorlar, sudning qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimini ijro etishni, shuningdek prokuror yoki prokuratura tergovchisi yurituvidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralarni ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi;

surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda, JPKga muvofiq har qanday ish bo'yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to'liq amalga oshiradi;

tintuv o'tkazishga, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turishga hamda ular orqali uzatiladigan axborotni olishga, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar hamda boshqa so'zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarini sir saqlanishi huquqlarini cheklovchi hamda abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar haqida axborot olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining hamda tergovchining boshqa harakatlariga ruxsat beradi;

dastlabki tergov va surishtiruv muddatlarini JPKda belgilangan hollarda va tartibda uzaytiradi;

ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalari bilan qaytaradi;

jinoyat ishini prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, JPKda belgilangan hollarda va tartibda esa, bir dastlabki tergov va surishtiruv organidan boshqa dastlabki tergov va surishtiruv organiga o'tkazadi;

surishtiruvchini yoki tergovchini, basharti ular ishning tergovchi chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsalar, surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatadi;

jinoyat ishlari qo'zg'atadi yoki ularni qo'zg'atishni rad etadi, ishlarni tugatadi yoxud yuritilishini to'xtatadi; qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchi yoki surishtiruvchining ishni tugatishiga rozilik beradi; ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi yoki qarorini tasdiqlaydi, ishlarni sudga yuboradi.

Prokurorning JPKda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergovga qadar tekshirish

o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalari ana shu organlar uchun majburiydir.

Prokuror yoki uning o'rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi yoki surishtiruvchidan ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishi hamda:

1) ayblanuvchi zimmasiga qo'yilayotgan qilmish sodir etilgan yoki etilmaganligini va bu qilmishda jinoyat tarkibi bor-yo'qligini;

2) qo'yilgan ayb ishdagi mavjud dalillar bilan asoslantirilgan-asoslantirilmaganligini;

3) ayblanuvchining isbotlangan barcha jinoiy qilmishlari ayblov mazmuniga kiritilgan-kiritilmaganligini;

4) jinoyati fosh qilingan barcha shaxslar ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan-qilinmaganligini;

5) ayblovni yoki ishni tugatishga sabab bo'ladigan holatlar bor-yo'qligini;

6) ayblanuvchining qilmishlariga to'g'ri yoki noto'g'ri tavsif berilganligini;

7) tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinganligini;

8) ehtiyot chorasi to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligini;

9) fuqaroviy da'voni va boshqa mulkiy undirishlarni ta'minlash choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

10) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangan-aniqlanmaganligini hamda ularga barham berish choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

11) tergov sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini, barcha vajlar tekshirilganligini va himoyaning iltimosnomalari ko'rib chiqilganligini;

12) ishni birlashtirishda yoki ajratishda JPKning 332-moddasi talablariga rioya etilgan-etilmaganligini;

13) ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi JPKning 379, 380 va 381¹²-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuzilgan-tuzilmaganligini;

14) surishtiruvchi va tergovchi JPKning boshqa talablariga rioya qilgan-qilmaganligini tekshirishi shart.

Prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini ko'pi bilan besh sutkada ko'rib chiqishi va quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart:

1) ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash;

2) o'z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo'llash va shu o'zgartirishlar bilan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash;

3) qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun ishni o‘z ko‘rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish;

4) surishtiruv o‘tkazilgan jinoyat ishini tergovga tegishlilik qoidalari buzilganligi aniqlangan yoki JPKning 381⁵-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda dastlabki tergov organiga o‘tkazish;

5) ishni yuritishni to‘xtatish;

6) ishni tugatish;

7) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish.



Esda tuting! Basharti ayblovni to‘ldirish yoki uni og‘irlashtirish tomoniga yoxud haqiqiy holatlarga ko‘ra avvalgi ayblovdan jiddiy farq qiladigan tomonga o‘zgartirish talab qilinsa, prokuror yoki uning o‘rinbosari qo‘shimcha yoki o‘zgartirilgan ayb e‘lon qilish uchun ishni qo‘shimcha tergovga qaytaradi.

Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi bo‘yicha prokuror yoki uning o‘rinbosari ehtiyot chorasini o‘z qarori bilan bekor qilishga, o‘zgartirishga yoki ilgari ehtiyot chorasi tanlanmagan bo‘lsa, shunday chorani tatbiq etishga haqlidir. Bunda JPKning 28-bobidagi qoidalar qo‘llaniladi.

Jinoyat ishi sudga yuborilgunga qadar prokuror yoki uning o‘rinbosari sud majlisiga chaqiriladigan shaxslarning ro‘yxatini o‘z qarori bilan qisqartirish yoki to‘ldirishga haqlidir. Dastlabki tergovda yoki surishtiruvda guvoh sifatida so‘roq qilinmagan va ekspert sifatida xulosa bermagan shaxslar ro‘yxatga qo‘shimcha qilib kiritilishi mumkin emas.

Prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblov xulosasini yo ayblov dalolatnomasini tasdiqlab, jinoyat ishini tegishli sudga yuboradi. Shu sudga ish bilan birga sud majlisida tekshirish va hal etish uchun barcha iltimoslar va shikoyatlar yuboriladi.

Prokuror yoki uning o‘rinbosari ishning sudga yuborilganligi haqida ayblanuvchiga va himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga darhol xabar qiladi va, agar iltimoslari bo‘lsa, ularni sudga yuborishga yoki sud majlisida bayon qilishga haqli ekanliklari to‘g‘risida ma‘lum qiladi. Ayni vaqtda prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblanuvchiga va himoyachiga ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi va unga qilingan ilovalarning tasdiqlangan nusxalarini yuboradi, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo‘lgan shaxslar ro‘yxati bundan mustasno, basharti ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud ilovaga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lsa, ularni o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorning nusxasi ham yuboriladi.

Agar ayblanuvchi qamoqda saqlanayotgan bo‘lsa, JPK 388-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar prokurorning topshirig‘iga ko‘ra unga

qamoqda saqlash joyining ma'muriyati tomonidan ular kelib tushgan kuni tilxat olib topshiriladi, tilxat hujjatlar topshirilgan sana va vaqt ko'rsatilgan holda sudga taqdim etiladi.



Nazorat savollari:

1. Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq surishtiruv muddati qancha?
2. Surishtiruv harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati qay tartibda amalga oshiriladi?
3. Surishtiruvni tamomlash turlarini sanab bering.
4. Surishtiruvchining jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori qaysi talablarga rioya etilgan holda tuziladi? Bu haqda kimlar xabardor qilinadi?
5. Ayblov dalolatnomasiga qanday ma'lumotlar ilova qilinadi?
6. Prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini ko'rib chiqib, qanday qaror qabul qiladi?

6-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH

§ 6.1. Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishining sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlar

Ma'lumki, yuridik fanlarning alohida yo'nalishi hisoblangan kriminologiya fani jinoyatchilik bilan qandaydir bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning keng doirasini hamda ularning sodir bo'lish xususiyatini o'rganadi.

Bu fanning asosini jinoyatning mohiyati va shakli, uning vujudga kelishi, mavjudligi va o'zgarish qonuniyatlari; sabablari va boshqa determinantlar; jinoyat sodir etganlarning shaxsi; jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari tizimi tashkil etadi⁶¹.

Bojxona sohasidagi jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitlari jinoyatning sodir etilishiga imkon berayotganligini aniqlash, mazkur sohadagi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.



Esda tuting! Keng ma'noda *jinoyatchilik sabablari* deganda, uning mavjudligini belgilovchi barcha omillar hisoblanishi mumkin, ammo bu omillarning hammasi bir xil ahamiyat kasb etmaydi. Ularning ayrimlari jinoiy motivlarning ro'yobga chiqarilishi uchun imkoniyat yaratadi, ayrimlari esa bu imkoniyatni voqelikka aylantiradi. Ayni shu sababli birinchi turdagi omillar shart-sharoitlar sifatida, ikkinchi turdagi holatlar esa sabablar sifatida qaralishi lozim⁶².

Jinoyatchilikning sabablari bilan bir qatorda jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar ham mavjuddir. *Jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar* deganda, real voqelikning o'zi jinoyatchilik (oqibat)ni vujudga keltira olmaydigan, lekin mavjudligi insonda jinoyat sodir etish niyati tug'ilishiga turtki berishi mumkin bo'lgan hodisalar yig'indisi tushuniladi.

Masalan, bojxona sohasidagi qonun hujjatlarning mukammal va mufassal yoritilmaganligi jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit hisoblanishi mumkin. Ammo mazkur holatlarning mavjudligi hamma vaqt ham jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lavermaydi.

Shart-sharoitlar oqibati yaratuvchi sabab tug'ilishi va amalda namoyon bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Ular (shart-sharoitlar) sababning paydo bo'lishi va amal qilishini ta'minlaydi.

Jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini ajratish ancha qiyin, chunki sababiyat tushunchasi hech qachon sof holatda namoyon bo'lmaydi. Jinoyatchilik

⁶¹ Abdurasulova K.P. Kriminologiya. Mas'ul muxarrir: M.X., Rustambayev / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: "Adolat", 2007. - 207-bet.

⁶² Шаргородский М.Д. Преступление в советском уголовном праве. -М.: Наука, 1973. 67-bet.

asosan muayyan sabablar bilan belgilanadi va u sabablarning amal qilishi bir qator holatlarga bog‘liqdir.

Mazmun jihatidan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi holatlar kriminologiya darsliklarida odatda iqtisodiy, tashkiliy- boshqaruv, ijtimoiy, axloqiy-ruhiy, huquqiy va boshqa holatlarga ajratiladi.

Ayni vaqtda bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratadigan, jinoyatlarning oldini olishda hisobga olinishi lozim bo‘lgan omillarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Bular: ma‘naviy-axloqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-boshqaruv va huquqiy tusdagi omillardir.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishini belgilovchi *ma‘naviy-axloqiy omillar* (sabab) tizimi turlichadir. *Birinchi*dan, ayrim TIF subyektlarining bojxona sohasida yetarli bilimlarga ega emasligi. Bunday sharoitda qonunga xilof yo‘llar bilan bo‘lsa ham yengil yo‘l bilan pul topib, boyluk orttirishga intilish kuchayadi, fuqarolarning huquqiy ongi, madaniyati va xulq-atvori kriminogen vaziyat ta’siri ostida qoladi. *Ikkinchi*dan, TIF subyektlari orasida huquqiy nigilizmning tarqalganligi tufayli ayrim fuqarolar qonunlarda, jumladan Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash kabi burchlarini bajarmaydilar. Huquqiy nigilizm nafaqat konstitutsiyaviy burchni bajarmaslik, balki mamlakatda o‘rnatilgan soliq va bojxona qonunchiligini rad etishda ham namoyon bo‘ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning qayd etishicha, soliq sohasidagi jinoyatlarni sodir etishning asosiy sabablaridan biri shaxsdagi ijtimoiy-axloqiy belgilarga bog‘liqdir. Bunda shaxs mamlakatda amal qilayotgan qonunlarni hurmat qilmaydi va unga rioya qilmaslik oqibatida soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaydi⁶³.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, unda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, hozirgi globallashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini

⁶³ Franzoni Luigi Alberto - Tax Evasion and Tax Compliance, University of Bologna (6020), Italy, 1999.

yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan⁶⁴.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish lozim bo'ladi.

Aholining huquqiy savodxonligi, shu jumladan huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda ommaviy axborot vositalari o'rnini muhimligini ham kriminolog olimlar tomonidan alohida qayd etilgan.

Umumiy profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazishda ommaviy axborot vositalaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin: a) jinoyatlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, ularni bartaraf qilish va ularga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashda; b) ma'lum bir shaxslarning jinoyat sodir etish usullaridan ommani ogoh etishda; c) jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligini namoyish etishda; d) huquq- tartibotni buzuvchilar va huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarning nojo'ya xatti-harakatlarini qoralash va shu orqali aholini ularga nisbatan beg'am bo'lmaslikka chorlash maqsadida; e) fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishda; ye) huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati bilan band bo'lgan adliya idoralari va jamoat tashkilotlarining mavqeini ko'tarishda va boshqalar⁶⁵.

Yuqorida tadqiqotlarimiz natijasida TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlari sifatida ularning eng intellektual, murakkab, professional, yuqori uyushgan va juda daromadli noqonuniy faoliyat ekanligi va unda davlat manfaatlariga katta zarar yetkazilishini ta'kidlab o'tgandik.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishida imkoniyat yaratuvchi asosiy *iqtisodiy omil* sifatida mamlakatda "yashirin iqtisodiyot"ning mavjudligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.



Esda tuting! "Yashirin iqtisodiyot" yoki ushbu noqonuniy

(jinoiy) hodisa doimo huquqshunoslar, sotsiologlar, kriminologlar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, huquq-tartibot idoralari vakillari va jamoatchilikning e'tiborini tortib keladi. Tovar va xizmatlarni noqonuniy ishlab chiqarish, daromadni yashirish, hisobga olinmagan naqd pul aylanmasi, noqonuniy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya va xizmat lavozimlarini suiiste'mol qilish va yashirin faoliyatning boshqa ko'rinishlari rasmiy iqtisodiyotning doimiy

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4149765>.

⁶⁵ Kriminologiya: Darslik / 3.S.Zaripov, A.S.Yakubov, G.A.Avanesov va boshq.; prof. Z.S.Zaripov tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - B. 280.

ta'qibchilaridir. Bojxona sohasidagi jinoyatlar ham "yashirin iqtisodiyot" ko'rinishlaridan biri hisoblanadi⁶⁶.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etilishida imkoniyat yaratuvchi *ijtimoiy omillar* doirasi ham ancha kengdir. Xususan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatchilikning o'sish sur'atlari jadallashuviga aholining daromadlar darajasiga ko'ra tabaqalanishi ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bunday tabaqalanish jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi.

Mazkur muammoning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, TIF subyektining moddiy ahvoli qancha yomon bo'lsa, bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashga turtki beruvchi omillarning ta'siri shuncha kuchli bo'ladi. Jumladan, barcha bojxona majburiyatlarining bajarilishi jismoniy yoki yuridik shaxsning iqtisodiy holatini yomonlashtirishi, hatto uning tugatilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ayni shu sababli TIF subyekti bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashni hayot kechirishning yagona yo'li, deb hisoblashi mumkin.

Aholi daromadlarining kamligi mazkur jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. Aynan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda hamda faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish natijasining tannarxi qonuniy tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ish natijasidan ancha past bo'ladi, sababi, mazkur jinoyat bilan shug'ullanayotgan shaxs davlatga hech qanday soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaydi va ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatiga nisbatan mas'uliyat sezmaydi. Bu esa o'z navbatida bunday shaxslarga ishlab chiqargan mahsulotini arzon bahoda bozorga chiqarish imkoniyatini vujudga keltiradi. Aholining kam daromadga ega bo'lishi bu holda ular uchun ayni muddaodir. Tabiiyki, kam daromadga ega bo'lgan aholini mahsulotning sifati emas, balki uning bahosi qiziqtiradi⁶⁷. O'zining moddiy ahvolini bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash yo'li bilan boyitishga tayyor bo'lgan tadbirkorlar va fuqarolar soni ko'payadi.



Ma'lumot uchun: TIF subyektlariga bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash yoki boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etish imkoniyatini beruvchi *tashkiliy-boshqaruv* sohasidagi kamchilik (omil)lar orasida tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog'lik kamchiliklar alohida o'rin egallaydi.

Jumladan, hozirga qadar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan har qanday ruxsatnomalar berish va hisobga olish ishlarini

⁶⁶ Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish //Monografiya-Toshkent: BI,2020-y.-230 b.

⁶⁷ Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirkorlikka qarshi kurashning jinoyat- huquqiy va kriminologik muammolari. Yurid. nomz. ... diss. - Toshkent: TDYUI, 2007. - B. 124.

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan to‘liq foydalanilmasdan kelinmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-aprel kunidagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5409-sonli Farmonida tadbirkorlik sohasini davlat tomonidan tartibga solishning byurokratlashgan metodlari hali ham saqlanib qolinayotganligi, bu esa o‘z navbatida, mahalliy biznesning raqobatdoshligini jadal rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitiga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni tatbiq qilish, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga to‘sqinlik qilishi ta’kidlab o‘tilgan⁶⁸.

TIF qatnashchilarining ko‘plab ma’muriy to‘siqlarga uchrashi ham mazkur jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyunda “Bojxona ma’muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son Farmonida bojxona siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganligi ta’kidlangan⁶⁹.



Esda tuting! Ta’kidlash lozimki, Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, “qog‘ozsiz va elektron bojxona” lozim darajada rivojlanmayapti, kontrabanda, kontrafakt mahsulotlarni olib o‘tish, korrupsiya, noqonuniy valyuta operatsiyalari va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi kurashish usullari bojxona ma’muriyatchiligining zamonaviy va sinovdan o‘tkazilgan usullarini qo‘llashni talab etmoqda.

Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini yanada soddalashtirish, ruxsatnoma va litsenziyasiz faoliyat yuritishga qarshi kurash mexanizmi kuchaytirilishi lozim. Shuningdek, bojxona ma’muriyatchiligini isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, “qog‘ozsiz va elektron

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3676955>.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>.

bojxona”ning mantiqiy davomi va rivojlanishi bo’lgan “raqamli bojxonani” shakllantirish, shu bilan birga bojxona ishi sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish lozim. Zero, tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsatnomalar berishning soddalashtirilgan tartibi va bojxona ma’muriyatchiligining zamonaviy va sinovdan o‘tkazilgan usullarini qo‘llash kriminal faollik, bojxona qonunchiligi buzilishi, ayniqsa soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning kamayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari miqdorining ko‘payishiga imkoniyat yaratuvchi *huquqiy omillardan biri* amaldagi bojxonaga oid qonunchilikning kengligi, murakkabligi va qonunchilikka doimiy ravishda kiritiluvchi o‘zgartirishlardir. Bojxona qonunchiligi juda keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Soliq va bojxona sohasiga doir normativ-huquqiy baza yuzdan ortiq qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, soliq va bojxona idoralarning yo‘riqnomalari va tushuntirishlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga amaldagi bojxona qonunchiligiga doimiy ravishda kiritilayotgan o‘zgartirishlar qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Aksariyat tadbirkorlarning fikriga ko‘ra, mavjud soliq va bojxona tizimi investitsiyalarning kelishiga to‘sqinlik qiladi, inflyatsiyani kuchaytiradi, tarkibiy o‘zgarishlarga monelik qiladi, soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga turtki beradi. Biroq, soliq va bojxona jinoyatchiligining axloqiy-psixologik omili ko‘p jihatdan ko‘rsatilgan holat bilan emas, balki aybdorning soliq va bojxona tizimiga salbiy munosabati, huquqiy madaniyat darajasining pastligi, tamagirlik niyatining kuchliligi bilan belgilanadi.



Ma’lumot uchun: Ayrim tadqiqotchilar soliq va bojxona to‘lovlariga oid ma’lumotlarning aniq emasligi, havolaki hujjatlarning ko‘pligi, jinoyatchi shaxsining professionallik darajasi va huquqiy nigilizmi mazkur sohadagi jinoyatlarni sodir etilishining asosiy sabablari deb hisoblaydilar⁷⁰.

Soliq va bojxona qonunchiligining murakkabligi nafaqat bojxona qonunchiligi buzish yoki bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashga, balki ularni to‘lashdan bo‘yin tovlashni, shu bilan birga bojxona qonunchiligini buzishni xayoliga ham keltirmagan shaxslar tomonidan turli xatolarga yo‘l qo‘yilishiga ham sabab bo‘ladi. Bojxona qonunchiligini buzish hollarining aksariyati TIF subyektlari davlat organlari tomonidan muttasil ravishda qabul

⁷⁰ James Alm. Measuring, Explaining, and Controlling Tax Evasion: Lessons from Theory, Experiments, and Field Studies // Working Paper 1213. July 2012.

qilinuvchi qonunchilikka o'zgartirishlar va qo'shimchalardan yaxshi xabardor emasligi bilan ham bog'liq hisoblanadi.

Soliq va bojxona qonunchiligiga nisbatan aniq tartibga solinganligi bilan taqqoslaganda, qonunchilikni buzish uchun javobgarlik belgilovchi normalar mazmuniga qonunda aniq ta'rif berilmagan tushunchalarni o'z ichiga oladi ("kontrabanda", "bo'yin tovlash", "yashirish", "kamaytirish" va h.k.). Ushbu holatda nazorat organlariga mazkur tushunchalarni o'z ixtiyoriga qarab talqin qilish va shundan kelib chiqib, TIF qatnashchilarini javobgarlikka tortish imkonini beradi. O'z-o'zidan ravshanki, bu qonunga qat'iy muvofiq bo'lgan huquqni qo'llash amaliyoti shakllanishiga ko'maklashmaydi va ko'pincha asossiz ravishda ma'muriy va jinoiy jazolar qo'llanilishiga olib keladi.

Shunday qilib, soliq va bojxona qonunchiligining kengligi va murakkabligi, soliq va bojxona huquqi normalari fuqarolar tomonidan ham, huquqshunoslar tomonidan ham keng talqin qilinishi, qonunda mazmuniga aniq ta'rif berilmagan atamalarning qo'llanilganligi, huquqning turli tarmoqlarida belgilangan normativ qoidalarning o'zaro muvofiq emasligi TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar hisoblanadi, biroq sanab o'tilganlar shart-sharoitlarning ayrimlaridir.



Esda tuting! Bojxona sohasiga jinoyatlarining sodir etilishiga quyidagi sabablarni ham keltirib o'tishimiz mumkin:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, shuningdek, bojxona organlari, banklar, birjalar, ekspert tashkilotlari va boshqa TIF bilan shug'ullanuvchi sohalarda davlat tomonidan nazorat qilish funksiyalariga ega amaldor shaxslar o'rtasida nopok shaxslar mavjudligi va ularning xufiyona biznes vakillari bilan birlashib ketganligi;

- bojxona organlarining zamonaviy texnika nazorati vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va chegaralarning texnik-muhandislik jihatdan mustahkam emasligi;

- huquqni muhofaza qiluvchi va davlat nazorat organlari o'rtasida TIF sohasida huquqbuzarlikka qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'zaro mustahkam hamkorlik o'rnatilmaganligi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi nazorat organlari bilan mavjud bo'lgan hamkorlikni belgilovchi me'yoriy hujjatlarning mukammal emasligi va mavhumligi;

- bojxona organlari tezkor (operativ) kuchlarining TIF sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun kasbiy tayyorgarligining sayozligi, ushbu yo'nalishda informatsiyaviy-operativ-iqtisodiy, tahliliy ishlarning past darajada

tashkil etilganligi va malakali tezkor xodimlar apparati shakllantirilmaganligi va hokazolar⁷¹.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bojxona sohasida ijtimoiy munosabatlarning kriminallasuvi keng qamrovli bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarni qamrab oladi. Xususan, bularning barchasiga puxta o'ylanmagan bozor islohotlari, noqulay investitsiya muhiti, kapitalning yetarli darajada himoyalanganligi, inflyatsiyaning yuqori darajasi, me'yoriy-huquqiy bazaning yetishmasligi (birinchi navbatda, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari, bojxona, soliq, valyuta qonunchiligi), tashqi iqtisodiy faoliyatda operatsiyalar ustidan davlat nazoratining past darajadagi nazorati, intellektual faoliyat natijalarining himoyasizligi, milliy valyutani qadrsizlanishi va huquqiy ongning pastligini ko'rsatishimiz mumkin.



Nazorat savollari:

1. Jinoyatchilikning sabablari va jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar tushunchasi?
2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi ma'naviy-axloqiy omillar haqida gapiring.
3. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar haqida gapiring.
4. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi tashkiliy-boshqaruv va huquqiy tusdagi omillar haqida gapirib bering.

⁷¹ Achilov A.T., Sheraliyev B.Yu., "Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo'yicha bojxona tekshiruvlarini o'tkazish uslubiyati". O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent: 2015.

§ 6.2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olish choralari

Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlar globallashuvi sharoitida bojxona sohasida ijtimoiy munosabatlarning kriminallashuvi O‘zbekistonning rivojlanishiga eng jiddiy tahdid bo‘lib kelmoqda va bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash vazifasini murakkablashtirmoqda.

Yuzaga kelgan jinoiy va kriminologik sharoitlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning kriminallashuviga qarshi samarali davlat va umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarning yo‘qligi jinoiy tashqi iqtisodiy operatsiyalar va u bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, xususan, korrupsion bitimlarning keng tarqalishi nafaqat iqtisodiyotda halokatli o‘zgarishlar tahdidini keltirib chiqaradi, balki O‘zbekistonning milliy xavfsizligiga tahdid hisoblanadi.

Jinoyatchilikning oldini olish deganda odamlar, jamiyat va davlatni jinoyatlardan saqlash tushuniladi. Jinoyatlar profilaktikasi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan chora- tadbirlar majmuini anglatadi.



Esda tuting! O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi TIF sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarga qarshi kurash borasida ham muhim ahamiyat kasb etdi⁷². Mazkur qonunning 6-moddasiga muvofiq profilaktikaning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlari belgilangan.

Qonunning 4-bobi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, uni bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasidir.



Ma’lumot uchun: Jinoyatchilikning oldini olishning maxsus chora-tadbirlari deganda, muayyan kriminogen omillar ta’sirini bartaraf etishni, jinoyatlar sodir etilishiga monelik qiluvchi holatlarni yaratishni nazarda tutadi.

Maxsus profilaktika kriminogen omillarni izchil aniqlash, bartaraf etish, zaiflashtirish va neytrallashtirishdan, huquqbuzarliklar sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni axloqan tuzatishdan iborat bo‘lib, ushbu chora-tadbirlarni ishlab chiqish

⁷² O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/2387357>.

va amalga oshirish jinoyatchilikning mavjudligi, uning holati va amaldagi omillarining xususiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Jinoyatlarni oldini olishning maxsus choralari profilaktika ishi bilan professional shug‘ullanadigan subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyatlarning oldini olish subyektlari orasida iqtisodiy, soliq va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashning maxsus profilaktikasi bilan soliq, bojxona organlari va Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari shug‘ullanadilar.

Huquqni muhofaza qilish organlarining o‘rganilayotgan jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirish ham TIF sohasidagi jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, hech shubhasiz, ko‘maklashadi.

Shu maqsadda ular faoliyatidagi: fundamental nazariy va uslubiy ishlanmalarning ozligi, dastlabki tergov va surishtiruv organlari, tezkor bo‘linmalarda yuqori malakali xodimlarning taqchilligi, bojxona sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va ochishga ixtisoslashgan organlar va bo‘linmalar zaruriy resurslar bilan yetarli darajada ta‘minlanmaganligi, shu bilan birga, ular o‘rtasida o‘zaro aloqalar lozim darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kabilarni bartaraf etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizningcha, bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari majmui quyidagi o‘zaro bog‘langan vazifalarga asoslanadi: jinoyatchilikning dinamikasi, tuzilishi va sabablariga bilvosita yo‘l bilan profilaktik ta‘sir ko‘rsatish (*umumiy ijtimoiy profilaktika*), ushbu jinoyatlarning sabablar majmuiga ta‘sir ko‘rsatish bo‘yicha maxsus choralar (*kriminologik profilaktika*), ushbu jinoyatlar sodir etilishining oldini olishning jinoyat-huquqiy vositalarini qo‘llash (*jinoyat-huquqiy profilaktika*).

Shundan so‘ng jinoyatchilikning oldini olish faoliyatining bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, ushbu sohada huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularga ogohlantiruvchi-tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish, tayyorlanayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish kabi maqsadlarini belgilash, bizningcha, o‘rinli bo‘ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida tez-tez tekshiruvlar o‘tkazib turilishi maqsadga muvofiqdir⁷³. Biroq, xususiy tadbirkor va kichik biznes sohasida tez-tez o‘tkaziladigan tekshiruvlar tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini pasayishiga olib kelishi mumkin.

⁷³ Lisa Marriott “Tax crime and punishment in new Zealand” // Paper prepared for the Australasian Tax Teachers’ Association Conference, Sydney, 16–18 January 2012.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-son Farmoni bilan 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab, tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor bo‘ldi, moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbuzarliklar sodir etgan tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlari yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda, ma‘muriy va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo‘llanilishidan ozod etilganini ta‘kidlab o‘tmoq zarur⁷⁴.

Bu bilan mamlakatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta‘minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash nazarda tutilgan.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etish sabablaridan biri mavjud normalarga salbiy munosabati bilan tavsiflanuvchi axloqiy-psixologik holatidir. Bunday munosabat ko‘p jihatdan ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining pastligi bilan izohlanadi. Shu sababli huquqbuzarliklarni oldini olish borasidagi faoliyatning asosiy yo‘nalishi, bizningcha, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishdir. Bu, eng avvalo, bojxona sohasidagi qonun hujjatlarini tanishtirib borishni, shu jumladan bojxona qonunchiligi va uning qo‘llanilishi haqida aholiga keng axborot berishni nazarda tutadi. Bunda TIF ishtirokchilari bilan ma‘rifiy ish olib borish, bojxonaga oid madaniyat va intizomni shakllantirish birinchi darajali ahamiyat kasb etishi lozim.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida bunday ish yuqori saviyada olib boriladi. Bunda soliq va bojxona qonunchiligidan ta‘lim va maslahatlar berish ushbu mamlakatlarda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish, shu jumladan unga xayrixoh munosabatni shakllantirish, unga axborot va maslahatlar berishni tashkil etish talab qilinadi.

Bojxona nazorati jarayonida TIF subyektlari tomonidan jiddiy qonunbuzilishi yoki bojxona to‘lovlarini to‘lashiga monelik qiluvchi obyektiv

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabdagi PF-4848-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3039311>.

omillar aniqlangan bo'lmasa, uni belgilangan tartibda yoki ishni sudda ko'rish jarayonida undirishga qadar bo'lgan chora sifatida, TIF subyektiga nisbatan joriy profilaktika choralari qo'llanilishi, profilaktik ta'sir ko'rsatishning o'zgacha usullari tatbiq etilishi mumkin.

Fuqarolarga yuzaga kelayotgan nizoli masalalarni sudan tashqari muhokama qilishning ochiq maydonini yaratish, sudlarda to'planib qolgan ish hajmini kamaytirish, davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yangicha tizimini joriy etish, nizolarni hal etuvchi zamonaviy muqobil institutlarni yo'lga qo'yish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 17-iyun kuni imzolangan "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-sonli Qarori yuqoridagi masalalarni hal etishga qaratilgan⁷⁵. Qarorda belgilanishicha, bundan keyin ishni sudda ko'rishga tayyorlash paytida sudya taraflardan kelishuv bitimini tuzish ehtimolini yoki nizoni ko'rib chiqishning muqobil usullarini qo'llash mumkinligini aniqlaydi. Nizo sudan tashqarida hal etilishining huquqiy oqibatlarini tushuntiradi.



Ma'lumot uchun: 2020-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida Davlat bojxona qo'mitasi huzurida "Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha apellyatsiya kengashlari" tashkil etilib, hozirda samarali faoliyat olib bormoqda.

Yuqorida qayd etilgan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 14-moddasiga muvofiq, davlat bojxona xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiritilgan:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, bojxona to'lovlarining to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;
- bojxona sohasida huquqbuzarliklar sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning hisobini yuritadi, mazkur ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi;

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4859436>.

- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Amalga oshiruvchi funksiyalarining xususiyatiga ko‘ra bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olish subyektlari: ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan subyektlarga bo‘linadi. *Ixtisoslashgan subyektlar* uchun jinoyatlarning oldini olish funksiyasi asosiy yoki birinchi darajali funksiyalardan hisoblanadi (DSQ, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, DBQ, IIV, DXX va h.k.). *Ixtisoslashmagan subyektlar* uchun jinoyatlarning oldini olish bosh funksiyaga bo‘ysunuvchi va undan bevosita kelib chiquvchi yordamchi funktsiya hisoblanadi (OTM, maktablar, o‘z o‘zini boshqarish organlar va boshqalar).

Faoliyat miqyosi (darajasi)ga ko‘ra, umumdavlat ahamiyatiga molik subyektlar (hukumat), mintaqaviy va tarmoqqa oid subyektlar, obyektga oid subyektlar farqlanadi.

Ayrim mualliflar profilaktika subyektlarini o‘zgacha tasniflaydilar. Masalan, V.N.Burlakov jinoyatchilikning oldini olish subyektlarini uch guruhga ajratadi. Birinchi guruh, umumijtimoiy profilaktika subyektlarini o‘z ichiga oladi. Ularga markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bevosita bajarmaydigan jamoat tuzilmalari kiradi. Ikkinchi guruhni maxsus kriminologik profilaktika subyektlari, ya’ni huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajaruvchi davlat organlari tashkil etadi. Uchinchi guruh individual profilaktika faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarni birlashtiradi⁷⁶.

Shundan kelib chiqib, bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish subyektlarini uch guruhga ajratishni maqsadga muvofiqdir. *Birinchi guruhga* umumiy ijtimoiy profilaktika subyektlari kiradi. *Ikkinchi guruhga* bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish asosiy faoliyati hisoblanmaydigan, lekin o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida ushbu sohadagi jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi yoki ularning sodir etilishini qiyinlashtiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashlari mumkin bo‘lgan organlarni kiritish o‘rinli bo‘ladi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning asosiy subyektlarini biz *uchinchi guruhga* kiritdik. Bular Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatidir.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olishning asosiy subyektlaridan biri - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi mamlakatimizda bojxonaga oid huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi huquqni

⁷⁶ Криминология // Под ред. В.Н. Бурлакова, В.П. Сальникова. - СПб., 1998.

muhofaza qilish organi hisoblanadi. U o'z faoliyatini "O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiradi⁷⁷.

Ushbu Qonunda Davlat bojxona xizmati organlarining asosiy vazifalari tariqasida quyidagilar ham ko'rsatilgan:

o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun hujjatlari buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish;

fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish va boshqalar.

Fuqarolar va TIF qatnashchilarida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha madaniyatni shakllantirish zarurligi bojxona organlariga maxsus profilaktika tadbirlari o'tkazish majburiyatini yuklaydi.

Ommaviy axborot vositalari, avvalo gazeta, jurnallar va internet tarmoqlari TIF sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishni targ'ib qilishga yaqindan yordam beradi. Bu nashrlarda tizimni isloh qilish, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, bojxona to'lovlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish masalalariga doir materiallar muntazam e'lon qilib boriladi.

Shuningdek, hozirgi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik hayotida keng kirib keldi. DBQ tomonidan TIF sohasi bilan shug'ullanuvchi subyektlarga yengillik yaratish maqsadida, tovarlarning TIF TN kodlari bo'yicha bojxona to'lovlari hisoblab chiqarib beradigan tavsiyaviy ahamiyatga ega tarmoqni ishga tushirish (telegramm) huquqbuzarliklarning kamayishi va oldini olishga xizmat qilgan bo'lardi.

TIF subyektlarini tarbiyalash ishida televideniye juda katta rol o'ynaydi. TIF qatnashchilarini qonunga bo'ysunish ruhida tarbiyalash, bojxona sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoatchilikda insofsiz tadbirkorlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishda bojxona xizmati organlari bilan ommaviy axborot vositalari o'rtasida hamkorlikni yo'lga quyish muhimdir.

Shuningdek, hozirgi kunda insonlarini kundalik hayotiga kirib borayotgan internet saytlarida qisqa metrajli videoroliklar joylashtirish orqali profilaktik tadbirlarni olib borish ham katta samara beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>.

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli qarorida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayotganligi qattiq tanqid qilinib, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida ushbu sohada davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi⁷⁸.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagi "Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining o'zaro hamkorligi mexanizmi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 617-sonli qarorida berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish maqsadida davlat soliq va bojxona xizmatlari o'rtasida onlayn rejimda axborot almashish tartibi belgilangan bo'lsada, hozirgi kunga qadar bunday baza tashkil etilmagan⁷⁹.

Yuqorida bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi asosiy iqtisodiy omil sifatida mamlakatda "yashirin iqtisodiyot"ning mavjudligi ko'rsatib o'tilgan edi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni, shu jumladan TIF sohasini rivojlantirishda yalpi ichki mahsulot tarkibida "yashirin iqtisodiyot"ning ulushini qisqartirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu hodisani yuzaga kelish omillarini chuqur tahlil qilish va unga qarshi kurashish mamlakatimizning hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalar birinchi ustuvor yo'nalishida to'xtalib, "Islohotlarimizga jiddiy to'squinlik qilayotgan

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3141186>.

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagi 617-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3851085>.

“yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog‘lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi”⁸⁰, deb bejiz ta’kidlamaganlar.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni⁸¹ ijrosini ta’minlash, shuningdek, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani yanada qisqartirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasida “Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 394-sonli Qarori bilan “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”⁸² tasdiqlandi.

Bundan oldingi paragrafda TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari sodir etilishidagi *tashkiliy-boshqaruv* sohasidagi kamchilik (omil)lar orasida tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog‘lik kamchiliklarga to‘xtalib o‘tgandik.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-2646-sonli qarori bilan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag‘batlantirish maqsadida chora-tadbirlar kompleksi tasdiqlandi⁸³, 2017-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat interaktiv xizmatlari yagona portaliga integratsiyalashgan Internet tarmog‘idagi Tizim orqali kechayu-kunduz o‘tkazish va hisobga qo‘yish yo‘lga qo‘yildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida Jahon bankining “Doing business” yillik hisobotiga ko‘ra, Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi mas’ul bo‘lgan “Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish” ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoning

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

⁸¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4751561>.

⁸² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi 394-sonli Qarori, <https://lex.uz/ru/docs/4864136>.

⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi PQ-2646-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3063485>.

190 ta davlatlari ichida 8-o‘rinni egallab, O‘zbekiston tarixida birinchi bor Top-10likka kirdi⁸⁴.

Shuningdek, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish hamda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgust kuni “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6044-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda tadbirkorlik subyektlaridan ortiqcha hujjat talab qilmaslik va ularning vaqt hamda mablag‘lari sarflanishini kamaytirish uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, tegishli hujjatlarni berish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta‘minlash, shuningdek, ayrim turdagi litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar berishning namunaviy ma‘muriy reglamentlarini joriy qilgan holda normativ-huquqiy hujjatlar sonini tubdan qisqartirish nazarda tutilgan chora tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimizda bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek bojxona tartib-taomillarini yanada soddalashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son, 2018-yil 24-noyabrda “Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5582-son, 2020-yil 5-iyunda “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son va 2021-yil 10-sentyabrda “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 6310-son Farmonlari qabul qilindi.



Esda tuting! O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrda O‘RQ–654-son qonuni bilan bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) qo‘shildi⁸⁵.

⁸⁴ <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/98424/>.

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrda “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul

Albatta, mazkur islohotlar bojxona tartib-taomillarining yanada soddalashtirilishiga, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga, shuningdek biznesni rivojlantirish yo'lida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga bojxona tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va innovatsion (raqamli bojxona) usullarni tatbiq etish orqali bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishga va bojxona xodimlarining kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish lozim bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan institutsional hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi va ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish milliy qonunchilikni takomillashtirishda ijobiy samara beradi.

Jumladan, Irlandiyada xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda nazorat qiluvchi organlar jamoatchilik nazorati mexanizmlari va insofli TIF ishtirokchilari yordamiga tayanishi e'tirofga loyiq. Bunda soliqdan qochish va nosog'lom raqobat hollari haqida fuqarolar, tadbirkorlar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalariga turli vositalar orqali elektron, og'zaki yoki yozma shaklda, shu jumladan anonim tarzda xabar berish imkoniyati berilgan va murojaatchilarning shaxsi oshkor qilinmaydi⁸⁶.

Singapurda esa informatorlarning shaxsini sir saqlagan holda bergan ma'lumoti bo'yicha aniqlangan va undirib olingan summaning 15 foizi, biroq 100 000 Singapur dollaridan ko'p bo'lmagan mukofot beriladi⁸⁷.

Irlandiyada TIF sohasidagi huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish tizimi shaxsning huquqbuzarlikni ixtiyoriy bartaraf etishiga qaratilgan. Ayni bir huquqbuzarlik uchun sanksiyalar nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilganlik, huquqbuzarlik oqibatlarini ixtiyoriy bartaraf etish va huquqbuzarlik takrorlanishi darajasiga qarab differensiya qilinadi.

Xorijiy davlatlarda TIF sohasidagi huquqbuzarliklar uchun muqobil jazo choralarining keng qo'llanilishini ko'rish mumkin. Singapurda soliq huquqbuzarligi aniqlanganda ish holatiga qarab to'lanmagan summaning 4 baravarigacha bo'lgan summani to'lash taklif etilib, ushbu taklif qabul qilinsa ish sudga oshirilmaydi.

Irlandiyada jazo chorasi sifatida soliq to'lashdan bo'yin tovlagan yoki soliqlarni to'lamaganlar ro'yxati har chorakda e'lon qilib boriladi, Singapurda

qilingan o'zgartirishlar bilan) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi O'QRQ-654-sonli Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/5174753>.

⁸⁶ www.revenue.ie. Irlandiya Soliq va bojxona daromadlari idorasining rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁸⁷ <https://www.iras.gov.sg>.

solliqlarni to‘lanmagan shaxslarni mamlakatdan chiqishiga cheklovlar qo‘yish belgilangan.

AQSHda soliqdan jiddiy qarzi bor (51 000 AQSH dollaridan yuqori) shaxslar qarzdorligini bartaraf etmasa ularga pasport berilmaydi yoki almashtirilmaydi, yoxud berilgan pasport bekor qilinadi. Shuningdek, shaxsning soliq qarzi borligi to‘g‘risida barcha kreditorlarga e‘lon qilinadi. Oqibatda bunday shaxslarga ish, kredit, ijaraga beruvchilar o‘z xizmatlarini taqdim etishni rad etishi mumkin. Qarzdorlik ijtimoiy sug‘urta to‘lovlariga, bo‘lg‘usi to‘lovlarga bo‘lgan huquq – ish haqiga, uy-joyga (asosiy yashash joyiga oid cheklovlar bilan) ham qaratilishi mumkin.




Nazorat savollari:


1. Jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi?
2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan ma‘naviy-axloqiy omillar haqida gapiring.
3. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy omillar haqida gapiring.
4. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy-boshqaruv va huquqiy tusdagi omillar haqida gapirib bering.

JINOYAT PROTSESSI SXEMALARDA


1-SXEMA




2-SXEMA




3-SXEMA




4-SXEMA




5- SXEMA




6- SXEMA




7-SXEMA



8-SXEMA



9-SXEMA



TERGOV HARAKATLARI

Dalillarni to'plash maqsadida o'tkaziladigan tergov harakatlari

So'roq qilish 96-121-m.
Olib qo'yish va tintuv o'tkazish 157-168-m.
Ko'zdan kechirish 135-141-m.
Guvohlantirish 142-147-m.
Murdani eksqumatsiya qilish 148-152-m.
Ekspertiza 172-187-m.
Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalari olish 188-197-m.
Narsa va hujjatlarni taqdim etish 198-202-m.
Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish 203-212-m.
Telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish 169-171-m.
Taftish 187¹-187¹¹-m.

Dalillarni tekshirish maqsadida o'tkaziladigan tergov harakatlari

Yuzlashtirish 122-124-m.
Tanib olish uchun ko'rsatish 125-131-m.
Ko'rsatmani hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish 132-134-m.
Eksperiment 153-156-m.

11-SXEMA

Prosyessual majburlov choralarini qo'llash uchun asoslar


Tergov yoki sud harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilish

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish


O'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik

Hukmning ijrosini ta'minlash


12-SXEMA




13-SXEMA




14-SXEMA




15-SXEMA




16-SXEMA




17-SXEMA





18-SXEMA



19-SXEMA



20-SXEMA



**DASTLABGI TERGOV, SURISHTIRUV, TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV
HARAKATLARI**

			Bayonnoma tuzish	O'tkazish tartibi	Muddatlari	Prokuror sanksiyasi
1	So'roq qilishning umumiy qoidalari (96-108-m)	gumon qilinuvchi, ayblanuvchini so'roq qilish (109-113-m)	106-modda	109-modda	bir kunda 8 soatdan oshmaslik kk Voyaga yetmaganlarga 4 soat	prokuror sanksiyasi talab etilmaydi.
		guvoh va jabirlanuvchini so'roq qilish (114-121-m)		114-modda		
2	Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish (121(1)-121(5)-m)		426-427-modda sud majlisi bayonnomasi	121(4) modda		prokuror roziligi kk.
3	Yuzlashtirish (122-124-m)			123-modda		talab etilmaydi
4	Tanib olish uchun ko'rsatish (125-131-m)		131-modda	127-128-129-moddalar		talab etilmaydi
5	Ko'rsatuvlarni xodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish (132-134-m)		134-modda	133-modda		talab etilmaydi
6	Ko'zdan kechirish (135-141-m)	Xodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish (137-m)	141-modda	136-modda		prokuror sanksiyasi talab etilmaydi.
		Murdani ko'zdan kechirish (138-m)				
		Tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish (139-m)				
		Narsa va xujjatlarni ko'zdan kechirish (140-m)				
7	Guvohlantirish (142-147-m)		147-modda	146-modda		talab etilmaydi
8	Murdani eksqumatsiya qilish (148-152-m)		151-modda	149-modda		sudning roziligi bilan
9	Eksperiment (153-156-m)		156-modda	155-modda		prokuror sanksiyasi kk.
10	Olib qo'yish va tintuv (157-168-m)	Shaxsiy tintuv va olib qo'yish (162-m)	163-modda	161-modda		prokuror sanksiyasi kk.
		Diplomatiya vakolatxonalarida olib qo'yish va tintuv (165-m)				diplomatiya vakolatxona boshlig'i roziligi bilan
		Po'chta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish va olib qo'yish (167-m)				sudning roziligi bilan xatlab qo'yiladi.
11	So'zlashuvlarni eshitib turish (169-171-m)		171-modda	170-modda	6 oydan oshmaslik kerak	prokuror sanksiyasi kk.
12	Ekspertiza (172-187-m)			173-modda	15 kun	talab etilmaydi
13	Taftish (187(1)-187(11)-m)		187(8)-modda	187(5)-modda	30 kalendar kun	talab etilmaydi
				ayrim hollarda 187(6)-modda		
14	Ekspertiza tekshiruv uchun na'munalar olish (188-197-m)	Surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan na'munalar olish (193-m)	197-modda	188-modda		prokuror sanksiyasi talab etilmaydi.
		Shifokor yoki boshqa mutaxassis (194-m)				
		Ekspert tomonidan (195-m)				

TESTLAR

1. Jinoyat protsessining qaysi bosqichida shikoyat va iltimos qilish mumkin?

- A) sud muhokamasida
- B) surishtiruv va dastlabki tergovda
- D) apellyatsiya va kassatsiya instansiyasida
- E) jinoyat protsessining istalgan bosqichlarida

2. Kimlar protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega?

- A) protsess ishtirokchilari
- B) ishni yuritishga aloqador bo'lgan korxonalar, muassasa va tashkilot
- D) boshqa shaxslar
- E) huquq va manfaatlariga zarar yetgan shaxs

3. Aybsizlik prezumpsiyasining to'la mazmuni nimadan iborat?

- A) har qanday gumon ayblanuvchining foydasiga hal bo'ladi
- B) isbotlash burchi ayblanuvchiga yuklatilgan emas
- D) isbotlanmagan ayb isbotlangan aybsizlik bilan teng
- E) barcha javoblar to'g'ri

4. Ishda xolis sifatida qatnashishga jalb etish uchun surishtiruvchi qanday hujjat tuzadi?

- A) hech qanday protsessual hujjat tuzmaydi
- B) qaror chiqaradi
- D) prokurorni xabardor qiladi
- E) tergov bo'limi boshlig'idan ruxsat oladi

5. Haqiqatni aniqlash uchun jinoyat ishini qay darajada tekshirish kerak?

- A) to'la, har tomonlama, xolisona, sinchkovlik bilan
- B) to'la to'kis
- D) biror manfaatni ko'zlamay
- E) mas'uliyat bilan

6. Sud hukmi qanday holatlarda oshkora e'lon qilinadi?

- A) sudlanuvchi va jabrlanuvchining roziligi bilan

- B) ish ochiq sud majlisida ko‘rilgan bo‘lsa
- D) sud raisining ruxsati bo‘lganda
- E) barcha hollarda

7. Surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat kim tomonidan amalga oshiriladi?

- A) Tegishli yuqori turuvchi organ mansabdorlari
- B) Prokuror
- D) Tergovchi
- E) Sudya

8. Yopiq sud majlisida ko‘riladigan holatlarni belgilang?

- A) davlat siri bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar
- B) 18 yoshga to‘lmaganlar sodir etgan jinoyat haqidagi ishlar
- D) jinsiy jinoyat to‘g‘risidagi ishlar
- E) barcha hollarda

9. Jinoyat protsessi ishtirokchilaridan qaysi biri shaxsni aybdor deb topishi mumkin?

- A) tergovchi
- B) prokuror
- D) sud
- E) surishtiruvchi

10. Quyidagilarning qaysi biri isbotlash doirasini tashkil etadi?

- A) ayblash va hukm qilish uchun asoslar
- B) tergovchining bir to‘xtamga kelishi
- D) dalillarning yetarliligi
- E) isbotlash doirasining chegarasi belgilanmagan.

11. Isbotlash uchun asos qilib olinadigan dalillar qaysilar?

- A) qaysi manbadan olinganligidan qat’iy nazar barcha dalillar
- B) tasdig‘ini topgan topmaganligidan qat’iy nazar manbadan olingan dalillar
- D) tekshirilishi imkoniyati bo‘lmagan, lekin aniq manbadan olingan dalillar
- E) faqat qonunda ko‘rsatilgan manbalardan qonuniy usulda olingan va rasmiylashtirilgan dalillar

12. Ashyoviy dalillar klassifikatsiyasiga ko‘ra:

- A) jinoyat ob’ekti va jinoyat predmetlari

- B) jinoyat natijasida topilgan boyliklar
- D) jinoyat sodir etilgan joydan topilgan har qanday predmetlar kiradi
- E) A, B

13. Narsa va ashyoviy dalillarni jinoyat ishiga qo‘shish....

- A) faqat tergovchining qarori bilan
- B) tergovchining qarori, sudning ajrimlari
- D) faqat sudning ajrimlari
- E) surishtiruvchi, tergovchining qarori, sudning ajrimi

14. Gumon qilinuvchi olib kelingandan boshlab qancha vaqt ichida so‘roq qilinishi lozim?

- A) Darhol so‘roq qilinishi kerak
- B) 24 soatdan kechiktirmay
- D) 3 soatdan kechiktirmay
- E) 36 soat davomida

15. Surishtiruvchi va tergovchining noqonuniy va asossiz qarorlari qaysi mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi mumkin?

- A) surishtiruv organi boshlig‘i
- B) tergov bo‘limi boshlig‘i
- D) prokuror va uning o‘rinbosari
- E) tergovchilar guruhi boshlig‘i

16. Ayblanuvchini so‘roq qilish muddati?

- A) 4 soat
- B) 6 soat
- D) 7 soat
- E) 8 soat

17. Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov organlarida qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligi yuzasidan qancha muddatda tekshiradi?

- A) har oyda ikki marta
- B) har haftada bir marta
- D) har ikki oyda bir marta
- E) har oyda kamida bir marta

18. Quyidagilardan qaysi biri tergovga qadar tekshiruv organiga kirmaydi?

- A) ichki ishlar organlari
- B) davlat xavfsizlik xizmati organlari
- D) sud organlari
- E) davlat bojxona xizmati organlari

19. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxsga nisbatan qanday majburlov chorasi qo'llaniladi?

- A) ushlab turish
- B) lavozimidan chetlashtirish
- D) majburiy keltirish
- E) shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish

20. Tergovga qadar tekshiruv muddati qanday hollarda uzaytiriladi?

A) o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa

B) olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo'lsa

D) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo'shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa

E) barcha javoblar to'g'ri

21. Surishtiruv organi noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang?

- A) ichki ishlar organlari
- B) davlat soliq organlari
- D) davlat bojxona organlari
- E) milliy gvardiya

22. Surishtiruv jarayonida quyidagi qanday tergov harakatlarini o'tkazish mumkin?

- A) taftish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish
- B) ekspertiza, olib qo'yish va tintuv
- D) ko'zdan kechirish, olib qo'yish va tintuv
- E) yuqoridagi barcha tergov harakatlarini o'tkazish mumkin

23. Surishtiruv muddatiga kirmaydigan holat noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt
- B) surishtiruv to'xtatib turilgan vaqt
- D) qo'shimcha surishtiruv o'tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushgunga qadar o'tgan vaqt
- E) qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilayotgan vaqt

24. Dastlabki tergov organlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?

- A) prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati organlari
- B) ichki ishlar organlari, davlat bojxona organlari va prokuratura organlari
- D) ichki ishlar organlari, milliy gvardiya va davlat bojxona organlari
- E) davlat xavfsizlik xizmati organlari, prokuratura organlari va milliy gvardiya

25. Bojxona organlari quyidagilardan qaysi biri hisoblanmaydi?

- A) tergov organi
- B) surishtiruv organi
- D) tergovga qadar tekshiruv organi
- E) tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organ

26. O'zbekiston Respublikasi JPKning 38-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv organlari qatoriga kirmaydigan organ qaysi javobda berilgan?

- A) Bojxona organlari
- B) Milliy gvardiya
- D) Davlat xavfsizlik xizmati
- E) Majburiy ijro byurosi

27. Quyidagi jinoyatlardan qaysi biri bojxona organlari surishtiruviga tegishli emas?

- A) Jinoyat kodeksining 250-moddasi
- B) Jinoyat kodeksining 130¹-moddasi
- D) Jinoyat kodeksining 130-moddasi
- E) Jinoyat kodeksining 250¹-moddasi

28. Ayblov dalolatnomasining namunaviy shakli kim tomonidan tasdiqlanadi?

- A) tegishli surishtiruv organi boshlig'i
- B) Davlat bojxona qo'mitasi Raisi
- D) Ichki ishlar vaziri
- E) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

29. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati quyidagilardan kim tomonidan o'tkazilmaydi?

- A) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi
- B) surishtiruvchi
- D) jamoat ayblovchisi
- E) sud

30. Isbotlash majburiyati kimga yuklatilgan?

- A) jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, tergovchi, sud
- B) jamoat ayblovchisi, guvoh, ekspert, mutaxassis
- D) jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, prokuror
- E) surishtiruvchi, prokuror, tergovchi, sud

31. Ayblanuvchi qachondan boshlab sudlanuvchi makomini oladi?

- A) sud muhokamasining boshlanishidan
- B) jinoyat ishini sud majlisida ko'rishga tayinlash to'g'risida karor chikkach
- D) ish sudga kelib tushgach va qayd etilgach
- E) ayblovchiga ayblov xulosasi topshirilgach

32. Xolislar faktlarni tasdiqlash uchun quyidagi hollarda taklif etiladi....

- A) fuqaro tergovchining qonuniy talablari va takliflarini bajarishdan bosh tortsa
- B) protsess ishtirokchilaridan birortasi tergov harakati bayonnomasiga imzo chekishdan bosh tortsa
- D) tergov harakatlarining borishi va natijasini tasdiqlash uchun
- E) barcha javoblar to'g'ri

33. Kim ayblov dalolatnomasidagi asoslar yetarli ekanligi va ishni sudga yuborish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqaradi?

- A) prokuror
- B) prokurorning yordamchisi

- D) tergovchi
- E) sud

34. "... jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanadi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o'z ichiga oladi". Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- A) Surishtiruv
- B) Dastlabki tergov
- D) Ishni sudga qadar yuritish
- E) Surishtiruvchi yoki tergovchining vazifasi

35. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ish materiallari yuzasidan JPKning 330-moddasi tartibida quyidagi qarorlardan qaysi biri qabul qilinmaydi?

- A) ishni qo'zg'atishni rad qilish haqida
- B) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida
- D) ma'muriy tartibda ish yuritish to'g'risida
- E) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida ashyoviy dalil sifatida e'tirof etish

36. Quyidagi tergovga qadar tekshiruv organlaridan qaysi biri tezkor-qidiruv faoliyat bilan shug'ullanishga haqli?

- A) Majburiy ijro byurosi
- B) harbiy o'quv yurtlari boshliqlari
- D) Milliy gvardiya
- E) barcha tergovga qadar tekshiruv organlari tezkor-qidiruv faoliyat bilan shug'ullanishga haqli

37. O'zbekiston Respublikasi Afg'onistonda ishlab chiqariladigan narkotik vositalarni Yevropa mamlakatlariga yetkazib berishdagi qaysi yo'nalishda joylashgan?

- A) Janubiy yo'nalishda
- B) Shimoliy yo'nalishda
- D) G'arbiy yo'nalishda
- E) Sharqiy yo'nalishda

38. Quyida belgilanganlardan qaysi biri kontrabanda jinoyatining ob'ektiv tomoni hisoblanmaydi?

- A) Kontrabanda ashyolarini boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o'tish
- B) Kontrabanda predmetlarini bojxona nazoratidan yashirib olib o'tish
- D) Kontrabanda ashyolarini respublika hududida realizatsiya qilish
- E) Kontrabanda predmetlarini deklaratsiyalmasdan bojxona chegarasidan olib o'tish

39. O'zining ichki organlariga yashirgan holda narkotik vositalarni olib o'tish hollarini aniqlash qanday yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin?

- A) Shaxsning o'zini tutishini sinchkovlik bilan kuzatish orqali
- B) So'roq jarayonidagi noverbal ishoralar orqali
- D) Shaxsning harakatlarini kuzatish orqali
- E) Barcha javoblar to'g'ri

40. Nazorat ostida yetkazib berish tezkor-qidiruv tadbiri qachon Birlashgan millatlar tashkilotining konvensiyasi bilan rag'batlantirilgan?

- A) 1979-yilda
- B) 1988-yilda
- D) 1991-yilda
- E) 1978-yilda

41. Bojxona postlarida bitta xizmat iti avtomobil yo'lida bitta mashinani necha daqiqa tekshirishi mumkin?

- A) 10-15 daqiqa
- B) 30 daqiqa
- D) 15-20 daqiqa
- E) 2-3 daqiqa

42. Tergovga qadar tekshiruv muddati amaldagi qonunchilikka ko'ra necha kunni tashkil qiladi?

- A) 10 sutka
- B) 15 sutka
- D) 20 sutka
- E) 7 sutka

43. Tergovga qadar tekshiruv qachon yakunlanadi?

- A) Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin

- B) Jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad qilinganidan keyin
- D) Tergovga qadar tekshiruv materiallari prokurorga yuborilganidan keyin
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri

44. Qaysi tergov harakatini tergovga qadar tekshiruv vaqtida o‘tkazish man etiladi?

- A) Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish
- B) So‘roq qilish
- D) Ekspertiza tayinlash
- E) Shaxsiy tintuv va olib qo‘yish

45. Tergovga qadar tekshiruv natijalari yuzasidan tegishli qaror Jinoyat-protsessual kodeksining qaysi moddasiga ko‘ra qabul qilinadi?

- A) 330-modda
- B) 345-modda
- D) 224-modda
- E) 321-modda

46. Qanday holatda jinoyat ishini qo‘zg‘atishga faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining roziligi yoxud O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosarining roziligi talab qilinadi?

- A) Tadbirkorlik subyektiga nisbatan qo‘zg‘atilayotgan ishlarda
- B) Zarar ustav fondida davlat ulushi 25 foiz va undan yuqorini tashkil qilgan korxonalar va tashkilotlarga yetkazilgan taqdirda
- D) Jinoyat juda ko‘p miqdorda sodir etilganda
- E) O‘ta xavfli residivist shaxs tomonidan takror jinoyat sodir etilganda

47. Quyidagilardan qaysi biri jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘la olmaydi?

- A) Tergovga kadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi ma‘muriy vazifani amalga oshirayotganida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlashi
- B) Surishtiruvchi, tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha dastlabki tergov yuritish chog‘ida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlashi
- D) Anonim manbalardan olingan ishonchli ma‘lumotlar qabul qilib olinishi va unda jinoyat alomatlarining mavjudligi

E) Prokuror konunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov olib borish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlashi

48. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ jinoyat ishi qo'zg'atilgach mazkur jinoyat ishini kimga yuborishi lozim?

- A) Tegishliligiga ko'ra tergovchiga
- B) Tegishliligiga ko'ra surishtiruvchiga
- D) Prokurorga
- E) O'z ish yurituviga qabul qilib oladi va tergovni amalga oshiradi.

49. JPKning 84-modda 6-qismda nazarda tutilgan holatlar mavjudligi tergovga qadar tekshiruv paytida aniqlansa organ xodimi qanday qaror qabul qilishi lozim?

- A) Jinoyat ishini o'tkazish to'g'risida
- B) Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida
- D) Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida
- E) Ish materiallarini prokurorga jo'natish to'g'risida

50. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan mansabdor shaxs o'zini o'zi rad qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda shaxs qanday harakat qilishi lozim?

- A) Boshliq nomiga ma'lumotnoma yozish orqali o'zini rad etadi
- B) Boshliq nomiga bildirgi yozish orqali o'zini rad qiladi
- D) O'zini o'zi rad qilish haqida qaror chiqaradi
- E) Rahbarga og'zaki tarzda xabar beradi va ish yuritishni davom ettiradi

51. Bojxona organlarida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilinishi, ro'yxatdan o'tkazish va qonunga muvofiq ko'rib chiqilishi ustidan shaxsan javobgar shaxs kim hisoblanadi?

- A) o'z xavfsizlik bo'limi xodimlari
- B) Surishtiruvchilar
- D) Surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limi boshliqlari
- E) Bojxona organi boshliqlari

52. Prokurorning yozma ko'rsatmalari bojxona organi boshlig'i va uning mansabdor shaxsi uchun majburiydir. Ular prokurorning ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan taqdirda yuqori turuvchi prokurorga

shikoyat qilishga haqlidir va bunda ko'rsatmalarni bajarish muddati qanchaga to'xtatilishi mumkin?

- A) 10 kun
- B) 7 kun
- D) Shikoyat o'rganib chiqilguniga qadar
- E) Ko'rsatmalarni bajarish to'xtatilmaydi

53. Tergovga qadar tekshiruv muddatini uzaytirish uchun to'plangan materiallar muddat tugashiga qancha vaqt qolganida nazorat qiluvchi prokurorga taqdim qilinishi kerak?

- A) 48 soat
- B) 24 soat
- D) 12 soat
- E) 72 soat

54. Jinoyat ishini bir hududiy bojxona boshqarmasi doirasida bir surishtiruvchidan boshqa surishtiruvchiga o'tkazish lozim bo'lib qolsa, kimning roziligi bilan amalga oshiriladi?

- A) boshqarma boshlig'ining mutasaddi o'rinbosari
- B) hududiy boshqarma boshlig'i
- D) prokuror
- E) Surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limi boshlig'i

55. Boshqa vakolatli organlardan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bojxona organlariga yuborilgan taqdirda, bojxona organi surishtiruvchisi qanday qaror qabul qiladi?

- A) bojxona organlari bunday ishlarni qabul qilmaydi
- B) jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida
- D) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida
- E) o'z ish yurituviga olish to'g'risida

56. ... ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda tayinlanadi? Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- A) Ekspertiza
- B) Taftish
- D) Eksperiment
- E) Ilmiy tekshirish

57. Aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlar bo'lgan taqdirda bojxona organi surishtiruvchisi tomonidan qanday tergov harakati o'tkaziladi?

- A) hodisa joyini ko'zdan kechirish
- B) ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish
- D) guvohlantirish
- E) tovarlarni ko'zdan kechirish

58. Yuritilayotgan jinoyat ishlari qaysi moddalarda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatilishi lozim?

- A) JPKning 321-322-moddalari
- B) JPKning 83-84-moddalari
- D) JPKning 81-84-moddalari
- E) JPKning 221-224-moddalari

59. Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda surishtiruvchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda qaysi organga xabar berishi lozim?

- A) Mudofaa vazirligiga
- B) Prokurorga
- D) Tuman(shahar) mudofaa bo'limiga
- E) Yuqori turuvchi organga

60. Surishtiruv yakunlari bo'yicha ish materiallarini va dalillarni sudga o'tkazish uchun yetarli deb topsa qanday hujjat tuzish orqali surishtiruvni tamomlaydi?

- A) Ayblov xulosasi
- B) Ayblov dalolatnomasi
- D) Ish materiallarini sudga o'tkazish to'g'risida qaror
- E) Ish materiallarini tegishliligiga ko'ra yuborish to'g'risida qaror

61. Umumiy qoidaga ko'ra surishtiruvning o'tkazilish muddati qanchani tashkil qiladi?

- A) 3 oy
- B) 5 oy
- D) 1.5 oy
- E) 1 oy

62. Surishtiruv jarayonida ayblanuvchini qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish kimning vakolati doirasiga kiradi?

- A) Prokuror
- B) Surishtiruvchi
- D) Surishtiruv organi boshlig‘i
- E) Tergovchi

63. Quyidagilardan qaysi biri prokurorning vakolati doirasiga kirmaydi?

- A) Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida JPKda belgilangan tartibda kelishuv tuzadi
- B) Jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi
- D) Murdani eksqumatsiya qilish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi
- E) Amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida sudga iltimosnomaga rozilik beradi

64. Prokuror surishtiruvchini yoki tergovchini, basharti ular ishning tergov chog‘ida surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan qanday holatda chetlatadi?

- A) Qonun buzilishiga yo‘l qo‘yganda
- B) Jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilganida
- D) Ekspertiza yolg‘on xulosa bergan taqdirda
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri

65. Prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini necha kunlik muddatda ko‘rib chiqish lozim?

- A) 5 ish kuni
- B) 5 sutka
- D) 7 ish kun
- E) 7 sutka

66. Jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar deganda nima tushuniladi ?

- A) real voqelikning o‘zi jinoyatchilik (oqibat)ni vujudga keltira olmaydigan, lekin mavjudligi insonda jinoyat sodir etish niyati tug‘ilishiga turtki berishi

mumkin bo'lgan hodisalar yig'indisi tushuniladi

B) shart-sharoitlar oqibati yaratuvchi sabab tug'ilishi va amalda namoyon bo'lishi uchun imkoniyatdir

D) real voqelikning o'zi jinoyatchilik (oqibat)ni vujudga keltira oladigan, mavjudligi insonda jinoyat sodir etish niyati tug'ilishiga turtki berishi mumkin bo'lgan hodisalar yig'indisi tushuniladi.

E) Bularning barchasi

67. TIF subyektlari orasida huquqiy nigilizmning tarqalganligi tufayli ayrim fuqarolar qonunlarda, jumladan Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lash kabi burchlarini bajarmaydilar. Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishiga sharoit yaratuvchi ushbu omil quyidagilarni qaysi biriga to'g'ri keladi?

A) Huquqiy

B) Iqtisodiy

D) ma'naviy-ahloqiy

E) tashkiliy-boshqaruv

68. TIF sohadagi jinoyatlarni sodir etilishining asosiy sabablari?

A) soliq va bojxona to'lovlariga oid ma'lumotlarning aniq emasligi

B) havolaki hujjatlarning ko'pligi

D) jinoyatchi shaxsining professionallik darajasi va hukukiy nigilizmi

E) barcha javoblar to'g'ri

69. Profilaktikaning qanday turlari mavjud ?

A) umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik

B) umumiy, ommaviy, maxsus, yakka tartibdagi

D) viktimologik, umumiy profilaktik va xususiy profilaktik

E) umumiy, maxsus, yakka tartibdagi

70. Qaysi qonun hujjat bilan tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi?

A) 2016-yil 28-oktabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ-2646-sonli qarori

B) 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoni

D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagi “Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining o‘zaro hamkorligi mexanizmi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 617-sonli qarori

E) 2018-yil 11-aprel kunidagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5409-sonli Farmoni

KAZUSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasi bo‘yicha S.Axmedov jinoiy javobgarlikka tortildi. Jinoyat shoxidi bo‘lgan S.Axmedovning akasi guvoh sifatida so‘roq qilindi. Lekin u ko‘rsatma berishdan bosh tortdi.

Uning ko‘rsatma berishi majburiymi?

2. Tergovga qadar tekshiruv organiga noma’lum shaxs tomonidan yozilgan imzosiz xat kelib tushadi. Mazkur xatda N.Ivanov nomli qo‘shma korxonah rahbari tomonidan bojxona qonunchiligini buzish va boshqa jinoyatlar sodir etilayotganligi bildirilgan. Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi esa mazkur xat asosida jinoyat ishini qo‘zg‘atadi.

Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsning harakatlari to‘g‘rimi?

3. A.Sergeyev O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasi 2-qismi “a” bandiga binoan javobgarlikka tortildi. Lekin tergov davomida uning aybini tasdiqlaydigan dalillar topilmaydi. Natijada A.Sergeevdan tergovchi uning jinoyatni qanday sodir etganligini isbotlashni talab qiladi.

Ayblanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi kerakmi?

4. Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Uchtepa tuman sudi 2021-yilning 24-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasi ikkinchi qismi bilan sudlanuvchi A.Dovudovga nisbatan jinoyat ishini ko‘rib chiqish uchun sud majlisini boshlaydi.

Raislik etuvchi S.Ergashevga sud majlisining tayyorlov qismida sudlanuvchi A.Dovudov ariza bilan murojaat etib unga davlat hisobidan himoyachi taklif etishni so‘raydi. A.Dovudovning arizasi qanoatlantirilib, Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi tomonidan “Ishonch” advokatlik firmasi advokati N.Javdatov himoyachi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etish uchun tayinlandi. Sud tergov davomida himoyachi N.Javdatov bilan sudlanuvchi A.Dovudov o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqib, N.Javdatov himoyachidan voz kechdi.

Shundan so‘ng Raislik etuvchi S.Ergashev sudlanuvchi A.Dovudovning Toshkent Moliya institutini tugatgan akasi R.Dovudov jinoyat ishida himoyachi tariqasida ishtirok etishga ruxsat so‘rab yozgan arizani o‘rganib chiqib, arizani qanoatlantirish to‘g‘risida ajrim chiqardi.

Mazkur ishda himoyachi sifatida ishtirok etayotgan R.Dovudov jinoyat ishi yuritilayotgan tilni bilmasligi, shu sababli tarjimon jalb qilishni so‘rab sudga

iltimosnoma kiritdi. Raislik etuvchi S.Ergashev himoyachi R.Dovudovning iltimosnomasini qanoatlantirib, Toshkent yuridik kollejining 3-bosqich o'quvchisi O.Tillayevni tarjimon sifatida jalb qildi.

Mazkur holatga jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida huquqiy baho bering?

5. O'zbekiston Respublikasi JK 130-moddasining 1-qismi bilan ayblanib, sudga berilgan, voyaga yetmagan A.Axmedovni ishini himoyachining iltimosiga ko'ra yopiq sud majlisida ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Biroq voyaga yetmagan ayblanuvchining ikki akasi va jabrlanuvchining amakisi sud majlisida qatnashish uchun ruxsat so'rab murojaat qilishadi.

Sud qanday qaror qabul qilishi kerak?

Jinoyat protsessida oshkoralik prinsipining mohiyati nimada?

6. Surishtiruvchiga ehtiyot chorasi sifatida "munosib xulq-atvorda bo'lish haqida" tilxat qo'llanilgan gumon qilinuvchi J.Jasurovning surishtiruv organlaridan yashiringani ma'lum bo'ldi. Uning qaerdaligini aniqlash maqsadida oilasi yashayotgan manzilga kelayotgan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish haqida qaror chiqarib, unga prokurordan sanksiya olgan surishtiruvchi qarorni ushbu manzilga xizmat ko'rsatadigan aloqa bo'limi boshlig'iga berdi hamda ayblanuvchining oilasi yashayotgan manzilga keladigan har qanday yozishma haqida unga xabar berishini talab qildi.

Xat kelishi bilanoq surishtiruvchi uni olib qo'yish haqida qaror chiqardi va qarorni aloqa bo'limi xodimlariga e'lon qildi. Ular ishtirokida (ikki xodim xolislar sifatida, bittasi olib qo'yish o'tkazilayotgan muassasa vakili sifatida) xatni olib qo'yish harakatini o'tkazib, bu to'g'risida olib qo'yish bayonnomasini tuzdi. U tergov qilinayotgan jinoyat ishiga aloqador axborot mavjud bo'lgan xatlarni surishtiruv o'tkazilayotgan joyda ko'zdan kechirdi va ko'zdan kechirish bayonnomasini tuzdi.

Surishtiruvchi ushbu xolda ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazishi mumkinmi?

7. Ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan D.Axmedov tez orada yurak xuruji kasalligi bilan og'riydi. Surishtiruvchi Z.Abdullaev esa uning kasalligini tez orada tuzalib ketadi deb o'ylaydi va unga nisbatan surishtiruv ishini vaqtinchalik muddatga to'xtatadi.

Surishtiruvchining harakatlari to'g'rimi?

D.Axmedovni kasal deb hisoblash uchun qanday hujjat bo'lishi kerak?

8. Olingan tezkor ma'lumotlarga asosan Toshkent shahar bojxona boshqarmasi Kontrabandaga qarshi kurashish bo'limi tezkor xodimlari tomonidan fuqaro L.Saparbaevning yashash manzili, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Aviasozlar shaharchasi, Qaychisozlar ko'chasi 10-uy, 112-xonadonda xolislar ishtirokida va xonadonda yashovchi fuqarolar ishtirokida xonadonda tintuv o'tkaziladi. Xonadon egalari xolislarining biri O.Chamanovning ishda ishtirok etishiga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, xolislarining biri (ya'ni ular e'tiroz bildirgan) shu xonadonda bir necha kun avval kelib, o'zini Xudoybergan deb tanishtirib, Toshkent shahriga pul topish uchun kelganligini ma'lum qilgan hamda uy yumushlariga qarashib, "xizmat haqini" olib ketgan shaxs ekanligini ma'lum qildilar. Biroq, tezkor-tergov guruhi xodimlari ularning e'tirozlarini tergov harakati bayonnomasiga kiritmasdan tintuvni davom ettirdilar. O'tkazilgan tintuv jarayonida mazkur xonadon yotoqxonasidagi divan tagidan 1,5 kg miqdorida "marixuanna" giyohvand moddasiga o'xshash ashyolar topiladi va bu haqda xolislar hamda xonadonda yashovchi fuqarolar ishtirokida bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Bu holat sudda ko'rilayotganda xonadon egalarining e'tirozlari ularning uyidagi kuzatuv kamerada yozib olingan videotasma taqdim qilindi.

Xonadon egalari javobgarlikka tortiladimi?

Tintuv tergov xarakatini o'tkazishda protsessual tartibga amal qilinganmi?

9. Toshkent viloyati Qibray tumanidagi xonadonlardan birida yirik miqdorda heroin moddasi bilan bog'liq jinoyatni ochishda 6 yoshli bolani so'roq qilishga, uning ishtirokida tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati o'tkazishga to'g'ri keldi. Bola jinoyatni sodir etishda gumon ostiga olingan shaxslarning foto suratlari orasidan bir shaxsni taniganligini ma'lum qildi. Mazkur shaxs ayblanib, jinoyat ishi sudda ko'rilayotgan vaqtda sudlanuvchining himoyachisi quyidagi so'zlarni bildirdi: "Mening himoyamdagi shaxsni ayblashda tergov organlari tayanayotgan asosiy dalil 6 yashar bolaning ko'rsatuvi bo'lmoqda. E'tibor qiling! 6 yoshli - muomala layoqatiga ega bo'lmagan bola qanday qilib, ko'rsatuv berishi mumkin? Uning ko'rsatuvlari maqbul emas. Dalillarning manbasiga qo'yilgan talablarga javob bermaydi. Hurmatli sud 6 yashar bola ko'rsatuv berish layoqatiga ega emasligi bois u bergan ma'lumotlarni dalillar sirasidan chiqarishingizni so'rayman".

Himoyachining harakatlari to'g'rimi?

Mazkur holatga jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida huquqiy baho bering?

10. Toshkent shahar bojxona boshqarmasi surishtiruvchisi tomonidan fuqaro D.Fozilovning uyi tintuv qilindi. Fuqaro D.Fozilov jinoyat ishi bo'yicha hech

qanday ishtirokchi maqomida bo'lmagan, ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillar fuqaro D.Fozilovning xabardorligisiz uning uyida yashiringan degan versiya mavjud edi. Surishtiruvchi voqea joyiga chiqib, xonadon atrofida uchratgan ikki nafar shaxslarni xolis sifatida ishtirok etishini so'rab, tintuv tergov harakatini o'tkazish uchun fuqaro D.Fozilovning uyiga kelishdi.

Fuqaro D.Fozilov tintuv harakatini o'tkazishga qarshiligi yo'qligini, biroq taklif qilingan xolislar unga yoqmayotganligini, ulardan biri bir necha kun avval avtobusdan joy bermasdan u bilan tortishib qolganligini, ularni uyga kiritmasligini ma'lum qildi.

Surishtiruvchi "Otaxon, tergov harakatini o'tkazishga biz majburlamiz, qonunda xolislarini rad qilish degan huquqingiz yo'q" degan javobni aytib, tergov harakatini o'tkazishga kirishdi.

Surishtiruvchi tintuv o'tkazishga haqlimi?

Fuqaro D.Fozilov xolislarini uyiga kiritmasligi mumkinmi?

11. 15/15-sonli jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi bo'lgan N.Nasriddinovning turmush o'rtog'i viloyat bojxona boshqarmasiga shikoyat qilib, uning eriga nisbatan surishtiruv noqonuniy amalga oshirilayotganligini, surishtiruvchi A.Abduvahobov ulardan ko'p miqdorda pullarni va tilla taqinchoqlarini garov sifatida qabul qilganligini, ushbu qimmatliklar yo'qolish arafasida ekanligini, ularni qaytarib berilishini so'ragan.

Holat yuzasidan xizmat tekshiruvi tayinlanganda, ushbu qimmatliklar surishtiruvchi A.Abduvahobovning xizmat seyfi muhrlangan holatda saqlanganligi ma'lum bo'ldi. A.Abduvahobov ushbu qimmatliklarni o'zlashtirish, almashtirish yoki yo'q qilishga uringanligi fakti o'z tasdig'ini topmadi.

Surishtiruvchi A.Abduvahobovni xarakatida jinoyat alomatlari mavjudmi?

Tilla taqinchoqlar saqlash tartibiga rioya qilinganmi?

12. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudiga kelib tushgan jinoyat ishini sudda ko'rishga tayyorlash chog'ida sud'ya surishtiruvchi tomonidan JPKning talablari buzilganini va ehtiyot chorasi noto'g'ri qo'llanganini aniqladi. Shundan so'ng, u surishtiruvchiga nisbatan hususiy ajrim chiqardi va ishni sudda ko'rishga tayinladi.

Sud'yaning harakatlari to'g'rimi?

13. Bojxona xodimlari tomonidan J.Erkinov boshqaruvidagi "Damas" rusumli avtomashina to'xtatilib ko'zdan kechirilganda, uning salonida 112 kg. aluminiy metall parchalari borligi va uning ko'rsatmasiga ko'ra, fuqaro Q.Olimovning yashash xonadoni o'zining roziligi bilan xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, xonadon hovlisida 3 turdagi 1) 473 kg aluminiy metall

parchalari, 2) 4 dona har xil sig‘imli tayyor qozonlar, 3) 4 turdagi 18 dona qozon ishlab chiqarishda foydalaniladigan anjomlar borligi, shuningdek Q.Vohidov tomonidan ijaraga olib foydalanib kelayotgan hovlidan 3 turdagi tovar moddiy boyliklar: 1) 56 kg aluminiy metall parchalari, 2) 1 dona cho‘yan qozon, 3) 7 dona har xil sig‘imli ishlov berilmagan aluminiy qozonlar borligi aniqlangan.

Ushbu holat yuzasidan yuqoridagi fuqarolardan so‘rab surishtirilganda, yuqoridagi xonadonlarda noqonuniy ravishda qozon mahsulotlari ishlab chiqarayotganliklari aniqlangan.

Mazkur holat yuzasidan qanday tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazish lozim bo‘ladi?

Ushbu holat yuzasidan bojxona xodimlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari amalga oshirilishi mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.

Tadbir ishtirokchilari mazkur aniqlangan tovarni olib qo‘yishga haqlimi?

Noqonuniy ishlab chiqarilayotganligi aniqlangan qozon mahsulotlari bo‘yicha qanday ekspertiza o‘tkazish yuzasidan qaror chiqariladi? Ekspertlar oldiga qanday savollar qo‘yilishi lozim?

14. Fuqaro N.Alieva “Buyum bozori” yonida bir necha notanish shaxsdan 7 ta blokda 56 dona 1 litr sig‘imli polietilen idishlardagi, O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan “IDEALNOE” nomli paxta yog‘larini sotib olib, 2 dona sintetik qoplarga joylab, qayta sotish maqsadida bojxona nazorati o‘rnatilmagan yo‘l orqali noqonuniy ravishda Qirg‘iziston Respublikasiga olib chiqib ketmoqchi bo‘lgan vaqtda chegara qo‘shinlari va bojxona xodimlari tomonidan to‘xtatilgan.

Ushbu holatda jinoyat alomati mavjudmi?

Mazkur holat yuzasidan qanday tergovga qadar tekshiruvlari harakatlari o‘tkazish lozim bo‘ladi?

Aniqlangan mahsulotlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshirishda chegara qo‘shinlari ishtirok etishi shartmi? Nima uchun?

15. Bojxona xodimlari tomonidan boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbir davomida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Sh.Musaev tomonidan avtomobil bozoridan notanish shaxslardan Koreya davlatida ishlab chiqarilgan “Tiko” rusumli, avtomashinani sotib olib, ushbu avtomashinaga tegishli bo‘lgan AASN№0833200-raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasi bilan mazkur avtomashinani boshqarib yurganida to‘xtatilib tekshirilganda, haydovchi Sh.Musaev tomonidan taqdim etilgan, ushbu avtomashinaga tegishli AASN№0833200-raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasi shubha uyg‘otgan va avtomashina tekshirib ko‘rishlik uchun to‘xtatib qo‘yilgan.

Avtotransport vositasi bilan bog'liq ushbu tadbir nimaga bojxona organlari xodimlari ishtirokida yoki tashabbusi bilan o'tkazilmoqda?

Ushbu holat yuzasidan o'tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini sanab bering?

Holat bo'yicha qanaqa turdagi ekspertizalar tayinlanadi?

16. Moskva-Samarqand yo'nalishidagi F78820-sonli aviareys bilan uchib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi T.Odilova uchib kelish zaliga kelib, o'ziga tegishli bo'lgan bagajlarni olib, ixtiyoriy ravishda "yashil" yo'lakni tanlab, bojxona nazorati zonasidan o'tayotganda, unga tegishli bo'lgan bagaj-sumkasi rentgen apparatidan o'tkazilgan va shubha uyg'onganligi sababli bojxona ko'rigidan o'tkazish uchun yuborilgan. Fuqaro T.Odilovanning bojxona nazorati zonasidan o'tish vaqtida undan O'zbekiston Respublikasiga olib kirish me'yorlaridan ortiqcha, maxsus ruxsatnoma talab qilinadigan tovarlar bor-yo'qligi to'g'risida so'ralganda, u yonida yoki bagajida bunday tovarlar yo'qligini ma'lum qilgan. Shundan so'ng, unga tegishli bo'lgan F7245809 raqamli bagaji xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, sumkaning ichida 1 (bir) dona SKY QUEST DRONE nomli uchuvchisiz uchish apparati borligi aniqlangan.

Mazkur holatda qanday jinoyat alomatlari bor va qanday ekspertiza tayinlanadi?

Ekspert xulosasi olingandan so'ng, Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida ko'rsatilgan jinoyat bo'yicha ish qo'zg'atilishi mumkin?

Qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha qanday tergov harakatlari olib boriladi?

Jinoyat ishi yuzasidan ayblov dalolatnomasi tuziladimi, qanday holda, kimlarga nisbatan?

17. Bojxona boshqarmasi Kontrabandaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari hamda Surishtiruv va ma'muriy amaliyot bo'limi bosh inspektor-surishtiruvchisi tomonidan "SMART SHOE" MChJ faoliyati yuzasidan tezkor o'rganish o'tkazilgan. O'rganishlar davomida mazkur MChJ o'z faoliyati davomida tekstil va boshqa tovarlarini import qilganligi, ushbu import qilingan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori asosida 1,5 mlrd. so'm miqdorida bojxona tulovlaridan imtiyoz olganligi aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur MChJning respublika hududida xususiy mulk egaligi, ijara shartnomasi yoki boshqa asoslarda foydalanib kelayotgan ko'chmas mulklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi ma'lum bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu jamiyatning ishchi-xodimlari ro'yxatida ko'rsatilgan fuqarolar MChJda faoliyat olib bormaganliklari va hech qanday oylik

maosh olmaganliklari haqida ko'rsatuv berishgan. Shunga asosan, "SMART SHOE" MChJ tomonidan bojxona to'lovlaridan tayyor poyabzal hamda charm attorlik mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadida bojxona to'lovlaridan bo'yicha berilgan 1,5 mlrd. so'm miqdordagi imtiyozlardan noqonuniy foydalanganligi aniqlangan.

Ushbu holatda qanday jinoyat alomatlari bo'yicha tekshiruv ishlari olib borilishi lozim?

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 184-moddasi bo'yicha ish qo'zg'atilgan taqdirda qanday tergov harakatlari olib boriladi?

Imtiyoz sifatida ko'rsatilgan mablag'larni undirish masalasi qanday hal etiladi? Bu bojxona organining surishtiruv organi sifatida vazifasiga kiradimi?

"Soliq va yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash" jinoyat bo'yicha qanday hollarda bojxona organi tomonidan surishtiruv o'tkaziladi va qanday holda tegishliligiga ko'ra tergovga organiga berib yuborish lozim?

Mazkur holat asosida jinoyat ishi yuzasidan taftish tayinlash lozim bo'ladimi va u qanday tarzda o'tkaziladi, taftish tayinlash to'g'risida qarorda nimalar ko'rsatiladi?

18. Bojxona xodimlari bilan tomonidan Toshkent shahri Chilonzor tumani hududidagi savdo majmuasi yaqiniga kelib to'xtagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi D.Faxrievga tegishli "Lasetti" rusumli hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi S.Jumaevga tegishli "Hundai Porter" rusumli avtotransport vositalarining saloni va yukxonasi belgilangan tartibda xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, xorijda ishlab chiqarilgan, tovarlarga tegishli hech qanday hujjatlari bo'lmagan 3 turdan iborat jami 390 dona pirotexnika buyumlari borligi aniqlangan.

Mazkur holatda bojxona organlari pirotexnika mahsulotlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv ishlari olib borishga haqlimi?

"Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi" jinoyati bilan ish qo'zg'atilgan taqdirda tergov bojxona organlariga tegishli bo'ladimi? Ushbu jinoyat bo'yicha qanday tergov harakatlarini o'tkazish lozim?

Ushbu holatda jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv harakatlari yakunlangandan so'ng, olib qo'yilgan ashyoviy dalilning taqdiri nima bo'ladi? Javobingizni asoslab bering.

Qanday hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilishi mumkin? Jinoyat ishini rad etilgan taqdirda ham biron javobgarlik turi mavjudmi?

19. 2021-yil 10-oktabr kuni soat 11-50 larda Rossiya davlatidan Qozog'iston Respublikasi orqali O'zbekiston Respublikasi hududiga o'tish uchun "Sirdaryo" chegara bojxona postiga harakatlanib kelgan "Mercedes Bens" rusumli, davlat

belgisi 01149OFA, tirkama raqami 018311AA bo‘lgan yuk avtotransport vositasi belgilangan tartibda bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganda, yuk avtotransport vositasining yon yuk bo‘lmasida yo‘l-yuk hujjatlarida va yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasida ko‘rsatilmagan hamda yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasida ko‘rsatilganidan ortiqcha bo‘lgan xorijda ishlab chiqarilgan umumiy qiymati 93 000 000 so‘m bo‘lgan 10 turdagi 14.840 dona tibbiyot dori vositalari va test sinalmalari, 74 turdagi 527 dona “MERY KEY” firmasiga tegishli parfyumeriya mahsulotlari va anjomlari, 2 dona “NESPRESSO ESSENZA MINI” nomli elektr kofe pishirgich, 8 dona yelim idishda “A188” markali rangli printer katridji suyuqligi, 8 dona yelim idishda “MV175” markali rangli printer katridji suyuqligi, 12 dona idishda “CENTOPLEX GLP-500” nomli rangli printer uchun surtmalar borligi aniqlanib, ashyoviy dalil sifatida olingan.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Ushbu holat bo‘yicha qaysi turdagi tergov harakatlarini o‘tkazish lozim?

20. 2021-yil 21-oktabr kuni soat 00:20da boshqarmaning Kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona auditi bo‘limi xodimlari tomonidan, DXX 9252-harbiy qism tezkor xodimlari hamda “Sirdaryo” chegara bojxona posti xodimlari bilan hamkorlikda, oldindan olingan tezkor ma’lumotlarga asosan “Sirdaryo” chegara bojxona posti orqali Qozog‘iston Respublikasidan O‘zbekiston Respublikasiga o‘tish uchun “Kamaz” rusumli, davlat raqami 20T633DA, tirkama raqami 201272AA bo‘lgan yuk avtotransport vositasini boshqarib kirib kelgan O‘zbekiston fuqarosi T.Abdullaev bilan og‘zaki savol-javob qilinganidan so‘ng unga tegishli bo‘lgan yuk avtotransport vositasi belgilangan tartibda xolislar ishtirokida ko‘zdan kechirilganda avtotransport vositasi salon qismida bo‘lgan sport sumkasi ichida umumiy qiymati 340 000 000 so‘m bo‘lgan tasdiqlovchi hujjatlari va ruxsatnomasi bo‘lmagan 8 bosh (shundan 2 bosh “sapsan” va 6 bosh “baloban” lochin turiga mansub) Lochin qushlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktabrdagi “Biologik Resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi 290-sonli qarori talablarini buzgan holda olib kirayotganligi aniqlanib, ashyoviy dalil sifatida olingan.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Ushbu holat bo‘yicha qaysi tergov harakatlari o‘tkaziladi?

21. Fuqaro E.Chinniev yaqin do‘sti Yu.Farxodovning iltimosiga ko‘ra bir necha qop va qutilarni uyida saqlab turar, uning ichida nima borligi bilan hatto qiziqib ham ko‘rmasdi. Buning evaziga u do‘stidan tez-tez sovg‘alar olib turardi.

Yu.Farxodov qo‘lga olingach, u bu qop va qutilarda katta miqdorda narkotik va psixotrop moddalarni saqlab kelganligi ma’lum bo‘ldi.

Ushbu xolat bo‘yicha kim javobgarlikka tortiladi?

Isbotlashda qaysi tergov harakatlari o‘tkaziladi?

22. A.Soliyev va V.Boliyevlar chet elda ishlab chiqarilgan kiyim-kechaklarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish maksadida oldindan til biriktirib, bir oy davomida uch marotaba bojxona chegarasidan jami ko‘p miqdordagi tovarlarni olib o‘tishgan. So‘ngra qo‘lga tushib qolishdan xavfsirab, o‘zlarining ushbu faoliyatlarini to‘xtatishgan. Surishtiruv organlari tomonidan ularning yuqorida sodir etgan qilmishlari aniqlanib, ularga nisbatan Jinoyat kodeksining 182-moddasi ikkinchi qismining «v» bandi bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Lekin A.Soliyev va V.Boliyevlarning himoyachisi uning himoyasidagi shaxslar asossiz ravishda javobgarlikka tortilayotganligini bildirib, prokuror nomiga shikoyat yozgan.

Yuqoridagi shaxslar va surishtiruv organlarining harakatlariga huquqiy baho bering.

23. Fuqaro Q.Ziyodov O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayblangan. Jinoyat ishini tergov qilishni tugallagan tergovchi jinoyat ishi materiallarini, aybdor o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi va ijtimoiy xavflililigini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi taklif bilan birga tuman prokuroriga taqdim qilgan.

Prokuror esa ushbu taklifni rad etib, ayblanuvchi ilgari ham shunga o‘xshash jinoyati uchun sudlanganligini ko‘rsatgan. Sudlanganlik muddati tugallangan bo‘lsada, ushbu holat Q.Ziyodovni ijtimoiy xavflililigini yo‘qotmaganligidan dalolat berishini ko‘rsatgan.

Bu o‘rinda prokuror haklimi?

24. 2021-yil 11-mart kuni soat 04-30 da “Toshkent-Aero” IBKning “Toshkent xalqaro aeroporti” chegara bojxona posti inspektori tomonidan “Toshkent” xalqaro aeroportining umumiy uchib kelish zalidagi “qizil” yo‘lak orqali harakatlanib, “Deli-Toshkent” yo‘nalishi bo‘yicha 426-reys bilan uchib kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi S.Jumaevning bagaji bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganda, uning ichida bojxona deklaratsiyasida ko‘rsatilmagan va bojxona xodimining og‘zaki so‘rovida aytilmagan, shaxs yonidan 21 gramm oq kukunsimon modda borligi aniqlandi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Mazkur holatda ekspertiza o'tkazish asoslari va ekspert oldiga qo'yiladigan savollarni shakllantiring.

25. Fuqaro J.Ikromov 2021-yil 01-mart kuni soat 16-30 larda "Madaniyat" chegara bojxona posti orqali Qirg'iziston Respublikasidan O'zbekiston Respublikasiga kirib kelib, yonida bo'lgan "Samsung Galaxy Note 3" nomli telefon xotirasida diniy aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi materialni qonunga xilof ravishda olib o'tayotganligi aniqlangan.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Mazkur holat bo'yicha qanaqa turdagi ekspertiza tayinlanadi va ekspertga beriladigan savollarni shakllantiring?

26. 2021-yil 25-aprel kuni soat 07-50da Qoraqalpog'iston Respublikasi bojxona boshqarmasi "Karakalpakiya" temir yo'l chegara bojxona posti inspektori tomonidan "Karakalpakstan" temir yo'l stansiyasida 648-sonli "Beyneu-Nukus" yo'lovchi poezdining 21-sonli vagoni bojxona ko'rigidan o'tkazilganida, unda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi I.Isomov 1 dona "Samsung J5" uyali telefon xotirasida shafqatsizlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi 2 dona va pornografik mazmundagi 40 dona videofayllarni noqonuniy ravishda Qozog'iston Respublikasidan O'zbekiston Respublikasiga olib kelayotganligi aniqlandi. Lekin, mazkur fuqaroni bu harakatidan kelib chiqib shaxsiy tintuv o'tkazish zarurati yuzaga keldi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Shaxsga nisbatan tintuv o'tkazish taktik qoidalarini bayon qiling.

27. 2021-yil 15-noyabr kuni soat 14-15da Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi "Oybek" chegara bojxona posti inspektori tomonidan, kichik inspektor-kinologning "Kasta" laqabli xizmat iti yordamida, Tojikistondan O'zbekistonga o'tish uchun "Oybek" chegara bojxona postiga Tojikiston fuqarosi O.Naimov boshqaruvida kirib kelgan "Toyota Camry 2.4" rusumli avtotransport vositasi ko'zdan kechirilganida, uning salonidagi orqa yo'lovchi o'rindiqlari o'rtasida joylashgan bar ichida, oq selofanga o'ralgan, o'tkir hidli, to'q jigar rang, (Toshkent viloyati, Bekobod tumani IIB EKGning 127-sonli xulosasiga asosan) sof vazni 0,37 gr. "gashish" giyohvandlik vositasini Tojikistondan O'zbekistonga olib o'tayotganligi aniqlanib, ashyoviy dalil sifatida olindi.

Shuningdek, fuqaro O.Naimov boshqaruvidagi "Toyota Camry 2.4" rusumli avtotransport vositasi jinoyat quroli sifatida vaqtinchalik saqlovga olindi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Bojxona inspektori harakatlariga yuridik baho bering va bojxona xodimlari transport vositasini ushlab turishga haqlimi?

28. 2021-yil 30-noyabr kuni soat 11-20 da «Toshkent-Aero» IBK «Toshkent xalqaro aeroporti» chegara bojxona posti inspektori tomonidan quyidagi holat aniqlandi: «Nyu York-Toshkent» yo‘nalishi bo‘yicha 102-sonli reys bilan uchib kelgan, «Toshkent» xalqaro aeroportining SIP uchib kelish zalidagi «yashil» yo‘lak orqali harakatlangan, O‘zbekiston fuqarosi U.Raupovning bagaji bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganda, ichida bojxona nazoratiga taqdim etilmagan va bojxona xodimining og‘zaki so‘rovida aytilmagan jami 1 dona o‘q-otar quroli patroni (*tag qismida “05” va “67” yozuvli*) borligi aniqlandi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Ushbu holat bo‘yicha qanaqa turdagi ekspertiza tayinlanadi va ekspertlar oldiga qanaqa savollar qo‘yiladi?

29. 2021-yil 20-sentabr kuni soat 14-00da, Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi “Navoiy” chegara bojxona posti xodimlari tomonidan Qozog‘istondan O‘zbekistonga o‘tish uchun “Navoiy” chegara bojxona postiga kirib kelgan O‘zbekiston fuqarosi D.Toshmatov boshqaruvidagi davlat raqami 01R170HB bo‘lgan “Gazel” rusumli avtotransport vositasi bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganida, o‘rindiqlik orqasiga yashirib qo‘yilgan, og‘zaki so‘rovda aytilmagan hamda yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasida yozib ko‘satilmagan umumiy qiymati 188 000 000 so‘mlik jami 48 dona uyali aloqa vositalari borligi aniqlandi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Ushbu holat bo‘yicha qaysi turdagi ekspertizalar tayinlanadi.

30. 2021-yil 28-sentabr kuni soat 17-00da, Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi “Navoiy” chegara bojxona posti xodimlari tomonidan Qozog‘istondan O‘zbekistonga o‘tish uchun “Navoiy” chegara bojxona postiga kirib kelgan O‘zbekiston fuqarosi D.Tillaev boshqaruvidagi davlat raqami 01Z533TA bo‘lgan “GAZ 3302244” rusumli avtotransport vositasi bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganida, o‘rindiqlik orqa tomonidan qora paketlarga o‘rab yashirilgan umumiy qiymati 91 980 000 so‘mlik jami 9900 quti “Parlament” nomli sigaretlarni Qozog‘istondan O‘zbekistonga olib o‘tayotganligi aniqlandi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Ushbu holat bo‘yicha qaysi tergov harakatlari amalga oshiriladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, <https://www.lex.uz/acts/20596>
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/2876354>
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, <https://lex.uz/docs/97664#1423196>
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/111453>
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/111460>
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, <https://lex.uz/docs/4674902>
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/docs/111189>
- 1.8. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>
- 1.9. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi 77-II-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/docs/67345>
- 1.10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-654-sonli Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/5174753>
- 1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3107036>
- 1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/5841063>
- 1.13. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/acts/2006789>

1.14. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentyabrdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-336-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/2055680>

1.15. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 22-maydagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-385-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/acts/2650293>

1.16. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi 678-I-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/24377>

1.17. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktyabrdagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/docs/4562834>

1.18. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida”gi 213-II sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/79981>

1.19. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagi “Qurol to‘g‘risida”gi O‘RQ-550-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4445288>

1.20. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi 120-II-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/26166>

1.21. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/107115>

1.22. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-1-sonli Qonuni, <https://lex.uz/acts/86044>

1.23. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"gi 167-II-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/29526>

1.24. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘RQ-419 sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/3088008>

1.25. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustdagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘RQ-633 sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4953314>

1.26. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/2387357>

1.27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlash va eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5286-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/3460651>

1.28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3680568>

1.29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-oktyabrdagi “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5564-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/4030912>.

1.30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5582-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4076899>

1.31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyun “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5755-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4396717>

1.32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>

1.33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentyabrda “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi 6310-son Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/5627593?otherlang>

1.34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4609-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/2368307>

1.35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5 oktyabdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3039311>

1.36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5409-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3676955>

1.37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4149765>

1.38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6044-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4966394>

1.39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4751561>

1.40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son Qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>

1.41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma‘muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4297-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4302716>

1.42. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2646-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3063485>

1.43. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4754-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4859436>

1.44. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3141186>

1.45. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-yanvardagi “Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutani O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqib ketish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 66-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3540203>

1.46. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”gi 131-son karori, <https://www.lex.uz/docs/279299>

1.47. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi 818-son qarori, <https://lex.uz/docs/4532164>

1.48. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydagi “Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 213-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/299185>

1.49. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston respublikasi hududi orqali olib kirish, undan olib chiqishva tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2815340>

1.50. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2322985>

1.51. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagi “Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining o‘zaro hamkorligi mexanizmi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 617-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3851085>

1.52. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi "Vakolatli iqtisodiy operator institutini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 363-son Qarori, <https://lex.uz/docs/4315278>

1.53. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-sonli Qarori, <https://lex.uz/pdfs/4966537>

1.54. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasida “Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 394-sonli Qarori, <https://lex.uz/ru/docs/4864136>

1.55. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagi “Bojxona auditini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 101-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/5313465>

1.56. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida 472-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4940273>

1.57. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktyabrdagi “Sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashni va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 782-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3924353>

1.58. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 8-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2212245>

1.59. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 11-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/1443984>.

1.60. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 18-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/2259789>

1.61. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 12-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/3203265>

1.62. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/1441585>

1.63. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 1-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/1766419>

1.64. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi “Sudlar tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 35-sonli qarori, <https://www.lex.uz/docs/4116801>

1.65. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati (*hozirda* – Davlat xavfsizlik xizmati), Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Mudofaa vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan bu boradagi faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 28-oktyabrdagi 01-02/22-45-son qo‘shma ko‘rsatmasi

1.66. “Hodisa sodir bo‘lgan joy holatini o‘zgartirish, dalillarni yo‘qotish yoki yo‘q qilishning oldini olishga qaratilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni ko‘rish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 1-martdagi idoralararo Qaror

1.67. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat bojxona qo‘mitasining “Surishtiruv va dastlabki tergov organlarida tergov faoliyatiga doir hisobotning shakli hamda yuritilishini takomillashtirish haqida” 2017-yil 18-dekabrda 01-02/22-49-son buyrug‘i

1.68. DBQning “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi Yo‘riqnoma

1.69. DBQning “Aniqlangan huquqbuzarliklarni qayd etish (Shakl-2)” kitobini yuritish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 14-martdagi 80-son bo‘yug‘i

1.70. DBQning “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi “Jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini tizimli tahlil qilish va o‘rganishda idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21 martdagi 5-qq, 4, 21, 3361/2-son qo‘shma qarorini” ta‘minlash bo‘yicha 95-son buyrug‘i

1.71. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2019-yil 31-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Uslubiy qo‘llanmani amaliyotga joriy etish haqidagi 329-sonli buyrug‘i

1.72. DBQning 2009-yil 13-iyundagi “Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga kiritish to‘g‘risidagi 155-son buyrug‘i

1.73. DBQning 2010-yil 30-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi DBQ tizimida davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, saqlash, sotish va yo‘q qilib tashlash haqidagi vaqtinchalik uslubiy qo‘llanmani joriy etish to‘g‘risida”gi 128-xfu son buyrug‘i

1.74. DBQning 2015-yil 3-martdagi “Bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha tuziladigan protsessual hujjatlar shakllarini tasdiqlash namunalari to‘g‘risidagi” 45-son buyrug‘i

1.75. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona tekshiruvlari va surishtiruv boshqarmasi. “Bojxona organlarida o‘z vakolatlari doirasida (TIF sohasida) ko‘rib chiqiladigan ma‘muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar bo‘yicha rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar namunalari”. Uslubiy qo‘llanma-maket. Toshkent-2015-y

1.76. Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

1.77. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". - Toshkent: "O'zbekiston"-116 bet

II. Monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, dissertatsiya, ilmiy maqola va to'plamlar

2.1. Achilov A.T. va boshqalar. Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati //Darslik.1-qism. -T.:2021.- B.83, 133

2.2. Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish // Monografiya - Toshkent: BI, 2020-y

2.3. Achilov A.T., Astanov I., Do'stov M. "Bojxona organlarida kriminalistika". O'quv qo'llanma. - Toshkent: Bojxona instituti, 2020-y

2.4. Achilov A.T., Ismoilov I.H., "Bojxona qonun hujjatlarni buzganlik jinoyati bo'yicha qo'llaniladigan jinoiy jazo choralarining o'ziga xos xususiyatlari". O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent: OHBI, 2018

2.5. Achilov A.T., Sheraliyev B.Yu., "Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo'yicha bojxona tekshiruvlarini o'tkazish uslubiyati". O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent: 2015

2.6. Achilov A.T., Ismoilov I.H., "Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari". O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: OHBI, 2017

2.7. Achilov A.T. "Kontrabanda va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari bo'yicha ekspertiza tayinlash uslubiyati". O'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent: OHBI, 2017-y

2.8. Axlimirzayev A., Shomirzayev S. Bojxona organlarida jinoyatlar yuzasidan surishtiruv o'tkazish tartibi // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Bojxona instituti, 2020-y

2.9. "Kontrabanda holatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini o'tkazish va protsessual rasmiylashtirish" O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2015

2.10. Nurmatov M., Eshnazarov L. "Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini o'tkazish hamda protsessual hujjatlar rasmiylashtirish". O'quv-uslubiy qo'llanma. T:2015-y

2.11. Alimbayev S.A., Turopov R.A., Imomaliyev I.N., Abduqaimov R.A. “Kontrabanda jinoyati to‘g‘risidagi ishlarni yuritish uslubiyati”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2005-y

2.12. Imomaliyev I.N. “Bojxona sohasiga doir jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazishning xususiyatlari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2006-y

2.13. Shomirzayev S. Kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashning ahamiyati // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Bojxona instituti, 2020-y

2.14. Shomirzayev S. Korrupsiya: tavsifi, turlari, mintaqalararo tahlil, uning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish choralari // Risola. – Toshkent: Bojxona instituti, 2018-y

2.15. Bojxona ishi asoslari. / S.Abduxalilov rahbarligidagi mualliflar hay‘ati // O‘quv qo‘llanma. 1 va 2-qismlar - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017-y

2.16. Rustamboyev M.H., Axrarov B.D. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDYUI nashriyoti, 2007

2.17. Rustamboyev M.X.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh.– Toshkent: Adolat, 2016

2.18. Kabulov R., Otajonov A. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar: O‘quv qo‘llanma/. – Toshkent-2013

2.19. Jinoyat-protsessual huquqi” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. G.Z.To‘laganova, Sh.Fayziyev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2014

2.20. Kabulov R., Otajonov A. va boshq. Jinoyat huquqi. Maxsus qism: Darslik/ IIV Akademiyasi.– Toshkent-2014

2.21. Лукин В.М. Уголовно-протсесуальная деятельность органов дознания: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – СПб.: Санкт-Петербургский университет МВД России, 2003

2.22. O‘zbekiston Yuridik ensiklopediyasi T:Adolat, 2011

2.23. Abdurasulova K.P. Kriminologiya. Mas‘ul muxarrir: M.X.,Rustambayev / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: “Adolat”, 2007

2.24. Jinoyat protsessi. (Umumiy qism) Darslik, prof. Z.G‘.Inog‘omjonova.– T.: Adolat, 2007

2.25. Kriminologiya: Darslik / 3.S.Zaripov, A.S.Yakubov, G.A.Avanesov va boshqalar; prof. Z.S.Zaripov tahriri ostida. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006

2.26. Jinoyat protsessual huquqi. - Mualliflar jamoasi. Darslik. IIV Akademiyasi.- 2019

- 2.27. Toshkent shahar prokuraturasi ma'sul muharrirligida M.G.Esanov, M.A.Mirzayev. Prokuror nazorati hujjatlari. Toshkent-2010-y
- 2.28. Verner Boylke "Germaniya Federativ Respublikasining jinoyat protsessual huquqi". Darslik. 12-nashr.- Toshkent, TDYUU, 2017
- 2.29. Mark E, Cammack, Norman M. Garland. Advanced criminal procedure. Second edition. Thomson/ West. USA, 2006
- 2.30. Жбанков В.А, Савлук А.О. Правоохранительная деятельность таможенных органов Российской Федерации. Курс лекций. М.: РИО РТА, 2004
- 2.31. Иванова С.Ю. Уголовно-правовая охрана деятельности таможенных органов России. Ульяновск, 1999
- 2.32. Ларичев В.Д., Гилмутдинова Н.С. Таможенные преступления: Уклонение от уплаты таможенных платежей. М., 2001
- 2.33. Малиновская В.М. Таможенное право России: учебник по публичному и частному праву: в 2 т. Москва, 2008. Т. 1: Публичное право
- 2.34. Шейфер С.А. Следственные действия. Система и процессуальная форма. М.: 2001
- 2.35. Cliff Roberson, Frank G.DiMarino. American criminal courts. USA. Wasburn University. 2012-y
- 2.36. Сучков Ю.И. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Российской Федерации. Москва, 2007
- 2.37. Сучков Ю.И. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Российской Федерации. 2-е изд., перераб. и доп. Москва, 2007
- 2.38. Туленев А.И. Таможенные преступления и современное состояние использования специальных знаний при их расследовании // Современные научные исследования и инновации. 2012. № 11. С. 2
- 2.39. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul: R.A.Muhitdinov va boshqalar / Mas'ul muharrir: N.Toychiyev – Toshkent: Adolat, 2009
- 2.40. Franzoni Luigi Alberto - Tax Evasion and Tax Compliance, University of Bologna (6020), Italy, 1999
- 2.41. James Alm. Measuring, Explaining, and Controlling Tax Evasion: Lessons from Theory, Experiments, and Field Studies // Working Paper 1213. July 2012
- 2.42. Lisa Marriott "Tax crime and punishment in new Zealand" // Paper prepared for the Australasian Tax Teachers' Association Conference, Sydney, 16-18 January 2012

2.43. Абдуқодиров Ш.Ё. Қонунга хилоф тадбиркорликка қарши курашнинг жиноят- ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. Юрид. номз. ... дисс. - Тошкент: ТДЮИ, 2007. - Б. 124

2.44. Гордиенков А.Д., Козыкин А.Ф. Теория и практика доказывания по делам об уклонении от уплаты таможенных платежей (в стадии предварительного расследования). Монография. – М.: РИО РТА, 2003. –462с

2.45. Краснов А.Д. Противодействие таможенным преступлениям (теоретико-прикладной анализ): дис. ... канд. юрид. наук. Нижний Новгород, 2011. С. 26, 64

2.46. Маҳкамов О.М. Солиқ ёки бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: Докторлик диссертацияси. – Тошкент. 2015 й

2.47. Постнова Д.А. Развитие теоретико-правовых и организационных основ международного сотрудничества таможенных органов Российской Федерации при выявлении и расследовании таможенных преступлений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2006. С. 14

2.48. Султанова Б.А. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика преступлений в таможенной сфере: дис.... канд. юрид. наук. Москва, 2000.С. 44, 45

III. Internet saytlari

3.1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

3.2. www.customs.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti

3.3. <https://www.minjust.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-sayti

3.4. <https://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘ZA) veb-sayti

3.5. <https://news.un.org/ru/> – Birlashgan millatlar tashkilotining rasmiy veb-sayti

3.4. <https://www.gazeta.uz/uz> – “Gazeta.uz” tahririyati veb-sayti

3.6. <http://www.lawcanal.ru> – Канал юристы (юридический портал)

3.7. <https://www.revenue.ie> – Irlandiya soliq va bojxona qo‘mitasi rasmiy veb-sayti

3.8. www.iras.gov.sg – Singapur Hukumat Agentligi veb-sayti

A.Achilov, A.Axlimirzayev, S.Shomirzayev, H.Ismoilov,
Sh.Mamatov, U.Dadaboyev

BOJXONA ORGANLARINING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATI

DARSLIK
(II-qism)

Bojxona institutining bosmaxonasida chop etildi.
Manzil:Toshkent sh. Qozirobod 2-tor ko'chasi, 118-uy.